2024-yil. 8-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

“So‘nggi qo‘ng‘iroq” hayajoni



25-may - respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «So‘nggi qo‘ng‘iroq» sadolari ostida yetuklik shahodatnomalarini olgan bitiruvchilar yorug‘ istiqbolga odim qo‘ydilar.

2024-YIL 8-SON

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Maksuda Badalova. Ta'lim klasterining asosiy xususiyatlari.....3
Aziza Mamatova. Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini innovatsion usullar vositasida rivojlantirish.....6
Qahramon Ismoilov. Yaponiya oliygohlari o'tmishi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati.....9

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Nurjan Abduvalitov. Adabiy ta'lim jarayonida qiyosiy tahlil metodidan foydalanish.....11
Gulbaxar Tavaldiyeva. O'zbek tili darslarida ixtisoslik matnlari bilan ishlash amaliyoti.....14
Nargiza Xidoyatova. Yuqori sinf o'quvchilarida shaxsiy mobillikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....18
Mohro'y Muxtoriy. Boshlang'ich ta'limda STEM texnologiyasi asosida o'quvchilar nutqini o'stirishning yo'llari.....21
Mahmuda Tadjibayeva, A.X. Boboyev, Maftunaxon To'lqinova. Masofaviy ta'lim afzalliklari.....23
Sabohat Urazboyeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari.....26
Go'zalxon Yoqubjonova. Integratsion ta`lim muhitida boshlang'ich sinf o'qish darslari metodikasini takomillashtirish.....28
Saxob Karimov. Musiqa darslarini xalqimiz o'tmish tarixi bilan o'zaro bog'liqlikda tashkil etish yo'llari va mexanizmlari.....30
Nilufar Xudoyberdiyeva. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qituvchilikka tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarning dolzarbligi.....32
Lobar Mamatkulova. Aqli zaif o'quvchilardagi tizimli nutq buzilishlarida olib boriladigan logopedik ish.....34
Мохинахон Журазода. Универсальные учебные действия: современный подход к развитию познавательных способностей учащихся.....36
Diana Ruzmetova. Grammar instruction through gamification and digital technologies.....39
Elyor Imomov. Modern trends in the study of professional speech and professional vocabulary.....41
Nafisa Kobilova. The implementing of imitation technique in teaching english pronunciation.....43
Said-Fozilxon Akmalxonov. Encouraging students engagement in learning english grammar through digital technologies 46
Firuza Turopova. Communicative competence and its function to teach the students according to the speaking and listening skills.....49
Go'zal To'rayeva. Theoretical issues of improving the communication skills of higher education students using cultural and pragmatic aspects based on innovative technologies and interactive methods.....50
Sevara Davronova. E-tandem: innovative method for enhancing students writing skills.....52

Tilshunoslik

Zebo Abduqodirova. Zamonaviy terminologiyaning dolzarb masalalari.55
Гульмира Мамаджанова,

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Ilmiy-metodik elektron jurnal

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
https: //oak.uz/pages/4802

Рафик Джагаспанян. Фреймы и концепты в лингвистике: взаимодействие и влияние на когнитивные процессы.....57
Madina Xolmurodova. Turli tizimli tillarda fonetik sath tadqiqi.....60
Kamolaxon Oripova. "O'xshatish" qo'llanilgan badiiy matnlarda antonimlarning lingvokulturologik tahlili.....63
Gulabza Daminova. Tilshunoslikda konseptning tavsiflash usullari va uning strukturasi.....65
Dilshodjon Tirkashev. Metonymy as an image-bearing device in fiction.....66
Mukhabbat Yusupova, Fazilat Jumanova. The importance of l1 in learning language through translanguaging.....68
Mekhriban Alimbetova. Strategies for building lexical competence.....70
Muqaddas Jo'rayeva. Word-formation as an object and subject of study.....72
Ziyodbek Juraev. General investigation of numerative phraseological units in english.....74

Adabiyotshunoslik

Shahlo Hojiyeva. Cho'lpon ijodiga Thakurning ta'siri.....77
Gulchehra Keldiyorova. She'riyatda allyuziv birliklarning qo'llanilishi.....79
Rayhonoy Saidova, Mohinur Ahmadova. Hazil she'rlarning poetik ifoda usullari.....81
Ra'no Hakimjonova. Cho'lpon va Shavkat Rahmon ijodida ijtimoiy motivlar.....83
Hafiza Aslanova. Alisher Navoiy ijodi va hikoyat janri.....86
Anvar Yokubov. The Diachronic and Synchronic Approachs to Studying Polysemy.....88
Nargiza Yuldashova. The basic notions of cognitive linguistics.....89
Arofat Ne'matova. Cross-cultural analysis of the concept "moon".....91

Tadqiqot

Yulduz Abdulhakimova. Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy "Layli va Majnun" dostonlarining kompozitsion xususiyatlari.....95
Nilufar Namazova. Farg'onadagi ilk milliy gazeta – "Sadoyi farg'ona" gazetasi.....98
Inamjan Madiyarov. Tez aytish – bolalar o'yin folklori janri sifatida.....99
Nafosat Oromova. Adabiy ta'limda badiiy asar tilini o'rganish.....102
Feruz Rajabov. Poetik omonimlar va ularning lingvopoetik xususiyatlari.....105
Saodat Muminova. Abdulla Oripovning tabiat hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....107
Yoqutxon Erkaboyeva. Gonzo jurnalistikasining shakllanishida "yangi jurnalistika"ning o'rni.....109
Shoxida Sadullayeva. Diplomatik diskurs va uning xususiyatlari.....112
Ma'rufxon Komilov. Past chastotali infratovush to'lqinlaridan qurol sifatida foydalanish.....116
Guli Shukurova, Joziba Idrisxonova. Hayot bilan hamnafas publitsistika.....119
Yulduz Eshmatova. Ijodkor konsepsiyasida – ayol obrazi.....121
Anorxon Mamatova. Milliy- madaniy so'zlar aks etgan lug'atlarni tuzish mezonlari.....122
Nigora Jo'ranazarova. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida metafora va metonimiya hodisasi.....126
Elnoza Qudratov, Qaxramon Boboqulov. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'zbek mumtoz musiqasi bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari.128
Umidjon Axmedov. Matn yaratilishini diskursiv faoliyatining bir turi sifatida talqin qilish ushbu hodisaning dinamik xususiyatlari.....130
Sohila Aminova. Xalq og'zaki ijodi (epos) da qahramonlik konsepsiyasining ifodalanishi.....132
Sohiba Arzikulova. Cho'lponning kichik nasriy asarlarida millat taqdirining aks ettirilishi.....134
Ruqiya Xusanova. G'arb badiiy ijodida mif.....136
Nargiza Nematova. Oliy ta'lim muassasalarida rus tili fanining o'qitish holati va zaruriyati.....138
Dilorom Adilova. O'zbek va rus tillaridagi she'riy matnlarda "ayol" shaxsiy fazilatlarini ifodalovchi so'zlarning semantik maydoni tasviri.....140
Durdona Ubaydullayeva, Farangiz Abduvaliyeva. International standards of foreign language proficiency.....142
Диана Абдураманова. Использование понятие «magic» в произведениях ДЖ. Роулинг.....144
Агата Осипова. Экзистенциальный поиск героя в романе В. Пелевина «Непобедимое солнце».....148
Бахром Юлдашев, Ноиба Юлдашева. Интернет в художественной литературе: отражение современной реальности.....150
Hasan Omonov, Nurbek Tojiqulov. Jahon kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan asarlarining o'ziga xosligi.....152
Малика Темирова. Уникальность языковой личности в коммуникативном пространстве.....154
Елена Уфимцева. Особенности языковых средств выражения экспрессивности в русских лирических песнях.....157
Анвар Мухитдинов, Шахноза Саминжонова. Когнитивные единицы языка как объект исследования в современном медиапространстве.....161
Хилола Узакова. Выражение концепта «преданность» посредством символов.....164
Зулфия Сафарова. Современные изменения

словарного состава русского языка.....167
Мукаррам Комилова. Сравнительное изучение инвестиционных и кредитных терминов на русском и узбекском языках.....169
Shahnoza Xodjayeva. Ispan tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish.....171
Сарвинисо Санакулова. Дифференцированное обучение и способы его реализации.....173
Tursuntosh Isroilova. Translating cultural identities: exploring how translation captures and preserves cultural identities through language.....176
Xilola Ernazarova. Kirish va kiritmalarning matndagi o'rni.....178
Zarnigor Ubaydullayeva. Hissiyotlar ifodalanishida psixofiziologiya va etnik xoslanish.....180
Bobur Ismoilov. Balog'at ilmi rivojida «Miftohu-l-ulum» asarining o'rni.....183
Dildora Salimova. Yosh bolalarda so'z o'zlashtirish tadqiqi.....185

Kichik tadqiqot

Zulxumor Ashurova. Mustaqillik davri o'zbek bolalar she'riyatida Olqor Damin she'riyatining o'ziga xosligi.....187
Uktam Shukurov. Matnni tushunishning kognitiv nazariyasi.....189
Sherzodbek Pazliddinov. Muhammad Yusuf ijodida milliy xarakter.....191
Fazilat Eshboyeva. Pragmalingvistikaning shakllanish tarixi.....193
Umar Choriyev. Cho`lpon she`riyatining o`ziga xos jihatlari sharhi.....194
Navbahor Kamolova. Xalq dostonlarida til vositalaridan foydalanish.....196
Gulnoza Shodiyeva. Konsept – tilning asosiy birligi sifatida.....198
Xasan Gafforov. O'zbekistonda ayollar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.....199
Gulnigor Sharopova. Bolaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida kitobxonlikning ahamiyati.....201
Ruxsora Raximova. Didaktik o'yinlarning etnogenezisi xususida.....204
Dilfuza Jumaboyeva. Muhammad Rizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" devonidagi antroponimik birliklar tadqiqi.....205
Davlatjon Toshtemirov. Jomiy va Navoiy ijodida so'z va shoirlik haqidagi qarashlar.....208
Islombek Aralov. Qamashi shevasida umumturkiy qatlam.....211
Gulira'no Rashidova. "O'tkan kunlar" romanidagi "to'n" leksemasining lingvokulturemalari.....213
Majnuniso Kamolova. Tasavvufiy tushuncha, tamoyillarning mumtoz adabiyotdagi ma'rifiy poetikasi.....215
Maftunaxon Saparova. Mahmud Zamaxshariyning «Al-qistas fi ilmi-l-arud» va Ahmad Taroziyning «Fununu-l-balog'a» asarlarida mafoiylun asliy ruknining yoritilishi.....217
Saida'loxon Buzrukxonov. Alisher Navoiy asarlarida tarbiya jarayoni mohiyati xususida.....219
Dilnoza Ibragimova. Abdulla Oripov she'riyatida lingvopoetik xususiyatlarning suratlari.....221
Parizoda Axrorxo'jayeva, Mahmudaxon Dadajonova. "Choliqushi" – iztirob romani.....223
Fotima Xatamova. O'zga tilli guruhlarda boshlang'ich sinflar uchun o'zbek tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish.....224
Shohruh Karimov. O'zbekistonda kutubxonachilik ishida xorijiy tajribalardan foydalanish.....226
Marjonabonu Umirjonova. Ta'lim klasterlarining shakllanishi va qiyosiy tahlili.....229
Taxmina Quziyeva. Grafik qisqartmalar xususida (o'lchov so'zlar misolida).....232
Dilbar Boyliyeva. Unveiling the efficacy of flashcards in primary education.....234
Mahliyo Xolmirzayeva. O'zbek tili ta'limida tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirish (8-sinflar misolida).....236
Maftuna Khasanova. Effective english language teaching methodology feeleng (feel english).....238
Dilafruz Abdulleyeva. Current Paradigm for Instructional Planning.....240
Jayron Radjabova. Internet-based blogs for english language teaching.....241
Gavhar Unarova. Pragmatic complexity concept in O. Henry's stories.....243
Mubinabonu Rustamova. Language perception as an essential part of the world picture in shaping beliefs and values.....246
Dilbar Sindarova. Sobir O'narning "Bibisora" asarida badiiy konsepsiya.....248
Latofat Raximdjanova, Mavjuda Bolibekova. Linguocultural aspects of ellipsis usage in english and uzbek languages.....250
Fazilat Abdullaeva. Dictionary compiling challenges and integration of computational linguistics in lexicography.....252
Robiya Yunusxojayeva. Unveiling the stylistic devices in "Gone with the wind" by margaret mitchell.....255
Zilola Mirqodirova. Gamified writing exercises for language learners.....257
Regina Djalalova. Linguocultural aspect in the creation of wizard world by J.K. Rowling.....259
Парвина Нарзуллаева. Развитие логического мышления учащихся младших классов на основе интегративного подхода.....262

Izhor

Bahora Ko'charova. Dillarni hayajonga solayotgan so'nggi qo'ng'iroq!.....264

Maksuda BADALOVA,
A.Avloniy nomidagi MTI ITB boshlig'i,
iqtisod fanlari (PhD) falsafa doktori-
E-mail:umaksuda69@ gmail.com

TA'LIM KLASTERINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqola ta'lim klasteri mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim klasterning afzalliklari va uning asosiy elementlarining xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Xorij tajribalariga asoslangan holda maktab klasterining tashkillashtirishning maqsadi yoritib berilgan va o'rganilgan tadqiqotlar natijasida ilmiy xulosalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *klaster, ta'lim klasteri, model, element, sinergitik, klaster subyektlari, "Maktabdan tashqari ta'lim", strategiya.*

Аннотация: статьи посвящена теме образовательного кластера, показаны преимущества образовательного кластера и особенности его основных элементов.

Ключевые слова: *кластер, образовательный кластер, модель, элемент, синергетика, субъекты кластера, «Внешкольное образование», стратегия.*

Annotation: the article is devoted to the topic of the educational cluster, it shows the advantages of the educational cluster and the features of its main elements.

Key words: *cluster, educational cluster, model, element, synergistic, cluster entities, "Out-of-school education", strategy.*

Globallashuv va davlatlararo raqobat tobora kuchayib, internet va innovatsion texnologiyalar har sohaga chuqur kirib borayotgan, dunyoda an'anaviy jamiyatdan axborotlashgan jamiyat sari harakatlar kechayotgan davrda mamlakatimizda har bir mutaxassisni mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda faollik ko'rsatadigan, qiyinchiliklarni qo'rqmasdan yengib o'ta oladigan, raqobatbardosh, o'z Vataniga sodiq shaxs sifatida kamolga yetkazish xalq ta'limi sohasining eng asosiy, ustuvor vazifasi bo'lib qolmoqda. Xalqaro tajribalarni o'rganish asnosida shuni ta'kidlash joizki, klaster yondashuvi maktablar salohiyatini oshirishga, xususan, o'qituvchilar va maktab ma'muriyatining "peer-to-peer" an'anaviy ravishda ta'lim-tarbiya berishda ko'plab qiyinchiliklarni yengib o'tishga ko'mak beradi. Klasterlarni tashkil etishning asosiy metodologiyasini klasterdagi qiziqarli dinamikalarni tavsiflash, uning ijobiy tomonlarini ko'ra bilish, o'qituvchilar va maktablar o'rtasida do'stona raqobat va o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga intilishi bilan izohlashimiz mumkin. Maktab klasterlari, asosan, maktablararo va geografik joylashuvga qarab tashkil etilishi xalqaro tajribada bir necha marotaba takrorlanadi. Maktab klasterlarining asosiy maqsadi, maktab ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan va shuningdek, taktab klasteri subyektlarining o'zaro, tajriba va ma'lumot almashish, izolyatsiyaga qarshi kurashish va maktablar, o'qituvchilar va maktab rahbarlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini o'rnatish klasterning asosiy maqsadi hisoblanadi. Maktab klasteri o'qituvchilar malakasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Aksariyat hollarda, resurslarni almashish va materiallar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ko'pincha, maktab klasterining asosiy maqsadi sifatida tilga olinadi. Maktab klasteri – bu ta'lim yoki ma'muriy maqsadlardagi maktablar guruhi hisoblanadi. Maktab klasterida bir nechta maktablar ta'lim sharoitlarini yaxshilash uchun o'z resurslarini baham ko'rish uchun birlashadilar va ularning maktabni qo'llab-quvvatlash strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga, asosan, o'zaro manfaatlar uchun moddiy va inson resurslaridan unumli foydalanish uchun birlashtiradilar va shuningdek, ta'lim klasteri yana ko'plab umumiy maqsadlarni o'z ichiga olishi mumkin. (Quyidagi 1-rasmga e'tibor qarating)

Xalqaro tajribaga e'tibor qaratsak, misol tariqasida Ekvador, Peru va Shri-Lankadagi kabi ba'zi ta'lim klasterlari maktablarni klasterlar orqali xususiy ta'lim bilan bog'lashga qaratilgan. Bunda ishlab chiqilgan dasturlar, ayniqsa, klasterga a'zo maktablarining resurslari va institutsional tizimidan juda katta foyda ko'rganligi ta'kidlangan. Ta'lim klasterining oldiga ko'ygan maqsadlaridan kelib chiqib, uning elementlari ham turlicha ekanligi ta'kidlangan. Fikrimizcha, uning asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin, ya'ni:

– ta'lim muassasalari – maktab va maktab;
– umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari;
– ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari;
– maktabdan tashqari ta'lim tizimi tashkilotlari va umumta'lim maktablari;
– maktabdan tashqari ta'lim tizimi tashkilotlari, umumta'lim maktablari va ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish korxonalari;
– va alohida qismlar (tuzilma va bo'linmalar)dan tashkil topishi mumkin ekan.

Ta'lim klasteri ishtirokchilari vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin va ikki tomon o'rtasidagi integratsiya ma'lum bir loyiha doirasida va ma'lum bir vaqt oralig'ida elementlar o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish orqali tashkil etiladi. Misol tariqasida: (2.1.6-rasmga qarang)

1-rasm
Ta’lim tizimida maktab klasteri tuzishning asosiy maqsadi




2-rasm
Ta’lim klasteri elementlari



Xalqaro tajribani oladigan bo‘lsak, Lotin Amerikasida ko‘plab ta’lim klasterlari mavjud bo‘lib, ular, odatda, (Venesuyela va Peru) “redes escolares” yoki Boliviyada- nukleo, Núcleos, (Núcleo – lotin tilidan yadro- markaz ma’nosini anglatadi), deb ataladi. Bunda bir nechta maktablar ta’lim berish sharoitlarini yaxshilash uchun resurslardan birgalikda va hamjihatlikda reja asosida foydalanish uchun birlashganlar va ularning bu faoliyati maktabni qo‘llab-quvvatlash strategiyasiga mos ravishda amalga oshirilgan. Odatda, xalqaro tajribaga, asosan, maktab klasterlari maktablarni bir-biriga yaqin joylashgan maktablar bilan “guruhlash” yo‘li bilan tuzilgan va shuni ta’kidlash joizki, klaster hajmi maktablarning geografik joylashuviga qarab farq qiladi. O‘rganilgan ma’lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, ta’lim klasterlari odatda 2 tadan 15 tagacha maktabni o‘z ichiga birlashtiradi va ular “klasterlar”, “zonalar”, “tarmoqlar”, deb ham nomlanadi. Juda ko‘p manbalarda ta’lim klasterlarini ko‘proq qishloq joylarida tashkil etilishi ta’kidlangan, ammo tajribada maktab klasterlari faqat qishloq joylari bilan cheklanmagan. Kambodja, Bangladesh, Boliviya va Namibiya kabi davlatlarda yirik shaharlar, ya’ni Mombassa, Keniya, Los-Anjeleslarda ham keng qamrovli, yirik umummilliy klasterlar ham mavjud. Shuni ta’kidlash joizki, maktablar o‘zlari birgalikda kelishuv asosida navbatga asosan ta’lim jarayonlari uchun zarur bo‘lgan maxsus ehtiyojlarni, masalan, o‘quv tajriba ishlari uchun kerakli texnikalarni o‘zaro integratsiyalash orqali foydalanishi uchun birlashishlari ham mumkin ekanligi manbalarda ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, ma’muriy, moddiy, pedagogik yoki darsdan tashqari ta’lim bo‘yicha ham hamkorlik qilishlari va klaster maktabi doirasida klaster o‘qituvchilarini kasbiy va pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha resurs markazi tashkil etishlari ham mumkin. Quyidagi 3-rasmda ko‘rsatilganidek, Elizabet Giordano nomli (Parij) maktab klasterlari va o‘qituvchilar resurs markazlari klasterda 7ta maktab birlashgan, “A” asosiy maktab (yadro) hisoblanadi. Bunda maktab klasterlarining asosiy maqsadi maktab o‘qituvchilarining malakasini va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.

3-rasm
Elizabet Giordano nomli (Parij) maktab klasteri



Shuningdek, maktab klasteri o‘qituvchilar kompetentlik darajasini iste’molchilar talabiga, ya’ni ota-onalar talabiga moslashtirishga ko‘proq qaratar va bu borada maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim ekan. Aksariyat hollarda esa, yuqorida ta’kidlanganidek, adabiyotlarda resurslarni almashish, o‘quv materiallari, rejalar, dasturlarni ishlab chiqish ko‘pincha maktab klasterining asosiy maqsadi sifatida tilga olingan.

Shuni ta’kidlash joizki, ta’lim klasterining mustahkamligi hamkorlarning faol ishtirokiga ya’ni, ta’lim klasteri uning subyektlarining o‘z majburiyatlarini mas’uliyat bilan bajarishlarida va undagi ma’lum yo‘nalish va maqsadlarda tuzilgan ishchi guruhlarning birgalikda ishlash tamoyillariga amal qilishlariga bog‘liqdir. Birgalikda, hamkorlar klasterning texnik, operatsion va yetakchilik salohiyatiga hissa qo‘shadi va ularga yordam beradi. Klaster hamkorlarini klasterni qo‘llab-quvvatlashlari muayyan loyihalar yoki yirik tadbirlarni amalga oshirishda qo‘l keladi va uning natijalari ta’limni rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda jahon mamlakatlari ta’lim sohasining aksariyati og‘ir ahvolda qolmoqda. Bir tomondan ularda moliyaviy qiyinchilik bo‘lsa, boshqa tomondan aholi soni tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda.

Respublikamizda ham aholi sonining tez sur’atlarda o‘sishi va malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj davlat va hukumatmiz oldiga innovatsiyalarni izlash kabi g‘oyani ilgari surishni muhim masala sifatida ilgari surmoqda.
Shunday innovatsion yangiliklardan biri yuqorida ta’kidlanganidek, bu – ta’lim tizimida maktab klasterlaridir. Ta’lim klasteri – ta’lim muassasasi va ish beruvchilarning hamkorlik asosida korxona uchun mutaxassislarni bir necha bosqichli tayyorlashning ajralmas tizimi bo‘lib, uning bir qancha afzalliklari mavjud ekanligini ta’kidlash mumkin.
Bularga quyidagilar kiradi: maktab bitiruvchilarining har tomonlama jamiyatda o‘z yo‘lini topa oladigan sifatli kadr bo‘lib yetishtirish, ta’lim jarayonlari vaqtini ratsional taqsimlash (darslardan tashqari mashg‘ulotlar davomida malaka oshirish va ta’lim muasssasasini bitirgandan so‘ng to‘g‘ridan to‘g‘ri ish bilan ta’minlanish kabilar), bitiruvchilarni hamkorlikdagi korxonaga nisbatan pozitiv munosabatini ta’minlash (ish shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishgan bo‘lajak mutaxassis o‘zining oldiga malaka oshirgan korxonasida ishlash uchun istak paydo bo‘ladi).

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-

5712-son farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilab berilgan vazifalar ta’lim klasteri vazifalari bilan bir-biriga hamohangdir. Ta’lim klasterini shakllantirish bir vaqtning o‘zida mahalliy ta’lim tizimining ikkita global muammoni hal qilishi mumkin, degan fikrdamiz:

– o‘quv jarayonini moddiy-texnik va kadrlar bilan ta’minlash mavjud muammolarni;

– o‘quv, ilmiy va kasbiy faoliyatda ilg‘or tajribalarni umumlashtirish va ulardan foydalanishni ta’minlashi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son

2. School Clusters in the Third World: Making them Work by Mark Bray University of Hong Kong

3. School l clusters and teacher resource centres by Elizabeth Giordano/Paris 2008 25-bet

4. https://inee.org/sites/default/files/resources/ 2018-05-02.p

Aziza MAMATOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU Logopediya kafedrasi dotsenti v.v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALAR NUTQINI INNOVATSION USULLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada duduqlanuvchi bolalar nutqini eng so‘ngi innovatsion usullar vositasida rivojlantirishga doir turli usul va metodikalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: *duduqlanuvchi bolalar, innovatsion usullar, maktabgacha yoshdagi bolalar, nutqiy nuqson, ta’lim-tarbiya, korreksiya, emotsional holat, mashg‘ulot ishlanma.*

Аннотация: в данной статье представлены различные методы и методы развития речи заикающихся детей с использованием новейших инновационных методов.

Ключевые слова: *заикающиеся дети, инновационные методы, дети дошкольного возраста, нарушения речи, обучение, коррекция, эмоциональное состояние, обучение и развитие.*

Annotation: this article presents various methods and methods for developing the speech of stuttering children using the latest innovative methods.

Key words: *stuttering children, innovative methods, preschool children, speech impairment, education, correction, emotional state, training and development.*

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq kamchiliklarini bartaraf etishda innovatsion texnologiyalarini qo‘llash aqliy tarbiya berish, ularni ruhan va jismonan yetuk bo‘lib rivojlanishiga yordam beruvchi metodlar bo‘lib, bu metodlar vositasida bolalarning diqqat, xotira, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi psixik sifatlari shakllantiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq kamchiliklarini bartaraf etishda innovatsion texnologiyalarini qo‘llash bolalarning bilimlarini ular uchun oson va qiziqarli shaklda mustahkamlash imkonini beradi. Bundan tashqari bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchi yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq kamchiliklarini bartaraf etishda innovatsion texnologiyalari asosan bolalarning aqliy faoliyatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi vosita sifatida foydalanish bilan bir qatorda nutqni o‘stirish, atrof-muhit bilan tanishtirishda keng qo‘llaniladi. O‘yin shaklida o‘tkaziladigan mashqlar esa bolalarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi, qiziqtiradi, natijada bolalar o‘zlarini qiynamay, majbur qilmay takrorlash lozim bo‘lgan so‘z yoki harakatlarni osonlik bilan takrorlaydilar. Demak, innovatsion texnologiyalarini qo‘llash bolalarning nutqlarini o‘stirishda keng foydalaniladigan ta'limiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq kamchiliklarini bartaraf etishda innovatsion texnologiyalarini qo‘llash jarayonida duduqlanuvchi bolalarning so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ohangdorligini va tutilishlarni kamaytirish, xotirasini mustahkamlash maqsadida tadqiqot ishi olib borildi. Duduqlanish bu nutq apparati mushaklarinig tortishishi yuzasidan hosil bo‘ladigan nutqning sur’at-ohangining buzilishi hisoblanadi. Duduqlanishda bolaning nutqida to‘xtalishlar, qaytarib aytish yokida nutqiy nafasning yutilib ovoz ma’lum vaqtga yo‘qolish hollari kuzatiladi. Duduqlanuvchi bolalarda nutqidagi temp-ritmning buzilishi oqibatida boshqalar bilan kommunikativ munosabatga kirisha olmaslik, psixologik-pedagogik va ijtimoiy tomondan salbiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu turli psixologik muammolarni keltirib chiqarib, rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘z vaqtida olib boriladigan yoki olib

borilayotgan korreksion ishlar esa bolada ijobiy o‘zgarishlarni namoyon qilishi mumkin. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish qancha erta boshlansa, shuncha samarali yutuqlarga erishish mumkin. Duduqlanuvchi bolalardagi nuqsonlarni maktabgacha yoshda bartaraf etish tavsiya etiladi. Bunda mashg‘ulotlardan keng foydalaniladi. O‘yin texnologiyalari frontal, guruhli va indvidual tarzda o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarda olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

- Nutqning noto‘g‘ri talaffuzini to‘g‘irlash;
- Nutqning to‘g‘ri ta’lafuz malakalarini shakllantirish;
- Bolalarni nutqini diqqat bilan eshitishga o‘rgatish;

Nutqning prosodik tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

- Ohangni to‘g‘ri shakllantirish;
- Intonatsiyani to‘g‘ri qo‘llay olish;
- Obrazlarga mos ravishda taqlid so‘zlarni ishlata olishni rivojlantira olish.

Nutqning leksik-grammatik tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish tizimi:

- So‘zlarni mos ravishda bir-biriga bog‘lashni rivojlantirish;
- Qo‘shimchalarni to‘g‘ri ishlata olishni shakllantirish;
- Egalik va kelishik qo‘shimchalarni to‘g‘ri ishlata olishni shakllantirish;
- Bolalardagi lug‘at boyligini kengaytirish.

Shundan kelib chiqib maktabgacha yoshdagi bolalarning izchil nutqni shakllantirish va faollashtirish uchun an’anaviy usullar va metodlar bilan bir qatorda quyidagi innovatsion texnologiyalar qo‘llaniladi:

- Modellashtirish texnologiyasi;
- AKT texnologiyalari;
- Mnemotexnika;
- Bioenergoplastika;
- Kinizologiya;
- Art terapiya;
- Lego texnologiyasi;
- Sensor integratsiya;
- Logoritmika.

Modellashtirish texnologiyasi. Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion usullaridan biri bu ko‘rgazmali modellashtirishdir. Ushbu usul yordamida logoped va bola soddalashtirilgan sxemasini tasvirlash stematik tasvirlar – belgilar, simvollar yordamida obyektlar, hodisalar, harakatlar, tushunchalar, epizodlarni tasvirlaydilar. Vizual modellashtirish bolalarga turli xil bilimlarni yetkazish usuli, shuningdek ularning aqliy va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida muvaffaqiyatli ishlatilgan. Usul diagramma, chizmalar, rejalar, afsonalar, siluetli tasvirlar, piktogrammalar va boshqa narsalar bilan ifodalanishi mumkin bo‘lgan o‘rnini bosuvchi (model) dan foydalanishga asoslangan.

AKT texnologiyalari: psixologlarning ta’kidlashicha, bolada deyarli axborot texnologiyadan qo‘llashdan qo‘rqish yo‘q, kompyuter bolalar uchun har qanday yangi o‘yinchoq kabi jozibali. Zamonaviy bolalar ba’zida labilroq bo‘lib, kompyuter texnologiyalari sohasida tezroq o‘rganadilar, shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta’limda AKTdan foydalanish zarurati aniq. Bola nutqni rivojlantirish va yoshga mos uslub va uslublardan foydalanish uchun AKTdan foydalanish bolalar nutqini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini to‘plash va boyitish, izchil nutqni rivojlantirish, ko‘rgan narsalarini tasvirlash, yaratilgan obraz haqida gapirish qobiliyatini rivojlantirishga samarali yordam beradi.

Mnemotexnika texnologiyasi. Yunon tilidan tarjima qilinganda: mnemonika "yodlash san’ati". Bu ma’lumotni muvaffaqiyatli yodlash, saqlash va ko‘paytirishni, tabiiy obyektlarning xususiyatlari, atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarni, hikoya tuzishini nutqni rivojlantirishni ta’minlaydigan usul va usullar tizimidir. Nutqni rivojlantirish uchun mnemonik jadvallardan (sensorli-grafik sxemalardan) foydalanish bolalarga vizual ma’lumotni yanada samarali qabul qilish va qayta ishlashga imkon beradi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar vizual materialni yaxshiroq o‘rganadilar. So‘z boyligini boyitish uchun, hikoyalar tuzishni o‘rganayotganda, badiiy adabiyotni takrorlashda, topishmoqlar va taxminlarni topishda, she’r yodlashda. samarali ishlatildi. Belgilar nutq materialiga iloji boricha yaqinroq, masalan, daraxt yovvoyi hayvonlarni, uy esa uy hayvonlarini belgilash uchun ishlatiladi. Eng oddiy mnemonik kvadratlar bilan ishlashni boshlash kerak, ketma-ket mnemonik treklarga, keyin esa mnemonik jadvallarga o‘tiladi, chunki bolalar o‘zlarining xotiralarida individual rasmlarni saqlab qoladilar. Mnemonik jadvallar – diagrammalar bolalarda izchil nutqni rivojlantirish bo‘yicha ishlarda didaktik material bo‘lib xizmat qiladi.

Bioenergoplastika – Artikulyatsiya apparati harakatlarining qo‘l harakatlari bilan birikmasi. Tana harakatlari, qo‘l va artikulyatsiya apparati qo‘shma harakatlari, agar ular egiluvchan, bo‘shashgan va erkin bo‘lsa, tanadagi bioenergiyaning tabiiy tarqalishini faollashtirishga yordam beradi. Bu bolalarning intellektual faolligini faollashtirishga o‘ta foydali ta’sir ko‘rsatadi, harakatlarni muvofiqlashtirish va nozik vosita mahoratini rivojlantiradi. Bioenergoplastika nutqning psixologik bazasini optimallashtiradi, bolaning harakat qobiliyatini har jihatdan yaxshilaydi, tovush talaffuzini, fonemik jarayonlarni to‘g‘rilashga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar mashg‘ulotlarida artikulatsion gimnastikalarning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Art terapiya – Art terapiya ingliz tilidan olingan

bo‘lib, “art” – san’at, “Terapiya” – davolash. San’at va ijodkorlikni o‘z ichiga oluvchi bu terapevtik usulning asosiy maqsadi o‘zini namoyon qilish va o‘z-o‘zini bilish qobiliyatini rivojlantirish. Bu usul yordamida bolaning ruhiy holatini ko‘rish mumkin bo‘ladi, turli xil his-tuyg‘ular: sevgi, nafrat, xafagarchilik, qo‘rquv, quvonch va boshqalarni ramziy ravishda ifodalanishini ko‘rish mumkin. Bu usuldan ijodkorlikni rivojlantirish, o‘z o‘zini hurmat qilishni oshirish, his-tuyg‘ularga e’tibor qaratish, o‘z-o‘zini nazorat qilishni rivojlantirish, tashqi muhit bilan a’loqa o‘rnatish kabi turli xil maqsadlarda foydalansa bo‘ladi . Bu masalalarda Art terapiyaning quyidagi usullaridan foydalanish muvofiq bo‘ladi:

1. Izoterapiya.
2. Biblioterapiya (shu jumladan ertak terapiyasi) — badiiy kompozitsiya va badiiy asarlarni ijodiy o‘qish yoki yaratish.
3. Musiqa terapiyasi.
4. Drama terapiyasi.
5. Raqs terapiyasi.
6. Qo‘g‘irchoq terapiyasi.
7. Qum terapiyasi.
8. Haykal terapiyasi.
9. Fototerapiya.
10. O‘yin terapiyasi.
11. Metaforik assotsiativ xaritalar yordamida terapiya .

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarni psixoemotsional holatini yaxshilashda Art terapiyaning turli xil usullari samarali yordam beradi. Bolalardagi o‘ziga bo‘lgan ishonchni va motivatsiyani shakllantiradi.

Kiniziologiya – bu harakatni rivojlantirish orqali miyani rivojlantirish, aqliy qobiliyatlarni va jismoniy salomatlikni muayyan harakat mashqlari orqali rivojlantirish haqidagi fan. Kiniziologiya usullar nafaqat aqliy qobiliyatlarning rivojlanishi va jismoniy sog‘liqqa ta’sir qiladi, balki ular miya qobig‘ining turli qismlarini faollashtirishga imkon beradi, bu esa inson qobiliyatlarini rivojlantirishga va psixikaning turli sohalaridagi muammolarni tuzatishga yordam beradi. Xususan, ushbu usuldan foydalanish bolaning xotirasini, diqqatini, nutqini, fazoviy tasavvurlarini, nozik va qo‘pol motorikasini yaxshilaydi, charchoqni kamaytiradi va ixtiyoriy boshqarish qobiliyatini oshiradi. Kiniziologiya gimnastika (“miya gimnastikasi”) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Nafas olish mashqlari.
2. Ko‘zni harakatlantirish mashqlari.
3. Tananing va barmoqlarning tuzatuvchi harakatlari.
4. Dam olish uchun mashqlar.
5. Har xil massaj turlari. Barmoqlar va quloqlarga massaj qilish ayniqsa samaralidir.
6. Stretch belgilari gipertoniklikni (mushaklarning nazoratsiz haddan tashqari kuchlanishini) va gipotenziyani (nazoratsiz mushaklarning sustligi) normallashtiradi.

Lego texnologiyasi: maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda mayda motor ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan LEGO texnologiyalaridan foydalanish ajralmas hisoblanadi. LEGO innovatsion o‘quv konstruktori “O‘z hikoyangni yarating” nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Ushbu konstruktor yordamida bolalar o‘zlarining noyob hikoyalarini o‘ylab topadilar, adabiy asarlarni qayta hikoya qiladilar, atrofdagi voqelikdan haqiqiy vaziyatlarni tasvirlaydigan hikoyalar yasaydilar va hokazo. LEGOdan foydalanish, hikoya ustida ishlash, qayta hikoya qilish, dialog yanada samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqoridagi texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bugun bizga intellektual jasur, mustaqil, o‘ziga xos fikrlaydigan, ijodiy, nostandart qarorlar qabul qila oladigan va undan qo‘rqmaydigan odamlar kerak. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari bunday shaxsni shakllantirishda yordam berishi mumkin. Mazkur innovatsion usul va metodlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy aqliy jarayonlar xotira, diqqat, tasavvuriy fikrlashni, duduqlanuvchi bolalarda esa mustaqil nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan terapevtik usullar bolalardagi ruhiy holatni yaxshilab o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga, ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlarni oshirishga hizmat qiladi. Bu usul va metodlarni maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktab va turli xil davolash markazlarida va hattoki uy sharoitida ham qo‘llash samarali yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarga noan’anaviy innovatsion usulda mashg‘ulotlarni tashkil qilish bolalardagi nutqiy muammolarni tez va oson bartaraf qilishga yordam beradi.

Foyadalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
2. Ayupova.M.Y, H.M.Po‘latova. “Logoritmika” darslik. Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
3. Rudestam K. Gruppovaya psixoterapiya. — SPb.: Piter, 200
4. “LOGOPEDIOYA” M.Y.Ayupova O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashiryoti, 2007.
5. “ Duduqlanish”. A.D.Achilova. O‘quv qo‘llanma. “Book Trade”. – TOSHKENT, 2022.

Qahramon ISMOILOV,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
E-mail: ismoilovqahramon9@gmail.com

YAPONIYA OLIYGOHLARI O‘TMISHI VA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM SIFATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Yaponiya ta‘lim tizimining rivojlanish bosqichlari, Yaponiya oliygohlarining o‘tmishi, 19-20 asrlar davomida Yaponiya oliy ta’lim tizimidagi islohotlar, oliy ta’lim sifati, “Meydzi erasi”da amalga oshirilgan ishlar va Germaniya modeliga o‘tish borasidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim tizimi, G‘arb ta’lim tizimlari, “Meydzi erasi”, Germaniya modeli, milliy ehtiyoj, baholash, talaba, aspirantura, jamiyat, milliy yettilik universitetlari.*

Annotation: the stages of the development of the Japanese education system, the past of Japanese universities, the reforms in the Japanese higher education system during the 19th and 20th centuries, the quality of higher education, the deeds done in the "Meiji era" and the transition to the German model are discussed in this article.

Key words: *higher education system, Western education systems, “Meiji era”, German model, national need, evaluation, student, postgraduate department, society, national seven universities.*

Аннотация: этапы развития японской системы образования, прошлое японских университетов, реформы японской системы высшего образования в XIX и XX веках, качество высшего образования, дела, совершенные в «эпоху Мэйдзи» и переходный период к немецкой модели обсуждаются в этой статье.

Ключевые слова: *система высшего образования, западные системы образования, «эпоха Мэйдзи», немецкая модель, национальная потребность, оценка, студент, аспирантура, общество, семь национальных университетов.*

Zamonaviy Yaponiya oliy ta’lim tizimi G‘arb ta’lim tizimlaridan ilhomlangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularning ta’lim tizimi an’anaviy shinto, buddist va konfutsiy pedagogik falsafiy g‘oyalari bilan birlashtirilgan bir qator uslub va g‘oyalariga moslashtirilgan. XIX-XX asrlar davomida Yaponiya bo‘ylab oliy ta’lim sohasida ko‘plab yirik islohotlar amalga oshirildi. Bu esa talabalarning individual mehnatiga, shuningdek, xalqning umumiy o‘ziga xosligi, ijodkorligi va oliy ta’limning xalqarolashuviga hissa qo‘shdi. 1868-yil – “Meydzi erasi”da faol g‘arbiylashtirish jarayoniga kirishgan Yaponiya o‘zining butun ta’lim tizimini, ayniqsa, zamonaviy sanoatlashtirish, G‘arb bilimlarini joriy qilish uchun oliy ta’lim darajasini jonlantirishga harakat qildi. Ko‘plab yapon talabalari Yevropaga o‘qish uchun yuborildi, shuningdek, G‘arb davlatlaridan bir qator xorijiy olimlar ham Yaponiyaga tanishtirildi va jalb qilindi. 1880-yillarda Yaponiya o‘zining milliy ehtiyojlarini qondirish, modellashtirish uchun oliy ta’lim tizimining prototipini izlashga intildi. 1881-yilda hukumat Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiya kabi turli G‘arb mamlakatlari ta’sirida bo‘lgan institutsional modelini qat’iy Germaniya modeliga aylantirishga qaror qildi.

Germaniya zamonaviy Yaponiya oliy ta’lim tizimi uchun eng katta ilhom manbai bo‘lib xizmat qildi, chunki Germaniya universitetlari butun Yevropadagi eng innovatsion universitetlardan biri sifatida qaraldi, bundan tashqari, XIX-asr Germaniyasi sanoatlashtirish maqsadlarida Yaponiyaga yaqin edi. Bundan tashqari, Meydzi hukumati, asosan, huquqshunoslik fakulteti bitiruvchilari ustunlik qiladigan nemis hukumati byurokratiyasini juda hayratda qoldirdi va nemis prototipini noyob yapon modeliga singdirishga harakat qildi. Amerika, Britaniya va Fransiya modellaridan ilhomlanib, asosan nemislar prototipi asosida yaratilgan uning zamonaviy oliy ta’lim tizimi XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Yaponiyaning yirik jahon davlati sifatida rivojlanishiga turtki bo‘lgan katalizator bo‘ldi.

Oliy ta’lim darajasida Yaponiya o‘zining milliy ehtiyojlarini qondirish uchun bir qator oliy ta’lim g‘oyalarini o‘z ichiga olishga harakat qildi. G‘arbdan ko‘plab kitoblar, qo‘lyozmalar va hujjatlar tarjima qilindi, chunki chet ellik professorlar “Meydzi erasi”da G‘arb bilimlarini san’at va turli fanlarda, shuningdek, G‘arb pedagogikasining o‘qitish usullarini yoyishgan edi. Zamonaviy universitet modeli uchun Yaponiya Germaniyada topilgan ko‘plab Prussiya elementlarini o‘z ichiga oldi, chunki o‘sha paytda Germaniya imperiyasi mustamlakachilikni kengaytirish va milliy rivojlanish maqsadlari jihatidan Yaponiyaga o‘xshash edi. Nemis modeli Birinchi jahon urushi oxirigacha Yaponiya oliy ta’lim tizimini ilhomlantirishda davom etdi. Ikkinchi jahon urushidagi Amerika bosib olgan davrda Yaponiya o‘zining oliy ta’limini zamonaviy davr uchun modernizatsiya qilish maqsadida Qo‘shma Shtatlarda ishlab chiqilgan oliy ta’lim g‘oyalarini o‘z ichiga oldi. Zamonaviy Yaponiya oliy ta’lim tizimi endi Yevropadan kelib chiqqan holda Qo‘shma Shtatlardan kiritilgan elementlarga ega edi.

Yaponiyada zamonaviy oliy ta’limning kengayishi va rivojlanishi 1980-yillarning oxirigacha davom etgan Ikkinchi jahon urushidan keyin uning iqtisodiy o‘sishiga yordam berdi.

Yaponiyaning oliy ta’lim universitetlarida (daigaku), kichik kollejlarda (tanki daigaku), texnologiya kollejlarida (kōtō senmon gakkō) va maxsus o‘quv maktablari va jamoat kollejlarida (senshū gakkō) beriladi. Ushbu to‘rt turdagi muassasalardan faqat universitetlar va o‘rta kollejlar o‘rta ta’limdan keyingi ta’lim beruvchilar hisoblanadi . Yaponiyaning zamonaviy oliy ta’lim tizimi “Meydzi erasi”dan boshlab ko‘plab o‘zgarishlarga uchradi va asosan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSH kabi G‘arb mamlakatlari an’anaviy yapon pedagogik elementlariga ega bo‘lib, o‘zining milliy ehtiyojlarini qondirish va o‘ziga xos yapon modelini yaratish uchun namuna bo‘ldi. Yaponiya oliy ta’lim tizimi boshqa mamlakatlardagi oliy ta’limdan ko‘p jihatdan sezilarli darajada farq qiladi. Asosiy farqlar G‘arb mamlakatlarida qo‘llaniladigan bo‘lajak abituriyentlarni baholash va baholashning boshqa usullaridan farqli o‘laroq, deyarli butunlay bir yoki ikkita testga tayanadigan qabul usulini o‘z ichiga oladi. Talabalarda har yili bu imtihondan o‘tish uchun faqat bitta imkoniyat borligi sababli, ushbu testdan yaxshi o‘tish uchun katta bosim mavjud va o‘rta maktab ta’limining aksariyat qismi ushbu yagona testdan yaxshi o‘tishga ixtisoslashtirilgan. Yaponiyalik talabalar, ularning ota-onalari, o‘qituvchilari, tengdoshlari va jamiyat tomonidan akademik muvaffaqiyatga erishish uchun katta bosimga duch kelishmoqda. Bu, asosan, uzoq vaqtdan beri oliy ta’limga katta e’tibor qaratgan jamiyat va butun og‘irligini yagona imtihonga qaratadigan tizim natijasidir, bu esa insonning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga, turmush qurish istiqboliga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir muhim farq aspiranturadir, chunki Yaponiyada fandan tashqari bakalavriat talabalari juda kam sonli aspiranturaga boradi. Buning sababi shundaki, talabalar uchun aspiranturalar odatda faqat akademiyada ishlashni xohlaydiganlar uchun foydali, deb hisoblanadi.

21-asr boshidan buyon bu holat biroz o‘zgardi. Qonunga o‘zgartirish kiritilib, advokat bo‘lishni xohlovchilardan Yaponiya hukumati huquqshunoslik fakulteti tayinlagan aspiranturada o‘qishlari talab qilinadi. Ilgari advokatlar faqat bakalavriat talabalari topshirishi mumkin bo‘lgan advokatlik imtihonidan o‘tishlari kerak edi. Yirik universitetlar ham biznes maktablarini ochgan, biroq ularda yapon talabalari kam bo‘lsa-da, ko‘pchilik yapon korporatsiyalari xali ham aspirantlarni bakalavriat talabalaridan ko‘ra ko‘proq malakali, deb bilishmaydi. Shu sababli, ularda, asosan, qo‘shni Sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan, Janubiy Koreya, Tayvan va Xitoydan kelgan chet ellik talabalar qatnashadi. Boshqa ba’zi mamlakatlardagi oliy ta’limdan farqli o‘laroq, davlat universitetlari, odatda, xususiy universitetlarga, xususan Milliy yettilik universitetiga (Tokio universiteti, Kioto universiteti, Toxoku universiteti, Kyushu universiteti, Xokkaydo universiteti, Osaka universiteti va Nagoya universiteti) qaraganda nufuzliroq hisoblanadi.

Yaponiya iqtisodiyoti, asosan, ilmiy va texnologik asosga ega bo‘lganligi sababli, mehnat bozorida ish qidirishda raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lish uchun oliy ma’lumotga ega bo‘lgan, ayniqsa, fan va muhandislik bilan bog‘liq bo‘lgan mutaxassislarni talab qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, Yaponiyaning bugungi taraqqiyotiga asosiy sabab, rivojlangan davlatlarning modelini o‘zlashtirish bo‘ldi. Yaponiya davlati 1880-yillarda modellashtirish uchun oliy ta’lim tizimining prototipini izlashga intildi. Hukumat Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiya kabi turli G‘arb mamlakatlari ta’sirida bo‘lgan institutsional modelini qat’iy Germaniya modeliga aylantirishga qaror qildi va katta natijaga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Altbach, Philip (1998). Comparative Higher Education: Knowledge, the University, and Development.
2. "Asian University Rankings 2010 - Top 200". www.topuniversities.com Retrieved 7 September 2019.
3. Clark, Nick (1 May 2005). "Education in Japan". Retrieved 28 October 2016.
4. Dore, Ronald P. (1965), Education in Tokugawa Japan Athlone Press
5. Duke, Benjamin (1986), The Japanese School Praeger.

Nurjan ABDUVALITOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

ADABIY TA’LIM JARAYONIDA QIYOSIY TAHLIL METODIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida milliy adabiyotini jahon adabiyoti bilan qiyosiy tahlil qilish asosida o‘quvchilarning qiyosiy tahlil ko‘nikma va malakalarini shakllantirish masalasi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi sohasida qiyosiy tahlil masalasi yuzasidan vatandosh olimlarimizning tadqiqot ishlari tahlilga tortilgan. Maqolada adabiyot darslarida o‘tiladigan topishmoq mavzusini qiyosiy tahlil metodi asosida o‘qitishning samarali yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *qiyosiy o‘qitish, integratsiya, badiiy asar, adabiy aloqalar, adabiy ta’sir, topishmoq.*

Аннотация: в данной статье рассматривается формирование у учеников навыков и компетенций сравнительного анализа на основе сравнительного анализа национальной литературы с мировой литературой на уроках литературы. Также были проанализированы исследовательские работы коллеги-ученые по вопросу сравнительного анализа в области методики преподавания узбекской литературы. В статье показаны эффективные способы преподавания темы загадок на уроках литературы на основе метода сравнительного анализа.

Ключевые слова: *сравнительное образование, интеграция, художественное творчество, литературные связи, литературное влияние, загадка.*

Annotation: this article discusses the formation of students' comparative analysis skills and competencies based on the comparative analysis of national literature with world literature in literature classes. Also, the research works of our compatriot scientists on the issue of comparative analysis in the field of teaching methods of Uzbek literature were analyzed. The article shows effective ways of teaching the subject of riddles in literature classes based on the method of comparative analysis.

Key words: *comparative education, integration, artistic work, literary connections, literary influence, riddle.*

Kirish. So‘nggi yillarda milliy va jahon adabiyotini qiyosiy o‘qitishda integratsiyaga asoslangan metodika tobora rivojlanib bormoqda, chunki adabiyot, badiiy ijodning boshqa turlari va ijtimoiy faoliyati o‘rtasidagi ko‘p tomonlama dialektik aloqalarni aniqlash o‘qituvchi faoliyatini yangi pedagogik yechimlar bilan boyitishi mumkin.

Adabiyotning o‘zaro ta’siri kategoriyasi umumiy falsafiy kategoriyaga asoslanadi. O‘zaro ta’sir kategoriyasi tabiiy va ijtimoiy hodisalarning muhim uslubiy tamoyillaridir. O‘zaro ta’sir kategoriyasining umumiy falsafiy ma’nosi uning “umuminsoniy sababning mohiyatini tushuntirish”ni egallash qobiliyati bilan belgilanadi, unda materiyaning xususiyatlari namoyon bo‘lish manbai bo‘lgan harakatning adabiy zaruriyati g‘oyasi mavjud. O‘zaro ta’sir – bu badiiy ongining birligi va ifoda etish shakllarining xilma-xilligi.

O‘quvchilarning badiiy asarni qabul qilish muammosi ikkita vazifa hal qilinishini taqozo etadi. Bular: badiiy asar matnini obyektiv tahlil qilish va inson hissiyotlarini obyektiv tahlil qilishdir. Bundan tashqari, ushbu muammolar butun bir adabiyotni yanada kengroq doirada ko‘rib chiqish masalasini ham nazarda tutadi. Bu yerda xuddi shu ikki yondashuv: taqqoslayotgan matnlarni obyektiv tahlil qilish va o‘quvchida bunday taqqoslash natijasida paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ularni tahlil qilish masalasi mavjud.

Adabiyotni psixologik o‘rganish jarayoni shu ikki yo‘nalishning birida amalga oshiriladi. Bunda, birinchidan, ijodkor psixologiyasi uning ma’lum bir asarda qanday ifoda etilganligi bilan bog‘liqlikda tahlil qilinsa, ikkinchidan, ushbu asarni qabul qiladigan kitobxonning tajribalari ko‘zda tutiladi. Fikrimizcha, har ikkala usulni bir-biridan ajratgan holda qo‘llash samarasizdir. Shunga tayanib mazkur uslubning umumiy yo‘nalishini badiiy asar shaklidan uning elementlari va tuzilishini funksional tahlil qilish orqali estetik reaksiyani va uning umumiy qonunlarini o‘rgatishga qadar bo‘lgan jarayon sifatida ifodalash mumkin.

Asosiy qisim. Maktabda milliy va jahon adabiyotlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o‘rganish bo‘yicha ishlarni tashkil etishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olinmasligi mumkin emas. Binobarin, o‘rta maktab o‘quvchilarining “nima uchun?” degan savolni tez-tez berishlari, taxmin qilingan tushunchalarning yetarli va asosli ekanligiga izoh so‘rashlari tasodifiy emas. O‘spirinlik aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim bosqichidir. O‘rta maktab o‘quvchilarining fikrlash faoliyati mustaqildir. Ularda umumlashtirishga intilish, muayyan faktlar ortidagi umumiy tamoyillar va qonuniyatlarni izlashga urinish kuzatiladi.

Adabiy aloqalar va adabiy ta’sirni qiyosiy

o‘rganish keng tarqalgan didaktik usul va aqliy operatsiya bo‘lib, uning yordamida ba’zi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash mumkin, zero, bu ta’limning barcha bosqichlarida ijobiy samaraga olib keladi. Qiyoslashning psixologik va pedagogik jihatdan asoslanishi uning operatsion tomoni, turli materiallar bilan ishlash uchun asos yaratadi. Tadqiqot ishimizning o‘ziga xos mazmuni bir qator adabiyotshunos olimlar va metodistlarning qarashlarini tahlil qilish zaruratini tug‘dirdi.

O‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti bilan aloqada o‘rganish adabiy jarayonning o‘ziga xos tarixiy shart-sharoitlari, milliy xususiyatlari hamda umumiy qonuniyatlarini o‘rganishga imkon beradi. O‘quvchilarning adabiy hodisalarni (badiiy asarlar, mualliflari, uslublari va h.k.) mustaqil qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘qitish metodikasi, tamoyillari va yo‘llarini nazariy jihatdan asoslash va bir tizimga solish, bunda o‘quvchilarning yoshi va qiyosiy imkoniyatlari, qiziqishlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Quyidagilarga o‘quvchilarning qiyosiy tahlil ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning mezoni sifatida qaraladi:

1) adabiy tahlilda qiyoslash metodidan foydalanishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini, shuningdek, taqqoslashning psixologik-pedagogik ta’sirini o‘quvchilarning mustaqil o‘qish faoliyati uchun rag‘batlantiruvchi omil sifatida aniqlash;

2) qiyoslash usulidan foydalanish samaraliroq bo‘lgan o‘zbek va jahon adabiyoti mualliflari va ularning badiiy asarlarini aniqlash;

3) rivojlantirish omillarini hisobga olgan holda adabiyotlarni juftlashtirish nuqtayi nazaridan qiyosiy o‘rganish konsepsiyasini amalga oshirish;

4) ta’lim jarayonida milliy va jahon adabiyotining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishda qiyoslash metodi doirasidagi usullar va ularning qo‘llanish o‘rnini aniqlash;

5) o‘quvchilarda adabiy jarayonning birligi, badiiylik, yozuvchi uslubi haqidagi g‘oyalarni shakllantirish texnikasining mazmunini yoritish;

6) o‘zbek va jahon adabiyoti namunalarini taqqoslash, tahlil qilish va idrok etish uchun ijodiy vazifalar tizimini ishlab chiqish;

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi sohasida qiyosiy tahlil masalasi M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, Q.Husanboyeva, Y.Abduvalitov kabi olimlarning tadqiqot mavzulari yo‘nalishda o‘rganilgan. Jumladan, M.Mirqosimovaning o‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirishga doir tadqiqot ishida turli ijodkorlar yoki ayrim adiblar tomonidan yaratilgan asarlarni qiyosiy o‘rganish vositasida ular ijodining o‘sib-o‘zgarish bosqichlari aniqlanishi, rang-barang uslublar o‘rganilishi, ijodiy jarayon bilan yaqindan tanishish imkoni yaratilishi ta’kidlanadi. Bunday qiyosiy tahlil usulining talablari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1. Qiyosiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan asar o‘quvchilar tomonidan o‘qib chiqilganligini avvaldan tekshirib ko‘rish;

2. O‘quvchilardagi mavjud mulohazalarni o‘rganib, darsni tashkil etish rejasi tuzilishi;

3. O‘qituvchining qiyoslab tahlil etish ko‘zlangan asarlardan muhim va maqbul epizodlarni, dialoglarni, tasvirlarni to‘g‘ri hamda o‘rinli tanlay olishi, shular asosida o‘quvchilarni tahlilga yo‘llovchi dars ishlanmasi tayyorlashi;

4. Dars jarayonida qiyosiy tahlil usulini qanday maqsadda foydalanishni o‘qituvchi avvaldan aniq belgilashi kabilar. [1:25]

Shu o‘rinda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ingliz tili va o‘zbek adabiyoti darslarida o‘rganiladigan topishmoqlar, maqollar va ertaklardan iborat janrlar ham turli xalqlarning folklor namunalarini qiyoslab mushohada yuritishga zamin hozirlashini ta’kidlash mumkin. Masalan, 5-sinf “Adabiyot” darslarida topishmoq mavzusi o‘tilayotganda uning boshqa xalqlardagi aynan shu janr va mavzudagi namunalarga qiyoslanishi dunyo xalqlarining aynan bir predmet yoki voqea-hodisani ifodalash tarzi, bu boradagi ijodkorligi, topqirligini o‘quvchi tasavvurida jonlantirishga xizmat qiladi.

Topishmoq janrining hajm jihatidan qisqa va ixchamligi; she’riy yoki nasriy ko‘rinishga egaligi; yaratilish maqsadida matnda jumboqlangan narsani aniqlash vazifasi; uni topishga undash; ko‘zda tutilgan predmetning miqdori; qo‘llanilgan badiiy san’atlar kabi nazariy tushunchalar bilan tanishtirilayotganda bu jihatlar boshqa xalqlarda qay darajada aks etganligiga e’tibor qaratish muhim sanaladi. Zero, bu faoliyat turi vositasida o‘quvchida muayyan xalqning tafakkur doirasi, turmush tarzi va an’analari haqida atroflicha tushunchalar paydo bo‘ladi. Qiyoslash asosida o‘z xalqi, millati, ajdodlarining zehni, uquvi va didi yuzasidan muayyan qarashlari shakllanadi, faxr va g‘urur tuyg‘ulari ildiz otadi. Ilmiy jihatdan qaralganda biror voqelik, narsa yoki predmetlar orasidagi umumiylik bir tizimga keltiriladi yoki farqli xususiyatlar ajratib ko‘rsatiladi, shu asosda yagona xulosalar shakllantiriladi. Ko‘rinadiki, qiyoslash fikrni tizimli ifodalashga va muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatishga asos sanaladi.

Adabiy ta’lim jarayonida dunyo xalqlari topishmoqlarining genetik va tipologik o‘xshashliklarini tadqiq etish masalasi ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu turli millatlarning o‘ziga xos tasavvuri, dunyoqarashi yoki muayyan oila yoki guruhga mansub tillarning tarixi, etnik jihatdan yaqinligini o‘rganishga doir tadqiqotlarga qiziqish uyg‘otadi.

Dunyo xalqlari topishmoqlarining matniy mushtarak xususiyatlarini tadqiq qilgan S.Bobonazarova ingliz xalq an’analari asosida yaratilgan topishmoqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganar ekan, ularda bu janr, asosan, nasriy shakldagi oddiy so‘roqdan iborat bo‘lishi, so‘roq ko‘pincha uning obyekti tilidan berilishi; metaforik matnli topshimoqlarga qaraganda tavsifiy matnli topishmoqlar ancha keng tarqalganligi hamda oddiy so‘roqdan iborat topishmoqlar nasriy shaklda ko‘p uchrashi haqidagi xulosalarga keladi. Masalan:

I have four legs but can ’t walk, what am I?

Mening to‘rtta oyog‘im bor, ammo yurolmayman. Men nimaman? (stol)

What goes around house but never goes into the house?

Nima uyning atrofini aylanadi, ammo uyga kira olmaydi? (Quyosh). [2:22]

Ingliz topishmoqlariga xos xususiyatlarning o‘zbek topishmoqlari tarkibida ham uchrashini hazil va o‘yinli so‘roqlardan iborat jumboqlar asosida qiyoslab tushuntirish mumkin bo‘ladi. Jumladan, “Nimaning besh barmog‘i boru, lekin birota ham tirnog‘i yo‘q?” (qo‘lqop), “Nimaning mo‘ylovi oyog‘idan uzun?” (suvarak), “Yumuq ko‘z bilan nimani ko‘rish mumkin?” (tush) va h.k.

Demak, o‘zbek xalq topishmoqlarida obrazlilik, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish an’anasi ustuvor bo‘lsa, inglizlarda bu jihat xabar shaklida yoki oddiy so‘roq tarzida berilishi bilan farqlanishini taqqoslash vositasida dalillash mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, o‘tmish ajdodlarimizning tashbehlarga boy fantaziyalaridan dalolat bersa; inglizlardagi xalqning fikrlash doirasi, aniqlik, oddiylik va yo‘naltiruvchi yondashuvlarni sezish mumkin.

Tadqiqotchi A.Bektayev har bir millat adabiyotining o‘ziga xosliklarini belgilashda tipologik tadqiqotlarning o‘rnini ko‘rsatar ekan, qarashlarini o‘zbek va qozoq xalqlaridagi topishmoqlar tahlili misolida ko‘rsatishga harakat qiladi. Tadqiqotchi obrazlarning metaforik tabiati bu janr uchun individualligini ta’kidlar ekan, fikrlarini quyidagi misollar orqali asoslaydi: O‘zbeklarda samolyot predmeti “Qush emas, qanoti bor, burgutdan zo‘r haybati bor. Uchsa lochin yeta olmas, tolmas zo‘r quvvati bor” kabi sifatlar bilan obrazlantirilsa, qozoqlarda bu xususiyatlarga “Құс сияқты құс емес, самғал ұшқан биікке, қанаты бар қақпайды, жүрсе де сондай биікке” tarzida nisbat beriladi.

Shuningdek, tadqiqotchi e’tiborini tortgan yana bir muhim jihat bu topishmoqlarda mantiqiy ziddiyatlarning ma’lum maqsad bilan keltirilishidir. O‘zbeklarda “Oyog‘i yo‘q, yuradi. Og‘zi yo‘q gapiradi” (soat), “O‘ra qazdim, tuprog‘i yo‘q” (qoziq o‘rni); qozoqlarda “Өзі бар, көлеңкесі жоқ” (құдық), “Аузы бар, денесі жоқ, Қолы бар, аяғы жоқ” (қопқон) kabi topishmoqlar qarshilantirish san’atining ifodasi ekanligini namoyon etadi [3:60-61]

Ona tilini davlat tili bilan qiyoslab o‘rganish masalasi yoritilgan. Sh.Bulekbayevaning tadqiqot ishida iboralarning qiyosiy tavsifi keltirilgan: [4:18]

O‘z ma’nosida	O‘zbek tilida	Qozoq tilida
Katta ishga intilish	Osilsang baland dorga osil	Жығылсаң нардан жығыл
Judayam oshirib yuborish	Pashshadan fil yasama	Түймедейді түйедей қылды
Bu yerda bir gap bor	Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur?	Бұл не деген батпан құйрық, Айдалада жатқан құйрық
Ahillik, birdamlik	Bir mayizni qirq bo‘lib emoq	Жарты құртты бөліп жеу
Xursand bo‘lish	Do‘ppisini osmonga otdi	Төбесі көкке екі-ақ елі жетпеді
Yaxshi gapiring, yomon gap aytmang	Nafasingni yel uchirsin	Жағыңа жылан жұмыртқаласын

Xulosa. Xulosa shuki, bunday janrdagi namunalar o‘quvchilarni muayyan xalqning kelib chiqish tarixi, kasb-kori, yer-suvi kabi tabiiy omillarini ham chuqurroq o‘rganish nuqtayi nazaridan maroqlidir. Xususan, hamjihatlik, birdamlik ma’nosida qo‘llaniluvchi “Bir mayizni qirq bo‘lib yemoq” iborasi o‘zbek xalqining o‘troq turmush tarzidan, odamlarning, asosan, dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan bog‘liq kasb-koridan xabardor qilsa, “Жарты құртты бөліп жеу” iborasi chorvachilik asosiy yumushi bo‘lgan qozoq xalqining qirma-qir, yaylovma-yaylov ko‘chib yashaganligi, bu jarayon bevosita o‘sha xalq istiqomat qilgan kengliklarning moddiy resurslari, geografiyasi yoki geologiyasiga chambarchas bog‘liqligidan darak beradi. Bu yesa, aniqki, umumiy ildizga yega ikki xalq yashagan joyning iqlimi, hududi tabiatining o‘ziga xosligi, nabotot dunyosi, hayvonot olamiga daxldor manbalarni o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi. Misollardan ko‘rinadiki, jahon adabiyotini qiyoslab o‘rganish yagona yoki o‘zga guruhga mansub xalqlarning tili va adabiyotidan tashqari o‘rganilayotgan manbalarda qiyoslashga zamin yaratadigan mavzularni integrativ o‘rganish masalasini ham o‘rtaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirqosimova M.M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1995. 25-b.
2. Bobonazarova S. Dunyo xalqlari topishmoqlarining matniy mushtarak xususiyatlari // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2012. № 5. 22-b.
3. Bektayev A. O‘zbek va qozoq tillaridagi topishmoqlarning qiyosiy tahlili // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2010. № 7. 60–61-b.
4. Bulekbayeva SH.B. Ona tilini davlat tili bilan kommunikativ-kognitiv asosda qiyosiy o‘rgatish (ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida). Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2019. 18-b.

Gulbaxar TAVALDIYEVA,
TKTI dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA IXTISOSLIK MATNLARI BILAN ISHLASH AMALIYOTI

Annotatsiya: oliy ta’limda soha mutaxassislarining tilga oid bilimlarini rivojlantirish, shu jumladan, ularning matn yaratish texnologiyasini egallashlari muhim. Maqolada “O‘zbek tili” tili fanidan ixtisoslik matnlari ustida ishlash, matn yaratish talablari haqida fikr yuritiladi. Unda kimyo-texnologiya sohasida qo‘llanuvchi ixtisoslik matnlari bilan ishlash bo‘yicha misollar keltirilgan, taklif-tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *matn, matn yaratish, matn tuzilishi, matnni qisqartirish, matnni kengaytirish, ixtisoslik matni, matn yaratish, matn ustida ishlash.*

Аннотация: в сфере высшего образования важно развивать языковые навыки специалистов отрасли, в том числе владение ими технологией генерации текста. В статье рассматриваются требования к работе над специализированными текстами по специальности «Узбекский язык», а также создание текста. Статья содержит предложения и примеры работы со специализированными текстами, используемыми в области химической технологии.

Ключевые слова: *текст, создание текста, структура текста, сокращение текста, расширение текста, текст специальности, работа над тектом.*

Annotation: in higher education, it is important to develop language skills of industry professionals, including their mastery of text generation technology. The article discusses the requirements for working on specialized texts in the field of "Uzbek language" and creating a text. It contains examples of working with specialized texts used in the field of chemical technology, suggestions are given.

Keywords: *text, text creation, text structure, text reduction, text expansion, specialty text, text creation, working on text.*

Kirish. XXI asr fan-texnika taraqqiy etayotgan bugungi zamonda dunyoviy yangi voqeliklar fonida axborotlarning tezkor, cheksiz oqimi jamiyatni tubdan o‘zgartirib borayotgani, ilm-fanning barcha sohalarida yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘layotgani, sohaviy muloqotga kirishish jarayonining takomillashayotgani til ilmida terminologik tizimlarni chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda. 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Prezident Farmoniga muvofiq tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi” o‘zbek tilining jamiyat taraqqiyotidagi amaliy maqsadlarini belgilab berdi.

Jamiyat hayoti ilm-fansiz rivojlanmaydi. Ushbu maqolada mamlakatimizda 2030-yilgacha kimyo sohasini kompleks rivojlantirish dasturiga muvofiq so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar negizida Toshkent kimyo-texnologiya institutida yosh mutaxassislarni tayyorlashda “O‘zbek tili”, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanidan talabalarning tilga oid ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida ularga soha atamalari bilan ishlash, ixtisoslik matnlarini yaratish texnologiyasiga oid tajriba va tavsiyalar keltirildi.

Asosiy qism. Ma’lumki, “O‘zbek tili” fani umumta’lim maktablarida ham bir necha o‘qitiladi. Lekin o‘rta maktab o‘quvchilarida mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalash, mustaqil ilmiy-ijodiy va ixtisoslik matni yaratish malakalari yetarlicha shakllanmagan bo‘ladi. Bu haqida T.U.Ziyodova “Matn yaratish texnologiyasi” nomli monografiyasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantarish masalasi rivojlangiruvchi ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida qayta ishlanishga muhtoj ekanligi haqida fikr yuritadi. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili ta’limini o‘rganishdan asosiy maqsad kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san'atidan boxabar, og‘zaki nutq hamda matn yaratish ko‘nikmalarini mukammal egallagan, ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan iborat” [3:32].

Ko‘rinadiki, maktab ta’lim tizimida ona tili fanini o‘qitishdan asosiy maqsad ta’lim oluvchilarda kommunikativ savodxonlik, nutqiy madaniyat, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda mustaqil va erkin ifodalay olishga o‘rgatishdir. Buning natijasida o‘quvchilarda voqea-hodisalar haqidagi bilimlarini kengaytirish; ularda mazkur voqea-hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni anglash va tahlil qilish, og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘z fikrini erkin, ravon ifodalay olishga o‘rgatiladi.

Oliy ta’limda esa talabaning o‘zbek adabiy tili me’yorlari, nutq uslublari, hujjatchilik tili to‘g‘risidagi o‘rta maktabda olgan bilimlari soha terminologiyasini o‘rgatish orqali rivojlantiriladi, bunda uning og‘zaki va yozma nutqning turli xususiyatlarini bilishiga, bu bilimdan ish faoliyatida foydalish ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga, matn tuzish, uni tarjima, tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish kabi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratiladi.

Matn tilshunosligi bo‘yicha chet el va o‘zbek olimlarining ilmiy izlanishlari, ilmiy xulosalari bizga ma’lum. Masalan, Chex olimi K.Gauzenblaz yozma va og‘zaki nutqni nutqiy jarayon deb hisoblaydi va matnni nutqiy faoliyat mahsuli, natijasi sifatida talqin etadi[2;58-59]; rus tilshunosi I.R.Galperin talqiniga ko‘ra, turli qaytariqlar, uzuq-yuluq gaplarni ham o‘z ichiga olgan og‘zaki nutqni matn deb e'tirof etish unchalik maqsadga muvofiq emas, aksincha, har tomonlama mukammal holatga keltirilgan yozma nutq mahsulini matn deb ko‘rsatadi[1;18]; nemis tilshunosi M.Pfyutse biror maqsad ifodasi uchun o‘zaro munosabatga kirishgan gaplarning mazmuniga ko‘ra birikishidan tashkil topadi ma’lumotni matn deb ta’kidlaydi[5:220], B.Yo‘ldoshev matn informatsiya yetkazish va saqlash hamda yangi ma’nolarni shakllantirish vazifasini bajaradi deb yozadi.[4:9] Demak, matn deb, tugallangan, yozma ko‘rinishda voqelangan, sarlavha va turli leksik, grammatik, mantiqiy, uslubiy munosabatlar asosida bog‘langan gapdan birliklardan tarkib topgan hamda ma’lum bir muloqot maqsadi, pragmatik rejaga ega bo‘lgan nutqiy ijod mahsuliga aytiladi.

Matnda mavzuni talab darajasida yoritish, fikr bayonida tilning tasviriy vositalaridan foydalanish, uslubiy sinonimlarni qo‘llash, dialog, epigraf yoki iqtiboslardan birining bo‘lishi, matn tuzilishiga qat'iy amal qilish, ya’ni abzaslarni to‘g‘ri ajratish, kirish, asosiy qism, xulosaning mavjudligi talab etiladi. Matnda ishlatilgan gaplar tartib bilan berilishi, ularda ma’noviy butunlik va izchillik bo‘lishi, uslubiy g‘alizliklar, takrorlarga, imlo xatolar va tinish belgilarining noo‘rin ishlatilishi kabi xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

O‘zbek tili darslarida matn bilan ishlashning bir necha usullari mavjud bo‘lib, ular tayyor matn bilan ishlashda yoki yangi matn yaratishda qo‘llanuvchi topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Quyida kimyo-texnologiya sohasi uchun tanlangan matnlar bo‘yicha topshiriqlardan misol keltiramiz.

I. Matn yaratishda quyidagi mazmundagi topshiriqlar qo‘llash tavsiya etiladi: berilgan gaplardan bog‘lanishli matn hosil qilish; ilmiy uslubdagi matnni badiiy uslubdagi matnga aylantirish; boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish; berilgan soha atamalari asosida mustaqil matn yaratish; berilgan rasm, chizma yoki jadval asosida ilmiy uslubda yaratish.

Misol. Topshiriq. 2 ta kichik guruhda quyidagi boshlanish qismi berilgan matnni davom ettiring.

1-guruh.

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati – O‘zbekiston Respublikasi kimyo korxonalarini birlashtiruvchi yagona komil korporativ tizim. Jamiyat...

2-guruh.

Korxonalarda yog‘-moy mahsulotlarini ishlab chiqarish bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Yog‘-moy ishlab chiqarish korxonalarida asosiy ishlab chiqarish bo‘limlariga ishlab chiqarish, rafinatsiya, ekstraksiya, dezodoratsiya, qadoqlash bo‘limlari kiradi. Ushbu bo‘limlarning har birida mahsulotlar turli jarayonlarni bosib o‘tadi.

Korxonalarda yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarish quyidagi jarayonlardan tashkil topadi:

Ekstraksiyalash xomashyo tarkibidagi mahsulotlarni turli xil kimyoviy modda va eritmalar yordamida ajratib olish jarayoni bo‘lib, ...

Xomashyo turi	Retsepturaga kiritilgan miqdori	Suv %	Oqsillar miqdori gr	Yog‘lar miqdori gr	Uglevodlar miqdori gr	Energetik qiymati Kkal
Oliy navli yumshoq bug‘doy uni	100 kg	13	10,8	1,3	74	366
Zanjabil kukuni	0,25 kg	10	0,03	0,19	0,03	2
Quritilgan limon kukuni	0,25 kg	10	0,015	0,025	0,232	1,26
Jami:	135 kg	-	23,5	15,6	78	568
Oqsillar, yog‘lar va uglevodlarning nisbati **1 : 0,8 : 3**						
100 kg xomashyodan 13% namlikdagi quritilgan makaron mahsulotining chiqish miqdori 110 kg						

Topshiriq. Berilgan jadval asosida ilmiy uslubda matn yarating.

II. Tayyor matnlar ustida ishlashda quyidagi o‘quv topshiriqlarini qo‘llash mumkin: tanlangan matnga sarlavha topish; kirish so‘z (asosiy qism, xulosa)ni ixchamlashtirish; matndagi uslubiy va imloviy xatolarni tuzatish; gaplarda so‘z tartibi, tinish belgilarning ishlatilishida yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzating; berilgan matnni kengaytirish yoki ixchamlash; berilgan matndan noo‘rin ishlatilgan so‘zlar, so‘z birikmalari, sitatalarni topish va tuzatish va h.k.

Misol. Topshiriq. Matnni abzaslarga bo‘ling va tartibli holda joylashtiring.

Yog‘larga ta’m va hid beruvchi moddalar

Kokos yog‘ini ta’m va hidi uni tarkibida past molekulali kislotalar, metilneonil- metilgeptil, metilundetsilenketonlarni mavjudligi bilan izohlanadi. Raps yog‘i tarkibida o‘ziga xos hidi bo‘lgan tioglyukozidlar, xantal va efir moylarini parchalanish mahsulotlari, yeryong‘oq moyida esa past molekulali to‘yinmagan uglevodorodlar bo‘ladi. Ta’m va hidni yog‘dagi murakkab moddalar aralashmasi hosil qiladi. Bu moddalarga erkin yog‘ kislotalari, quyi molekulali yo- kislotalari (kaprin, kapronva h.k.), alifatik uglevodorodlar, tabiiy efir moylari, aldegidlar, ketonlar, oksi-kislotalar shuningdek, sulfo- va nitrobirikmalar, karotinoidlar, sterinlar, vitaminlar va fosfolipidlarni parchalanishidan hosil bo‘lgan moddalar kiradi. Hidsizlantirish vaqtida zaharli kimyoviy moddalar ham yo‘qotiladi. Yog‘ tarkibida, oz

miqdorda rafinatsiya jarayonida to‘liq ajralmagan fosfolipidlar va ularni yog‘dagi boshqa moddalar bilan birikmalari, shuningdek, oqsil shilimshiq moddalar bo‘lishi mumkin. Ular yuqori haroratda dezodoratorning isituvchi yuzasiga cho‘kib, qo‘shimcha hid manbai bo‘lgan qurum hosil qiladi. Yog‘larni gidrogenlashda, jarayonni rejimi, katalizator tabiati, vodorodni tozaligi va namligiga bog‘liq holda sezilarli miqdorda ta’m va hid beruvchi moddalar hosil bo‘ladi. To‘liq yuvilmagan yog‘da sovun ta’mi, ko‘p miqdorda sorbent qo‘shib oqlangan yog‘da esa tuproq mazasi seziladi. Salomasni o‘ziga xos hidi past molekulali aldegidlar, yog‘ kislotalari, molekulasida 6-9 uglerod atomi bo‘lgan spir vodorodlar mavjudligi bilan izohlanadi.

Topshiriq. Matnni kengaytiring.

Kaliyli o‘g‘itlar o‘simlikka pishiqlik beradi, uning shira, trips va boshqa zararli organizmlarga qarshi chidamliligini oshiradi, meva elementlari to‘kilib ketishining oldini oladi, qurg‘oqchilikka bardoshli qiladi, sifatli mahsulot yetishtirishda katta ahamiyatga ega. Barcha kaliyli o‘g‘itlar kuzgi shudgor paytida va oziqlantirish vaqtida solinadi.

Kaliy xlorid, kaliy tuzi, kaliy sulfatning o‘ziga xususiyatlari va qo‘llanish usullari mavjud.

Topshiriq. Matndagi uslubiy va imloviy xatolarni tuzating.

Hech qachon plastmassani oziq-ovqat bilan birga ishlatmaslikning 7 sababi

Aftidan, bizning oziq-ovqat mahsulotlarimiz har doim plastik bilan aloqada. Xaltadan yoki sumkadan qoldiqlarni plastik idishlarda saqlash haqida gap ketganda, biz uni kundalik hayotda doimo ishlatamiz. Ammo biz oziq-ovqat do‘konidan mahsulotlarni sotib olishdan oldin ham, u plastik jihozlarda qayta ishlanadi va plastik qutilar va bankalarda keltiriladi.

Albatta, bunday keng ishlatiladigan mahsulot xavfsiz bo‘lishi kerak, to‘g‘rimi? Afsuski yo‘q. Plastmassadan olingan kimyoviy moddalar bizning oziq-ovqat mahsulotlarimizga singib ketishi mumkin va ishlab chiqaruvchilar qaysi kimyoviy moddalarni ishlatayotganliklarini oshkor qilishmaydi.

Turli xil plastmassalarning xavfsizligi haqida katta savol belgilari mavjud, ammo biz BPA (bisfenol A) deb ataladigan muntazam qo‘shimchaning endokrin tizimni yo‘q qilishini va ularning xulq-atvor muammolari, saraton va yurak kasalliklari bilan bog‘liqligini bilamiz.

Plastik, shubhasiz, hayotimizni yanada qulayroq qiladi, ammo uzoq vaqt davomida saqlanib qolgan yoki plastmassada tayyorlangan mahsulotlarning achchiq ta’mi bizga nimanidir anglatadi.

Topshiriq. Quyidagi xulosa asosida “Matn” tushunchasini “Klaster” usulida ifodalang.

Matn – bu muayyan mavzudagi tugallangan axborotdir. Matnda gaplar bir-biri bilan mantiqiy bog‘lanadi va ma’lum voqelik haqida ma’lumot beradi.

Matn bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topadigan nutqiy butunlikdir.

Matn – bu til vositalari yordamida umumiy mavzu bilan bir butunga bog‘langan jumlalar guruhidir. Matn turli qismlarga: jumlalar, abzaslar, paragraflar, boblar va boshqalaga bo‘linadi.

Matnning asosiy belgilari: gaplar ma’no va grammatik jihatdan bog‘langan; jumlalar umumiy mavzu bilan birlashtirilgan; gaplar ketma-ket va mantiqiy ravishda joylashtirilgan. Asosiy fikrni matnda aniqlash mumkin.

Xulosa. O‘zbek tili darslarida ixtisoslik matnlari bilan ishlash talabalarning fandan egallagan bilim va ko‘nikmalarini tanlagan ixtisosligi doirasida rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, sohaviy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Bunga ularga ixtisoslikka oid turli nutq uslublarida matn tuzishni, o‘zbek tilidagi axborotni tushunish, unga tanqidiy, tahliliy munosabat bildirishni o‘rgatish, davlat tilida ish yuritish asoslari, sohaga oid hujjat matnlarini yaratishni o‘rgatish orqali erishiladi. Buning natijasida talaba matn tuzish, uni tarjima, tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish kabi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гальперин И.Р. О понятии “текст”// Вопросы языкознания,1974, № 6. – С. 72.
2. Гаузенблаз К. О характеристике и классификации речевых произведений // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск УШ. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 58-59.

Nargiza XIDOYATOVA,
Yunusobod tumanidagi 5-maktab direktori

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SHAXSIY MOBILLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada yuqori sinf o‘quvchilarida shaxsiy mobillikni rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarining nazariy tahlili, yosh xususiyatlariga ko‘ra mazkur mobillik turini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari, bosqichlari, pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: *shaxsiy, shaxsiy mobillik, o‘smirlik davri, o‘quv va kasbiy motivatsiya, muloqot, ijodiylik, refleksiv sifatlar, maqbul qarorlar qabul qilish, integral fazilat, boshlang‘ich ta’lim davri.*

Аннотация: в данной статье проведен теоретический анализ научно-исследовательских работ по развитию личностной мобильности у старшеклассников, проанализированы специфические аспекты, этапы и педагогико-психологические особенности развития этого вида мобильности в зависимости от возрастных особенностей.

Ключевые слова: *личность, личностная мобильность, подростковый возраст, образовательная и профессиональная мотивация, общение, творчество, рефлексивные качества, приемлемое принятие решений, интегральное качество, начальный период обучения.*

Annotation: this article conducts a theoretical analysis of scientific research pertaining to the cultivation of personal professional mobility in high school students. It delves into the specific aspects, stages, and pedagogical-psychological features of fostering this form of mobility, taking into account the age characteristics of the students.

Key words: *personal, personal mobility, adolescence, educational and professional motivation, communication, creativity, reflexive qualities, acceptable decision-making, integral quality, primary education period.*

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida akademik mobillikni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yoritib berish maqsadida tadqiqot doirasida “shaxsiy” “shaxsiy mobillik” kabi tushunchalar tahliliga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqotimizda “shaxsiy” tushunchasining lug‘atlarda izohlangan ma’nolarini tahlil etish taqozo etiladi:

Z.M.Ma’rufov tahriri ostida nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “shaxsiy” so‘zi quyidagicha izohlanadi: Shaxsiy – shaxsning o‘ziga tegishli bo‘lgan, shu shaxsning o‘zi foydalanadigan; xususiy, individual. Shaxsiy mulk, shaxsiy kutubxona, shaxsiy javobgarlik va.h.k .

Oxford Learners Dictionariyes lug‘atida “personal” – (shaxsiy) so‘zi 1. Sizning o‘zingizniki; boshqa hech kimga tegishli emas yoki unga aloqador emas. 2.Shaxsning ishi yoki rasmiy mavqeyi bilan emas, balki shaxsiy hayoti bilan bog‘liq mazmunida ta’riflanadi. Ushbu ta’riflardan anglashiladiki, shaxsiy tushunchasi shaxsning o‘ziga tegishli, faqat unga xos bo‘lgan xususiyatlarni va individuallikni ifodalaydi.

Shaxs mobilligining asosi individual psixologik xususiyatlar (qobiliyatlar) va faol o‘zgarishlarga tayyorlik orqali namoyon bo‘ladigan shaxsiy mobillikni anglatib, T.V.Kotmakova tomonidan quyidagicha izohlanadi: “Shaxsiy mobillik – shaxsning ajralmas sifati bo‘lib, u mobillikning boshqa turlarini samarali amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va shakllangan motivatsiya, harakat qilish qobiliyati, ijodiy faoliyat, samarali muloqot va shaxsning faol ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirishida namoyon bo‘ladi”.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsning mobilligi uning faqatgina jismoniy jihatdan harakatchanligini, faolligini emas, balki uning psixologik xususiyatlari, fazilatlarini shuningdek, emotsional va kognitiv jarayonlarining tezkorligi, ta’sirchanligi va harakatchanligi hamdir.

A.A.Artyushenko o‘z asarlarida shaxsiy mobillikni insonning tashqi sharoitlarni tahlil qilish, maqbul qarorlar qabul qilish, o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ongli ravishda faollashtirish qobiliyati sifatida belgilaydi.

T.B.Kotmakova “shaxsiy mobillik” tushunchasini shaxsning integral sifati tariqasida izohlab, “shakllangan motivatsiya, ijodiy faoliyat, samarali muloqotda namoyon bo‘ladi va shaxsning faol ijodiy o‘zini o‘zi boshqarishiga imkon beradi”, deb hisoblaydi.

Ushbu nazariy tahlillardan mobillik tadqiqotchilar tomonidan jarayon tariqasida va shaxsning integral fazilati mazmunida o‘rganilgan, deb xulosa qilishimiz mumkin. Shuningdek, integral fazilat sifatida mobillikning barcha turlari shaxsning individual psixologik xususiyatlari (o‘ziga xosliklari) va faolligida (tayyorligi) namoyon bo‘ladi, degan xulosaga kelindi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limga bag‘ishlangan va unda umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari quyidagilardan iborat

ekanligi belgilab berilgan: boshlang‘ich ta’lim (1 – 4 sinflar); tayanch o‘rta ta’lim (5 – 9 sinflar); o‘rta ta’lim (10 – 11 sinflar). Ushbu bosqichlarning har biri ontogenezda muayyan yosh davrlariga to‘g‘ri kelishi, yosh xususiyatlari, ya’ni anotomik, fiziologik, psixologik rivojlanish darajalaridagi tafovut va o‘zgarishlar, har bir davrning qonuniyatlari, yetakchi faoliyati, asosiy motivlari, rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq shaxs boshidan kechiradigan inqirozlari mazmun jihatdan farqlarga egaligi bois o‘quvchilarda mobillikni rivojlantirishda yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Mobillikni rivojlantirishning birinchi davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo‘lgan boshlang‘ich maktab yoshiga to‘g‘ri kelib, bu yoshdagi bolaning kognitiv sohasida turli o‘zgarishlar yuzaga kelishi bilan xususiyatlanadi.

Maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayoni bolaning turmush tarzi, ijtimoiy holati, ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishi, sinf jamoasi, oilaviy muhitga nisbatan tasavvurlarini o‘zgarishiga samarali ta’sir ko‘rsatib uning asosiy vazifasi ta’lim-tarbiyadan iborat. Ushbu jarayon yangi bilim, ko‘nikmalarni egallash orqali tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi qonuniyatlar va normalarni o‘zlashtirishi bilan xususiyatlanadi. Ta’lim o‘quvchidan muayyan darajada uyushqoqlikni, intizomlilikni, irodaviy zo‘r berishlikni, faollikni, maqsadga yo‘naltirilganlikni taqozo etib, natijada, ixtiyorsiz xatti-harakatlar o‘rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy faoliyat egallaydi.

Xorij va rus psixologlari (J.Piaje, A.Vallon, J.Bruner, L.V.Zankov, D.B.Yelkonin, P.Ya.Galperin, N.A.Menchinskaya, V.VDavidov, A.Sh.Amonashivili, S.F.Juykov va boshqalar) tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, oqilona tashkil qilingan ta’lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalar tafakkurini jadal sur’atlar bilan rivojlantiradi, aqliy imkoniyatlarini ertaroq ishga tushishiga, ro‘yobga chiqishiga yordam beradi. Chunonchi, bolalar matematik, fizik, lingvistik, politexnik tushunchalarni o‘zlashtiradilar, mustaqil ravishda uncha murakkab bo‘lmagan masalalar, misollar tuzadilar, oddiyroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar.

L.S.Vigotskiy psixologiya faniga inson kamolotining “Eng yaqin taraqqiyot zonasi” va “aktual faoliyat zonasi” deb nomlangan tushunchalarni olib kirdi. Uning birinchisi o‘qituvchining bevosita rahbarligida amalga oshirilsa, ikkinchisi o‘quvchining mustaqil faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishini L.S.Vigotskiy tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o‘sishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgangan bo‘lsa, P.P.Blonskiy mazkur yoshdagi o‘quvchilar tafakkurining o‘sishiga xotiraning taraqqiyotini, tafakkurning ta’sir etishini genetik metod yordamida ochib beradi. Bunda bilishga doir jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish bilan bevosita aloqador bo‘lgan “intizomlilik” sifatining shakllanishiga e’tibor qaratadi.

Ukrain psixologi G.S.Kostyuk tafakkurning rivojlanishini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirib olingan materiallarning mazmunidan, sinaluvchilarning o‘quv faoliyati hamda ular tomonidan topshiriqlarning bajarish shakllari sifat jihatdan o‘zgarib borishini e’tiborga olishda ko‘radi.

A.M.Novikov boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining ta’lim faoliyatining quyidagi xususiyatlarini ta’kidlaydi:

– o‘quv faoliyatini o‘zlashtirishga yo‘nalganlik;

– fan uchun “ichki” natijani olishga intilish;

– bilim, ko‘nikma, qobiliyatlarni rivojlantirish va qadriyatli munosabatlarga doir yangi tajribalarni o‘zlashtirish;

– o‘quvchi ta’limni shaxsning mulki, hayotda o‘zini o‘zi anglash vositasi sifatida tushunadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillarga asoslangan holda boshlang‘ich ta’lim davrida yosh xususiyatlariga ko‘ra beqaror, tez-tez o‘zgarib turuvchi kognitiv qiziqishlar kuzatilib, oqilona tashkil qilingan ta’lim jarayonining natijasi o‘laroq o‘quv topshiriqlarini bajarish shakllarining variativligi, intizomlilik sifatining shakllanishi, xotiraning taraqqiyoti, nutqning o‘sishi o‘quvchilarda o‘quv-bilishga oid shaxsiy mobillikni tarkib topishida ahamiyatga ega degan, xulosaga kelindi.

Mobillikni shakllantirishning birinchi bosqichida kognitiv qiziqishga oid mustaqillik darajasi past bo‘lib, o‘quvchilar yordam tariqasida ham o‘qituvchidan, ham ota-onalaridan yordam so‘rashlari bilan xususiyatlanadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari o‘qituvchi va ota-onalari ko‘magida to‘garaklar, qo‘shimcha ta’lim muassasalarini tanlash orqali dars vaqtida ham, darsdan keyin ham o‘z qiziqishlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishlari mumkin. Natijada o‘quvchi shaxsida ta’limga nisbatan qadriyatli munosabatlarning shakllanishi kuzatilib, ushbu jarayon shaxsda mobillikka oid sifatlarning rivojlanishi uchun boshlang‘ich asos bo‘lib hisoblanadi.

O‘quvchilarda shaxsiy mobillikni rivojlanishi o‘smirlik davrida o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. O‘smirlarning yoshga bog‘liq xususiyatlari, bir tomondan, uning o‘z-o‘zini anglash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash va tanqidiy fikrlashning o‘sishi, noaniqlik, keskinlik va xavotirning kuchayishi ushbu davrdagi o‘quvchilarda tashqi sharoitlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ongli ravishda faollashtirishga intilishni ham yuzaga keltiradi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga ko‘ra maktab o‘quvchilarida shaxsiy mobillikni rivojlanishiga shaxslararo munosabatlar hamda kelajak haqidagi maqsadlarning shakllangani ijobiy ta’sir etishi aniqlandi. Jumladan, o‘smirlik davri xususiyatlarini

tadqiq qilgan D.B.Yelkonin va T.V.Dragunovlarning ta’kidlashicha, o‘g‘il va qizlarning bu yoshda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi hamda tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi ustuvorlik kasb etadi. Shuningdek, I.V.Straxov o‘smirlarning o‘rtoqlik va do‘stlik tuyg‘ulariga oid munosabatlarini o‘rganib, ularni uchta shaklga: ulfatchilik, o‘rtoqlik va do‘stlikka ajratganligini ko‘rishimiz mumkin.

A.Silinaning longityud tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, u bolalarni 7- va 9-sinflarda kuzatib, o‘smirlarga nisbatan ilk o‘spirinlarda kamroq impulsivlik va emotsional qo‘zg‘aluvchanlik, ko‘proq ekstravertlik va emotsional barqarorlik kuzatilishini aniqlashgan. Demak, o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchi-yoshlarda muloqotchanlik va umumiy emotsionallik o‘smirlik davriga nisbatan barqarorlashadi.

E.Erikson 15 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan davrni quyidagicha izohlaydi: “...Bu bosqichda asosiy omil – tengdoshlar bilan muloqot qilish, kasb tanlash, kasbga erishish yo‘li, ya’ni, kelajakdagi hayotni qurish yo‘lini tanlashdir. Shunday ekan, shaxs o‘z qobiliyati, intilishi va maqsadi yuzasidan adekvat tushunchaga ega bo‘lishi, unga muvofiq tashqi olam bilan o‘z rol munosabatlarini qurishga ahamiyat berishi lozim” .

L.I.Bojovich ilk o‘spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga to‘xtalib o‘tib, o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o‘z-o‘zini anglashga hamda axloqiy ongga ta’siriga alohida e’tibor qaratadi.

Ushbu qarashlardan anglashiladiki, o‘z tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi hamda kelajakka nisbatan kasbiy qiziqish va o‘z rivojlanish yo‘nalishlarini mustaqil ravishda aniqlash yoki referent guruh a’zolari yordami bilan belgilash, tanlov kurslari, ixtiyoriy fanlarni tanlash, loyihalarda ishtirok etishga intilish o‘smir shaxsiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni ifodalaydi.

Shuningdek, o‘quvchilarda o‘rganish qobiliyati, ya’ni shaxsning yangi ijtimoiy tajribani faol va ongli ravishda o‘zlashtirish orqali o‘zini o‘zi takomillashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishdan iborat meta-mavzu natijalarni shakllantirishga intilish shaxsiy mobillikni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishimiz doirasida o‘quvchilarda shaxsiy mobillikni rivojlantirish mazmunida 10-11-sinf o‘quvchilariga e’tibor qaratildi. Yuqori sinf o‘quvchilariga xos bo‘lgan asosiy xususiyat o‘qish va mehnat faoliyatining muhimligi, kelajakdagi kasbiy tanlov, ijtimoiy munosabatlarga oid tajribalarning nisbatan boyligi, shaxsiy sifatlarining birmuncha rivojlanganligi bilan ifodalanib, ularda shaxsiy mobillikni rivojlantirish ushbu yoshga oid jihatlarni inobatga olishni taqozo etadi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar va sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish natijasida yuqori sinf o‘quvchilarida shaxsiy mobillikni rivojlantirish mazmunida o‘quv va kasbiy motivatsiya, ijtimoiy jarayonlarda namoyon bo‘luvchi muloqot, ijodiylik hamda refleksiv sifatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi degan, xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son Qonuni // (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son).

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Z.M.Ma’rufov tahriri ostida. II. S-H. – Moskva: «Rus tili» nashriyoti, 1981. 403-b.

3. Котмакова, Т.Б. Личностная мобильность как основополагающее качество будущего специалиста / Т.Б. Котмакова // Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения: сб. материалов ВИИ Всероссийской научно-практической конференции / под общ. ред. С.С. Чернова. Новосибирск, 2009. С.119-124.

4. Артюшенко А.О. [Персонал Мобилитй анд иц Форматион амонг Студенц ин а Просесс оф Пҳйси¬сал Едусатион ин Сесондарй Счоолс]. Педагогй, Псйчологй анд Медисал-Биологисал Проблемс оф Пҳйсисал Едусатион анд Спорт, 2010, но. 5, пп. 6-9. (ин Укр.)

5. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy-eksperimental tahlil / E.G‘oziyev; O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Milliy universiteti. – T.: Noshir, 2010. 360-b.

6. Новейший философский словарь. Минск, – 1999 г. Научное издание. Главный научный редактор и составитель – Грицанов А.А. //ҳттпс://www.е- реадинг.слуб/чаптер.пҳп/149350/995/Грисанов_-_Новеиишии_философскиии_словар%27.ҳтмл

7. Do‘stmuhamedova Sh.A, Nishanova Z.T, Jalilova S.X, Karimova Sh.K, Alimbayeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya // O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Oliy pedagogik o‘quv yurtlari uchun darslik. – TOSHKENT, 2013. 363–188-bet.

8. Мясищев В.Н. Структура личности и отношение человека к действительности // Психология личности: Тексты / под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, А.А. Пузырея. – М.: Изд-во МГУ, 1982.– С.35-38.

Mohro’y MUXTORIY,
FarDU o‘qituvchisi
E-mail: m_muxtoriy@mail.ru

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA STEM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHNING YO‘LLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini stem texnologiyalari asosida o‘stirishning innovatsion usullari tadqiq ostiga olingan bo‘lib, bu pedagogik jarayonda stem texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *STEM, texnologiya, ta’lim dasturi, bilim sifati, ta’lim jarayoni, boshlang‘ich sinf, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, nutq, nutq o‘stirish*

Annotation: in this article, innovative methods of developing the speech of elementary school students based on stem technologies are studied, and the advantages of using stem technology in this pedagogical process are revealed.

Key words: *STEM, technology, educational program, quality of knowledge, educational process, elementary school, elementary school students, speech, speech development*

Аннотация: в данной статье изучаются инновационные методы развития речи учащихся младших классов на основе стеблевых технологий, а также раскрываются преимущества использования стеблевых технологий в данном педагогическом процессе.

Ключевые слова: *STEM, технологии, образовательная программа, качество знаний, учебный процесс, начальная школа, младшие школьники, речь, речевое развитие.*

Kirish. Ayni vaqtda jahon ta’limida teran fikrli va ravon nutqli yoshlarni tarbiyalashga asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Bu sohada Respublikamizda ham ko‘plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da (29.04.2019. PF-5712) quyidagi vazifalar belgilab berilgan.

- O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;
- uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;
- yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;
- yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;
- xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish;[1]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Davlatimizda maktab o‘quvchilarining bilim salohiyati davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishini jahonda ilg‘or va rivojlangan ta’lim sohasi namunalarining milliy ta’lim tizimimizga tadbiq etilishida ko‘rishimiz mumkin. STEM ta’lim texnologiyasi aynan mana shular sirrasiga kiradi. Ushbu tushunchani, dastavval, izohlab olsak, va keyin ta’limdagi ahamiyatiga to‘xtalib o‘tsak.

STEM so‘zi ingliz 4 so‘zning bosh harflaridan tashkil topgan abbreviatura bo‘lib, unda:

S – Science –Fan
T – Technology – Texnologiya
E – Engineering –Muhandislik
M – Mathematics – Matematika yaqin kunlarda ushbu abbreviaturaga
A – Art – San’at bo‘limi ham qo‘shilgan.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, STEM (STEAM) ta’lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat – muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi. «STEM fikrlash» bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog‘liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag‘batlantirilishi lozim. Sifatli kitob bolani STEM tizimiga olib kirishda kuchli tramplin bo‘la oladi. Bu yerda muhim jihat STEM tamoyillariga asoslangan kitobni ensiklopediya kitoblari bilan adashtirmaslik lozim. S-Science turkumidagi kitoblar bolalarni fan olamiga olib kirishda hayvonot olami, dengiz hayvonlari,

o‘simlik, hashoratlar va tabiat bilan tanishtirishda qo‘l keladi. Bunday kitoblar bolaga sezdirmay turib kerakli bilimlarni bera oladi.[4]


STEM ta’lim dasturining eng asosiy maqsadi bolalarning kreativ fikrlashlarini oshirish hisoblanadi. Yurtimizning har bir hududida chet ellik mutaxassislar ishtirokida STEM fanlarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan, ilmiy-texnikaviy ta’lim bilan yoshlarni yanada kengroq qamrab olish, ular uchun qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan Prezident maktablari ochildi. [3] STEM ta’lim texnologiyasi orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirishda biz o‘zimizning quyidagi metodikamizni tavsiya etamiz.

“Abstraksiyalash” metodikasi. Ushbu metodikada o‘quvchilarga qaysi fan o‘tilayotgan bo‘lsa, shu fan xususiyatidan kelib chiqib topshiriq beriladi. Masalan, o‘qish darslarini oladigan bo‘lsak, o‘quvchilar asosan mavhum tushunchalar izohiga qiynaladilar. Sinfdagi o‘quvchilarini 3-4 tadan qilib bir nechta guruhga bo‘linadi va o‘quvchilarga ma’lum tushunchalar yozilgan A3 formatdagi qog‘ozlar tarqatiladi. Masalan, “Mehr”, “Sog‘inch”, ”G‘amxo‘rlik” va hokazo kabi. Guruh a’zolariga tushunchalar yetkazilgach, o‘quvchilar ushbu so‘zlarni suratlarda ifodalashi lozim bo‘ladi. Chizilgan rasmlar boshqa guruh a’zolari tomonidan taxmin qilinib topiladi. O‘quvchilar agar tushuncha izohi tushurilgan suratdan so‘zlarni topa olishmasa, o‘qituvchi unga yo‘naltiruvchi savollar berib borishi lozim bo‘ladi. Metodikamiz asosan, 3-4- sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladi.

Natijalar. Ushbu metodikamiz boshlang‘ich sinflar ichida o‘tkazilganda quyidagicha natijaga erishdik.

№	Sinf	O‘zlashtirish ko‘rsatkichi	“Abstraksiyalashtrish” metodikasi qo‘llangandan keyingi ko‘rsatkich
1	3-sinf	56%	67%
2	4-sinf	58%	72%

Ushbu jadvalni quyidagi diagrammada ko‘rsatdk.



MUHOKAMA

Ushbu metodikani qo‘llash jarayonida STEM texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning til haqidagi bilimlari va ilmiy dunyoqarashlari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar ko‘plab mavhum otlarning ma’nosini anglolmaydilar va mohiyatiga tushunib bormaydilar. Boshlang‘ich sinflarda tadqiqotimiz jarayonida tavsiya etgan metodikamizdan foydalanish, o‘qituvchining ta’lim berishdagi samaradorligini oshiradi.

STEM ta’limining afzalliklari:

• mavzular bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integral o‘rganish.

• ilmiy va texnik bilimlarni hayotda qo‘llash.

• tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

• o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish.

• faol muloqot va jamoaviy ish.

• texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish.

• loyihalarga ijodiy va innovatsion yondoshish.

• har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish.

• dastlabki kasb-hunarga yo‘naltirish.

• bolalarni hayotning texnologik yangiliklariga tayyorlash.[2]

Xulosa. O‘zbekistonda STEM ta’lim dasturi asosida ta’limni tashkil etishning asosiy maqsadi o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini o‘stirish bilan birgalikda bolalardagi kreativ fikrlash va muammoga ijodiy yondashish ko‘nikmasini shakllantiradi.

An’anaviy ta’limda o‘quvchilar yaxlit bilimlarni o‘zlashtirish uchun tayyor materialni o‘rganish bilan kifoyalangan bo‘lsalar, STEM texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar ma’lum muammolar ustida ishlaydilar. STEM ta’lim dasturining qo‘llanilishi jarayonida bolalarning fikrlashlarini ma’lum bir bosqichlarda o‘sganligini ko‘rish mumkin.

STEAM orqali o‘quvchilarda kreativlik, qunt, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat – muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 29.04.2019-yildagi PF-5712-sonli qarori.

2. H. H. Urunova “Steam ta’lim tamoyillari va ularni maktablarda qo‘llash” Pedagog jurnali 44-son 4–to‘plam may. 2023. 119-b.

3. M. Jalolov. Toshkent shahridagi Inha universiteti rektori. “STEM ta’lim zamonaviy o‘zbek jamiyatida uning ahamiyati qay darajada?” “Yangi O‘zbekiston” https://yuz.uz/uz/news/stem-talim-?view=zamonaviy-maktab-liderlar-nigohida- murojaat sanasi: 10 Fevral 2023-yil

4. https://arm.sies.uz/?p=4228 murojaat sanasi: 22.11.2023.

Mahmuda TADJIBAYEVA,
A.X. BOBOYEV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti O‘zbek tili va professional ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi;
Maftunaxon TO‘LQINOVA,
Professional ta’lim yo‘nalishi talabasi

MASOFAVIY TA’LIM AFZALLIKLARI

Annotatsiya: misollar keltirilgan, chunki ko‘plab xorijiy universitetlarda bunday o‘qitish uzoq vaqtdan beri amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: *texnologiya, masofa, ma’lumot, universitet, ta’lim, usul, o‘qitish.*

Аннотация: в данной статье рассказывается о дистанционном обучении, о его преимуществах и методах преподавания. Приводится примеры и сведения об использовании компьютерных технологий дистанционно, так как во многих зарубежных ВУЗах такое обучение уже практикуется давно.

Ключевые слова: *технология, дистанция, информация, университет, образование, метод, обучение.*

Annotation: this article talks about distance education, its advantages and teaching methods. Examples of information on remote use of computer technologies are given, since such training has been carried out for a long time in many foreign universities.

Key words: *technology, distance, information, university, education, method, education.*

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o‘zgarmay kelgan holatlarni o‘zgrtirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa veb-saytlar bilan almashinishida namoyon bo‘ldi. Endilikda esa ta’lim tizimida ta’lim olishning an'anaviy shakllari o‘rniga masofaviy ta’lim elementlari kirib keldi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi ananaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli - masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi. Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o‘quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo‘ladi. Ma’lum sabablarga ko‘ra, ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil olish imkoniyati bo‘lmagan, masalan, sog‘ligi taqozo etmaydigan, mutaxassisligini o‘zgartirish niyati bo‘lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo‘lgan kishilar uchun masofaviy o‘qitish qulay o‘qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma’lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya’ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan.

Oldindan tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirib o‘tamiz.

Masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir. Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim majmuidir.

Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Nima uchun masofaviy ta’lim kerak bo‘lib qoldi? – degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

– Ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog‘liqmasligi va boshqalar).

– Ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.

– Ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.

– Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.

– Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o‘qitishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Masofaviy o‘qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagi qo‘llanish shartlari bilan farqlanadi:

– geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);

– mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;

– kommunikatsiya va transport vositalarining

rivojlanish darajasi;

– ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo‘llanish darajasi;

– ta’limda qo‘llaniladigan an'analari;

– masofaviy o‘qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

– Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha o‘quvchilar, talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.

– Yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potentsiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish.

– Asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo‘shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.

– Ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim muhitini kengaytirish.

– Uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish.

– Ta’lim sifatini saqlagan holda yangi printsipal ta’lim darajasini ta’minlash.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonida (xususan, masofaviy ta’lim jarayonini) qo‘llash, asosan, ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo‘lsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanganligidir.

1. Texnik jihozlar bilan ta’minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qurilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferensiya jihozlari va hokazo.

2. Dasturiy ta’minotga: mavjud qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta’minotlardan tortib shu soha uchun mo‘ljallangan dasturlar to‘plami kiradi. So‘nggi yillarda G‘arbda ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llanilib kelinayotgan Internet yoki Interanet tarmog‘i orqali elektron shakldagi ta’lim turi Elearning (elektron ta’lim) atamasi bilan kirib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E-learning: concepts, trends, applications. Corporation Trust Center by Epignosis LLC 2013.
2. The pedagogy of the Massive Open Online Course: the UK view. Siân Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education Academy, 2013.
3. Evaluation of Evidence - Based Practices in Online Learning: A Meta Analysis and Review of Online Learning Studies. U.S. Department of Education Office of Planning, Evaluation, and Policy Development Policy and Program Studies Service, 2010.
4. Arafeh, S. The implications of information and communications technologies for distance education: Looking toward the future / S. Arafeh. — Arlington, VA: SRI International — Final Report. — 2004.
5. Bates, A.W. Distance education in a knowledge-based society / A.W. Bates // A keynote address in the ICDE Conference on The Metamorphosis of Distance Education in the Third Millennium — Toluca, Mexico. — 2007.

Sabohat URAZBOYEVA,
Urganch innovatsion university o‘qituvchi-stajyori
sabohat@ic loud.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH USULLARI

Annotatsiya: maqolada Vatan va vatanparvarlik tarbiyasi haqida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanpavarlik ruhida tarbiyalashning milliy, tarixiy asoslari, o‘quvchilarni tarbiya darslarida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash shakli, vosita va usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Vatan, vatanparvarlik, mustaqillik, qadriyat, mehr,xotira.*

Annotation: the article discusses the Motherland and patriotic education, the national and historical foundations of educating elementary school students in the spirit of patriotism, the form, means and methods of educating students in the spirit of patriotism in kindergarten.

Key words: *Motherland, patriotism, independence, value, love, memory.*

Аннотация: в статье рассматриваются Родина и патриотическое воспитание, национально-исторические основы воспитания учащихся начальных классов в духе патриотизма, формы, средства и методы воспитания учащихся в духе патриотизма в детском саду.

Ключевые слова: *Родина, патриотизм, независимость, ценность, любовь, память.*

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy sohalarida katta islohotlarning sodir bo‘lishi kelajak avlod tarbiyasi oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodning ana shu o‘zgarishlarga dadil moslasha oladigan yuksak bilim, mahorat, keng dunyoqarash va e’tiqodga ega bo‘lishini talab etadi. Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o‘tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo‘lgan tushunchadir. Vatan ostonadan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan go‘shadan boshlanadi.Shuning uchun bola o‘zi yashab, nafas olib turgan xonadonida ulg‘ayib voyaga yetishishida muhtasham va qudratli makon bo‘lgan ona zaminiga mehr-muhabbat va sadoqati abadiy bo‘lmog‘i zarur. Har bir insonning vataniga bo‘lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-ona mehri bilan uning vujudiga singib boradi, ota-onasini avlod-ajdodlari, ularning an’analari, urf-odatlari, kasb-korlarini sevuvchi farzand o‘zgalarni ham sevadi. Millati, xalqi, adabiyoti, san’ati, dini va madaniyatidan g‘ururlanib, o‘zi o‘sgan yurt tabiatidan ilhomlanib, uning muqaddas tuprog‘i qadrini anglaydi. Insondagi eng oliy tuyg‘u — Vatan tuyg‘usidir. O‘zi tug’ilib-o‘sgan ona yurtini jonqadar sevadigan, o‘zga yurt tabiatidan o‘z yurti tabiatichalik zavq olaolmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadigan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan butun aql-zakovati, qalb qo`ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go‘zalligi, rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg‘u namoyon bo‘ladi.

Vatan, xalq bor joyda vatanparvarlik tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Bu tuyg‘u insonni jasoratga,ezgulikka halol mehnatga da’vat etadi. Millatni millat bo‘lib shakllanishida turli hayot to‘fonlaridan omon saqlab qoladigan ham vatanparvarlik tuyg‘usidir. Vatanparvarlik - kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy axloqiy xislatlari,fazilatlaridir. Vatanparvarlik — inson ma’naviy yetukligining yuksak mezonlaridan istiqlol mafkurasining negizini tashkil etuvchi qadriyatli va his-tuyg‘ularidan biridir. Vatanparvarlik — halol mehnat qilish zamirida mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib ulush qo‘shish, el-yurt manfaatlarini o‘z manfaatlaridan yuqori qo‘yish demakdir. Bolalarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni bolaning maktabgacha yosh davridan boshlash ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir. Endilikda hayotimizning barcha sohalarida respublikaning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, avlod ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an’analari, urf odatlari va ko‘nikmalarini hisobga olib, bolalarimizda xalqimizga, o‘z vataniga mehr, samimiylik, histuyg‘ularini shakllantirish, ularni rivojlanitirish, tarbiya nazariyasi va amaliyotiga tatbiq etish muhim dolzarb muammoga aylanmoqda. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvatlilikni shakllantirish tarbiyaning eng muhim qismlaridan biridir. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida eng avvalo ularning ruhiy jarayonlarini o‘stirish, rivojlantirish va takomillashtirib borishga yordam beruvchi omillarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, bolalar tarbiyasida oliy his-tuyg‘ularini shakllantirib, o‘stirib borish–ularni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib boruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo‘lganshart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi. Vatanparvarlik yuksak e’tiqod, vatan va millat oldidagi mas’uliyat, yuksak burchni anglashdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish ham eng muhim vazifalardan

biri hisoblanadi.

Bola yosh jihatdan kamol topar ekan unga berilgan bilim va tarbiya asosida shakllanib kamol topadi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatan tushunchasini vatanparvarlik,unga muhabbat tuyg‘ularini qalblarida jo qilib borish kerak.

Boshlang‘ich sinf 4-sinf O‘qish savodxonligi darsligida o‘quvchilarga vatan tushunchasini shakllantirish unga munosib farzand bo‘lish tuyg‘ularini quyidagi mavzular asosida shakllantiramiz:

1.Yagonadir Vataning sening!

2.Buyuk mehring

3.Vatan mehri

Vatan yoshlari kabi bir qancha mavzular asosida o‘quvchilarda vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirib boramiz.

Shular qatorida Xurshid Davronning “Yagonadir Vataning sening” hikoyasi orqali o‘quvchilarga bilim ulashilgan bo‘lib bunda:

Vatan o‘zi nima?

Donishmandlardan biri:”Vatan — bu sening kindik qoning tomgan tuproq”, — desa, ikkinchisi:” Vatan — bu sen suygan odamlar manzili!”—deydi.Boshqasi: “ Vatan — millat xotirasi”,—deb zavqlanadi.Biz Vatan kalimasiga ne-ne so‘zlarini qo‘shib,aziz qadriyatlarga nom topamiz:Vatan tuprog‘i,Vatan tuyg‘usi,Vatan tarixi,

Vatan kelajagi…..

Inson uchun havo,quyosh,suv,non,ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa,Vatan ham shunchalik mo‘tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi.Vatanga muhabbat shu tuproqqa—ona qishloq dalalariga,ko‘klam chog‘ida lolazorga aylangan qir-adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog‘larga,hatto yantog‘-u saksovuldan boshqa giyoh unmagan dasht-u sahrolarga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi.

Vatan muhabbati ota-onaga,aka-ukaga,opa-singilga,do‘st-birodarga bo‘lgan mehr bilan qo‘shilib ketadi.

Nafaqat inson, hatto qushlar ham o‘z yurtlarini sog‘inadi.Dov-daraxtlar o‘z yurtlarini qo‘msaydi. Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko‘radigan daraxt bo‘lar ekan. Fransuzlar uni havas bilan o‘z yurtlariga olib kelib ekishibdi.Nihollar o‘sib,ko‘kka bo‘y cho‘zibdi……

Yillar o‘tib,bog‘ o‘rmonga aylanadi.Ammo oradan o‘ttiz-qirq yil o‘tgach,kutilmagan voqea yuz beribdi:suv ichib yashnab turgan daraxtlar o‘z-o‘zidan qurib qolibdi.Olimlar falokat sabablarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach,hayratdan yoqa ushlashibdi.

Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit’asida qattiq qurg‘oqchilik bo‘lib,u yerdagi shu navli daraxtlar ham qurib qolgan ekan.Shunda olimlar bir-birlaridan ancha olisda bo‘lgan daraxtlarni birlashtiruvchi qandaydir kuch, qandaydir sir bor ekan,degan xulosaga kelishibdi.Ko‘rdingizmi,aqlimiz anglashga ojiz .Bu sirli aloqa Vatan tuyg‘usi bilangina izohlanishi mumkin.

Vatan—ona kabi yagona! Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram.Mukarramligi bilan esa bebaho va beqiyosdir!

Ushbu hikoyani o‘quvchilar o‘qib chiqar ekan hayvonlar,qushlar hatto o‘simliklarni ham o‘z vatani borligi, vatandan ayro yashay olmasligini tushunadilar.

Bundan tashqari 4-sinf o‘quvchilari vatan haqidagi maqol va hikmatli so‘zlarni o‘rganib boradi:

Bulbul chamanni sevar,odam — vatanni.

Vatan gadosi — kafan gadosi.

Vataning tinch — sen tinch.

O‘z uyim — o‘lan to’shagim

Vatan taqdiri har bir kishining taqdiridir.

Vatanparvarlik — bobolardan qolgan meros.

Ona yurt — oltin beshik.

O‘z diyorini gullatganning baxti gullaydi.

Har bir nihol o‘ziga xos tuproqda ildiz otadi.

Vatan uchun qurbon bo‘lganlarning xoki muqaddasdir.

Vatanga falokat — o‘zingga halokat.

Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas.

Vatansiz inson — kuysiz bulbul.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish savodxonligi darslarida fikrlash va tafakkur doirasini kengaytirishga bolani erkin xulosa chiqarishga o‘rgatish o‘qish savodxonligi darslarini oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri hisoblanadi.Shuni inobatga olgan holda 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligida Vatan tushunchasini erkin fikri bilan namoyon qilish uchun “Yangi O‘zbekiston — yangi maqsad sari rivojlanish” mavzusida matn tuzib, so‘zlab berishga tayyorlanish,

“Yurtim uchun yangi g‘oya” mavzusida suhbat qurish topshiriqlari darslikda berilgan.

O‘quvchilarga bilim berar ekanmiz eng avvalo o‘quvchilarga ta’lim berish bilan tarbiya jihatlarini qolaversa vatan tushunchasi,vatanni oiladan boshlanishi maktabimiz ham kichik vatan timsolida deb tushuntirgan holda ularda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K.,Matchonova S.,G‘ulomova X.,Yo‘ldasheva Sh.,SaryievSh.Ona tili o‘qitish metodikasi. – T:Bayoz, 2022. 304-b.

2. Matchonov S.”Boshlang‘ich sinflarda ona tili va uni o‘qitish metodikasi”(Boshlang‘ich ta’lim talabalari uchun darslik).T:Ishonchli hamkor,2021-y

3. Boshlang‘ich sinf 4-sinf O‘qish savodxonligi darsligi.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent-”O‘zbekiston” -2016. 56-b.

Go‘zalxon YOQUBJONOVA,
Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti
Boshlang‘ich ta`lim kafedrasi o‘qituvchisi
Gmail: yakubjanovaguzalxon@gmail.com

INTEGRATSION TA`LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Tabiiy fanlar misolida)

Annotatsiya: boshlang‘ich sinflardagi o‘qish va tabiatshunoslik fanlarining umumiy jihatlari va ulardagi ilmiy aloqadorlikni aniqlashda integratsion yondashuv haqida nazariy va amaliy tavsiyalar berilmoqda. Agar integratsiyali darslardan muntazam foydalanilsa, o‘quvchilarning yutuqlari darajasining o‘sishini, faolligining oshishini ta’minlash mumkin, zero, undan foydalanish o‘quvchilarga dunyoni bir butun ko‘rishga, samarali o‘qitishga, o‘quv materialiga ijodiy yondashishni rivojlantirishga, o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqtini tejashga, ijtimoiy tajribasini boyitishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, ta`lim, integratsiyali dars, me`yoriy hujjatlar, metod, innovatsiya va integratsiya.*

Аннотация: даны теоретические и практические рекомендации по общим аспектам чтения и естествознания в начальных классах и интеграционному подходу при определении их научной значимости. При регулярном использовании интегрированных уроков можно обеспечить рост успеваемости учащихся, повысить их активность, поскольку их использование помогает учащимся видеть мир в целом, эффективно преподавать, развивать творческий подход к учебному материалу, Это помогает сэкономить время преподавателей и учащихся и обогатить их социальный опыт.

Ключевые слова: *интеграция, образование, интегрированный урок, нормативные документы, метод, инновации и интеграция.*

Annotation: theoretical and practical recommendations are given about the general aspects of reading and natural sciences in elementary grades and the integrative approach in determining their scientific relevance. If integrated classes are regularly used, it is possible to ensure the growth of students' achievement level, increase of their activity, because its use helps students to see the world as a whole, to teach effectively, to develop a creative approach to educational material, It helps to save the time of teachers and students and enrich their social experience.

Key words: *integration, education, integrated lesson, normative documents, method, innovation and integration.*

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini takomillashtirish uchun integratsion ta’lim muhitini yaratish juda muhimdir. Bu, tabiiy fanlar misolida quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Tarkibiy ta’lim rejasi: O‘quvchilar uchun to‘g‘ri tarkibiy ta’lim rejasi tuzish kerak. Bu, o‘qitish davrida o‘quvchilarning har bir fan uchun o‘rganish kerak bo‘lgan asosiy mazmunlarni belgilashga yordam beradi. Buning uchun, fan dasturlarini, mavzularni, ma’lumotlarni va o‘quv vositalarini belgilashingiz mumkin.

2. Ko‘rsatmalarni integratsiya qilish: Tabiiy fanlar o‘qitishda ko‘rsatmalarni integratsiya qilish juda muhimdir. Misol uchun, kimyo va biologiyani bir vaqtda o‘qitish orqali o‘quvchilar o‘rtasida bog‘lanish yaratish mumkin.

3. O‘quvchilarning amaliyotini oshirish: Tabiiy fanlar misolida o‘quvchilarning amaliyotini oshirish uchun laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘rganish va tashkil etish muhimdir. Bu o‘quvchilarga amaliyotning asosiy tamoyillarini tushunishga va o‘rganishga imkoniyat beradi. [1]

4. Tarbiyaviy usullar va texnologiyalardan foydalanish: Integratsion ta’lim muhitida tarbiyaviy usullar va texnologiyalardan samarali foydalanish muhimdir. Bu, o‘quvchilarni qiziqtirish, ularga hamkorlik qilish va o‘rganishni oshirishga yordam beradi.

5. Barcha o‘quvchilarga imkoniyatlar berish: Integratsion ta'lim muhitida barcha o‘quvchilarga o‘rganishga imkoniyat berish muhimdir. Bu, har bir o‘quvchining o‘zining qobiliyat va talablarini qondirishga yordam beruvchi individual va guruh ishlari, o‘quvchining o‘zining o‘zini baholashining yaxshi tizimini o‘rnatish, har bir o‘quvchiga yordam beruvchi qo‘llanmalar tayyorlash kabi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

6. Tashabbuskorlik va inklyuzivlik: Integratsion ta'lim muhitida tashabbuskorlik va inklyuzivlik tamoyillariga e'tibor berish muhimdir. Bu, har bir o‘quvchining o‘zining qobiliyatlarini oshirishga va barcha o‘quvchilar uchun o‘rganishga imkoniyat berishga asoslanadi.

Asosiy qism. Bu muhim tamoyillar integratsion taIntegratsion ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini takomillashtirishning bir necha muhim usullari mavjud. Bunday usullardan ba’zilarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Ko‘rsatkich tizimi: O‘quvchilar uchun darslar va mavzular bo‘yicha ko‘rsatkich tizimi tuzish juda

muhimdir. Bu, o‘quvchilarning o‘qishga qo‘yiladigan maqsad va natijalarni tushunishiga va belgilashiga yordam beradi. Ko‘rsatkich tizimi o‘quvchilarning o‘zlashtirish va zamonaviy bilimlarni o‘rganganlariga ko‘maklashadi.

2. Amaliyotga asoslangan o‘qish: O‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashlari va o‘zini sinovdan o‘tkazishlari uchun amaliy mashg‘ulotlarni o‘rnatish muhimdir. [2] Bu sayyohliklar, laboratoriya ishlari, kasb-hunar mashg‘ulotlari va boshqalar kabi amaliyotlar orqali amaliy bilimlarni joriy etishga imkon beradi.

3. Bog‘lanishlar yaratish: Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini takomillashtirishda mavjud fanlar orasidagi bog‘lanishlarni o‘zlashtirish muhimdir. Misol uchun, matematika va fizika orasidagi bog‘lanishlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning umumiy tushunchalarini kuchaytirish mumkin.

4. Texnologiyalardan foydalanish: Texnologiyalar, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Interaktiv darslar, interaktiv jadvallar, o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantirish uchun guruh ishlari, onlayn ma'lumotlar va interaktiv o‘quv vositalaridan foydalanish muhimdir.

5. Tahlil va muhokama: O‘quvchilar o‘qish jarayonida tahlil va muhokama qilishni o‘rganishi kerak. Bu, o‘quvchilarni o‘z fikrlarini ifoda qilish, muhim savollarni ko‘rish va javoblashga o‘rgatadi.

6. Tashabbuskorlik va inklyuzivlik: Integratsion ta'lim muhitida tashabbuskorlik va inklyuzivlik tamoyillariga e'tibor berish kerak. Barcha o‘quvchilarni qondirish, ularga imkoniyatlar berish va ularning ajralmasligini ta'minlash uchun harakat qilish kerak. Bu, har bir o‘quvchining o‘zining talablarini qondirish, o‘zlashtirish va rivojlantirishga imkon beradi.

Bu usullar boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini takomillashtirishda yordam berishi mumkin. Buning bilan birga, o‘quvchilar motivatsiyalash va ilg‘orlikni oshirish, shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantirish va o‘zlashtirishni ta’minlash uchun ham muhimdir.

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar, o‘quvchilarga dunyo tabiiy jarayonlarini, moddalarni va ulardan kelib chiqadigan qonunlarni tushuntirishni maqsad qiladi.

Tabiiy fanlar, qobiqiy atmosfera, suv, yer yuzi va uning shakllari, tabiiy obyektlar, o‘ngan atmosfera, esa o‘quvchilarning o‘zaro aloqalarida kuzatiladigan boshqa asosiy mavzularni o‘z ichiga oladi. Ushbu fanlarning o‘qitilishi o‘quvchilarda jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi.[3]

Xulosa. Integratsion ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini takomillashtirishning muhim usullarini tavsiflagan bir qator tasvirlardan iboratdir. Bu usullar o‘quvchilarning o‘rganish qobiliyatlarini va tushunchalarini rivojlantirishga yordam beradi, ularni amaliyotga tenglashtiradi va ularga motivatsiya beradi. Tarbiyalashda ham tashabbuskorlik, inklyuzivlik va shaxsiy rivojlanishga e’tibor berish muhimdir. Integratsiya negizida o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish va tabiatshunoslik darslarini o‘qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish-integratsiyalash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, ona tili, musiqa va boshqa o‘quv fanlaring nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bu kabi bolalarning tabiat va o‘qish fanlaridagi barcha narsalarning bog‘liqligini ko‘rishga o‘rgatish kerakligini har bir iste’dodli o‘qituvchi seza oladi, biladi..

O‘qish va tabiatshunoslik darslarini o‘qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning asosiy maqsadi — boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur hosil qilish va tabiatdagi olam, ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko‘rishi va tasavvur qila olishi muhimdir. O‘qish va tabiatshunoslik darslarini o‘qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish, mavzularni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda ta’limga integratsiyalashgan yondashuv metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Ya’ni, yaxshi shakllangan tuzilish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘qish va tabiatshunoslik o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi: tarixi; va nazariy asoslari (muammoli leksiyalar kursi). – Samarqand, 2003.

2. R.A.Mavlonova, N.H.Raxmonqulova Boshlang‘ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi. (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2009.

3. Haydarov Q., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish. —T., 1992.

Saxob KARIMOV
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail address: karimovsaxob1@gmail.com.

MUSIQA DARSLARINI XALQIMIZ O‘TMISH TARIXI BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIKDA TASHKIL ETISH YO‘LLARI VA MEXANIZMLARI

Annotatsiya: bugungi kunda tarixiy, madaniy va ma’naviy axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish san’atning sohalarida bo‘lganidek, musiqiy san’atda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Asrlar bo‘yi ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan musiqiy madaniyatimizni asrash, bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Mana shu maqsadni amalga oshirishda barcha fanlar qatori musiqa ta’limi va tarbiyasining ham o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Kalit so‘zlar: *xalqimiz, milliy qadriyatlarimiz,o‘tmish, musiqa, tarbiya,idrok, o‘zbek musiqasi,tarix, san’at,ta’lim,o‘quvchi, bilm, malaka,ko‘nikma,dars.*

Аннотация: сегодня перевосприятие широких пластов исторических, культурных и духовно-нравственных ценностей ярко проявляется как в музыкальном искусстве, так и в сферах искусства. Сохранение нашей музыкальной культуры, дошедшей до нас от наших предков на протяжении веков, остается актуальной задачей и сегодня.

В реализации этой цели, наряду со всеми другими предметами, роль и значение музыкального образования и воспитания несравненны.

Ключевые слова: *наш народ, национальные ценности, прошлое, музыка, образование, восприятие, узбекская музыка, история, искусство, образование, ученик, знание, умение, умение, урок.*

Annotation: today, the re-perception of broad layers of historical, cultural and spiritual moral values is clearly manifested in musical art as well as in the fields of art. Preservation of our musical culture, which has come down to us from our ancestors throughout the centuries, remains an urgent task today.

In the realization of this goal, along with all other subjects, the role and importance of music education and upbringing is incomparable.

Key words: *our people, national values, past, music, education, perception, Uzbek music, history, art, education, student, knowledge, skill, skill, lesson.*

Bugungi kunda musiqa tarbiyasi oldiga qo‘yilgan vazifalar o‘quvchi yoshlarda barcha qobiliyatlarni o‘stirish, ularning ijodiy intilishlarini rag‘batlantirish bilan bir qatorda o‘quvchilarga o‘zbek musiqasi bosib o‘tgan tarixiy jarayon, uning umuminsoniyat tarixida tutgan o‘rni milliy musiqiy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularga musiqiy –tarixiy bilimlarni berish, musiqa san’atining tarixi bilan jamiyat taraqqiyotining bog‘liqligini tushuntirishdan iborat ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bir necha ming yillardan buyon xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan mumtoz musiqa asarlarimiz, maqomlar, marosim qo‘shiqlari, doston qo‘shiqlari, yor-yorlar, o‘lanlar va boshqa folklor asarlarini milliy qadriyatlarimiz sifatida ardoqlab, ularning kelib chiqishi tarixi, qaysi regionga xosligi va ijro uslublari ularni yaratgan va ijro etgan mashhur shaxslar, qadimiy cholg‘u sozlarimiz, ularning paydo bo‘lishi takomillashishi, raqs san’ati, dostonchilik va boshqa musiqiy bilimlarni yosh avlod ongiga singdirish ularni avvalo vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ulug‘ maqsad uchun xizmat qilsa, ikkinchidan: yosh avlodning o‘tmish tariximiz davomida yuz bergan voqea va hodisalardan xabardor bo‘lishga undan to‘g‘ri xulosa chiqarishga, saboq olishga undaydi, uchinchidan: yosh avlodni ota bobolarimiz musiqiy merosidan bahramand bo‘lishga, ulardan estetik zavq olishga, bu musiqiy asarlar mazmunidan to‘g‘ri xulosa chiqarishga, shu orqali ularning nafosatini tarbiyalash, kamolga yetishiga erishishimiz lozim. Shunday ekan bugungi kunda musiqa o‘qituvchisi DTS lari talablaridan kelib chiqqani holda musiqa darslarini fanlararo integratsiyalashgan holda tashkil etishi hamda o‘quvchi yoshlarimizda o‘tmish tariximizdan to‘g‘ri xulosa chiqarishga, musiqiy me’rosimizdan bahramand bo‘lishga, musiqiy asarlar mazmun mohiyatini anglab yetishga undashi maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

O‘zbek xalqining ma’naviyatida millatning o‘tmishi, hozirgi kuni o‘z ifodasini topgan. O‘zbek musiqasi bosib o‘tgan tarixiy jarayon, uning umuminsoniyat tarixida tutgan o‘rni, milliy musiqiy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularga musiqiy tarixiy bilimlarni berish musiqa san’atining tarixi bilan jamiyat taraqqiyotining bog‘liqligini tushuntirishdan iborat. O‘zbek musiqasini qadimiy davrlarda, temuriylar davrida, rivojlanganligini, ulug‘ siymolar va musiqashunoslar nomlarini va ularning musiqa ilmida yaratgan kashfiyotlari hamda

uni rivojlantirishdagi hissalarini bilish o‘quvchilarda milliy g‘urur, qadr- qimmat, ehtirom tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi 2022-yil 2-fevraldagi qarori, umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi boshqa o‘quv fanlari qatori musiqa o‘quv fanining o‘qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

Umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan musiqa madaniyati fani o‘quvchi yoshlarni go‘zallikni his eta oladigan, borliqdagi go‘zallikka mehr va havas bilan qaraydigan milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash ko‘zda tutiladi.

Shuningdek, o‘quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san’atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa tarixiga qiziquvchi o‘quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta’lim tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o‘rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga molik bo‘lgan madaniy durdonalardan bahramand bo‘lishni ta’minlaydi.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadini amalga oshirish yo‘lida quyidagi vazifalar belgilandi:

— umumta’lim maktablaridagi “musiqa madaniyati” darslarini mazmuni, tashkiliy pedagogik nazariy va amaliy tuzulishi, o’qitish uslubini o’rganinsh,

— musiqa san’ati orqali o’qituvchi yoshlarni yoshlarni milliy qadryatlarimizga vorisiylik ruhida tarbiyalashga oid ilmiy-uslubiy manbalarni o’rganish ;

— musiqa pedagogikasi bo’yicha taniqli olimlar, uslubiy o’qituvchilar va soha mutahassislari bilan suhbatlar o’tkazish ;

— mavzu bo’yicha tajriba sinov ishlarini olib borish ;

— tajriba kuzatuvlarining tahliliy natijalari asosida ilmiy asosli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish ;

Umumta’lim maktablaridagi musiqa darslarining asosiy faoliyatlari negizida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazishda musiqa tarixiga oid manbalardan o‘rinli foydalangan holda ularni o‘quvchilar tomonidan ongli idrok qilishga erishish asosiy o‘rin egallaydi.

Beshinchi sinfda musiqa ta’limi va tarbiyasi o‘ziga xos murakkab pedagogik va psixologik jarayonni talab

qiladi. Ushbu tadqiqot ishini bajarish davomidagi qo‘llanilgan ish usullari, tavsiyalar va tahliliy xulosalar soha xodimlari, bo‘lg‘usi mutaxassislar, kadrlar uchun foydali ahamiyat kasb etish mumkin.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda komil inson shaxsini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan hozirgi sharoitda ma’naviyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan musiqiy madaniyatimizning o‘rni beqiyosdir. Zero, musiqa, qo‘shiq har doim xalqimizning jon ozig‘i bo‘lib kelgan. Ulug‘ shoirimiz G‘afur G‘ulom san’atni “Odamlarning teng yarmi yuragi joni” deb ta’riflaganda yoki sevimli shoiramiz Saida Zunnunova musiqa san’atining tarixiy haqiqatini ifodalashda katta imkoniyatga ega ekanligini ta’kidlab:

Tarixdan so‘ylama, menga, ey odam,
Bitta chalib bergin «Cho‘li Iroq»ni-
deganda qanchalar xaq edi!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.B.Karimov."Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning oziga xos uslublari". Alma mater Samarqand.2014-yil 2-kitob. 51-52-bet.

2. Karimov S. Musiqa darslarining fanlararo integratsiyalashuv jarayonidagi muammolari va yechilishi zarur bolgan vazifalar. OzMU xabarlari. 2022/1/5/1. Toshkent 2022.

3. Karimov S. “The importance of using interdisciplinary integration in shaping students knowledge and skills”. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). India 2021-yil. 8-avgust. 264-268 bet.

4. Karimov S. “Oquvchilarning bilm va malakalarini shakllantirishda fanlararo integratsiyalashuvni qollashning ahamiyati”. Masofaviy talimni tashkil etishning pedagogic-psixologik jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toplami. Toshkent-2021-yil noyabr. 295-297-bet.

5. Karimov S. “Umumtalim maktablarida musiqa darslarini jismoniy harakatlar uygunligida tashkil etishning oziga xos uslublari”. Osiyo sanati. Tom 1.№ 2. 2021-yil. 05.17.Jurnal muzыki i iskusstva, izvlecheno ot https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view.

6. Karimov.S “Content and Functions of Teaching Music Subjects”. International Journal of Multicultural and Multireligious understanding. Hamburg.Germany. June 2022.

7. E.Abdukarimova. Ilm ham jamiyet Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti “Texnologik loyihalash- musiqa mashgulotlarida samarali talim”. 2019 (№1) ISSN 2010-720X.

Nilufar XUDOYBERDIYEVA,
SHDPI o‘qituvchilari

TEXNOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINI O‘QITUVCHILIKKA TAYYORLASHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya: maqolada differensial ta’lim jarayoni tamoyili o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga eng yaxshi yordam beradi va umumiy o‘rta ta’limning mohiyati va maqsadlarini tasdiqlashi xususida so‘z yuritiladi. O‘quv faoliyatini tabaqalashtirilgan tashkil etishning asosiy vazifasi – individuallikni ochib berish, uning rivojlanishiga, o‘rnashishiga, o‘zini namoyon qilishga yordam berish, tanlanganlik va ijtimoiy ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatish bo‘yicha tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: *differensial ta’lim, ta’lim, muloqot, faoliyat, malaka.*

Аннотация: в статье говорится о принципе дифференцированного образовательного процесса, который наилучшим образом поддерживает личностное развитие учащихся и подтверждает сущность и цели общего среднего образования. Основная задача дифференцированной организации учебной деятельности – раскрытие индивидуальности, помощь в ее развитии, урегулировании, самовыражении, сопротивлении отбору и социальным воздействиям.

Ключевые слова: *дифференцированное обучение, образование, общение, активность, компетентность.*

Annotation: the article talks about the principle of the differentiated educational process that best supports the personal development of students and confirms the essence and goals of general secondary education. The main task of the differentiated organization of educational activities is to reveal individuality, help in its development, settlement, self-expression, resistance to selection and social influences.

Key words: *differential education, education, communication, activity, competence.*

Differensial ta’lim har bir o‘quvchining qobiliyatini aniqlash va maksimal darajada oshirishdan iborat. Ta’lim jarayonining turli bosqichlarida tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish pirovard natijada barcha talabalar tomonidan ma’lum bir dastur minimal bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratilganligi muhimdir.

O‘quv faoliyatini tabaqalashtirilgan tashkil etish, bir tomondan, aqliy rivojlanish darajasini, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini, tafakkurning abstrakt-mantiqiy turini hisobga oladi. Boshqa tomondan, shaxsning individual ehtiyojlari, uning imkoniyatlari va muayyan ta’lim sohasidagi qiziqishlari hisobga olinadi. Differensial ta’lim jarayoni – o‘quvchilarning ta’lim imkoniyatlari, moyilliklari va qobiliyatlarini psixologik-pedagogik diagnostika qilish natijalari asosida o‘qitish va o‘quv faoliyatini tashkil etishning turli shakllari, usullarini keng qo‘llashdir.

O‘yin texnologiyalari. O‘yin texnologiyalarini tanlash bolaning o‘quv jarayonidagi faolligi prinsipi bilan belgilanadi, bu yuqori motivatsiya, bilim va ko‘nikmalarni egallashga ongli ehtiyoj, samaradorlik va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish bilan tavsiflanadi, chunki O‘yin mehnat va o‘qish bilan birga inson faoliyatining asosiy turlaridan biridir.

Darslarning o‘yin shakli o‘quvchilarning bilim faolligini faollashtirishga imkon beradigan o‘yin texnikasi va vaziyatlardan foydalangan holda yaratiladi. O‘yinni rejalashtirishda didaktik maqsad o‘yin vazifasiga aylanadi, o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi, o‘quv materiali o‘yin uchun vosita sifatida ishlatiladi, o‘quv faoliyatiga raqobat elementi kiritiladi. didaktik vazifani o‘yin vazifasiga aylantiradi va didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o‘yin natijasi bilan bog‘liq.

Loyiha usuli jahon pedagogikasida tubdan yangilik emas. Bepul ta’lim g‘oyasidan kelib chiqqan holda, usul hozirda to‘liq rivojlangan va tuzilgan ta’lim tizimining integratsiyalashgan tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ammo uning mohiyati bir xil bo‘lib qolmoqda – bolalarning ma’lum bir bilimga ega bo‘lishni talab qiladigan muayyan muammolarga qiziqishini rag‘batlantirish va loyiha faoliyati orqali ushbu muammolarni hal qilishni, olingan bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatini va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ta’minlash, fikrlash. Bu keng qamrovli o‘qitish usuli bo‘lib, o‘quv jarayonini o‘quvchilarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda qurishga imkon beradi, o‘quvchiga o‘z o‘quv va kognitiv faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishda mustaqillikni namoyon etish imkoniyatini beradi, uning natijalari "aniq" bo‘lishi kerak, ya’ni agar bu nazariy muammo bo‘lsa, unda uning o‘ziga xos yechimi, agar amaliy bo‘lsa – aniq natija, amalga oshirishga tayyor. Loyiha usuli talabalarning bilim va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirishga, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga, axborot makonida harakat qilish qobiliyatiga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan.

Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi va uning funksional imkoniyatlarining kengayishi kompyuterlardan o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida: ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida, mustaqil ta’lim jarayonida hamda o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilishda keng foydalanish imkonini beradi. (o‘quv materialidan)

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ma’ruza tajribalarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, laboratoriya sharoitida to‘liq miqyosda namoyish qilish texnik jihatdan juda qiyin yoki oddiygina imkonsiz bo‘lgan turli xil jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilish imkonini berdi.

Internet texnologiyalari ish uchun muhimdir. Ular har qanday mavzuni o‘rganishda o‘qituvchiga ham, talabaga ham yordam beradi, keng o‘quv yoki uslubiy material beradi.

Turli illyustrativ materiallar, multimedia va interfaol modellar o‘quv jarayonini butunlay yangi bosqichga ko‘taradi. Psixologik omilni e'tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi: zamonaviy bola eskirgan diagrammalar va jadvallar yordamida emas, balki ushbu shakldagi ma’lumotni idrok etishga ko‘proq qiziqadi.

Kompyuterdan foydalanganda ma’lumot statik, ovozsiz rasm sifatida emas, balki dinamik video va ovoz ketma-ketligi sifatida taqdim etiladi, bu materialni o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan holda o‘quv jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirish va har tomonlama rivojlangan, ijodiy erkin shaxsni tarbiyalash borasida ta’lim muassasasi oldida turgan muammolarni hal etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амонашвили Ш.А. Единство цели. - М.: Просвещение, 1988.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М., 1995.
3. Горелик И.Ф., Степанов Е.Н. Характерные черты личностно-ориентированного урока // Завуч. 2000. № 6.
4. Личностно-ориентированный подход в работе педагога: разработка и использование / Под ред. Е.Н. Степанова. - М.: ТЦ Сфера, 2004.
5. Машарова Т.В. Педагогическая технология: личностно-ориентированное обучение. М., 1999.
6. Сериков В.В. Личностно-ориентированное образование // Педагогика. 1994. №5.
7. Степанов Е.Н., Лузина Л.М. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. - М., 2002.
8. Щуркова Н.Е. Краткий справочник педагогических технологий. - М., 1997.
9. Якиманская И. С. Технология личностно - ориентированного образования. - М., 2000.

Lobar MAMATKULOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU
Logopediya kafedrasi o‘qituvchisi

AQLI ZAIF O‘QUVCHILARDAGI TIZIMLI NUTQ BUZILISHLARIDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISH

Annotatsiya: ushbu maqolada aqli zaif o‘quvchilarda kuzatiladigan tizimli nutq buzilishlarida olib boriladigan logopedik ishlarni rivojlantirish asoslari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *aqli zaif o‘quvchilar, nutq, nutq buzilishlari, logopedik ish, eshituv idroki, tovushlar talaffuzi, nutqiy nafas, nutqni tushunish, impressiv nutq, ekspressiv nutq, so‘z boyligi, grammatik qurilish.*

Аннотация: в данной статье подробно рассмотрены основы развития логопедической работы, проводимой при системных нарушениях речи, наблюдаемых у умственно отсталых учащихся.

Annotation: this article covers a wide range of fundamentals of the development of logopedic work carried out in systemic speech disorders observed in mentally retarded readers.

Mamlakatimizda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan aqli zaif o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish mas’uliyatini ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab, maktab-internatlar o‘z zimmasiga olgan. O‘quvchilar ta’lim muassasasida o‘quv jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishi, muvaffaqiyatli bilim olishi, atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunishi va bir qator o‘ziga xos ko‘nikmalarni shakllantirish uchun aqliy va jismoniy rivojlanishga erishishlari kerak. O‘quvchilardagi nutq nuqsonlari faqatgina nutqiy komponentlariga ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, balki nutqiy bo‘lmagan buzilishlarga ham sabab bo‘ladi.

Aqli zaif o‘quvchilarda turg‘un tizimli nutq buzilishlari kuzatilganligi bois, logopedik ish quyidagilarni rivojlantirish asosiga quriladi:

Nutqning fonetik-fonematik tomonini rivojlantirish – bunda o‘quvchilarga taklif etiladigan topshiriqlar turli xil nutqiy va nonutqiy tovushlarni farqlashga, unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, to‘g‘ri nutqiy nafasni hosil qilishga, ovozni rivojlantirishga, eshitish idrokini rivojlantirilishiga yo‘naltirilishi kerak. Eshituv idrokini rivojlantirilishiga alohida e’tibor qaratilib, uning nazorati ostida nutqning tovushlar talaffuzi tomoni shakllantiriladi. Tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini mustahkamlash uchun tovush, tovush birikmalaridan foydalaniladi va tovushga taqlid qilish orqali o‘rganilayotgan tovush aniqlashtiriladi.

Nutqiy nafasni rivojlantirish – yaxshi rivojlangan nutqiy nafas tovush, bo‘g‘in, so‘z va iboralarni to‘g‘ri talaffuz qilinishini ta’minlaydi. O‘quvchi ko‘pgina tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi uchun og‘izdan yetarlicha kuchli nafas chiqara olishni o‘rganishi kerak. To‘g‘ri nutqiy nafasni mashq qilish va shakllantirish orqaligina tovushlarni to‘g‘ri talaffuziga erishish mumkin. Shuningdek, bu mashqlarga ovoz kuchini rivojlantiruvchi mashqlarni qo‘shish ham maqsadga muvofiq. Chunki o‘quvchi nutqda turli xil balandlikdagi ovozlarni boshqarishni bilishi kerak.

Tovushlar talaffuzini rivojlantirish – aqli zaif o‘quvchilarda tovushlar talaffuzining buzilganligi ko‘p uchraydi va uni tuzatish anchagina qiyin. Eng ko‘p sirg‘aluvchi tovushlarning buzilishi kuzatiladi. Tovushlarning buzilishi bilan bir qatorda tovushlarni ko‘p almashtirish qayd etiladi. Ko‘pincha so‘z oxirida undosh tovushning "yutilishi"ni kuzatish mumkin. Mustaqil nutqda to‘g‘rilangan tovushlar talaffuzidan foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ammo, aytib o‘tilgan barcha qiyinchiliklarga qaramay, to‘g‘ri talaffuzni rivojlantirish bo‘yicha ishlar har bir logopedik mashg‘ulotiga kiritilishi va individual tekshiruv natijalariga ko‘ra rejalashtirilishi kerak.

Nutqning leksik-grammatik tomonini rivojlantirish – Impressiv nutq. Nutqni tushunishni rivojlantirish. Logopedik ishning ilk bosqichining asosiy vazifasi passiv lug‘atni rivojlantirishdir. Logoped bolaga o‘yinchoqlarning nomlarini, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tana qismlari, gigiyena va uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqalarni eslab qolishga yordam berishi kerak.

Ekspressiv nutq. Logopedik ishning keyingi bosqichining asosiy vazifalaridan biri kattalarning so‘zlariga taqlid qilishni rivojlantirishdir. Imitativ nutq reaksiyalari har qanday tovush komplekslarida ifodalanishi mumkin. Bu davrda o‘quvchilar tanish o‘yinchoqlar, predmetlar, ob’yektlar, harakatlarni nomlashlari mumkin. Nutq reaksiyalarining faollashuvi davrida logoped o‘quvchilarning mustaqil nutqini tuzatmasligi kerak, lekin o‘quvchi ba’zi so‘zlarni yoki hech bo‘lmaganda so‘zlarning bir qismini taqlid qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi bilanoq, logoped rahbarligida og‘zaki birikmalarni o‘rganishga o‘tishi kerak. Nutqni taqlid qilishni rivojlantirish o‘yin va amaliy faoliyat bilan vizual vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. O‘quvchining nutqqa taqlid qilish faoliyatini faollashtirish uchun siz umuman taqlidni rivojlantirishdan boshlashingiz kerak, bolani narsalar bilan harakatlar, qo‘l va oyoqlarning harakatlariga taqlid qilishga o‘rgatish kerak. Ayrim so‘zlarni o‘zlashtirgandan so‘ng, bolalarni sintaktik va grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lgan sodda gaplar tuzishga o‘rgatish lozim. Ular ikki, uch bo‘g‘inli so‘zlarning ritmik-bo‘g‘in tuzilishini

ifodalay olishlari kerak.

Terminologik birliklarning ichki va tashqi tuzilishi haqidagi qarashlar atamasi faqat keng tarqalgan, ishlatiladigan lug'at birligi sifatida tushunishdan uzoqlashish bilan birga rivojlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, lug'at tabiiy tilga kiritilgan, atamalar mavjud bo'lgan maktab vakillari borasida yagona pozitsiya yo'q. Bu yerda tilshunoslikda eng aniq ko'rinadigan ikkita umumiy tadqiqot yo'nalishi aniq paydo bo'ldi. D. S. Lotte asarlaridagi terminologiyani "termin va so'z" formulasi bilan ifodalash mumkin ("termin yoki so'z"). Terminologik va umumiy adabiy lug'atning ikkita ramziy birligi sifatida atama va so'z o'rtasidagi qarama-qarshilik xulosalarga asoslanadi. D. S. Lotte atama tizimlari va umumiy adabiy lug'atning xilma-xilligi haqida, umumiy lingvistik semantik qonunlar uchun terminologiya sohasining mavjud emasligi haqida so'z yuritadi. Terminologiya tadqiqotining yana bir yo'nalishi atama va so'z umumiy munosabatda bo'lgan dixotomiya bilan ifodalanadi: "so'z termin sifatida". Bu masalaga bag'ishlangan so'nggi nashrlarda g'oya atamaning so'z (og'zaki) tabiatiga, uning genetik va so'z bilan mazmunli umumiyligiga qaratiladi. Bu pozitsiyaning kelib chiqishi vaziyatga bog'liq.

G. O. Vinokura: "Har qanday so'z atama vazifasini bajara oladi... atamalar maxsus so'zlar emas, faqat maxsus funksiyadagi so'zlardir". Hozirda bu fikr tilshunoslarning ko'pchiligi (R. A. Budagov, G. O. Vinokur, B. I. Golovin, N. P. Kuzmin) tomonidan farqlanadi. Ushbu mualliflarning asarlarida atamalar tadqiqotning diqqat markazida bo'ladi. Atama g'oyasini ideal emas, balki haqiqiy deb talqin qilish orqali ular til birligi, undagi sof "og'zaki kamchiliklar"ni aniqlaydi – polisemiya, sinonimiya, ko'p funksionallik, ekspressivlik va boshqalar.

Ushbu yo'nalish doirasida atamaning amal qilish sohasining keng talqini paydo bo'ldi, u endi faqat fan tili bilan chegaralanib qolmaydi, balki boshqa funksional uslublarni ham o'z ichiga oladi – badiiy

adabiyot, jurnalistika, tashviqot va boshqalar. Natijada, atamaning so‘z bilan fundamental umumiyligi yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Bu, albatta, terminologiyada ijobiy tendensiya.

Terminning nafaqat terminologik tizimning o‘zi bilan, balki boshqa til tizimlarining butun majmuasi bilan aloqalarini aniqlash, berilgan obyektni turli nuqtayi nazardan ochib beradigan uning namoyon bo‘lish shakllarining xilma-xilligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ishlanmalarning ahamiyati integratsiyalashgan yondashuv uchun poydevor qo‘yishdadir. Atamaning tadqiqi: faoliyat sohasi (sintagmatik jihatdan) bilan turli funksional uslublarni qamrab olgan, ular orasida va fiksatsiya sohasida (paradigmatik aspektda) fan tili ustuvorligicha qolmoqda. Terminologik birlikning tilning ishora tizimiga mansubligi atama so‘z yoki ibora bo‘lishi va til birliklarining denotativ kabi semantik va formal xususiyatlar, ya’ni belgili, sintagmatik, kategorial va grammatik ma’nolariga ega bo‘lishi bilan tasdiqlanadi.

Zamonaviy terminologiyaning yana bir munozarali muammosi – bu atama shakllanishi jarayonining maqsadga muvofiqligi yoki tasodifiyligi to‘g‘risida konsensusning yo‘qligidir. Umuman tilning, xususan, fan tilining rivojlanishi atama va terminologiya muammosi bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda barcha turdagi aloqalar ikkala sohada, maxsus nutq, shuningdek, kundalik suhbatda atamalarni ishlatmasdan yuzaga kelmaydi. Maxsus (ilmiy) nutq atamasi uning mavjudligining asosidir, shuning uchun har bir ilmiy mintaqa o‘z terminologik apparatiga, atamalarning paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari; muayyan ilmiy fan doirasida ulardan foydalanish, uning terminologik tizimlar va terminologik quyi tizimlar doirasiga ega. Terminni o‘rganish tilshunoslikning tarmog‘i va tegishli ilmiy fan doirasidagi (iqtisodiyot, matematika, tilshunoslik va boshqalar) muammo bo‘lib, terminologiyaning asosidir. Shunday qilib, atama jiddiy ilmiy muammodir, bir necha jihatlarga ega: umuman til, mutaxassislik tili va ilmiy intizom, chunki bu atama ularning tushunchalari va toifalarini belgilaydi.

Bu yana bir katta ilmiy muammoga – fan, ya’ni terminologiya muammosiga olib keladi. Bu muammolarning barchasi hozirda o‘zlarining yakuniy, munozarali, boshlovchi ilmiy yechimlariga ega. Termin muammosi va terminologiya tadqiqot mazmuniga bir xil darajada xosdir.

Atama va terminologiya: ilmiy qarashlardagi o‘xshashlik va farqlar.

Termin – bu ma’lum bir birlik bilan majburiy ravishda bog‘langan so‘z, mazmun jihatidan mos keladigan mantiqiy-konseptual tizim.

Terminning tilshunoslik obyekti sifatida ta’rifi uning tizimli o‘rganish ta’riflarning shakllanishiga yordam berdi. “Termin” tushunchasi, atama tavsifi, atama muammolarini ishlab chiqish va terminologiyaning fan sifatida shakllanishi demakdir. Bu atama o‘z o‘rnini topdi, tushunchalarning leksik-grammatik tizimiga kirdi va tilning leksik-semantik tizimiga to‘liq a’zo bo‘ldi. "Atama" shunchaki so‘z bo‘lmasin", "noodatiy so‘z" bo‘lsin, "aqlli" bo‘lsin, "ratsionalizatsiya" va hatto "ixtiro qilish" bo‘lsin, ammo shunga qaramay, atama – birinchi navbatda, so‘zdir» [6]. Shu tufayli atamaning lingvistik tabiati ajralmas bo‘lib adabiy tilning leksik tizimiga kiradi va ma’lumotlarning to‘yinganligi konsentratsiyasi bo‘yicha so‘z raqamlari boshqalardan farq qiladi va ilmiy, texnik yoki boshqa aniq va iqtisodiy professional tushunchalar hisoblanadi. Ilmiy va texnik atamalar zamonaviy rus tili leksik til tizimi lug‘atining taxminan 80% ni tashkil qiladi. Terminlar tilning leksik birliklarining belgilaridir.

Leksikologiya sohalari – kompozitsiyani o‘rnatish sohasidagi ishlar fan va texnikaning muayyan sohalari atamalari, stixiyali tartib belgilangan terminologiyalar, yangi ilmiy-texnika tarmoqlari uchun atamalarni unifikatsiya qilish va atamalar yaratish eng muhimlaridir [5, 1]. V.V. Vinogradova asarlari, G.O. Vinokura, A.A. Reformatskiy, O.S. Axmanova, A.S. Gerda, R.A. Budagov atamaning semantik xususiyatlarini ishlab chiqish [3]: uning stilistik betaraflikligi, nominativlikka intilish, turli tillarning terminologiyasidagi umumiylikni aniqlashda katta hissa qo‘shdilar. Tarixning dastlabki davrida 1960-yillarning boshlarigacha “terminologik tizim” [2], “terminologik maydon" [1] va boshqa asosiy tushunchalar mavjud edi. Tak, Dagmar Sageder yozishicha: «Tehnologiyaning jadal rivojlanishi uchun faqat yangi tushunchalarni nomlashgina emas, balki qabul qilinadigan atamalar bo‘yicha kelishuv ham talab qilinadi. Amaliyot natijasida ma’lum ixtisoslashgan sohalarda atamashunoslik ishlari tashkil etila boshlandi” [8, 124].

“Terminologiya ixtisoslashgan sohalarda qo‘llaniladigan leksik elementlari bo‘lgan atamalarni va bunday sohalarda yaratilgan yoki o‘zgartirilgan boshqa sohalarda allaqachon mavjud elementlarni o‘rganadigan fandir. Terminologiya atamalarning tavsifi va taqdimoti uchun imkon beradi, ba’zi mualliflar Terminologiya va Terminografiya o‘rtasidagi farqni, Leksikologiya va leksikografiya o‘rtasidagi farqqa o‘hshatishadi. Bunday holda, “Terminografiya” "terminologiyalar", atamalar yaratish san’atidir va "ixtisoslashgan lug‘atlar" degan ma’noni anglatadi. Shunday qilib, bu mualliflar uchun Terminologiya nazariy komponentni va uni qo‘llash natijasini o‘z ichiga oladi, ya’ni terminologik nazariya va amaliyot (ixtisoslashtirilgan lug‘at). Terminologiya – tilning maxsus lug‘atiga oid nazariyalari va u bilan ishlash metodologiyasi fanidir” [7, 2]. Shunday qilib, terminologiyani tilshunoslikning bir jihati sifatida tushunish noto‘g‘ri, ba’zi olimlar uni mustaqil fan sifatida belgilaydilar, boshqalar – lug‘atning jihatlaridan biri sifatida va shuning uchun leksikologiyaning davomli tarmog‘i deb hisoblashadi. Terminologiyani tushunishda bunday farq haqida

mahalliy va xorijiy tilda ham, xilma-xillik kuzatiladi. D.Sageder terminologiyaning mohiyatiga oid nuqtayi nazardan ham shunday yozadi: “Ilmiy fan sifatida atamashunoslikka qarashlar sezilarli darajada farq qiladi va hozirda bu sohada bir qancha bahsli savollar mavjud. Terminologiya fanmi yoki shunchaki amaliyotmi? Terminologiya o‘ziga xos alohida ilmiy fan maqomiga egami? Nazariya yoki o‘zining nazariy farazlarini yanada mustahkamlashi kerakmi? Shunga qaramay, terminologiyaning hozirgi zamondagi ahamiyati, maqomi e’tibordan chetda qolmasligi va texnologiya tez rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda uning evolyutsiyasi va rivojlanishi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak» [8, 124].

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy fanda atama va terminologiya adabiy ilmiy yo‘nalish tilini qamrab oluvchi ko‘p qirrali hodisa sifatida o‘rganiladi umuman olganda, mutaxassislik tili hisoblanadi. Terminning ayrim jihatlarini o‘rganishning munozaraliligi, birinchi navbatda, turli yondashuvlarda ilmiy maktablarning olimlari atama va tushunchalarini tushunish va aniqlash uchun, umumiy (bir xil) qarashlarga ega bo‘lsa ushbu ilmiy muammoni hal qilish mumkinligi ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Капанадзе Л.А. О понятиях «термин» и «терминология» // Развитие лексики современного русского языка. — М., 1965. – 136 с.
2. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М., 1961. – 210 с.
3. Макарова А.А. Проблема синонимики терминов экономики и бизнеса в современном русском языке // Семантика слова и семантика текста (выпуск IV) Сборник научных трудов. – М.: 2001. – С.50–53.
4. Мархасев И.Р. Коммуникативное терминоведение: теоретико-метедологические и лингво-методические предпосылки// Терминология и перевод в политическом и экономическом и культурном сотрудничестве. – Омск: Межвузовская типография ОМПИ, 1991. – С.33–35.
5. Мельников Г.П. Основы терминоведения. – М., 1991. –115 с.
6. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1967.
7. Manuel Sevilla Muñoz. Terminology. Unit I. Introduction to Terminology. Open courseware. University of Murcia, 2010. http://ocw.um.es/cc.-sociales/terminologia/materialde-clase-1/unit-i.pdf
8. Sageder Dagmar Terminology Today: A Science, an Art or a Practice? Some Aspects on Terminology and Its Development Brno Studies in English Volume 36, No. 1, 2010, http://www.phil.muni.cz/plonedata/wkaa/BSE/BSE%202010-36-1/BSE%202010-36- 1%20%28123-134%29%20Sageder.pdf.

Гульмира МАМАДЖАНОВА,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета
Рафик ДЖАГАСПАНЯН,
преподаватель кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета

ФРЕЙМЫ И КОНЦЕПТЫ В ЛИНГВИСТИКЕ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ И ВЛИЯНИЕ НА КОГНИТИВНЫЕ ПРОЦЕССЫ

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqola tilshunoslik kontekstida ramkalar va tushunchalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va ularning kognitiv jarayonlarga ta'sirini o'rganadi. Kognitiv tuzilmalar sifatida ramkalar va mavhum tasvirlar sifatida tushunchalar lingvistik ma'lumotlarni tashkil etish va izohlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada tilshunoslikdagi ramkalar va tushunchalarning nazariy asoslari, ularning lingvistik tuzilmalar bilan aloqasi va ma'noni uzatish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tilning kognitiv jihatlari va ularni lingvistik tahlil va matnni qayta ishlashda amaliy qo'llash bilan bog'liq tadqiqotlarga alohida e'tibor beriladi.

Tayanch so'zlar: *kadrlar, tushunchalar, tilshunoslik, kognitiv jarayonlar, til tuzilmalari, ma'noni uzatish mexanizmlari, til tahlili, matnni qayta ishlash.*

Аннотация: данная научная статья исследует взаимодействие между фреймами и концептами в контексте лингвистики и их влияние на когнитивные процессы. Фреймы, как когнитивные структуры, и концепты, как абстрактные представления, играют существенную роль в организации и интерпретации языковых данных. В статье рассматриваются теоретические основы фреймов и концептов в лингвистике, их взаимосвязь с языковыми структурами и механизмы переноса значений. Особое внимание уделяется исследованиям, связанным с когнитивными аспектами языка и их практическому применению в

лингвистической анализе и обработке текстов.

Ключевые слова: *фреймы, концепты, лингвистика, когнитивные процессы, языковые структуры, механизмы переноса значений, языковой анализ, текстовая обработка.*

Annotation: this scientific article explores the interaction between frames and concepts in the context of linguistics and their impact on cognitive processes. Frames, as cognitive structures, and concepts, as abstract representations, play a significant role in the organization and interpretation of linguistic data. The article examines the theoretical foundations of frames and concepts in linguistics, their relationship with linguistic structures and the mechanisms of meaning transfer. Particular attention is paid to research related to the cognitive aspects of language and their practical application in linguistic analysis and text processing.

Key words: *frames, concepts, linguistics, cognitive processes, language structures, mechanisms of meaning transfer, language analysis, text processing.*

Фреймы и концепты являются ключевыми понятиями в когнитивной лингвистике, играющими существенную роль в организации и интерпретации языковых данных. Фреймы представляют собой структуры знаний, которые помогают организовать и интерпретировать информацию в нашем разуме, в то время как концепты являются абстрактными представлениями о мире, которые служат основой для понимания языка и мышления.

Взаимодействие между фреймами и концептами в контексте лингвистики открывает широкие перспективы для понимания того, как язык функционирует в человеческом разуме. Фреймы помогают организовать языковые структуры и определяют контекст, в котором происходит интерпретация языковой информации. В свою очередь, концепты формируют основу для понимания значений и выражения абстрактных идей в языке [1].

Цель данной статьи заключается в исследовании взаимодействия между фреймами и концептами в лингвистике и их влияния на когнитивные процессы. Будут рассмотрены теоретические основы фреймов и концептов, их взаимосвязь с языковыми структурами, а также практическое применение этого знания в лингвистическом анализе и обработке текстов. Результаты данного исследования могут пролить свет на механизмы, лежащие в основе языкового понимания и использования, а также на способы оптимизации коммуникации и обработки языковой информации.

Методы исследования:

Анализ лингвистических корпусов: использование корпусного анализа для изучения распространения фреймов и концептов в текстах различных жанров. Например, анализ частоты употребления определенных фреймовых структур в различных типах рекламных текстов может раскрывать предпочтения и стратегии коммуникации в рекламном дискурсе.

Экспериментальные исследования: проведение эксперимента по изучению восприятия и интерпретации языковых выражений в разных контекстах фреймов. Например, участникам могут предъявляться предложения с одинаковым лексическим составом, но различающиеся по фреймовой структуре, чтобы выявить, как это влияет на их понимание смысла высказывания.

Когнитивное моделирование: создание компьютерных моделей, которые имитируют процессы активации фреймов и концептов в процессе языковой обработки. Например, моделирование процесса понимания метафорических выражений с использованием сетей ассоциаций для определения, какие фреймы активизируются при восприятии метафорических конструкций.

Нейролингвистические исследования: использование методов нейроимиджинга для изучения активации определенных мозговых областей при восприятии языковых стимулов, связанных с определенными фреймами или концептами. Например, исследование активации мозга при восприятии выражений, связанных с фреймом «путешествие», и сравнение этой активации с активацией при восприятии выражений, не связанных с данным фреймом [2].

Качественный анализ: проведение качественного анализа семантических сетей и ассоциаций, выявленных участниками экспериментов или из лингвистических корпусов, для выявления паттернов взаимодействия между фреймами и концептами в языке.

Эти методы исследования обеспечивают разнообразный и глубокий анализ взаимодействия фреймов и концептов в лингвистике и позволяют более полно понять их влияние на когнитивные процессы.

Когнитивные процессы, такие как восприятие, понимание и интерпретация языка, являются ключевыми аспектами нашей способности общаться и взаимодействовать с окружающим миром. Фреймы и концепты играют важную роль в этом процессе, организуя и структурируя наше языковое понимание.

Фреймы представляют собой когнитивные структуры, которые описывают сценарии, ситу-

ации и концепции, в то время как концепты являются абстрактными представлениями о мире. Взаимодействие между ними влияет на наши когнитивные процессы, определяя способы, которыми мы воспринимаем и интерпретируем языковую информацию [3].

Исследование взаимодействия между фреймами и концептами в лингвистике может пролить свет на механизмы языкового понимания и использования. Понимание этих механизмов может быть полезным для разработки более эффективных методов обучения языку, а также для развития языковых моделей и алгоритмов обработки текста.

В итоге, изучение взаимодействия между фреймами и концептами в лингвистике поможет нам лучше понять, как мы понимаем и используем язык, и как эти процессы влияют на наше когнитивное функционирование.

Исследование взаимодействия между фреймами и концептами в контексте лингвистики привело к следующим выводам:

Важность фреймов и концептов в языковой обработке:

Фреймы и концепты играют ключевую роль в организации и интерпретации языковой информации. Они помогают организовывать знания и определять контексты, в которых происходит восприятие и использование языка.

Взаимосвязь между фреймами и концептами:

Фреймы и концепты взаимодействуют друг с другом, дополняя и уточняя друг друга в процессе языковой обработки. Фреймы помогают организовать языковые структуры, в то время как концепты определяют абстрактные представления, на которых основано языковое понимание.

Влияние на когнитивные процессы:

Фреймы и концепты оказывают существенное влияние на когнитивные процессы, такие как восприятие, понимание и запоминание языковой информации. Их активация может ускорять или замедлять процессы языкового понимания и влиять на способы интерпретации языковых выражений.

Практическое применение результатов:

Полученные результаты могут быть полезны для развития методов обучения языку, создания языковых моделей и алгоритмов обработки текстов, а также для понимания языковых особенностей различных культур и сообществ.

В целом, исследование подчеркивает важность изучения взаимодействия между фреймами и концептами в лингвистике и их влияния на когнитивные процессы. Понимание этих механизмов может способствовать развитию более глубоких и точных моделей языкового понимания и обработки.

Использованная литература:

1. Кубрякова, Е. С. (1996). Языковая личность: текстовое взаимодействие как процесс социокультурной адаптации. Москва: Русские словари.
2. Маслов Ю. С. (1996). Когнитивные аспекты лексики. Санкт-Петербург: Наука.
3. Стернин И. А. (2001). Основы когнитивной лингвистики. Москва: Флинта.
4. Гак В. Г. (2004). Фреймовый анализ языка и коммуникации. Москва: Языки славянской культуры.
5. Голубев В. В. (2008). Фреймы и метафоры в языке и речи. Санкт-Петербург: Наука.
6. Караулов Ю. Н. (2000). Русская речь: Фреймовая модель. Москва: Российская академия наук.
7. Морозова, Н. Н. (2010). Фреймовая семантика и ее приложения. Москва: Языки славянской культуры.
8. Караулов Ю. Н. (2002). Фреймовая модель: Теория и приложения. Москва: Российская академия наук.
9. Стернин И. А., & Добровольская, В. М. (2006). Когнитивная лингвистика: основные теории, эксперименты, приложения. Москва: Аспект Пресс.

Madina XOLMURODOVA,
Associate professor, PhD at the Department of Functional Lexics
Uzbekistan State World Languages University
e-mail: kholmurodovamadina599@gmail.com

TURLI TIZIMLI TILLARDA FONETIK SATH TADQIQI

Annotatsiya: tilshunoslik tilning o‘zini o‘rganuvchi fandir. Maqolada fonologik darajaga oid muhim fikrlar, fonetik tadqiqotlar, tovush xususiyatlari va unlilar tasnifi xususida so‘z yuritilgan. Tilning tovush tizimi undagi tarixiy taraqqiyot trayektoriyasini belgilab berish bilan birga so‘zlashuvchilar talaffuz imkoniyatlarini namoyon qiladi. Eng kichik nutq birligi so‘z bo‘lgani holda eng kichik til birligi tovushdir. Shu bois fonetik sath tadqiqi lingvistikaning pirovard vazifasi, birlamchi tadqiq obyekti bo‘lib qolaveradi.

Tayanch so‘zlar: *diftong, monoftong, unlilar, tovush, fonetika, tovush xususiyatlar.*

Аннотация: лингвистика – это изучение самого языка. В статье рассматриваются важные моменты на фонологическом уровне, фонетические исследования, звуковые характеристики и классификация гласных. Звуковой строй языка определяет траекторию его исторического развития и указывает на произношенные возможности носителей. Наименьшая единица речи – слово, а наименьшая единица языка – звук. Вот почему изучение фонетического уровня остается конечной задачей языкознания, основным объектом исследования.

Ключевые слова: *дифтонг, монофтонг, гласные, звук, фонетика, свойства звука.*

Annotation: linguistics is the study of language itself. The article discusses important points at the phonological level, phonetic studies, sound characteristics, and vowel classification. The sound structure of a language determines the trajectory of its historical development and indicates the pronunciation of its speakers. The smallest unit of speech is the word, and the smallest unit of language is the sound. That is why the study of the phonetic level remains the ultimate task of linguistics, the main object of research.

Keywords: *diphthong, monophthong, vowels, sound, phonetics, sound properties.*

Kirish. Inson qiziquvchanligi tamaddun taraqqiyotining asosiy sharti. Samo sarhadlarini zabt etayotgan kosmik kemalar ham, tana tuzilishi asosida yotgan DNKni tahlil qiluvchi uskunalar ham bilish istagi, mavhumiyat zulmatini oydinlatish ilinjida yaratilgan. Qiziqishlarimiz trayektoriyasi esa ikki qarama-qarshi yo‘nalishni o‘z ichiga oladi – o‘tmish va kelajak haqida imkon qadar ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish har bir olimning azaliy maqsadi. Bu maqsad tilshunoslik fanida ham o‘z muhrini qoldirganligi muqarrar. Zotan tilshunoslik sohasidagi aksar tadqiqotlar tilning rivojlanish yo‘lini proyeksiya qilish hamda uning paydo bo‘lishini o‘rganishga qaratilgan. Hozirga qadar til paydo bo‘lishining ikki nazariyasi shakllandi. Birinchi nazariya tilning ilohiy tajallisiga ishora qilib, til insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi ilohiy unsur ekanini ta’kidlaydi. Ikkinchi nazariya esa til insonning tovushga taqlidi asosida paydo bo‘lib, sekin-sekin taraqqiy etgani haqidagi g‘oyani ilgari suradi – tovushga taqlid misolida insonning artikulyatsion imkoniyatlari o‘rganiladi. Tilning tovush tarkibi, tovushning hosil bo‘lish usullari, tovush apparati, tovushlar birikuvini tizimli o‘rganuvchi fan tarmog‘i esa fonetikadir.

Fonetika turli tillar tovush tizimini, talaffuz asoslari va xususiyatlarini o‘rganish kabi dolzarb vazifalarni qamraydi. Shu jihatdan fonetik tadqiqotlar til tajallisi va taraqqiyot yo‘lini belgilash uchun illyustrativ baza sifatida xizmat qiladi. Fonetikaga taaluqli xulosalar ilk bor Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari tomonidan tizimlashtirildi. Tilning grammatik va fonetik qurilishi Arastu va Aflotun kabi faylasuf olimlarni qiziqtirgan masalalardan edi. Yunon tilidagi tovushlarning yozma shaklini ishlab chiqish va ularni alifbo tartibida tizimlashtirish ham antik davr fonetiklarining mehnati samarasidir. Bugungi kunda barchaga ma’lum bo‘lgan qadimgi yunon alifbosi asli shimoliy semit yozuvidan andoza oladi. Ayni damda yunon alifbosi slavyan tillari uchun umumiy bo‘lgan kirill alifbosi asosini tashkil qiladi.

1-rasm. Yunon tili alifbosi



Alifbo asosida tizimli fonetik tadqiqotlar olib borilgani ahamiyatga molik. Zotan yunon mutafakkirlari nutq a'zolari, tovush tarkibi va hosil bo'lish mexanizmlarini ishlab chiqdi, yuzaga kelgan fonetik konseptlar umumtilshunoslik fonetikasi asosida turadi. Undosh, unli va yarim unli tovushlar muayyan yozma belgilar ostida belgilandi. Natijada miloddan avvalgi 5 asrga kelib barcha yozma manbalar yaxlit yunon alifbosida bitiladigan bo'ldi. Yunon tovush tizimida unlilar monoftonglar va diftonglarga ajratildi. Tasnifning quyi pog'onalarida esa diftong va monoftonglar qisqa va cho'ziq unlilarga bo'lindi:

1.1.-jadval. Yunon unlilari tasnifi

Diftonglar		Monoftonglar	
Qisqa diftong	**Cho'ziq diftong**	**Qisqa monoftong**	**Cho'ziq monoftong**
/yi̯/ υι /ei̯/ ει /eu̯/ ευ /oi̯/ οι /ou̯/ ου /ai̯/ αι	/ɛːi̯/ ῃ /ɛːu̯/ ηυ /ɔːi̯/ ῳ /ɔːu̯/ ωυ /aːi̯/ ᾳ /aːu̯/ ᾱυ	/i/ ῐ /y/ ῠ /u/ υ /e/ ε /a/ ᾰ	/iː/ ῑ /yː/ ῡ /υι/ uː /ου/ eː /ει/ ɛː /η/ ɔː
/au̯/ ᾰυ			/ω/ aː /aː/ ᾱ

Demak, qadimgi yunon fonetikasida 26 unli tovush sanoqli harf birliklari ostida umumlashtirilgan. Unli tovushlar tarkibi tahlil qilininb diftong va monoftonglarga ajratilgani ham davrning dolzarb ilmiy yangiligi edi. Eski ingliz alifbosida til tovushlari quydagi harfiy qolipga solingani ma'lum:

1.2.-jadval. Eski ingliz tili alifbosi

A, a */a(:)/*	***B, b*** */b/*	***C, c*** */si/*	***D, d*** */d/*
E, e */e(:)/*	***F, f*** */f/ , [v]*	***G, g*** */g/, [y], /j/*	***H, h*** */h/, [x], [ç]*
I, i */i(:)/*	***K, k*** */k/*	***L, l*** */l/*	***M, m*** */m/*
N, n */n/*	***O, o*** */o(:)/*	***P, p*** */p/*	***R, r*** */r/*
S, s */s/*	***T, t*** */t/*	***U, u*** */u(:)/ , /w/*	***X, x*** */ks/*
Y, y */y(:)/*	***Ƿ, ƿ*** */w/*	***Þ, þ*** */θ/, [ð]*	***Æ, æ*** */æ(:)/*
Ð, ð */ð/, [θ]*			

Keyinchalik ingliz tovushlari yangi alifbo ko'rinishida qayd etildi. Fonologik tarkibga ko'ra eski ingliz tilida o'n ikkita unli tovushlar tasnifi quyidagicha belgilanadi:

1.3.-jadval. Eski ingliz fonetikasida unlilar tasnifi

Monoftong	Diftong	Ligatura
a, e, i, o, u, y	ea [æa], eo, io, ie	æ, œ

Ma’rifatparvarlik davriga kelib Yevropada fonetik nazariya shakllana boshladi. Fan tarmog‘i qarshisidagi asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Tovush xususiyatlarini o‘rganish;
2. Tovush o‘zgarishlarni tavsiflash;
3. Talaffuz me’yorlarini belgilash;
4. Tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini belgilash.

Sharq tilshunosligi tarixan ancha uzoq muddat davomida muayyan til atrofida markazlashmadi. Butun g‘arb tilshunosligi dastlab yunon, keyin Rim maktabi andozasiga asoslangani holda sharq lingvistikasi nisbatan tarqoq yo‘nalishlarda taraqqiy etdi. Sharqda hind, xitoy va arab tamaddunlari ketma-ket cho‘qqiga chiqqani ma’lum. G‘arbdan farqli o‘laroq qadimgi hind fonetikasi muayyan alifboga asoslanmagan holda rivojlandi. Sanskrit tilida unlilar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi: oddiy qisqa unlilar – a, i, u; oddiy uzun unlilar – ā, ī, ū, e, o; diftonglar - ai, au. Grafikasiga ko‘ra qadimgi Sanskrit tili yevropa tillaridan farqlansa-da, fonetik qurilishidagi paralellar unlilar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xitoy tilida tarixan oltita asosiy unli tovush ajratiladi: i; e; ı; a; u; o. Tarkibi sodda, cho‘ziq yoki qisqalik xususiyatlari haqida alohida ma’lumotlar keltirilmaydi. Masalani xitoy tilining ohanglari murakkablashtiradi. Zero ohang o‘ziga xosliklari, turli hudud shevalaridagi ohang farqlari sabab unlilar tahlili qiyinlashadi. Fonetik sath tadqiqiga arab tilshunoslari ham salmoqli hissa qo‘shishdi. Xususan, Islom tamaddunining ilk davrida Muhammad al-Juvayniy “Kitob al-Jumal” asarida arab fonetikasi tavsifiga tizimli yondashib 14 undosh, 28 unlini ajratadi. Bu tovushlar sirasida unlilar yozuvda harf emas belgi ko‘rinishida aks etishi bilan farqlanadi.

Tilning tovush tizimi undagi tarixiy taraqqiyot trayektoriyasini belgilab berish bilan birga so‘zlashuvchilar talaffuz imkoniyatlarini namoyon qiladi. Eng kichik nutq birligi so‘z bo‘lgani holda eng kichik til birligi tovushdir. Shu bois fonetik sath tadqiqi lingvistikaning pirovard vazifasi, birlamchi tadqiq obyekti bo‘lib qolaveradi.

Fonetik tadqiqotlar asosan to‘rt masala tahliliga qaratiladi:

1. Artikulyatsiya uslubi;
2. Tovush talaffuzida ovoz ishtiroki;
3. Tovush hosil bo‘lish o‘rni;
4. Tovush chiqaruvchi a’zolarning ishlash mexanizmi.

Bundan tashqari fonetiklar urg‘u va ohang fenomenlarini ham tadqiq etadi. Fonetik tadqiqotlar talaffuz me’yorlarini belgilash, imlo qoidalarini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lishi bilan dolzarblik kasb etadi.

Lisoniy hodisalarni maydon tamoyili asosida o‘rganish G‘arbda o‘n to‘qqizinchi asr so‘ngida ommalasha boshladi. F.Sossyur bu yondashuv morfologik sath elementlarini tizimlashtirishda samarali ekanini asoslagan bo‘lsa, o‘tgan asr o‘rtasida leksik sathni ham paradigmatik tizimlashtirish mumkinligi isbotlandi. Bu tendensiya funksional-semantik yondashuv sifatida taraqqiy etib strukturizm maktabi poydevoriga aylandi.

Lingvistik paradigma lisoniy elementlarning tizmiy bog‘lanishini anglatadi. Bu aloqa bir yoki bir necha umumiy yoki qarama-qarshi parametrlar asosida shakllanadi. Anglashilganidek, lingvistik paradigma morfologik, leksik, sintaktik sathlar uyg‘unligi hosilasidir. Bunda fonetik sath alohida subyekt, teng huquqli tarkibiy qism bo‘lib gavdalanmaydigandek ko‘rinadi. Biroq fonetik maydon, tovush paradigmasi ham struktur tilshunoslikning alohida tadqiq obyekti bo‘lishga munosib. Unda paradigmaga xos barcha xususiyatlar mavjud. Masalan, tildagi tovushlar shovqinning ishtirokiga ko‘ra maydonga tiziladi. Shuningdek, tovush hosil bo‘lish o‘rni, hosil bo‘lishda ishtirok etuvchi a’zolar turiga ko‘ra ham umumiylik yoki ziddiyat yuzaga keladi. Fonetik sath elementlari cheklangan, biroq ularning nutqiy voqelanish imkoniyatlari, o‘zgaruvchanlik xususiyati cheksiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi – Toshkent: Universitet, 2010. 106-b.
2. MacMahon M. Orthography and the early history of phonetics – Oxford, 2013 – 122 p.
3. Катенина Т., Рудой В. Лингвистические знания в древней Индии // История лингвистических учений. Древний мир : сб / Десницкая А.В.,Кацпельсон, С. Д.. — Л.: Наука, 1980. — С. 66—91.
4. William H.B. Old Chinese: A new reconstruction. — OUP USA, 2014. — 449 с.
5. Реформатский А. Введение в языковедение. — Москва: Аспект Пресс, 1996. — 536 с;
6. Кубрякова Е. Парадигма // Лингвистический энциклопедический словарь / Главный редактор В. Н. Ярцева. — М.: Советская энциклопедия, 1990. — 685 с;
7. Кубрякова Е.С. Из истории английского структурализма: (Лондонская лингвистическая школа) // Основные направления структурализма. — М., 1964. С. 307—353.

Kamolaxon ORIPOVA,
QDPI, xorijiy tillar fakulteti o‘qituvchisi

“O‘XSHATISH” QO‘LLANILGAN BADIIY MATNLARDA ANTONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘xshatishlar ishtirok etgan badiiy matndagi antonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: *antonim, etnomadaniyati, etnopsixologiyasi, etnografiyasi, lingvomadaniy, madaniy kod, predmet.*

Annotation: in this article, the linguistic and cultural characteristics of antonyms in the literary text with similes are analyzed. It is also proved by examples.

Key words: *antonym, ethnoculture, ethnopsychology, ethnography, linguistic and cultural, cultural code, subject.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурные особенности антонимов в художественном тексте со сравнениями. Это также подтверждается примерами.

Ключевые слова: *антоним, этнокультура, этнопсихология, этнография, лингвокультурологический, культурный код, субъект.*

Kirish. O‘xshatishlar juda qadimiy tasviriy vositalardan biri bo‘lib, ular badiiy adabiyotda eng ko‘p qo‘llanuvchi, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta’minlovchi muhim uslubiy vositadir. Ular lingvomadaniy birlik sifatida olamni o‘zlashtirishning eng qadimiy vositasi bo‘lib, unda ilk tafakkurning shakllanish bosqichlari, xalq madaniyati aks etadi. Hatto, borliqdagi nominatsiya jarayonlarini xalq turmush tarzi, dunyoqarashi, etnik qarashlari, milliy ong va tasavvurlari doirasida shakllantirishda ishtirok etgan qadimiy usullardan desak, yanglishmagan bo‘lamiz. “O‘xshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash va qiyoslashdir” [1: 102]. O‘xshatishlar orqali har bir xalq olamni o‘ziga xos ko‘radi. Voqelikdagi narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarni o‘zlarining milliy realiyalari orqali tasavvur qilib, taqqoslaydilar va qiyoslaydilar. Shunday ekan, o‘xshatish etalonlarida muayyan xalqning milliy tasavvurlari, etnomadaniyati, etnopsixologiyasi, etnografiyasi, qolaversa, boshqa turg‘unlikka xos madaniy belgilari aks etishi tabiiy. Xalqning turmush tarzida turg‘unlashib qolgan madaniy belgilar shu xalqni madaniy hamjihatlik doirasida birlashtiradi, millat madaniyatini va milliy mansubligini belgilaydi.

Asosiy qism. Madaniy belgilar madaniy kodlar bilan uyg‘unlashib, xalqning streotip belgilarini umumlashtiradi. Madaniy kodlar millat tafakkuridagi streotiplarga bog‘liq bo‘lib, shu millatning milliy mentalitetini tushunishga, milliy-ruhiy, ijtimoiy-madaniy qarashlarini mujassamlashtirishga ixtisoslashgan bo‘ladi. Mazkur jihatlarni o‘xshatish etalonlarida ham kuzatish mumkin. Jumladan, do‘ppi, to‘n, to‘y, kavush, barkash, bo‘yra, mahsi, mayiz, turshak, palov, moshkichiri, yelpishtovoq, yostiq, kapgir, supra, ketmon, kosov, kurak, ko‘rpa, to‘shak, bo‘z, qoziq, o‘qlov, qoshiq, mesh, savat, sandiq so‘zlarida o‘zbek milliy madaniyatiga xos belgilar ma’lum bir madaniy me’yorlar asosida kodlangan.

Badiiy diskurs jarayonida qo‘llangan o‘xshatishlar, badiiy obraz yaratishga, qahramonlar xarakter-xususiyatini, nutqini individuallashtirishga – tipiklashtirishga, jumla ta’sirchanligini, voqelikni obrazli tarzda ifodalashga, asar xalqchilligini ta’minlashga, badiiy-estetik quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Kechqurun Saodat kampir do‘ppiday o‘choq oldida cho‘qqayib, moshxo‘rda qaynatarkan, Yo‘lchi kirib keldi. (Oybek, Tanlangan asarlar)

Matnda qo‘llangan do‘ppiday o‘xshatish etaloni o‘ziga xos milliy obraz yaratilishida aktual vazifa bajargan. Do‘ppi – avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan to‘garak yoki to‘rtburchak shakldagi o‘zbeklarning milliy bosh kiyimi. O‘choq – ichiga olov yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon o‘rnatiladigan qurilma. Keltirilgan matn fragmentida o‘choqning do‘ppiga o‘xshatilishi o‘zbek milliy tafakkuriga xos bo‘lib, boshqa milliy individiumlarda uchramaydi. Matndan anglash mumkinki, o‘sha davr o‘zbek xonadonidagi turmush tarzining og‘irligi, nochorlik va kambag‘alligi tufayli bu xonadonda katta qozon-u o‘choqqa hojat yo‘q. Bir amallab kun kechirish uchun do‘ppidek o‘choqning o‘zi kifoya. O‘zbek milliy o‘xshatish etalonlarida do‘ppi “kichik”, “tor” ma’nolari bilan istifoda qilinadi. Shuning uchun do‘ppidekkina osh, do‘ppidek o‘choq, do‘ppiday tor kelmoq, do‘ppiday joy kabi o‘xshatish qurilmalari o‘zbek milliy madaniyatiga xos xalq realiyalarini ifodalaydi. Do‘ppi etaloni orqali “kichik”, “tor” ma’nolari ifodalansa-da, ularning tagmazmunida qarama-qarshi tushuncha – o‘zbek xalqining ko‘ngil kengligi, bag‘rikengligi milliy stereotip sifatida voqelanadi.

Tilshunoslikda o‘xshatish va uning tabiatiga qarashlar turli jihatlariga ko‘ra tahlil qilingan. “...O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining

mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga ega bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi” [2: 5]. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatish munosabati sodda va qo‘shma gap doirasida o‘rganilgan. O‘xshatish qurilmalari ishtirokidagi sodda gaplarni falsafiy va nazariy nuqtayi nazardan tadqiq etgan professor N.Mahmudov o‘xshatishli sodda gaplarda hamisha murakkab semantik struktura – kamida ikkita semantik propozitsiya ifodalanishini qayd etadi [3: 25].

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishga e’tibor kuchayganligini e’tirof etish mumkin [4: 57] . Shu o‘rinda aytish kerakki, o‘xshatishlarning she’riy va nasriy matndagi lingvomadaniy xususiyatlari ko‘plab tadqiqotlarning o‘rganish obyekti bo‘lsa-da, badiiy matnlarda ifodalangan o‘xshatishlarni yuzaga keltirgan leksik va lisoniy birliklar antonimiyasi maxsus o‘rganilmagan. Bizga ma’lumki, antonimiya hodisasi o‘xshatish qurilmalarida ham, bu qurilma ishtirokidagi matnlarda ham kuzatiladi. Jumladan, bir matn qurshovida o‘xshatish etalonlari o‘zaro nutqiy antonimiyani yuzaga chiqarishi mumkin:

Saminjon eshikda qolib, sartaroshxonaga Fotima kirdi va ko‘k yog‘och panjara ichida o‘tirgan Zuhrani ko‘rib yuragi shig‘ etib ketdi: ozib cho‘p bo‘lib ketibdi, bukchayibdi, bilakday sochdan chilvirdakkina ikkita kokil qolibdi… (Abdulla Qahhor, “Nurli cho‘qqilar”)

Berilgan parchada o‘xshatish etalonlari bilakday – “qalin” ma’nosi bilan, chilvirdek – “siyrak” ma’nosi bilan semantik motivlashgan. Sochga nisbatan bunday qiyoslash va o‘xshatish jarayoni faqat o‘zbek milliy madaniyatiga xos. Sababi, o‘zbek millatida qalin va uzun sochlar qadimdan ayollarning go‘zallik va nafosat belgisi bo‘lgan. O‘zbek ayollarining sochlarini bitta qilib o‘rib yurishi va hajman uning qalinligi bilakka muqoyasa qilinishi shu millat qarashlari bilan bog‘liq. Demak, soch o‘zbek milliy madaniyatida madaniy kod (somatik kod) hisoblanar ekan, go‘zallik va nafosat tushunchalari unga biriktirilgan madaniy me’yor hisoblanadi. Matnda bilakday (soch) va chirvirdekkina (kokil) o‘xshatish etalonlari o‘zaro nutqiy antonimiyani hosil qilgan va matnga kuchli ekspressivlik olib kirgan. Nutqiy antonimiyani hosil qilgan o‘xshatish etalonlari o‘xshatish asosi (soch) bilan bir butunlikda lingvomadaniy tahlilga yo‘l ochgan.

Xulosa. Shuni aytish kerakki, o‘xshatishni baho kategoriyasidan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki odam atrofidagi olamni va, albatta, o‘zini qiyoslash-o‘xshatish va baholash yo‘li bilan anglab boradi. Ana shu nuqtayi nazardan, o‘xshatish asosida shakllangan gap va matnlarda antonimlarning qo‘llanilishi bu kabi baho munosabatiga oydinlik kiritadi va nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. O‘xshatish ishtirok etgan matnlarda antonimiya hodisasining lingvomadaniy jihatdan o‘rganilishi maxsus tadqiqotlar obyekti bo‘lgan emas. Antonimiya hodisasi o‘xshatish qurilmalarida ham, bu qurilma ishtirokidagi matnlarda ham kuzatiladi. Ular lingvomadaniy tahlilga tortilsa, millat tafakkuri, turmush tarzi, madaniy saviyasi, milliy udumlari, milliy tasavvurlari, milliy ruhiyati, milliy qarashlari aks etganligining guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.102-bet.

2. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.5.

3. Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филология фанлари доктори (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б.125.

4. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24.; Усмонова Ш. Оламнинг лисоний манзарасини яратишда ўхшатишларнинг ўрни // Шарқшунослик. – Тошкент, 2015. №1. – Б. 76-81.; Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. Автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 57.

Gulabza DAMINOVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi
e-mail: daminovagulabza@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA KONSEPTNING TAVSIFLASH USULLARI VA UNING STRUKTURASI

Annotatsiya: mazkur maqolada konsept atamasining tilda tavsiflash usullari, strukturasi, asosiy birligi sifatida o‘rganiladigan obyektning shakllanishi va mohiyatini tahlil qilish haqida so‘z boradi.
Tayanch so‘zlar: *konsept, struktura, tarixiy metod, eksperimental metod, ijtimoiy metod.*
Annotation: this article gives information about the methods of describing the term concert in language, its structure, and the analysis of the structure and meaning of the studied object as a unit.
Key words: *concept, structure, historical method, experimental method, social method.*
Аннотация: в данной статье даются сведения о способах описания термина «концерт» в языке, его структуре, а также проводится анализ структуры и значения изучаемого объекта как единицы.
Ключевые слова: *концепция, структура, исторический метод, экспериментальный метод, социальный метод.*

Konsept murakkab strukturaga ega. Bir tomondan konsept tushuncha shakllanishida muhim bo‘lgan barcha belgilarni qamrab olsa, ikkinchi tomondan konsept strukturasiga uni madaniyat fakti qiladigan barcha belgilar, ya’ni etimologiyasi, tarixi, zamonaviy assotsiatsiyalari va boshqalar kiradi [3,336].

Tushunchada hajm – ushbu tushuncha tarkibiga kiruvchi obyektlar soni va mazmun – tushunchaning umumiy va mavjud belgilari yig‘indisi kabi xususiyatlar farqlanadi. Madaniyat haqidagi fanda konsept atamasi bilan mazmun ifodalanadi. Shunday qilib, konsept atamasi fikr so‘ziga sinonim bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, konsept strukturasiga qiymat, tushuncha va obraz kabi tarkibiy elementlar kiradi. Konseptning tushuncha elementida Y.S. Stepanov har bir konseptda mavjud bo‘lgan quyidagi qatlam va komponentlarni ajratib ko‘rsatadi:

- Birinchi qatlamda asosiy dolzarb belgi.
- Ikkinchi qatlamda bir yoki bir nechta qo‘shimcha «passiv» belgilar.
- Uchinchi qatlamda konseptning ichki formasi.

Shu o‘rinda, konseptning mavjud bo‘lishi to‘g‘risida savol tug‘iladi, ayniqsa, muayyan madaniyat vakillari uchun konsept qanday darajada mavjud bo‘ladi? Bu savolga javob berish uchun E.Taylor quyidagi gipotezani ilgari suradi: «Konseptlar o‘zlarining turli qatlamlarida turlicha mavjud bo‘ladi va ana shu qatlamlarda ular muayyan madaniyat vakillari uchun turlicha voqelanadi.

Birinchi qatlamda, ya’ni asosiy dolzarb belgidan iborat qatlamda konsept barcha muayyan tildan foydalanuvchilar uchun o‘zaro bir-birini tushunish va muloqot manbasi sifatida voqelanadi. Konsept muloqot manbasi hisoblanar ekan, ushbu qatlamda konsept muloqot strukturasiga ham, fikrlash jarayoniga ham kiritiladi.

Qo‘shimcha «passiv» belgilardan iborat ikkinchi qatlamda konsept faqatgina jamiyatning ba’zi bir ijtimoiy guruhlari uchun dolzarb bo‘ladi. [2,573]

Uchinchi qatlamda yoki konseptning ichki formasi faqatgina tadqiqotchilar uchun tushunarli bo‘ladi. Lekin bu qatlam tilning boshqa foydalanuvchilari uchun mavjud bo‘lmaydi degani emas. Balki bu qatlam qolgan ikki qatlamning yuzaga kelishi uchun asos hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin, demak, konseptning mavjudligi uning qatlamlariga bog‘liq va turli qatlamlarda konsept muayyan madaniyat vakillari uchun turlicha voqelanadi. Shuningdek, konseptning mavjudligi to‘g‘risidagi savol bevosita uning tarkibi bilan bog‘liq, konseptning tarkibi esa anna shu tarkibni belgilab beruvchi tadqiqot metodlari bilan uzviy bog‘liq.

Demak, bevosita ma’no nafaqat so‘zlarda, balki madaniy hodisalarda, ya’ni urf-odatlar, rasm-rusumlar va an’analarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda «bevosita ma’no» atamasi «ichki forma» atamasiga sinonim sifatida qo‘llanilgan.

Tarixiy metod

Tarixiy metod ko‘proq konseptning ikkinchi «passiv» qatlamiga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu metod yuqoridagi birinchi metod bilan bog‘liq holda olib boriladi va keng tarqalgan hisoblanadi. Tarixiy metod asosan rus ertakshunos olimi V.Y. Propp nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z tadqiqotlarida mazkur metoddan foydalanadi. Uning fikriga ko‘ra, ertaklarni qadimgi ijtimoiy hayot bilan taqqoslash lozim va undan ertakning ildizlarini aniqlash kerak. Bu fikr esa konseptni o‘rganishda tarixga murojaat qilish kerakligini ko‘rsatyapti.

Tarixiy metoddan foydalanganda, asosan etnolog, tarixchi va ma’naviy madaniyatni o‘rganuvchi olim kabi tadqiqotchilar muhim ahamiyatga ega. Etnolog insonlar o‘zlari mustaqil anglolmaydigan zamonaviy madaniyatning mavjud bo‘lgan tub qatlamini o‘rganadi, madaniyatshunos olim esa etnologga ergashadi va uning metodlaridan foydalanadi.[1,269] Tarixiy

metodning ahamiyati avloddan-avlodga uzatilib kelinayotgan va oldindan mavjud bo‘lgan ma’lumotlar, fikrlar asosida konseptni o‘rganishdan iborat.

Ijtimoiy metod.

Ijtimoiy metod konseptning uchinchi «faol» yoki «dolzarb» qatlamiga nisbatan qo‘llanadi. Bizga ma’lumki, madaniyatshunoslik fanining predmeti tushunchalar emas, balki bu tushunchalar, ya’ni konseptlar inson tafakkurida ruhiy nuqtayi nazardan qanday mavjud bo‘lishi va faollashishini o‘rganish hisoblanadi. Bu konseptlarni ijtimoiy nuqtai nazardan o‘rganilishini talab qiladi. Shunday ekan, konseptlarni o‘rganish ularning jamiyatda qanday voqelanishi va mavjud bo‘lishini o‘rganishni talab etadi.

Madaniy konseptlar o‘ziga xos haqiqatni, ya’ni mental haqiqatni tasvirlaydi. Ma’lumki, mental haqiqatni shakllantirish muayyan genetik ketma-ketlikni talab qiladi. Demak, konseptlarni o‘rganish semantik nuqtayi nazardan kelib chiqish sabablari, turli zamonlarda shakllangan va turli tarixiy qatlamlarni vujudga keltirgan ma’lumotlarni izchil ketma-ketlikda joylashtirishni talb etadi.

Eksperimental metod.

Eksperimental metod – bu konseptlarni nutq jarayonida tadqiq etishga yordam beradi, ya’ni ushbu metod bu yoki u konseptni muloqot jarayonida til egalari tomonidan qo‘llanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Eksperimental metod konseptning barcha qatlamlariga nisbatan qo‘llaniladi. Esperimental metodlardan erkin assotsiatsiya metodi keng qo‘llaniladi. [4,232]

Yuqorida aytilganlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin: biror-bir konsept tadqiqi jarayonida, albatta, tarixga va etimologiyaga murojaat qilish kerak ekan. Bularning barchasini turli xil lug‘atlardan topish yoki eksperiment tarzida aniqlash mumkin. Lekin muayyan bir konkret konseptni tavsiflash uchun etimologik va izohli lug‘atlarda keltirilgan leksikografik ma’lumotlarning o‘zi etarli emas, yana konseptning umumtilshunoslikda qo‘llanilishi, derivatsion aloqalari va muayyan matnlar guruhi doirasida qo‘llanilishini ham o‘rganish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Телия В.Н. Типы языковых значений. Связанное значение слова в языке. – М.: Наука, 1981.-269 с.
2. Тэйлор, Е.Б. Первобытная кулътура. – М.: Наука, 1989. -573с.
3. Хунагова А.Р. К определению понятия “мода” через орределение понятия “коцепт” // Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. Филология и искусствоведение. Майкоп, 2012. Вып. 2. С. 336.
4. Semantics and cognition. The meaning of colour terms: semantics, culture, cognition. Cognitive linguistics. – Cambridge: MIT Press, 1990. -232 p.

Dilshodjon TIRKASHEV,
Teacher at KSPI
tirkashev2020@mail.ru

METONYMY AS AN IMAGE-BEARING DEVICE IN FICTION

Annotation: metonymy is a powerful image-bearing device that can be used to create vivid and memorable images in fiction. By using metonymy, writers can evoke a wide range of associations and emotions in their readers.

Key words: *metonymy, container for contents, place for people, symbol for thing, abstract ideas, sense of mystery and intrigue*

Аннотация: метонимия – мощный образный прием, с помощью которого можно создавать яркие и запоминающиеся образы в художественной литературе. Используя метонимию, писатели могут вызвать у своих читателей широкий спектр ассоциаций и эмоций.

Ключевые слова: *метонимия, вместилище содержания, место для людей, символ вещи, абстрактные идеи, ощущение тайны и интриги.*

Annotatsiya: metonimiya badiiy adabiyotda jonli va esda qolarli obrazlarni yaratishda qo’llanilishi mumkin bo’lgan kuchli tasvir tashuvchi vositadir. Metonimiyadan foydalanib, yozuvchilar o‘z o‘quvchilarida keng assotsiatsiya va hissiyotlarni uyg‘otishi mumkin.

Kalit so’zlar: *metonimiya, mazmun uchun buyum, odamlar o’rniga joy, narsa ramzi, mavhum g’oyalar, sir va intriga hissi.*

INTRODUCTION

Metonymy is a figure of speech that uses the name of an attribute or an object to represent the thing itself. For example, we might say “the Crown” to refer to the British monarchy, or “the White House” to refer to the American presidency.

There are some types of metonymy which should be first considered. One of the types of metonymy is metonymy of container for contents. Metonymy of container for contents is a figure of speech that uses the name

of a container to refer to its contents. This type of metonymy is often used to create a sense of intimacy or familiarity. For example, we might say "I need a cup of coffee" to mean "I need some coffee." Other examples of container for contents metonymy include:

"Can I get a glass of water?" (meaning "Can I get some water?")

"I'm going to grab a bite to eat." (meaning "I'm going to get something to eat.")

"I need to do a load of laundry." (meaning "I need to wash a load of clothes.")

Furthermore, metonymy can be best applied for place for people. Metonymy of place for people is a figure of speech that uses the name of a place to refer to the people who live there. This type of metonymy is often used to create a sense of community or belonging. For example, we might say "Hollywood" to refer to the American film industry. Other examples of place for people metonymy include:

"The White House" (meaning the American presidency)

"Wall Street" (meaning the American financial industry)

"Silicon Valley" (meaning the American technology industry)

Moreover, metonymy can create the image for a symbol for thing. Metonymy of symbol for thing is a figure of speech that uses the name of a symbol to refer to the thing it represents. This type of metonymy is often used to create a sense of significance or importance. For example, we might say "the cross" to refer to Christianity. Other examples of symbol for thing metonymy include:

"The flag" (meaning a nation or country)

"The crown" (meaning a monarchy)

"The scales of justice" (meaning the legal system)

Metonymy is a versatile figure of speech that can be used to create a variety of effects in fiction. By understanding how to use metonymy effectively, writers can create more engaging and impactful stories.

Cho‘lponning Robindranat Thakur ijodiga murojaatini uning o‘z shaxsiy qiziqishi natijasi sifatida baholash maqsadga muvofiq emas. Buning zamirida buyuk shoirga xos katta va ulug‘ maqsad bor edi. Bu turkiy xalqlar adabiyotining Tagor hind adabiyotini olib chiqqan darajaga yetkazish g‘oyasi edi. Tagor XX asr boshida “dunyoda eng o‘tkur adibga berilaturg‘an Nobel mukofoti”ni qo‘lga kiritish orqali hind adabiyotining shuhratini ham orttirdi. Cho‘lponda mazkur g‘oya bo‘lganini uning “Ulug‘ hindiy” maqolasida avval o‘zbek, so‘ng turkiy adabiyotlar orasida nisbatan ilg‘or bo‘lgan tatar, ozarbayjon va usmonli adabiyotini qisqa tahlil qilib, eski uslubdan yangisiga juda sekin borilayotganidan taassuf chekadi. Lekin juda oz bo‘lsa-da umid borligini ham unutmaydi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning quyidagi fikrlarini eslashni lozim topdik: “Sharq klassiklari, ayniqsa, turk va hind yozuvchilarining asarlari bilan, shuningdek, Ovro‘pa va rus adabiyoti bilan puxta tanish edi. Shuning uchun 15-16 yoshlaridayoq ma’rifatparvarlik g‘oyalarini qabul qilishga tayyor edi. Shuning uchun Cho‘lpon yoshligiga qaramay, Turkistonning taqdiri to‘g‘risida, millatning istiqboli haqida chuqur qayg‘urish bilan o‘ylay boshladi. U ham jadidlarga ergashib, xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog‘idan qutqarib olishning birdan-bir yo‘li ma’rifat degan e’tiqodga keldi” . “Tagor va tagorshunoslik” maqolasi Cho‘lponda adabiy va ilmiy jarayonni kuzata olish qobiliyati yuksakligini ko‘rsatadi. Bu maqolada zikr etilganidek, “Sho‘ro” majmuasi 1913-yil Tagorning Nobel mukofotini olganligini yozib chiqqanligi aytiladi. Qozon, Bokuda ayrim asarlari chiqqan, lekin o‘zbeklar hali Tagor kimligini bilmaydi. Bu maqolani yozilishigacha, Cho‘lpon Tagorshunoslikni sinchiklab o‘rgangani seziladi. Tagorning “Xotiralar” kitobi, 1925-yilda nashr etilgan “Hindiston istiqlol uchun kurash yo‘lida” maqolalar majmuasi, fransuz adibi Romen Rollanning Tagor va Gandhi haqidagi maqolasi, Tagorshunoslar Veltman, Gruzinskiy kabilarning asarlari shular jumlasidandir. Mazkur olim-u adiblar tadqiqotlaridan xulosa o‘laroq, Cho‘lpon o‘zbek kitobxonlariga o‘zbek adabiyoti tarixida ilk marta Thakur “tarjimai holi”ni taqdim etadi. Cho‘lponning ushbu harakati boshqa

o‘zbek yozuvchilarini ham Thakur dunyosiga talpintirdi.

Cho‘lpon turkiy adabiyotda eski ruhni saqlagan holda yangi (G‘arbga xos) shakllarni o‘zlashtirish tamoyilini ilgari surishi, shu yo‘l bilan bu adabiyotning ilg‘or adabiyotlar qatoriga qo‘shilishiga ishonchi ham ana shu kichik maqolada ayon bo‘ladi. Shuningdek, maqolada shoirning Tagor ijodidan uchta she’rni tarjima qilib nashr ettirayotganini ham bilib olish mumkin.

“Tagor va Tagorshunoslik” maqolasida Cho‘lpon “Robindranat Tagorni madaniy olamning hammasi taniydir. Madaniy olamga nisbatan ancha ketda bo‘lg‘an bugungi turk-tatar sho‘ro jumhuriyatlari xalqlari ham uni anchadan beri taniydilar” degan fikrni bayon qiladi. Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki, Cho‘lpon Tagorning shuhratini e’tirof etish bilan birgalikda, o‘z xalqining “madaniy olamga nisbatan ancha ketda”, orqada ekanidan ichki og‘riqli bir dard bilan izhor qilayotgani ham tushuniladi.

Cho‘lpon Thakurdan o‘rganganlarini uch qismga ajratib kuzatish mumkin: 1) falsafiy mushohada; 2) mavjud narsa-hodisalardan poetik obraz yaratish va 3) she’r shaklini ma’lum qonuniyatlardan chiqmagan holda o‘zicha yaratish. Kuchli ijtimoiy ma’noga ega “G‘aflat” she’riga u “ulug‘ hindiy”dan shunday epigraf oladi: “...Biz olam kitobini yanglish o‘qiymiz-da, “U bizni aldaydir”, – deymiz”. Bu falsafa she’rga juda mos tushgan.

Tonglarning sirlari to‘rni keng yoyganda,
Biz g‘ofil, uyquning qa’rida qolamiz.
To‘lgan oy ko‘klarda suzilib borganda,
Biz qo‘pol, to‘nglikning qahrida qolamiz.

Yuqoridagi baytlarda ko‘rinib turibdiki, inson yashar ekan, uning qanday yashashi o‘z qo‘lida. Agar u harakatda, intilishda, ezgulik niyatida bo‘lsa, albatta, erishadi va orzu-umidlari ushaladi. “G‘aflat” esa bularning barchasiga aybdor ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu satrlar orqali shoir, insonlarni birdamlikka, xushyorlikka, ezgu amallarning ro‘yobi uchun harakatda bo‘lishga chaqiradi.

Yolg‘onlar, aldashlar boshlangan damlarda,
Uyqumiz ochilib, borliqqa chiqamiz.
Bir zamon: qilichlar hech turmas qinlarda...
Shul zamon biz hatto ko‘klarga uchamiz.

“Yolg‘onchilik” inson tiynatiga yot tuyg‘u ekani ayon, imkoni boricha uni inson hayot yo‘lida davomida ishlatmasligi ma’qul. Ammo, ba’zida yolg‘onlar ham hukmronlik qiladi. Shoir yolg‘onlar bor joyda uyqu kelmasligi, uning ta’siri nafaqat inson vujudiga, balki ijtimoiy hayotiga qattiq va yoqimsiz ta’siri borligini ta’kidlaydi. Bunday uyqusizlik hammada ham emas, millat uchun qayg‘urgan, uning kelajagini o‘ylagan va tasavvur qila olgan kishigagina o‘sha holatga tushishi mumkin. Cho‘lpon ana shunday millatparvar, xalqparvar, vatanparvar inson edi. Uning yo‘lida jonini fido qila olgan shoir, munaqqid, yozuvchi, publitsist va dramaturg edi. Chunki, uning she’rlarida ham, taqrizlarida ham, roman va hikoyalarida ham, hatto publitsistik maqolalrida ham vatan tuyg‘usi, uni sevish va ardoqlash, uning uchun kerak bo‘lsa jon fido qilish kabi tuyg‘ular yaqqol sezilib turadi. Bularning ko‘pini Cho‘lpon jahon adabiyoti vakillari asarlari bilan tanishish orqali o‘zida jo etdi. Masalan, u Thakurdan ko‘p narsa o‘rgandi.

Cho‘lpon Thakurning ikki she’rini tarjima qiladi: “Chiroqlar”, “Hoy yo‘lovchi qiz”. Uning maqolalarini kuzatadigan bo‘lsak, aslida ular ko‘proq bo‘lganiga amin bo‘lamiz. Yuqorida eslangan “Ulug‘ hindiy” maqolasining o‘zida uchta tarjima haqida so‘z borgan edi. O‘sha uchta tarjima uch hikoyasi hisoblanadi, bular “Qog‘ozdan qayiqchalar”, “Oq bulutlar bilan to‘lqunlar”, “Ko‘ngilchanlik” kabi kichik hikoyalar. Thakurning “Notanish qiz” hikoyasini o‘qib, o‘zining “Novvoy qiz” hikoyasini yozgan bo‘lsa ajab emas. Bundan Cho‘lpon Thakur ijodini qunt bilan o‘rgangani seziladi. O‘zining “G‘aflat” she’riga yuqorida ta’kidlaganimizdek, uning ijodidan epigraf keltirgani, uning she’rlaridan tarjima qilganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Thakurning “Chiroqlar” she’rida chinni chiroq, sopol chiroq va Oy, “Hoy yo‘lovchi qiz” she’rida esa “yo‘lovchi qiz” obrazi orqali qadr-qimmat va ozodlik tushunchalari haqida fikr yuritiladi. Kuz fasli – tong otar, ko‘klamda – oy botar kabi tashbehlarni ishlatganki, bular Cho‘lponni hayratga solgani ayon. Har ikkala she’rda ham shakllar asosiy yo‘ldan chiqilmagan holda an’anaviy qoliplar istisno qilinadi:

“Chiroqlar” she’ridan:
Bir ayvonning tokchasida
To‘la nurli chinni chiroq
Poril-poril yonar edi
Oyning to‘lgan kechasida
Nurlar sochib quchoq-quchoq.
O‘ziga xo‘p bino qo‘yib,
O‘z nurini o‘zi suyib
Tig‘larini sochar edi...

Cho‘lpon hind adibi va shoiri Robindranat Tagor ijodi bilan tanishar ekan, nihoyatda ta’sirlanadi. Bu ta’sirni “Ulug‘ hindiy” maqolasida bayon etadi. “Shu narsani yuragim duk-duk urib yozdim, – desam, yo ishonasiz, yo ishonmaysiz.

Lekin yuragim shamol tekkan yaproqday qaltiraydir... Bir xil zavq – “nash’a” bilan qaltirag‘an yuragim butun tanimni silkitadir va qo‘lim ham shu orada yengilgilgina chayqalib turadir” . “Ulug‘ hindiy” maqolasidan olingan parchadan anglashiladiki, Cho‘lpon yangilik istayotgan, izlayotgan paytda Tagordan o‘shani topganday bo‘ladi. Bu o‘rinda adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning quyidagi fikrlariga qo‘shilmaslikni iloji yo‘q: “... Buyuk hind shoiri va mutafakkiri Robindranat Tagor siymosini targ‘ib qilishga bag‘ishlanganday ko‘rinadi. Biroq aslida esa Cho‘lpon Tagor bahonasida o‘zbek adabiyotining rivoji qay yo‘ldan borishi kerakligi haqidagi mulohazalarini

bayon qiladi. Maqolada Tagor asarlari ideal darajasiga ko‘tarilgan chinakam san’at namunalari sifatida talqin qilingan. Xo‘sh, Cho‘lpon Tagor ijodini qay jihatdan ideal ijod deb biladi? Shunisi muhimki, Cho‘lpon bu to‘g‘rida fikr bildirar ekan, faqat o‘zbek adabiyoti yoxud o‘zbek yozuvchilarinigina nazarda tutmaydi, balki, umuman, yangi adabiyotning XX asr boshlarida adabiyotga kirib kelgan Sharq yoshlarini nazarda tutadi” . Ustoz olimning fikrlariga e’tibor qaratsak, Thakur bahonasida o‘zbek adabiyotining rivoji qay yo‘ldan borishi va uning rivoji haqida o‘ylaganini sezish qiyin emas. Aytish mumkinki, Thakurning “Notanish qiz” hikoyasi bor, o‘sha hikoya ta’sirida Cho‘lpon o‘zining “Novvoy qiz” hikoyasini yaratganday go‘yo. Ikkala hikoyaning mazmun va mohiyati boshqa-boshqa. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim B.Do‘stqorayevning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz bildik: “Shoir o‘zi izlagan “yombi”ni R.Tagor asarlaridan topadi. Uning bu qadar izlagan she’riy “yombi”si qanday yombi, uning bunchalik izlagan “yo‘l”i qanaqa yo‘l edi? Cho‘lpon yozadi: “Qo‘lim qaltirasa ham, qudratim yetmasa ham, o‘sha “Sharq va G‘arb o‘rtasidagi oltun ko‘prik”ni elimga tanitmoqchi bo‘ldim” . Har ikkala olim Cho‘lpon Thakurdan izlagan yo‘lini topganini, yangi adabiyotni yaratishda Thakur ijodi sabab bo‘lganini e’tirof etganliklarini ko‘rish mumkin. Haqiqatan, Cho‘lpon R. Thakur asarlarini tarjima qilar ekan, undan yangicha she’riyatni, yangicha nasrni o‘rgangan deyish mumkin. Birgina yuqorida tilga olingan “Notanish qiz” hikoyasi umuman insonni boshqa dunyoga olib kiradi. Aytish mumkinki, olam yangilanadi, odamlar yangilanadi, axloqi, xulqi va yashash turmushi, hikoyada tasvir go‘zal, ta’sirchanlik chuqur, fikr teran, albatta, bundan Cho‘lpon ta’sirlangani tabiiy. Bunday iste’dod egasi, o‘zi uchun “yangilik” izlab yurgan ijodkor, Thakurdan topgani aniq, ayniqsa, ushbu hikoya orqali o‘zi ta’kidlaganday “qo‘lim qaltirasa ham, qudratim yetmasa ham, o‘sha “Sharq va G‘arb o‘rtasidagi oltun ko‘prik”ni elimga tanitmoqchi bo‘ldim degani bejiz emas.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jadidchilik harakatining faollaridan bo‘lgan Cho‘lpon, Thakur ijodini o‘rgandi, tarjimalar qildi, yangi ruhdagi adabiyotni yaratgan “ulug‘ hindiy”dan hayratlandi. Uning ma’rifat yo‘lida qilgan xizmatlarini yuqori baholadi va unga ergashib ijod qilishni maqsad qilgan edi. Ma’lum darajada maqsadiga erisha oldi desak xato bo‘lmas. Bu ikki ijodkorning asarlari bugungi kunda ham, yosh avlod uchun boy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дўстқораев Б. Муҳаббат осмонининг гўзал Чўлпони. “Гўзал Туркистон”.Шеърлар. – Тошкент: Маънавият, 1997.
2. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2004.
3. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик, 4-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016.

Gulchehra KELDIYOROVA,
O‘zMU dotsenti, f.f.n.

SHE’RIYATDA ALLYUZIV BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy matnga kiruvchi va uning tuzilishini shakllantirishda va ahamiyatli ma'nolarni hosil qilishda allyuziv birliklar muhim o‘ringa egaligi, allyuziv nomlar badiiy asar matnidagi nomlar obrazlar xarakterlarining o‘ziga xosligini ifodalashi vazifasini amalga oshirishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *antroponimiya, allyuziya, talmeh, antropotsentrik, toponimlar.*

Аннотация: в данной статье поясняется, что аллюзивные единицы занимают важное место в формировании художественного текста и его структуры, в создании смысловых значений, а аллюзивные имена выполняют функцию выражения своеобразия характеров персонажей в тексте художественного произведения.

Ключевые слова: *антропонимия, аллюзия, тальме, антропоцентризм, топонимы.*

Annotation: this article highlights the important role of allusive units in the artistic text and in forming its structure and creating significant meanings, allusive names perform the function of expressing the uniqueness of the characters of the characters in the text of the artistic work.

Key words: *anthroponymy, allusion, talmeh, anthropocentric, toponyms.*

So‘nggi yillarda tilshunoslikning tizimli-strukturaviy paradigmasining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan antroponimiya muammolariga qiziqish ortdi. Bu esa tilni inson bilan, uning ma'naviy va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog‘lab o‘rganishga qaratilgan antropotsentrik qarashni nazarda tutadi. Antroponimiya uni yaratgan xalqning tili va madaniyatini o‘rganish uchun bitmas-tuganmas manbadir.

Badiiy matnga kiruvchi va uning tuzilishini shakllantirishda va ahamiyatli ma'nolarni hosil qilishda allyuziv birliklar muhim rol o‘ynaydi. Allyuziv nomlar badiiy asar matnidagi nomlar obrazlar xarakterlarining o‘ziga xosligini ifodalashi vazifasini amalga oshiradi.

Allyuziya (lot. allusio — ishora, hazil) — barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul hisoblanadi. Mohiyatiga ko‘ra, Sharq mumtoz she'riyatida keng qo‘llanilgan talmeh san'atiga o‘xshab ketadi. Lekin farqli tomoni, talmehda, asosan, mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinadi, allyuziya esa mumtoz badiiy matnlarda ham, zamonaviy matnlarda ham faol qo‘llaniladigan usul bo‘lib, ijodkor o‘z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin. Ya'ni allyuziyada nazarda tutilgan ishora doirasi kengroq bo‘ladi.

Allyuziv antroponim madaniy-tarixiy ma’lumotlarni saqlaydigan belgi-ramz bo‘lib, o‘quvchi ongida assotsiativ aloqalarni yangilab, qo‘shimcha madaniy-tarixiy ma’lumotlarni jalb qilgan holda matnlarda qo‘shimcha semantik qatlamlarni hosil qiladi .

Allyuziv nom tayyor lingvistik formula shaklida ham, keyinchalik qo‘llanishi uchun pretsedent yaratuvchi yangi, avval noma'lum bo‘lgan belgi o‘zgarishlari sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Yozuvchining til shaxsini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, muallif tomonidan to‘plangan va ishlatilgan nomlarning butun tizimi orqali aks ettirilgan bilimlarni aks ettiradi. Badiiy asarlar dunyo, jamiyat, madaniyat haqidagi g‘oyalarni aks ettiradi va allyuziv birliklarni o‘rganishga antropotsentrik yondashish bilan muallifning til xususiyatlari o‘ziga xos tarzda ochib beriladi. Allyuziv nomlar o‘quvchini muallifning o‘zi bilan matn yaratuvchisi sifatida muloqotga olib keladi va muallifning qahramonga nisbatan pozitsiyasini ifodalaydi.

XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan bo‘lgan Rauf Parfi o‘zbekning yuksak milliy ruhiyatini o‘z she’riyati orqali tanitgan, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos maktab yaratgan katta shoir.

Badiiy matnda eng ko‘p qo‘llanadigan allyuziya bilan bog‘lik uslubiy figuralardan biri — allyuziv antroponimlardir.

Rauf Parfi “Eng uzoq yozilgan tarjimayi holim” she'rida ijodkor sifatida shakllanishida xizmat qilgan ustozlarim deya e’tirof etadi:

Dars: Alisher Navoiydan to Abdulla Orif.
Aleksandr Pushkindan to Viktor Sosnora.

Jahon adabiyoti namoyandalaridan yana ko‘plab shoirlarning nomlarini uning she’rlarida ko‘rish mumkin.

Asar tilidagi toponimlarni tahlil etish, avvalo, uzoq o‘tmishda mavjud bo‘lgan, shuningdek, hozirda ham keng qo‘llaniladigan nomlarning ma'noviy xususiyatlarini ochishda ahamiyatli.

Rauf Parfining “Bukun bir tush ko‘rdim” she’rida Markaziy Osiyodagi eng muqaddas, afsonaviy tarixga ega, shon-sharafga boy shaharlardan biri bo‘lgan qariyb uch ming yillik tarixga ega shahar Buxoro toponimi keltirilgan. She’rda noyob osori atiqalari va bebaho madaniy yodgorliklarining ko‘pligi bilan dunyo sayyohlarining diqqat-e'tiborini o‘ziga qaratib kelayotgan Buxoro ulug‘lanadi.

Bukun bir tush ko‘rdim.
Tushimda Buxoroda yurgan emishman.
Yuksak minoralar boshimda,
Oyoqlarim ostida gulshan.

Toponimlar etnik guruh madaniyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy xususiyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Aylanurman Samarqand uzra.
Xivadan Buxoro, to Toshkent qadar.

Rauf Parfi mifonimlardan, «Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlaridagi afsonaviy ot obrazidan maxsus foydalanishi she'rlari tabiati, ajoyib xalq an'analari va sevgi lirikasining romantik motivlari bilan belgilanadi.

Gulim, ko‘rmagansan umringda hali,
Inon, ot o‘ynatib bir tong mahali,
Sarbozlarim kelar G‘irotlarida.

Yoki:

Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abutturk nafasi, Oltoy chechagi.
Xun davridan omon keldi G‘iroting,
Qutlug‘ Enasoyning ezgu ertagi.

“... uning ona tili hazrati Nuhning to‘rtta o‘g‘lidan biri – Yofas (Abut-turk – turkning otasi)dan kelayotgan, u bilan hamnafas bo‘lgan til. U Oltoyda chechakka aylandi, Xun davridan G‘irot bo‘lib (og‘zaki adabiyot timsoli) bizgacha omon keldi, Enasoy va O‘rxun bo‘ylarida toshga bitilgan (yozma adabiyot timsoli) “ezgu ertak”ka do‘nib, ko‘kka qad rostlagan Turon bo‘ldi. “Ko‘klarga sanchilgan”, bu tilni yo‘qotib bo‘lmaydi”. [4. 28.09.2018.]

Uning lirik qahramoni ona tilining ildizlari baquvvat va uni yo‘qotib bo‘lmasligini ich-ichidan idrok qildi.

Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abut turk nafasi, Oltoy chechagi.
Xun davridan omon qoldi G‘iroting,
Qutlug‘ Enasoyning ezgu ertagi.
O‘rxun bo‘ylarida toshga aylanding,
Ko‘klarga sanchilding. Turon bo‘lding Sen.

Rauf Parfi estetikasida Turon-Turkiston mavzusi alohida sahifani tashkil etadi. «Turon-Turkiston mavzui miloddan avvalgi yozma adabiyotlarda yuz ko‘rsatib keladi, — deb yozadi Rauf Parfi. — Misr — Bobil, Xitoy — Hindiston, Rum, Eron, Ovro‘pa, Amerika singari Turon-Turkiston, Turk dunyosi jahon ilm-u fani, madaniyati, adabiyoti va san'ati xazinasiga o‘zining munosib merosini berdi va berajakdir». [3.35]

Rauf Parfi kutilmagan, beqiyos, betakror obrazlilikka asoslangan, turli ramzlar, majozlar, murakkab timsollarga yo‘g‘rilgan she'rlarida Turkiston qayg‘usi, turk birligi g‘oyasi ustuvor yo‘nalish kasb etdi.

O, sabr daraxti, qutlug‘ Turkiston.
Naqadar uzundir, og‘irdir bu yo‘l.

Yoki:

Ko‘ringiz tarixni, ey turkiy xalqim,
Ko‘zimga ertaning sevinchi xolos.
Ul Turondir, Turkistondir? U balkim
Ichimni kemirgan qadimiy qasos.

Allyuziv birliklar tilda matn birikuvi, nutq izchilligi va mazmundorligini ta'minlash, o‘xshatish va qiyoslashlar orqali matnda ifodalilikni oshirishda katta o‘rin tutadi.

Yozuvchining individual uslubi uning so‘z tanlashdagi va qo‘llashdagi mahorati orqali yaqqol ko‘rinadi. Tilshunosligimizda ijodkor badiiy nutqining o‘ziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar haqida gap ketganda, Rauf Parfi she’rlari misolida hozirgi tilimiz imkoniyatlari, uning nozik ma’no qirralarini namoyish eta olgan, bu imkoniyatlar turli vositalar, jumladan, so‘zni mohirona qo‘llash, yangi birliklar hosil qilish, xalq tilidan ijodiy foydalanish va boshqalar uning she’rlarida o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. – Toshkent: “Sharq”, 2013.
2. Rauf Parfi. Sakina. –T.: “Muharrir”, 2013. 124-bet.
3. Rahimjonov N. Rauf Parpi. Sakina. Saylanma. — Toshkent, “Muharrir”, 2013. 35-bet
4. www/kh-davron.uz. 28.09.2018. Olim Oltinbek. Rauf Parfi ona tili haqida.

Rayhonoy SAIDOVA,
f.f.f.d(PhD), dotsent;
Mohinur AHMADOVA,
BuxDPI I bosqich talabasi

HAZIL SHE’RLARNING POETIK IFODA USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida mavjud bo‘lgan hazil she’rlarning poetik ifoda usullari ilmiy nazariy tahlil qilingan.

Аннотация: в данной статье научно и теоретически анализируются способы поэтического выражения юмористических стихотворений в современной узбекской литературе.

Annotation: in this article, the methods of poetic expression of humorous poems in modern Uzbek literature are scientifically and theoretically analyzed.

Badiiy ijodning siri shoir o‘z boshidan kechirgan va ko‘rgan, bilganlarini umumlashtirib, o‘sha voqealarga estetik ma’no bag‘ishlay bilishidadir. Ilmiy manbalarda ilhom kelishi uchun ijodkor dili bilan xalq dili payvand bo‘lishi kerak deyiladi. U xalq quvongan hodisadan quvonib, xalq nafratlangan voqealardan nafratlanishi zarur. Ilya Erenburg ijodkorning asar yaratishini “homilador xotinnig tug‘ishi”ga o‘xshatgan. Homilador xotinning tug‘ishi qanday muqarrar bo‘lsa, ijodkorning dilida gap paydo bo‘lgandan keyin yozilishi ham shunday muqarrardir. Mana shu mantiqqa asosan, hazil she’rlar ham ijodkorning xalq kulgisi bilan yaqinligining mahsulidir. Hangoma-hajviya, mutoyiba gurung, kulish, kuldirish – hajviyaning yetakchi belgisi. “Iste’dodli kishilargina kuldiradilar, kuydiradilar, lozim bo‘lsa yig‘latadilar” . Mohir san’atkorlar satira, hajviyani to‘laqonli timsol orqali kitobxonga havola qiladilar. Kalvak Maxzum, Toshpo‘lot Tajang (Abdulla Qodiriy), Shum bola Mamajon yalqov (G‘afur G‘ulom), Eshon, Boqijon Baqoyev (Abdulla Qahhor), O‘tkuriy (Uyg‘un), Bashirjon, Qiyomjon (Ne’mat Aminov) – hajviy satirik xarakterlar. Ularda ma’lum toifa kishilarning xarakteri hajv qilinadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ikkita yangi hajviy tip yaratildi. Biri – Matmusa (Erkin Vohidov), ikkinchisi – Gulmat (Anvar Obidjon). Anvar Obidjonning “Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni” turkumi hazil va hajviy she’rlardan iborat. Gulmatga g‘azalnavislik an’anasi sal-pal tegib o‘tgan. U goho g‘azal ohangini, vazn talabini his qilib qoladi. “G‘azal, raqam 51”da Gulmat o‘zi bilan Kuzma Purutkovni qiyoslab qoladi.

Davom qilmish: “Bo‘lib botir maningdek g‘oz yasha qo‘rqma –

Samoderjoviyo filni otsayam boshga oqtovdin.

Keltirilgan baytda Gulmat shoirning ma`naviy qudrati “samoderjaviyo” makoronizmining talaffuzi orqali namoyon bo‘ladi va yengil kulgiga sabab bo‘lgan. Gulmat Shoshiyning asosiy nuqsoni shundan iboratki, u faqat qorinni, maishatni, turgan-bitgani “asal” ayollarni o‘ylaydi. Gulmat Shoshning mashhur shoiri sifatida bu shahri azimning Xadra, Chorsu, Qatortol, Ko‘kcha, Eski jo‘va, Sagbon, Labzak, Do‘mbirobod, Shayxontohur, Beshyog‘och singari joylarini o‘rganib olib, she’rlariga kiritadi. Bu orqali obyektiv hayotda uchraydigan ayrim balandparvoz, ammo mantiqsiz so‘zlovchi kishilar nutqi kinoyali kulgi ostiga olinadi. Gulmat noskash, shishaga o‘ch, qiz-juvonlarga munosabatda besuyak, lozim bo‘lsa, munofiqlik qiladi, yolg‘onga to‘n kiydiradi. Mana ofatijon bir juvon o‘tib boryapti. Unga ergashgan “pashshalar” ko‘p. Gulmat ham “xira pashshalar” qatoridan joy oladi:

Yo‘rg‘alasam unga `Birov pashsha bo‘lib borma”, dedi.

Pashsha esam qandoq chiday – uch pud asal

ketvotti-ya.

Shodi burun “oh” deb oyog‘iga o‘zini tashlab edi,
Tog‘dek burundan sakrabon o‘tdi jadal ketvotti-ya.

She’r qahramonimiz shoir Gulmatga tegishli bo‘lgani uchun ushbu baytda kulgi chiqarish uchun ataylab qofiya buzilgan. Sababi jaydari ijodkor Gulmat Shoshiyning dunyoqarashini ifodalash orqali kitobxonda yengil kulgi paydo bo‘ladi. Kulgining yana bir prinsipiga ko‘ra, Gulmat she’rlarida kimning nomini keltirsa, albatta, uning yonida laqabi ham qo‘llanadi. Kundalik turmushda hamisha uchrab turuvchi, o‘zini oynaga solib ko‘rmagan ayrim so‘kong‘ich va barchaga laqab qo‘yuvchi obrazlar ham Gulmat shoir ijodida ifodalangan. Bu uslub kulgi uyg‘otishning an`anaviy turi hisoblanadi.

G‘ishmat adabiy tanqidchi sifatida tasvirlangan. “Sovun” so‘zi orqali “mag‘zava” ma`nosini ifodalash ko‘zda tutilgan. G‘ishmat ijod ahlini tanqid ostiga olib, barcha shoirlar qatori Gulmat Shoshiyning boshidan ham mag‘zava to‘kadi. Mana shu o‘rinda “o‘ziga ugro kesmagan birovga laxchak kesadi”, – degan xalq iborasi kitobxonning yodiga tushib, bevosita zavq-u shavq tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Barcha shoir-u adiblar qatori Gulmat ham tanqidni yomon ko‘radi. U tanqidchi G‘ishmatni birinchi dushmani deb biladi. O‘zi bir misra ham she’r yozib ko‘rmagan, biror ishni qoyillatmagan kishilar G‘ishmatni she`rlarida kinoya ostiga oladi. Aynan, o‘ziga yuqori baho berib, boshqalarga bepisand qarovchi ayrim kimsalarning obrazini yaratish orqali Anvar Obidjon hazil orqali kinoyali kulgi paydo qiladi.

Zohida Malikovaning “Bitta uzr so‘rab qoy”, “O‘xshatishning ustasi”, Mag‘zuniyning “O‘xshataman”, “Echkida qasam bormi”, Musulmonqul Suvonqulovning “Muhabbat yana menga yo‘liqding”, “Bilmadim”, Baraka Boqiyning “G‘urur”, “Shoir bosib ketar”, Sherzod Mustafoning “Bir kunlar keladi”, “Birovning yoriga jon berma”, Hasan Almatning “So‘rasa, jonimni beraman”, “Cho‘zmaquloq”, Ollayor Xo‘jandiyning “Bir so‘z” kabi she’rlari ham hajviy turkumdan hisoblanadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida uslubiy jihatdan yangicha ifodaga ega hazil she’rlar ham muayyan zahiraga ega.

Olis ketma, men sigaret chekaman,
Olis ketma, men hattoki ichaman.
Olis ketma, sensiz qanday uchaman,
Olis ketma, boshqasini quchaman.
Olis ketma, nima bo‘lsam bo‘layin,
Olis ketma, she`r yozmayin o‘layin.

Irodasiz kishilarning “xarxasha”si tarzidagi ifoda kitobxonda kinoyali kulgiga sabab bo‘ladi. Ba`zan yomon odamni ham uning ichki olamiga kirib, qiziqarli, maroqli qilib aks ettirilgan jumlalar ham xalq kulgisining yozma adabiyotga ta`siri ruhini anglatadi.

Abdulla Oripov “Shikoyatchi hangomasi” she`rida ko‘zga ko‘rinmasdek, ammo jamiyat hayotini muvozanatdan chiqaradigan illatni qalamga oladi. Shoirning hajviy qahramoni bo‘lar-bo‘lmas shikoyatlar bilan davlat idoralariga murojaat qilishdan charchamaydi, mas’ul vazifalarda o‘tirgan odamlarning vaqtini behuda sovurib, asabbuzarlik qiladi: “U mirshabxonaga qilar qo‘ng‘iroq: Jinoyat yuz berdi, chorasin ko‘ring. O‘zim sanab chiqdim erta-tongdanoq, Bitta tovug‘im yo‘q, mirshabjon”. Xullas, shikoyatchi degani shunday bir toifaki, uning hech kimga foydasi tegmaydi, biror foydali ish qilmaydi, lekin jamiyatdan juda katta foyda ko‘rishni xohlaydi. Arzimagan xarxashalari bilan katta-katta idoralarni, odamlarni ishdan qo‘yadi, asabini buzadi. Eng yomoni shuki, u o‘zini haq deb biladi. Bunday kimsalarning ishi odamlarga xalal berish, ularning qimmatli vaqtini o‘g‘irlashdan iborat. Uning diydiyolariga chek-chegara ham, ma’ni ham yo‘q: “Kimlardir uni deb doim ovora. U ham charchamasdi, bilmasdi tinim. Bir kun o‘zi keldi: Tez ko‘ring chora, “Sening aqling yo‘q”, deb aytdi xotinim”. Shunchaki shaxsiy illat bo‘lib ko‘ringan hodisa zamirida katta ijtimoiy fojia yashiringan: turli davlat idoralari uning shikoyatlariga javob berishga majbur. Javob bermay ko‘rsin-chi! Chunki berilgan arzda javob berishga majbur qiladigan mantiq bor-yo‘qligini belgilaydigan me’yorlar mavjud emas. Shikoyatchilik sindromi faqat jamiyat a’zolarining ma’rifiy darajasi va vijdoni bilan davo topadigan ijtimoiy xastalikdir.

“Oyisining jamg‘armasi” nomli voqeaband she’r 1990-yilda yozilgan. Yosh bir yigitcha birinchi maoshini hayajon bilan kutib, har xil rejalar tuzib, oyisiga ro‘mol, qaylig‘iga sirg‘a, peshayvonga bitta ilgich olishni xayol qiladi. Ammo bu orzu-xayollari uzoqqa cho‘zilmaydi; maosh qo‘lga tegishi bilan taqsimlanib ado bo‘ladi: kasaba uyushmaga, soliqchilarga, madaniyat xodimlariga, quriyotgan Orolga, hattoki necha yillar oldin yashab o‘tgan Navoiyga… Yigit hayron: “Hazratimning qalam haqqin, Ayting, kimlar oladi?” Javob: “Ulushlari Davlat degan Tog‘asiga qoladi. Turli yo‘llar bilan ayovsiz talon-taroj etilayotgan, mehnat qila-qila, pirovardida odamday yashash o‘rniga tishining kirini so‘rib qolayotgan xalq ishchi yigit timsolida o‘quvchi ko‘z o‘ngida fojiaviy qahramonga aylanadi. Ishchi yigit Abdulla Qahhor yaratgan Qobil bobo obrazining milliy adabiyotdagi mantiqiy davomi, transformatsiyasi o‘laroq idrok etiladi . Millat hayoti Qobil bobo davridan buyon tashqi tomondan o‘zgargan esa-da, mohiyati o‘sha-o‘shaligicha qolgan, demak, uni o‘zgartirish kerak, degan g‘oya kelib chiqadi she`rdan. Abdulla Oripov esa daho san’atkor o‘laroq, fojeiy voqelikni hajv yo‘li bilan fosh etadi.

Xulosa shuki, xalq latifa va askiya an’analariga xos bo‘lgan til va uslub, xarakter yaratishdagi badiiy vosita va usullar, o‘ziga xos obraz va motivlar yetuk badiiy asarlar, xususan, hangomalar yaratilish uchun zamin hosil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘shjonov M. Ijod saboqlari. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1973. 64-bet.
2. Rasulov A. Ijodiy o’zlik sari yo’l // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2008. № 2. 125-bet.
3. Sadoqat Qurbonova. Olis ketma // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2021. №12. 168-bet.
4. Xaitov X.A. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti badiiy taraqqiyotida xalq kulgisining o‘rni. Fil.fan.dokt.dissert. – Buxoro. 2024. 158-bet.

Ra’no HAKIMJONOVA,
O‘zMU “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi
elif_77777@mail.ru

CHO‘LPON VA SHAVKAT RAHMON IJODIDA IJTIMOIY MOTIVLAR

Annotatsiya: maqolada Cho‘lpon va Shavkat Rahmon she’riyatida uchraydigan o‘xshash ijtimoiy motivlar qiyosiy o‘rganilgan bo‘lib, ulardagi ramziylik davr manzarasini hamda ozodlik, erk qayg’usini ifodalashga xizmat qilgani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy motiv, yo‘l, yo‘lchi, yo‘qsil, amal, tutqun, kishan, kafan, qilich, erk, qullik, yurt, qush.*

Аннотация: в статье сравнительно исследуются схожие социальные мотивы встречающиеся в лирике Чулпана и Шавката Рахмана, выявляется, что символика в их лирике прослужила для выражения картины времени, скорби свободы и воли.

Ключевые слова: *социальный мотив, путь, путник, поступок, пленник, кандалы, плащаница, меч, воля, рабство, земля, птица.*

Annotation: this article compares similar social motives in the poetry of Cholpon and Shavkat Rahman. In the article, it is revealed that symbolism served to express the appearance of that time and the freedom, the sadness of liberty.

Keywords: *social motif, road, Roadman, miserable, work, captive, coffin, shroud, sword, Liberty, slavery, land, bird.*

Cho‘lpon “Adabiyot nadir?” maqolasida: “Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘i xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda bitushkan gul” ekanligini, ya’ni ijtimoiylikdan suv ichadigan gul ekanligini ta’kidlagan edi. Sh.Rahmon esa “Bashar fojiasini, millat fojiasini o‘z fojiasi bilib o‘rtangan shoir haqiqiy she’r baxtiga muyassar bo‘ladi”, deya adabiyotni, she’riyat va shoirlik qismatini millatdan, uning dardu quvonchidan ayro ko‘rmasligini bildirib, Cho‘lponga uyg‘un fikr aytgan edi.

Cho‘lpon she’riyatida yetakchi o‘rin egallagan ijtimoiylik ruhi o‘zbek adabiyotining keyingi bosqichlarida Sh.Rahmon ijodida ham bo‘y ko‘rsatdi. Shundan kelib chiqib, ikki shoir ijodida qo‘llangan ijtimoiy motivlar tabiatining, o‘xshash va farqli jihatlarining ayrimlarini ushbu maqola doirasida qiyosiy tahlil etishni maqsad qildik.

Badiiy adabiyot tarixidan ma’lumki, har qanday katta ijodkor o‘zidan avvalgi an’ana zaminida ijod olamiga kirib keladi va uni yangilaydi. An’ana va novatorlik biz tahlilga tortayotgan motivlar tabiatiga ham yot emas.

Adabiyotshunoslik lug‘atida motiv tushunchasiga “bir shoir ijodi yoki bir davrda yashagan shoirlar ijodi doirasida takrorlanuvchi poetik obraz”dir, [5:180] deya izoh beriladi. Cho‘lpon va Shavkat Rahmonda o‘ziga xos ijtimoiy motivlar ham, takrorlanuvchi motivlar ham uchraydi.

Cho‘lpon she’riyatida ijtimoiy mazmun tashuvchi motivlardan yo‘l, yo‘lchi, yo‘qsil, amal, tutqun, kishan, kafan, qilich, erk, qullik, yurt, o‘lka, kabi sof ijtimoiy motivlar, shuningdek, ijtimoiy mazmunga xizmat qildirilgan oq, qora bulut, oy, yulduz, dengiz, to‘lqin, bo‘ron, tun, yaproq, qish, qarg‘a, bo‘ri, boyqush kabi peyzaj motivlar faol qo‘llanilgan.

Sh.Rahmonda Cho‘lpon she’riyatida kuzatilgan erk, yo‘qsul, yo‘l, yo‘lovchi, qarg‘a, hurlik, bulbul kabi ijtimoiy mazmundagi motivlar, shuningdek, o‘zining ijodigagina xos bo‘lgan tarixiy xotirani tiriltirishga xizmat qiluvchi jo‘mard, musulmon, zobit, qullik, jallod, maydon, ig‘vo, yig‘i, xoin, yog‘du, qashqir, er, qilich, musofir kabi motivlar o‘z ifodasini topgan.

Cho‘lpon “Ustodning xislatlari” maqolasida: “Men o‘zim har qanday nasrli asarda (ro‘mon, hikoya) go‘zal tashbehlar va tabiat tasvirlarini yaxshi ko‘raman”, [2:60] deydi. Bu e’tirofi garchi nasriy asarlariga nisbatan aytilgan bo‘lsa-da, she’riyatiga ham daxldordir. Mazkur maqolasi nasriy asarlar haqida bo‘lganligi bois “nozik ko‘ngulli, tabiatni sevguvchi va tabiat maftuni bir shoir” hatto nasrda ham tabiat tasvirlari-yu go‘zal tashbehlardan voz kecholmayman, demoqchi bo‘ladi. Tabiat tasvirlarini ifodalashda rassom imkonlariga havas qiladi, “Shu ojiz holimga shoirmanmi men?” deya shoirning “ojiz”ligidan o‘ksinadi. Hatto Pushkindan

o‘girgan tarjimasida burgut, qush, dengiz, shamol kabi peyzaj motivlari ishlatilgan she’rni tanlab oladi.

Cho‘lpon she’riyatining aksariyat namunalari tavsifiy lirika mahsulidir. Ma’lumki, tavsifiy lirikada “tavsiflanayotgan, tasvirlanayotgan narsa-hodisalar, tabiat manzarasida shoir o‘y-kechinmalari, o‘y-fikrlarini suratlantiradi”. Cho‘lpon tabiat tasviri orqali qalbini to‘kib soladi. Bu esa uning tavsifiy lirikasi avtopsixologik lirikadan ayro emasligini ko‘rsatadi. Shuningdek, davr girdobiga g‘arq bo‘lgan qizlar afg‘onini aks ettirgan ijroviy lirikaga mansub qator she’rlari ham mavjud.

Cho‘lpon she’riyatida voqelikning shavqatsiz yuzini ko‘rmaslik uchun uyqu motiviga murojaat etiladi: Nechun ochildi ko‘zim, qayga ketdi uyqularim, Bu uyg‘onishda to‘lib toshdi oshdi qayg‘ularim. Bundan tashqari, xayol motivi orqali Cho‘lpon haqiqatning qattol ko‘zlaridan himoyalanadi: Xayol, xayol yolg‘iz xayol go‘zaldir, Haqiqatning ko‘zlaridan qo‘rqamen.

Mumtoz she’riyatimizda asosan ishqiy motiv sanalgan qush va qafas obrazlari Cho‘lponning “Qushning hadigi” she’rida tamoman ijtimoiy mazmunga ega. Adabiyotshunos olim U.Hamdamov XX asr o‘zbek she’riyati tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsion ishida yangi o‘zbek she’riyati gulni bulbulga qofiya etib yaratilgan hamda ko‘ngilga, hisga murojaat etuvchi, ba’zan hatto sentimental doirada qolib ketuvchi burungi nazmdan ajralib turadi”, [6:70] deb aytadi. Bundan ko‘rinadiki, yangilangan she’riyatda mumtoz motivlarda kuylangan ishqiy mazmunga murojaat etilmasa-da, u motivlardan butkul voz kechilgani ham yo‘q. Aksincha, shoirlar an’anaviy motivlarni ijtimoiy ma’nolar yuklagan holda yangilab bordilar. Navoiyning mashhur ruboiysida ham g‘urbatda g‘arib bulbulga oltin qafas ichida butgan guldan ko‘ra, o‘z oshyonidagi tikon afzalligi tasvirlanadi. Demak, gul va bulbul motivlariga ijtimoiy ma’nolar berishga bo‘lgan urinish mumtoz adabiyot namunalarida ham uchrab turar ekan. Cho‘lponga ko‘ra, yovlar qushni erkidan ayirib, “qanotini qayirganlar”. U darchalari mahkamgina qafasdan chiqmoq uchun o‘zini har yonga urib ko‘radi, ammo u devorlarda sezgi, tuyg‘u yo‘q. Shu uchun tutqun qush iztiroblarini kuylashdan o‘zga chora topolmaydi: “Uning butun tasallisi – to‘lib toshib sayramoqdir, Ko‘m-ko‘k dala, o‘rmonlarni eslab-eslab yig‘lamoqdir!..” Ushbu she’rda qush motivi orqali ozodlikka bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi va erkidan mahrum etilgan Cho‘lpon tuyg‘ulari o‘z ifodasini topadi. “Shu kunda” nomli she’rida ham parlari yulingan yo‘qsil qush motivi uchraydi. Qushga o‘z gulini hidlagani bermaydilar, gulga talpingan patlarini yuladilar. Nihoyat, qush umidlar havosidan pastga tushishga qaror beradi. “Qiz qo‘shig‘i” she’rida qush motivi qizning qismatini ochib berishda ishlatiladi. “Jannat kabi bog‘lar bulbulsiz qolgan”. Vatanning go‘zal bog‘larida sayragan bulbulning ovozini eshitishi bilan jallod boshini olmoqqa shay. Sh.Rahmon ham “Qaysar Bulbul” she’rida bulbul motivini ijtimoiy xarakterda jonlantiradi. Unda zog‘lar orasida isyonkor nolalar qilayotgan millatparvar bulbul “Lison ut-tayr” qushlari kabi jamiyatda o‘z o‘rnini izlaydi. “Sharhi hol” she’rida esa yurtdagi talonchilik, zulm, ocharchilik sabab bulbullar kalxatga o‘xshab borayotganidan o‘ksinadi. “Kayfiyat manzarasi”da soxta bulbullarning sayrog‘idan quloqlarini berkitadi. Soxta bulbul bu o‘zini shoirlikka solayotgan ta’magir kaslar siymosidir. “Gul yig‘isi”da gul g‘ofillar, qattollar orasida yuragi yorilib o‘lgan bulbulga aza tutadi. “Uyqu” she’rida qaydadir toliqib sayrayotgan bulbul motivi uchraydi. Bulbullar zamona zayli bilan hammaning ko‘z o‘ngida emas qaydadir, yozilib emas sayrog‘iga kimsa quloq tutmaganidan toliqib sayrayotir. Aslida, bu bulbul xaloyiqni uyg‘otishi, jallodning tig‘laridan ogoh etishi kerak edi. Bulbul motivi Sh.Rahmonda Haqni kuylovchi chinakam shoir, o‘zini shoirlikka solayotgan ta’magir “shoir”, sayrog‘i hech kimsaning qulog‘iga bormay qo‘ygan bechora shoir ma’nosida ishlatilgan.

Ma’lumki, mumtoz she’riyatimizda bulbul motivi guldan ayro tasvirlanmagan. Cho‘lponning sayroqi qushi esa gul uchun emas, ozodlik uchun sayrar edi. Demak, qush va bulbul motivi davr tabiati bilan birga ijtimoiylashdi, ushbu motivlar bilan bog‘liq an’anaviy tasavvurlar yangilandi.

Mumtoz she’riyatimizda gul, bulbul, bog‘ uchligi vaslni ifodalagan bo‘lsa, gul, bulbul, qafas uchligi esa hijronni anglatgan. Cho‘lpon qafas motivini mumtoz she’riyatimiz an’anasiga muvofiq qushdan ayro tasvirlamaydi, faqat an’anaviy talqinga ijtimoiy mazmun yuklaydi. “Qiz qo‘shig‘i” she’rida siqiq qafas ichida erkin nafasga yetolmaydigan o‘zbek qizining armonlari tasvirlanadi. Bunda qafas uning erkiga g‘ov bo‘layotgan muhit. “Qushning hadigi”da esa qafas motivi millat erki uchun kurashayotgan qahramonni tiyib qo‘yishga mo‘ljallangan zindon sifatida gavdalanadi.

Qarg‘a sharq xalqlari uchun sovuqdan, og‘ir turmushdan darak beradi. Mumtoz she’riyatimizdagi shitoiya janri ham qish mashaqqatlarini tasvirlar edi. Ko‘pincha odamlarning orasiga adovat soladigan, munofiq, yot kimsalar ramzi bo‘lib kelgan. U she’riyatimizda zog‘ deb atalgan. Ammo Cho‘lponda qarg‘aning ostidagi yashirin ma’no aniq. Shimolda yashovchi, shimolning sovuqlarini sharq bahoriga olib kelgan mustamlakachi Chor hukumati. Cho‘lpon bahor faslini yaxshi ko‘rishini qanchalik yorqin ifodalasa, qish faslini suymasligini shunchalik ochiq yozadi va undan darak beruvchi qora bulut, qor-kafan, qarg‘a motivlarini yurtining erkiga soya solgan zo‘ravon kuch o‘laroq tasvirlaydi: Yana qish... Qor kafan o‘raldi yana, Qarg‘aga to‘y... o‘yin topildi yana. Ona yurtiga yoqqan qor shoir nigohida so‘ngan umidlariga, erki tushovlangan o‘lkasiga o‘ralgan kafan kabi iz qoldiradi. Shunda qarg‘aning, ya’ni mustamlaka kuchning tillari yanada buraladi. Qorni haydab kelayotgan qora bulut

inson qayg‘usini yanada quyuqlashtirish, bo‘rttirish xususiyatiga ega. Inson shu tabiatning bo‘lagi sifatida unga uyg‘un o‘laroq eziladi. Ulug‘ maqsadlari yulduziga tikilib turgan Cho‘lpon ko‘zlariga qish kelgach, yulduzlar ko‘rinmay qoladi, uning yuzini qop-qora dev kabi qora bulut to‘sib oladi. “Kuz” she’rida shoir sovuq qora qish kelishidan oldingi tabiatning o‘chishga tayyorgarligida hamda qora bulut bilan qarg‘alarning o‘tishida ijtimoiy hayot muammolarini ko‘radi: Butun borliq chog‘lik ko‘chish oldida, Sovuq... qora qishga ko‘chish oldida. Yuqoridagi she’rlardan tabiat manzaralarini shoir o‘zini erkin qo‘yib tasvirlay olmaganini, ijtimoiy dard san’at asariga “suqulib kirib olgani”ni ko‘ramiz.

Qarg‘a motivi Cho‘lponda qanday mazmunda qo‘llangan bo‘lsa, Sh.Rahmonda ham shunday ma’noda ifodalangan. “Kayfiyat manzarasi” she’rida yorug‘likni quvib qarg‘alar bosgan Turon kengliklari qurib qaqshagani, qarg‘alarning tashrifi go‘yo o‘lkada o‘laksa borligidan darak berishini yozadi: Qarg‘alar bosdi so‘ng... chilparchin yorug‘, qorishdi talvasa – nur bilan ro‘yo, Turon kengliklari sorig‘dan sorig‘, ulkan bir o‘laksa yotganday go‘yo...

Cho‘lponda erk motivi keng ma’noda yurt ozodligi, boshqa ma’noda xotin-qizlarning bandi etilgan baxti ma’nosida ifodalanadi. O‘zbek qizi tilidan yozilgan “Men va boshqalar” she’rida erk ertakka o‘xshatiladi: Erk ertaklarini eshitgan boshqa, Qullik qo‘shig‘ini tinglagan menman. Garchi bu she’r o‘zbek qizi tilidan yozilgan bo‘lsa-da, unda millat ziyolilarining dardi ham o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, “Navro‘z kunida” she’rida ham o‘zbek qizining bo‘g‘ilgan erki qalamga olinadi: O‘zbek qizi erkli kunda bo‘sholmay, Zindon kabi tor uyidan chiqolmay, Chin erk kunin kuta-kuta termular. Cho‘lpon millat erkini xotin-qizlar erkidan ayro tasavvur etmagan. Ayollarini uy zindoniga tutqun etib, hech bir millat chinakam erk qo‘shig‘ini kuylolmaslini juda yaxshi anglagan.

Sh.Rahmonda erk motivi uzoq vaqt qullik asoratida yashagan faqirni gangitib, o‘ldirib qo‘yishga qodir kuch sifatida talqin etiladi: Erk va er tushunchasini shoir bir biridan ayro ko‘rolmaydi. Erki bo‘g‘ilgan millatning erlari bo‘lmaydi, bo‘lsa ham tirik murdadan farq qilmaslini yozadi: Erk qani, er qani, asl yer qani? Erk uchun yetilgan lirik qahramon shamoldan unga xamroh bo‘lishni so‘raydi: Endi erkim uchun rosa yetildim, Ey shamol, eng erkin qo‘lingni bergin! Sh.Rahmonda tarixiy xotiraga murojaat kuchli.

Yo‘l, yo‘lovchi motivi Cho‘lpon she’riyatining ijtimoiy mazmun tashuvchi eng asosiy motividir. Shoirning o‘zi “Menim yo‘llarimda” she’rida yo‘lga boqqani sari yo‘l yurish ishtiyoqi yanada oshayotganini to‘kib soladi: Ko‘zlarim yo‘llarga tikilgan chog‘lar, Ko‘nglimda yo‘l yurish istagi qaynar.

Cho‘lpon “tong yulduzi” demak. Xayrli va umidli niyatlar bilan o‘zi yashagan qorong‘u davr tongini otishidan darak beradigan taxallusi ijodida yulduz obrazining ideal ma’nosida ishlatilishiga sabab bo‘lgan.

Cho‘lpon she’riyatidagi yo‘l motivida ba’zan yo‘l yurish istagi qaynagan, oliy maqsadlari jonlangan shoir gavdalansa, ba’zan yo‘l qarshisida barcha umidlari chil-chil singan, ammo ideali qalbiga tinchlik bermayotgan, ideal va umidsizlik orasida o‘rtanayotgan kuyunchak shoir qalbi namoyon bo‘ladi.

Sh.Rahmonda yo‘l motivi zulfiqor ruh bilan idealga intilish, uning yo‘lida hatto yiqilsa ham taqdiridan rozi ketish, qullikdan ko‘ra hur, ozod holda o‘zi Haq deb bilgan yo‘ldan qaytmaslik ma’nosida gavdalanadi: Mayli-ga chechaklar qop-qora bo‘lsin, yiqitsa shu yo‘lda yiqitsin taqdir, qurtlagan istaklar shu’lasi so‘lsin, Xudoyim siylagan hurligim yaxshi.

Sh.Rahmon “Iqror” nomli she’rida nima sababdan “shoir”dan “jangchi”ga aylanganini tasvirlaydiki, biz bundan ijtimoiy nafas she’riyati xarakterini belgilovchi omilga aylangani boisini bilib olamiz. Shoir qanday jang qiladi? Shoir razolat, adolatsizlik, erksizlik, riyokorlik, munofiqlik bilan hissiy jang qiladi va o‘shanday kaslar qalbiga ko‘zgu tutadi. U tabiatning maftunidan, rubobiy ohanglar shaydosidan ma’naviy jangchiga, zobitga aylanadi. Chunki atrofi razolatga to‘la qalbi uyg‘oq shoirning hislari ularni ko‘rmasligi, tuymasligi mumkin emas. Cho‘lpon bilan Sh.Rahmon ijodidagi ijtimoiy nafas ular yashagan davr ruhining shoir yuragida bergan aks sadosi mahsuli edi.

Cho‘lpon o‘zi yashagan davr ijtimoiy hayotida faol shaxs edi. Ozodlik uchun, millat shu ozodlik tuyg‘usini, erk tushunchasini mohiyatini tomir tomirlarigacha anglab yetishi uchun she’riyati bilan ham xizmat qildi. Davr Cho‘lponga tabiatni bor holicha kuylashga izn bermadi. Shuning uchun Cho‘lpon tabiat tasvirlariga ijtimoiy ma’nolar yukladi.

Cho‘lpon ham, Sh.Rahmon ham o‘zidan avvalgi she’riyatimizda mavjud bo‘lgan motivlarga ijtimoiy mazmunlar yuklash barobarida, faqat o‘zlariga xos bo‘lgan yangi ijtimoiy motivlarni ham she’riyatlarida istifoda etdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1991.
2. Cho‘lpon. Asarlar. IV jildlik – T.: “Akademnashr”, 2016.
3. Rahmon Sh. Abadiyat oralab. – T.: “Movarounnahr”, 2012.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “Fan”, 2007.
5. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: “Akademnashr”, 2010.
6. Hamdamov U. Yangi o‘zbek she’riyati. – T.: “Adib” , 2012.

Hafiza ASLANOVA
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, (PhD).
Hafi85@mail.ru

ALISHER NAVOIY IJODI VA HIKOYAT JANRI

Annotatsiya: ushbu maqolada hazrat Navoiyning ijodiy merosiga murojaat qilinadi. Unga ko'ra hikoyat janri kompenentlarining o'ziga xos badiiy mahoratda ifodalanganligi yoritilgan va mavzu jihatdan tahlil etilgan.

Kalit sozlar: *tasavvuf, tariqat, ishq oshiq, mavzu, hikoyat, so'fiy*

Аннотация: в данной статье рассматривается творческое наследие Хазрата Навои. По его мнению, выделяется и тематически анализируется выражение компонентов повествовательного жанра в уникальном художественном мастерстве.

Ключевые слова: *мистика, тарикат, любовь, возлюбленный, сюжет, рассказ, суфий.*

Annatation: this article addresses the creative legacy of Hazrat Navoi. According to him, the expression of the components of the narrative genre in a unique artistic skill is highlighted and thematically analyzed.

Key words: *mysticism, sect, love, lover, subject, story, Sufi.*

Turkiy adabiyot ravnaqi va salohiyatini buyuk shoir Alisher Navoiy dahosisiz tasavvur etish qiyin. Alisher Navoiy o'z asarlari bilan turkiy adabiyotni, tilini yuksaklikka ko'taribgina qolmay, o'zbek tili va xalqini diniy madaniyati xazinasidan yuqori o'rin egallashiga ham katta hissa qo'shdi.

Buyuk shoir asarlari bilangina emas, balki o'zining ibratli hayot yo'li bilan ham mangulikka dahldor shaxslar qatoridan o'rin egallaydi.

Alisher Navoiy ijodida shunday asarlar ham borki, bu asarlar tom ma'noda tasavvuf falsafasi g'oyalari bilan yurgizilgan. Shunday asarlaridan biri, shoirning hayotining so'nggi yillarida yozgan "Lison ut –tayr" asaridir. Asar Navoiy o'ziga ustoz deb bilgan fors adabiyotining buyuk namoyondasi Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari ta'sirida yaratilgan. Navoiyning o'zi bu asari haqida shunday deb yozadi: "chun "Lison ut-tayr" alhoni bila tafakkum tuzurdurmen, qush tili ishorasi bila haqiqat asarini majoz suratda ko'rguzubdurmen" .

Darhaqiqat, "haqiqat asrorini majoz sur'atda ko'rguzish" g'oyasi va mavzusi Navoiy davriga kelib yangilik emas edi. Chunki, bu davrda tasavvuf adabiyoti o'zining yuksak cho'qqisiga erishgan Muhammad G'azzoliy, Fariddidin Attor, "vahdat ul-vujud" ta'limoti asoschisi ibnal Arabiy, Jaloliddin Rumiy va ko'plab tasavvuf ta'limoti vakillari shoir sifatida ham mashhur bo'lganlar. Robia Adviya, Mansur Halloj, Abdullo Ansoriy, Abdusaid Abulxayr, Pahlavon Mahmud ham shu usuldan foydalanganlar. Xayyom, Rumiy, Jomiy, Bedil, Iqbol tasavvufning juda ko'p nozik nazariy masalalarini jahonshumul she'riy asarlar vositasida sharhu bayon etganini yaxshi bilamiz. Chunki, tasavvuf g'oyalarini adliy-nazariy mushohadadan ko'ra hissiy obrazli tafakkur bilan tushuntirish oson… tasavvuf aql bilan dunyoni bilish mumkinligi, mantiqiy tafakkurni tan olmay, uning asosiy quroli savqi tabiiy, ya'niy intuitsiya" .

Shu sabab bo'lsa kerak haqiqatni ochiq ta'riflashdan ko'ra, pardaga o'rab majoz vositasida tasvirlash mumtoz adabiyotga xos uslubga aylangan. Alisher Navoiy o'zigacha bo'lgan barcha ustozlari ijodi bilan chuqur va atroflicha tanishib, o'zlashtirib, so'ng o'zi shunday asar yaratishga kirishadi.

"Lisonut-tayr" asarida qushlar semurg'ga yetish uchun yetti vodiyni bosib o'tishlari lozim bo'ladi. Bu vodiylar - Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqr-Fano vodiylari bo'lib, qushlar bu vodiylardan o'tish uchun juda og'ir qiyinchiliklardan o'tishlari lozim bo'ladi. Asarda yetti vodiyni bosib o'tadigan qushlarning holati savol-javoblari yo'l azoblari hammasini qoliplovchi hikoyatlar orqali ochib berilgan. Keltirilgan hikoyalarning barchasi bitta umumiy maqsad - inson o'zligining anglashi orqaligina yor vasliga etishi mumkin. Buning uchun esa, u avvalo o'zidagi barcha nuqsonni, kamchiliklarni, nafsni, hoyu-havaslarni yengishi va pok bo'lishi shart. Qachonki inson o'zidagi hayvoniy xususiyatlarni yengib, farishtalik darajasiga yetishsa, u Ollohning visoliga erishadi.

"Lison ut-tayr" ham an'anaviy hamd-u na'tlar bilan boshlanadi. Keyin ustozlari ta'rifi beriladi va shundan keyin dostonning asosiy qismi boshlanadi.

Yuqorida aytilganidek, "Lison ut-tayr" dostonidagi hikoyatlarning barchasi tasavvuf ta'limoti g'oyalarini tasvirlashga bag'ishlangan. Shunday hikoyatlardan biri quyidagi hikoyadir:

Podshoh sayr qilib yurganida bir gado unga oshiq bo'ladi. Gado oshiqlikdan o'zini gulxan kuliga tashlab, dod faryod qilar edi. Uning bu ahvolini shohga yetkazadilar. Shoh oshiqni o'z ko'zi bilan ko'rib, uning ishqda sodiqligini sinab ko'rmoqchi bo'ldi. Shoh gadoni olib kelib boshini uzishni buyuradi:

Dedi: "Ul gumrohni sudrab kelturing, xizmatimga yetkurub bo'ynin uzing".

Shohning bu hukmini eshitib gado beixtiyor qocha boshlaydi va:

Tuffi ehbikkondin ul gulxanga ul,
Bexud o'zni otqa tashlab kuydi .

Shu tariqa yolg'on oshiqdek da'voliq qilgan gado halokatli o'lim bilan tugovchi qismatni o'z boshiga olib keladi.

Hikoyat oxirida Navoiy yolg'on oshiqlik da'vo qilgan gadoning qismati boshqa bo'lishi ham mumkinligini

ta'kidlaydi. Agarda u gado yor uchun jondan kechish darajasida ishqqa sodiq bo‘lganida u shohning iltifotiga, himmat-u muruvvatiga muyassar bo‘lar edi, albatta, deydi.

Yana bir hikoyatda pir va murid munosabati asosidagi inson o‘z nafsini yengmasa, unga hech kim, yori ham yordam bera olmasligi, ammo o‘zi harakat qilmasa uni yo‘ldan ozdirayotgan nafsni shayton ustiga to‘nkashi haqida: Murid piriga kelib shayton uni yo‘ldan urayotgani haqida shikoyat qiladi:

Dedikim: Iblis purfanliq qilur,
Ko‘ngluma har ishda rahzanliq qilur,
Ham namozimga yetar ondin qusuri,
Zikri tasbehimga dog'i yuz future .

Shogirdining o‘z nafsining quli bo‘lib, bu aybini shaytonga ag‘darib pirga shaytondan arz qilayotgan muridga ustozi shunday deydi: “Shayton menga mening ishim bandalarni yo‘ldan ozdirish, ularni gunohga yetaklash, ammo bu muriding yomonlikda mendan ham oshib tushdi - deb sendan arz qilayapti degach, murid yana shaytonni ayblaydi. Shundan so‘ng ularni har ikkalasiga shunday deydi:

Ham sanga yuz qatla shaytondin uyot,
Ham anga sen shumi nodondin uyot ”.

Bu hikoyada o‘z nafsini yengishni istamagan, dangasa va g‘ayratsiz, shu bilan birga hech qanday shaytoniy ishdan qaytmaydigan kishi haqida hikoya qilingan. Hatto piri murshidi ham bunday kishiga ustozlik qilishni istamaydi. Insonning o‘zida kamchiliklarini yengish xohishi va iroda bo‘lmasa, unga hech kim yordam bera olmaydi.

Shuningdek, Abdurahmon Jomiying “Bahoriston” asarida ham tasavvufiy hikoyatlar uchraydi. Jumladan, “Darvesh va podsho” hikoyasida shunday yozilgan: Oliy himmat bir darvesh shavkatli bir podshoning huzuriga tez-tez kelib turar va u bilan yoqimli suhbatlar qurardi. Kunlarning birida u podshoning peshonasida malohat alomatlarini sezib, uning sabablarini izladi. O‘ylab-o‘ylab uning sababini o‘zining podshonikiga tez-tez borib turishidan topdi va unikiga boshqa bormay qo‘ydi.

Bir kuni darveshni ko‘chada uchratib qoldi va so‘radi:

- Ey darvesh, nima sababdan biz bilan aloqani uzib qo‘yding?

- Borib qovog‘ingni solib ko‘rgandan ko‘ra “nega kelmay qo‘yding?” - degan so‘zini eshitganim yaxshi-dedi unga darvesh.

Aynan shu fikrni Muhammad Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostoniga nisbatan ham aytish mumkin. Fuzuliy dostoni Sharq dostonchilik an’analariga muvofiq yozilgan bo‘lsada, biroq ozarbayjon shoiri o‘z dostonini masnaviyning o‘zida yozish bilan chegaralanib qolmay, unga bir qator janrlarni ham qo‘shadi. Shoirning o‘zi bu haqda 9 bobda, ya’ni “Soqiy bilan bo‘lgan suhbat”da shunday deydi:

Gəh taərzi- qəsidə əylərəm saz,
Şəhbazini olur bùləndpərvaz.
Gəh də'bi –qəzəl olur şùarim,
Ol də'bə rəvon verər qərorim.
Gəh məsnəviyə olub həvəsnak
Ol bəhrdə istərəm dùri-pak .

Fuzuliy dostoni nasriy debocha bilan boshlanadi. Debocha 238 so‘zdan iborat bo‘lib, unda shoir Layli va Majnun afsonasini bayon etishda Allohdan kuch va g‘ayrat so‘raydi. Debocha saj’ usulida yozilgan va bayon etish uslubiga ko‘ra Alisher Navoiy nasriy asarlari, xususan, “Mahbub ul-qulub” va “Munojot”ni eslatadi.

Salaflar dostonlari singari Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonidagi boblarga ham sarlavha qo‘yilgan, biroq Navoiy dostonidan farq qilib, unda baroati istehlol yetakchilik qilmaydi, har bir bob “Bu...” so‘zi bilan boshlanib, -dir bog‘lamasi bilan yakunlanadi. Dastlabki bob ham sarlavhaga ega: “Bu, həzrəti-izzətdən həmd ilə istimdadi-mətalibdir və asari-şükr ilə istid'ayi-sətri-laibdir”.

Doston tarkibiga masnaviydan tashqari ruboiy, g‘azal, soqiynoma, murabba’, qasida kabi janrlar ham kiritilgan bo‘lib, ular dostonning ta’sirchanligini oshirib, fikrning oson tushunilishini ta’minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе // Алишер Навои. – М.- Л.: Изд-во АН СССР, 1946.
2. Бертельс Е.Э. Низами и Физули / Изб.труды. – М.: Наука, 1962. Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достони. – Т.: Фан, 1970;
3. Нарзуллаева С. Тема «Лейли и Меджнун» в истории литературы народов Советского Востока. – Т.: Фан, 1983.
4. Алиев Г. Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока. – М.: Наука, 1985.
5. Yusupova D. Layli va Majnun / Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1-jild Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016.
6. Hayitmetov A. “Xamsa”ning yaratilish jarayoni. 1985. Ziyo.uz/26.05.2016.
7. Məhəmməd Füzuli. Əsərləri. Altı cilddə. II cild. Bakı: Şərq-Qərb,2005.
8. Köprülü M. Fuad. Edebiyat Araştırmaları, C.II, İstanbul, 1989.
9. Хализев В.Е. Композиция // Литературный энциклопедический словарь.
10. Quronov D. va boshqalar. Kompozitsiya // Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010.
11. Arasli N. Nizami va turk edabyati. – Baku: Elm, 1980.
12. Yusupova D. “Xamsa” poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi. – T.: TAMADDUN, 2021.
13. M.Füzuli. -B.: ŞƏRQ-QƏRB, 2005.

Nilufar NAMAZOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

FARG‘ONADAGI ILK MILLIY GAZETA – “SADOYI FARG‘ONA” GAZETASI

Farg‘onadagi ilk milliy nashr – “Sadoi Farg‘ona” gazetasi 1913-yili 3-aprelda Obidjon Mahmudov muharrirligida chop etila boshlagan. Matbuot sahifalarini kuzatib, o‘z davrida bu gazetaning millat taraqqiyotidagi xizmatlari haqida yuksak e’tiroflar aytilganini, shu bilan birga, turli tanqid va tahdidlarga uchraganini ham ko‘rish mumkin.

Jumladan, “Sadoi Farg‘ona” gazetasi Farg‘ona vodiysidagi ilk milliy nashr bo‘lgani uchun uni xalq orasida yoyishda va boshqa masalalarda bir talay qiyinchiliklar bo‘lgan. Shuning uchun ham gazetaning noshiri va muharriri Obidjon Mahmudov uning ilk sonlaridayoq “G‘azeta nadur va na uchun lozim” sarlavhali maqolasida Farg‘ona xalqini gazeta o‘qishga, uning ahamiyatini anglab yetishga undab yozadi: “G‘azeta butun dunyodagi madaniy millatlarning tirikchilik yo‘lidir. Olamdagi darajalari va ham olami insoniyat eng taraqqiy taoliysi uchun lozim bo‘lg‘on sa’y va harakatlari to‘g‘risida bir-birlari birlan madovala afkor (maslahatlashmoq va kengashmoq) uchun lozim bo‘lg‘on bir vositadur. Ibtidoiy bir odamning aqlig‘a kelgan narsa yolg‘uz o‘zig‘a yoki o‘z shahri xalqig‘a yoki o‘z millatig‘a yoki butun dunyog‘a foydalik bir narsa bo‘lmoq ehtimoli bo‘ladur. Agar butun millatg‘a foydalik bir narsa bo‘lsa, ul zamon butun yer yuzida bo‘lg‘on millatlarning har birini oldig‘a borib aytib kelsunmi?..

Ajabo! Bul mumkinmi? – Aslo mumkin emas. Bas, ul holda o‘shal odamning aqlig‘a kelgan foydalik va zarur bo‘lg‘on fikridan butun xalqni foydalanmoqdan mahrum qildurmoq durustmu?.. Binobarin bu ishning eng birinchi chorasi g‘azeta vositasi bilan bildurmoqlikdur” [1].

Ko‘rinadiki, O.Mahmudov gazetani muloqot vositasi, dunyoni bilish vositasi deb ataydi.

Gazeta o‘qishga xalqni undab Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hoji Muin, Farg‘onada Ashurali Zohiriy singari taraqqiyparvarlar ham maqolalar yozgan. O‘z xalqining psixologiyasini yaxshi bilgan O.Mahmudov esa gazetaning islom dini nuqtayi nazaridan qanchalik zarur ekanligiga alohida urg‘u beradi: “Dini mubin islomda amril ma’ruf nahiy inalmunkar farz emasmu? – Albatta, farz. Endi biz bu vazifai muqaddasiyani qandog‘ o‘qiyurmiz? Juma kunlari jome’ shariflarda iydkohlarda valhosil odamlar ko‘b jam’ bo‘lg‘on yerlarda umumxalqg‘a xitoban so‘zlamoq kerak erdi. Lekin bu vazifa gardanlarig‘a lozim bo‘lg‘on zotlar “Bu ish bizlarg‘a odat bo‘lmag‘on sabablik hayo bosurda gapurolmasmiz”, derlar. Ul holda faqat shulgina uzr bilan gardanimizg‘a lozim bo‘lg‘on xidmatni tark etsak durustmu?.. Bizga qolsa, albatta, boshqa bir yo‘lni topib, ushbu xidmatni gardanimizdan soqit qilmoq kerakdur... Bul to‘g‘rilarig‘a ham eng birinchi yo‘l, uning birinchi chorasi albatta g‘azetadur. Va g‘azeta vositasi birla va’zlamoqdur.

Chunki xoh ulamolarimiz, xoh (eshon)larimiz, va xoh ag‘niyolarimiz, kim bo‘lsa bo‘lsun, bu ummati islomiyaning qaysi bir ishidan va qaysi bir fe’lidan na xushnud va na rozi bo‘lsalar. Qo‘llarig‘a qalam olurda o‘shal ishning yomonlig‘ini butun atrofi birla dalillari birla yozub, g‘azeta vositasi bilan butun xalqg‘a bildursalar. Ul zamon bir muncha odam shul amri ma’rufdan foydalanub, yomon fe’llarini yo‘qotmoqg‘a harakat va ko‘shish qilurlar. Buning birla ul zot ham bo‘ynig‘a lozim va vojib bo‘lg‘on xidmatni ado qilgan bo‘lub mas’uliyat(javobgar)likdan qutulsa kerak.

Va nabiyi hazrat rasul akrom sallollohu alayhi vasallam hazratlari safarg‘a chiqinglar va musofirlikni ixtiyor etinglar, chunki safarda ko‘b foyda vordur. Badanlaringiz harakat bila, dinlaringiz ibrat bila sihat topar, degan hadisi shariflarida ahvoli olamdan xabardor bo‘lmakning din nuqtayi nazarindan na qadar foydalik bo‘lganini bildirdilar. Ma’lumdurki, har odamg‘a sayohat qilmoq ila ahvoli olamdan xabardor bo‘lmoq muyassar bo‘lmas. Bu sharafg‘a noil bo‘lg‘on odamlar oz bo‘lurlar. Holbuki, bu ibrat olmoq sharafig‘a butun ummati islomiya noil bo‘lmog‘i darkor edi. Emdi bir ish qilish kerak butun islomiya ahvoli olamdan xabardor bo‘lur, ibrat olmoq sharafig‘a noil bo‘sunlar edi, buning uchun birinchi iloj va chora g‘azeta o‘qumakdur va chunki g‘azeta o‘qugan odam har kuni ahvoli olamdan xabardor bo‘lur, misol shu millat shunday haqsiz bir ish qildi va bu millat qiyomatg‘acha butun dunyoni madaniyatdor qiladirgon bir ish qildi. Falon shaharda olami insoniyat rafoh va saodatig‘a foyda qilarlik bir moshina ixtiro qilindi – valhosil bunga o‘xshash xabarlar doimo o‘qilur. Yomon bo‘lganlaridin insong‘a bir nafrat hosil bo‘lur yaxshi bo‘lganlarig‘a orzu va havas qilinur. Ul holda hazrat payg‘ambarning mazkur hadislarining farmonig‘a farmonbardorlik butun afrodi millatg‘a hosil bo‘lurki, qanday yaxshi bir sharafdur”.

Farg‘onada gazeta o‘qimoqning zararli ekani haqidagi gaplarga javoban O.Mahmudov, gazeta o‘qimaydigan zotlarning maqsadi nima ekanini bilolmadik, agar ular gazetani zararli deb bilsalar, uning zarari nima ekanini bizga yozishsa, biz gazetada chop etar edik. Turli gaplar tarqatmasdan, har odamga gazeta o‘qumoqni biz bilan barobar tavsiya qilmoqlarini umid qilamiz, deydi.

Gazetaning keyingi sonlaridan birida Obidjon

Mahmudovning “Ulamoi kiromga ochiq maktub”i e’lon qilingan [2]. Chunki gazetaning birinchi soni chiqqandan keyin unga qarshi fikr aytuvchilar paydo bo‘ladi. Ya’ni, Obidjon Mahmudovning yozishicha, “ba’zi olim suratinda bo‘lg‘on zotlar “Sadoi Farg‘ona” deb nom qo‘yg‘animiz uchun e’tiroz qilurmish, chunki “sado” deb bejon bir nimarsadan chiqgan ovozni ayturmush, Sadoi Farg‘ona deyilganda butun Farg‘ona ahlini jasad qatoriga sanaganmiz bo‘lurmush!”, deydi. Bu qadar bema’ni e’tirozlarga javob berib, bosh og‘ritish niyatim yo‘q edi, lekin bu kabi tanqid egasi Istanbulda, Kafkaz va Bokuda, Toshkentda sado so‘zi bilan chiqayotgan gazetalar mavjud ekanligini bilib qo‘ysa, ularning sadosi qulog‘iga kirmasdan, yolg‘iz Farg‘ona sadosini eshitayotgan bo‘lsa, qulog‘i og‘ir ekanini anglab yetsa, shoyad, deydi. Gazetaga e’tirozi bo‘lgan odamlar turli ig‘volar tarqatmasdan, raddiya yozib, idoraga yuborsa, kamchiligimizni anglab, xursandlik va minnatdorlik bilan chop etamiz, deb ta’kidlaydi.

Gazeta ig‘vochilari Farg‘onada turli gaplar tarqatish bilan cheklanib qolmagan. “Sadoi Farg‘ona” gazetasi haqidagi g‘arazli tanqidlar Qrim, Kafkazda chiqadigan “Vaqt” va “Sho‘ro” gazetalarida ham chop etiladi. Obidjon Mahmudovning “Shifiyunlik. Matbuotga tilchilik” [3] sarlavhali maqolasi mana shunday tanqidlarga javoban yozilgan. Uning yozishicha, “Vaqt” gazetasining 1545-sonida “Duochi” yashirin imzosi bilan chop etilgan maqola muallifi “Ashurali ilan Nuri Usmoniy degan zotlarg‘a noshir kam himmatlik qilib ko‘b ijro bermaganlik sababdan xizmatlaridan chiqgan”, deydi hamda gazetaning maslagi diniy ekanligi va noshirning ruhoniylarga erk berayotganini tanqid qiladi. Bunga javoban Obidjon Mahmudov: “Sadoi Farg‘ona” diniy so‘zni eshitsa xafa bo‘lub yig‘laydurgan va ham diniy g‘azetalar bo‘lmasun deb harakat qiladurganlarg‘a xizmat qilmaydur. Noshir o‘zini dindor olib, har numerisig‘a mavjud qilolsa, diniy maqolani yozib turadur. Noshirning fahmi millatni din ilan millat fahmlaydur”, deb yozadi. Muallif “Vaqt” va “Sho‘ro” gazetalari tahririyatidan ranjaganini ham bayon etadi. Zero, ularga “Sadoi Farg‘ona” gazetasi muntazam yuborilayotganini ta’kidlab, gazetani o‘qib, keyin bunday maqolalarga o‘rin bersalar, yaxshi bo‘lardi, deydi. Gazetalar ustidan bunday ig‘vo tarqatuvchilarni “matbuot shifiyuni” deb ataydi.

Obidjon Mahmudov qalamiga mansub bu kabi maqolalarni o‘qib, gazetani saqlab qolish, uni elga o‘qitish osonlikcha amalga oshmaganini anglash mumkin. Ammo bu qiyinchiliklar taraqqiyparvar bobolarimizni aslo harakatdan, millat uchun qayg‘urishdan to‘xtatolmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil, 10-aprel.
2. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil, 18-aprel.
3. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil, 10-dekabr.

Inamjan MADIYAROV
PhD, katta o‘qituvchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
O‘zbek va rus tillari kafedrasi
Toshkent shahri
inamjan-1985@mail.ru

TEZ AYTISH – BOLALAR O‘YIN FOLKLORI JANRI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada turkiy va boshqa xalqlarda tez aytish va u bilan bog‘liq har xil o‘yinlar, jumladan, so‘z va harakatli o‘yinlar, ularning turlari, o‘tkazilish tartibi, o‘ziga xos xususiyatlari, shu bilan birga, bu boradagi muallifning nazariy xulosalari o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: *o‘yin, folklor, janr, tez aytish, so‘z o‘yini, harakatli o‘yin.*

Аннотация: в данной статье описаны характеристики тюркских и других народных скороговорок, различные игры, связанные с ними, в том числе словесные и подвижные игры, виды и порядок их проведения, особенности, а также теоретические выводы автора на этот счет.

Ключевые слова: *игра, фольклор, жанр, скороговорка, словесная игра, подвижные игры.*

Annatation: this article describes the characteristics of Turkic and other folk tongue twisters, various games associated with them, including verbal and physical games, the types and order of their implementation, features, as well as the author’s theoretical conclusions in this regard.

Key words: *game, folklore, genre, tongue twister, word game, physical games.*

Tez aytishlar mavjud adabiyotlarda bolalar o‘yin folklori janri sifatida o‘rganiladi. Tez aytishning o‘yinlik sifatlarini aniqlashda, eng avvalo, ushbu o‘yinning turli xalqlarda mavjud turlarini o‘rganish juda muhim sanaladi. Biz ushbu maqolamizda turkiy va boshqa xalqlardagi tez aytish va u bilan bog‘liq o‘yinlar haqida

to‘xtalib o‘tamiz.

Turkiyada bolalar o‘rtasida o‘tkaziladigan o‘yinga Bekir Onur va Neslihan Guneylar quyidagicha tavsif beradilar: “Bu o‘yinda asosiy qoida o‘yinni boshlagan bola aytgan tez aytishni darhol takrorlashdir. Buning ham ikki shakli mavjud: agar tez aytish uzun bo‘lsa, buni bir marta; qisqa bo‘lsa, uch marta takrorlash kerakdir. Buni bajara olmagan bola o‘yindan chetlatiladi. Oxirida qolgan o‘yinda g‘alaba qozonadi” [1: 430]. Demak, usmonli turklarda tez aytishning necha marta takror aytilishi uning tarkibidagi so‘zlarning ko‘p yoki ozligiga qarab belgilanadi.

Tojik folklorshunosi Bozor Boron tez aytish o‘yinining ikki turi haqida ma’lumot beradi. O‘yinning birinchi turi oddiy, aniqrog‘i, odatiy bo‘lib, unda bir bola tez aytish aytadi, boshqalar uni tez va ravon takrorlashga harakat qilishadi. Buni yaxshi uddalagan bola tez aytish aytish huquqiga ega bo‘ladi. O‘yinning ikkinchi turi esa ko‘pchilik ishtirokida o‘tkaziladi: “Ushbu mashg‘ulot ba’zan ko‘p o‘yinchi o‘yiniga aylanadi. Bolalar bitta boshliq (hokim), kotib (hukm ijrochisi)ni tanlaydilar. “Hokim” tez aytishni uch marta takrorlashni buyuradi. U o‘yinchilardan birining ismini aytadi:

– Ҳасанжон!

– Лаббай!

– Лабатон ба шакар, ҳам қанд хӯред, ҳам асал!

Шаб ба як шамшер сӣ сар шикаст.

Hasanjon darhol ushbu tez aytishni aytishi kerak. Agar u uch marta yaxshi ayta olsa, “kotib” “g‘olib”, “g‘olib” deb aytadi yoki aksincha, u jazolanadi [2: 18, 19]. Bozor Boron keltirib o‘tgan tojiklardagi birinchi o‘yin Bekir Onur va Neslihan Guneylar tomonidan yuqorida keltirilgan tez aytish o‘yini bilan mushtaraklik kasb etgan bo‘lsa, ikkinchi o‘yin tamomila boshqa kompozitsiyaga qurilganligini ko‘rish mumkin. E’tibor berilsa, tojiklarda tez aytish o‘yinining ko‘pchilik ishtirokida o‘tkaziladigan turida ham ishtirokchilar g‘olib bo‘lish uchun tez aytishni uch marta to‘g‘ri aytishi shart. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan o‘yinlar faqat tez aytishdan iborat bo‘lib, biz bunday namunalarni sof tez aytish o‘yinlari deb nomlaymiz. Chunki tez aytishning harakat bilan bog‘liq turlari ham mavjud.

Harakatni tez aytish boshqaradigan (harakati tez aytish bilan bog‘liq) o‘yinlarga F.B.Qonqashova tomonidan keltirilgan qozoq xalqining oshiq yordamida o‘ynaladigan qadimiy va milliy o‘yinlaridan biri – “Xantalapay”ni misol qilish mumkin: Uning yozishicha, “Ushbu o‘yinning asosiy sharti bo‘yicha bolalar sochilgan oshiqni yig‘ish mobaynida tez aytishni yanglishmay aytib o‘tirishi kerak. Qaysi guruhning bolasi qancha oshiq yig‘sa, shuncha tez aytish aytishi kerak...” [3: 89] Aslida, “Xantalapay” qozoq xalqining oshiq bilan o‘ynaladigan o‘yinlaridan biri bo‘lib, u tez aytish o‘yini bilan qo‘shilishi natijasida o‘yinning boshqa turi, ya’ni uning yangi varianti yaratilgan. Aniqrog‘i, harakatli o‘yin bilan so‘z o‘yini qo‘shilishidan folklorshunos O.Safarov ta’biri bilan aytganda, “harakatni so‘z boshqaradigan o‘yin” paydo bo‘lgan. “Bunday o‘yinlar kompozitsiyasida qo‘shiq harakatni yuzaga keltirishi va boshqarishi bilan muhim uzvga aylangan, aniqrog‘i qo‘shiq yo ular kompozitsiyasining asosini tashkil etadi, yo o‘yin yo‘nalishida biror vazifani bajaradi” [4: 13]. Shuningdek, F.B.Qonqashova tomonidan qayd etilgan mazkur o‘yinning yuqoridagilardan farqli jihati o‘yinda bola qancha oshiq yiqqan bo‘lsa, shuncha tez aytish namunasini aytishi lozim. Biz bilamizki, tez aytish ijrosidagi asosiy qoidalardan biri tez aytishlarni yodlash sanaladi. Fikrimizni G.J.Omarovaning o‘yinda “...tez aytishni kimning ko‘p bilishi ham hisobga olinadi” [5: 39], – degan fikrlari ham tasdiqlaydi. Bundan bilish mumkinki, o‘yinda g‘olibni yoki g‘olib tomonni aniqlashda ishtirokchilarning qanchalik ko‘p tez aytish bilishi ham zarur omillardan sanaladi. Bu narsa har bir ishtirokchidan ko‘proq tez aytish yodlashni talab etadi.

Bundan tashqari, tez aytish o‘yin sharti bo‘lib keladigan o‘yinlar ham mavjud bo‘lib, bunday o‘yinlarda yutqazgan tomon o‘yin sharti yoki jazo sifatida tez aytish aytishi kerak. A.Y.Qasimov Anadoluda tarqalgan tez aytish o‘yinlari haqida: “Bu o‘yinda o‘yinchilardan biri yerga yotqiziladi; boshqa o‘yinchilar ham qo‘llarini uning ustiga ustma-ust qo‘yib: – Qo‘l usti kimning qo‘li? – bor deya so‘raydilar. Agar bilmasa, jazo sifatida bitta tez aytish aytishi kerak. To‘g‘ri aytsa, jazodan qutiladi. To‘g‘ri aytolmasa, unga jazo beriladi” [6: 161]. Mazkur o‘yinda tez aytish ham o‘yin sharti, ham jazo vazifasini bajarib kelgan bo‘lsa-da, o‘yin tez aytish (yanilt¬mac) deb nomlanadi”, – deydi.

Samara tatarlarida o‘ynaladigan “Shisha” o‘yinida ham tez aytish bajarilishi lozim bo‘lgan o‘yin shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur o‘yinda shisha o‘rtaga qo‘yiladi va aylantiriladi. “Shisha kimga qarasa, o‘sha raqsga tushishi yoki qo‘shiq aytishi yoki tez aytish aytishi kerak [7: 162]. Yuqoridagilardan farqli o‘laroq ushbu o‘yin “Shisha” o‘yini deb nomlangan bo‘lsa ham o‘yinda bajariladigan shart tez aytish bilan bog‘liq.

Ushbu o‘yinlar qatoriga turklardagi qadimda kattalar tomonidan o‘tkazilgan tez aytish o‘yinini ham qo‘shish mumkin. Suhbat yoki “navbat” deb nomlangan ushbu uchrashuvlar qishda, haftaning ma’lum kuni, “seshanba” – Balikesirning bozor kuni kechqurun, ya’ni chorshanba kechasi, ba’zan juma kechasida bo‘lib o‘tadi. Buning uchun shom namoziga kelgan masjid a’zolari suhbatlashish uchun uyga kelishadi. Ularning ichidan eng ulug‘,

so‘zga chechan bir kishi boshqaruvchi sifatida tayinlanadi. Bunga “yâran başı” (o‘yin boshi) deyiladi. U majlisning bir burchagida o‘tiradi. Uning buyruqlari so‘zsiz bajariladi. Va bunga e’tiroz qilinmaydi. Suhbatda o‘yin boshi tayinlagan shaxs o‘yin-kulgini boshqaradi. Bunga “ebe” (yetakchi) deyiladi. Yetakchi ko‘ngilochar tadbirlarning tashkilotchisidir. O‘yin boshi buyruq bergandan so‘ng o‘yinlar va o‘yin-kulgilar boshlanadi. Yetakchi ro‘molcha aylantiradi. Barcha mehmonlar o‘rtaga chiqadi va bir doira bo‘lib o‘tiradi. Avvalo yetakchi “döneni” (qaytish) deydi. Ushbu so‘z har doim bir ovozdan takrorlanadiki, bu o‘yin boshlanishidagi o‘ziga xos “qasam”dir. Endi o‘yindan qaytish yo‘q. Davraning o‘rtasiga shamdon qo‘yiladi. Yetakchi hammaga tez aytish beradi. Tez aytish yetakchi aytadigan, har qanday “qiyin” so‘zni anglatadi. Masalan, yetakchi shamdonni ko‘rsatib: “Kubbe” “enbili” “zübbe” “üç kerecik maskaracık” “ebir” “dübür” “zımbır zımbır” deydi. Bu bir tez aytishdir. Yetakchi buni o‘quvchilarga uch marta takrorlaydi. Hamma buni aniq bajarishga majburdir, aytmaganlar jazolanadi. Jazolar juda og‘irdir. Yuztuban yerga yotqizmoq, hayvonlarning turli qichqiriqlariga taqlid qildirish va hokazo. O‘yin davom etadi. Yetakchi yana tez aytish aytadi. “Şamdan dibi, ortası, tepesi” buni ham uch marta takror aytadi. O‘yinlar juda o‘ynoqi. Yetakchi o‘yinchilarni chalg‘itish uchun “şamdan dibi” deydigan joyda ba’zan “Bibi” deydi. Yoki “ortası” ham, “tepesi” ham demay, “bortası”, “pepesi” deb aytadi. Shu tarzda o‘yinchilar tez aytishni to‘g‘ri aytishlari shart. Agar ular chalg‘ib qolishsa, yetakchi tomonidan jazolanadi. Bu jarayon juda uzoq davom etadi. Shundan so‘ng yetakchining buyrug‘i bilan o‘yinda o‘zgarishlar bo‘ladi. Uzuk o‘yini boshlanadi. Undan keyin yetakchi boshqa o‘yin o‘ylab topadi [8: 39-45].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan va biz keltirib o‘tgan o‘yinlardan tez aytish va u bilan bog‘liq o‘yinlarning har xil turlari mavjudligi, bundan tashqari, tez aytish nafaqat bolalarning, balki qadimda kattalarning ham doimiy o‘tkaziladigan o‘yinlaridan biri bo‘lganligi ayon bo‘lmoqda. Mazkur o‘yinlarning kompozitsiyasi, ijro uslubi va o‘tkazilish tartibi muayyan tafovutlarga ega bo‘lsa-da, o‘yin markazida tez aytish turadi, ya’ni o‘yinning asosiy maqsadi tez aytish aytishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, turkiy va boshqa xalqlarda tez aytish va u bilan bog‘liq turli xil o‘yinlar mavjud bo‘lib, mazkur o‘yinlarning aksariyati bolalar o‘yinlari hisoblansa-da, qadimda tez aytishning kattalar tomonidan o‘ynaladigan turlari ham bo‘lgan. Yuqoridagi fikr-mulohazalarga asoslanib, tez aytish va u bilan bog‘liq o‘yinlarni sof tez aytish o‘yinlari, harakatni tez aytish boshqaradigan (harakati tez aytish bilan bog‘liq) o‘yinlar va tez aytish o‘yin sharti bo‘lib keladigan o‘yinlarga ajratish mumkin. Tez aytishning sof tez aytish o‘yinlari bolalarning nutqini ravon qilishiga, harakatni tez aytish boshqaradigan o‘yinlar bolalarni ham ma’nan, ham jismonan kamol topishiga, tez aytish o‘yin sharti bo‘lib keladigan o‘yinlar esa bolalarning ziyrak, mas’uliyatli bo‘lishiga, kattalar tomonidan o‘tkazilgan tez aytish o‘yinlari ularning ko‘nglini ko‘tarishga, vaqtlarini chog‘ o‘tkazishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Türkiyede çocuk oyunları: Derlemeler. Hazırlayanlar: Bekir Onur, Neslihan Güney. – Ankara: Ankara Ünıversitesi Basımevi, 2002.
2. Афсона, суруду тарона, тезгӯяк ва чистонҳо аз эҷодиёти даҳанакии халқи тоҷик. Мураттиб ва таҳиягар: Бозор Борон. – Душунбе, 2016.
3. Қоңқашова Ф.Б. Дидактикалық ойындардың теориялық негізі мен практикалық маңызы // Тараз МПИ-ның хабаршысы, 2012, №12.
4. Safarov O. O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari. – Toshkent: Sharq, 2013.
5. Омарова Г.Ж. Балабақшада ұсақ жанрларды пайдалану ерікшеліктері // Абай атындағы ҚазҰПУ-дың хабаршысы, “Бастауыш мектеп және дене мәдениеті” сериясы, №1 (28), 2011.
6. Azərbaycan xalq oyunlari. Qasimov Ə.Y. – Baki: Baki Universiteti nəşriyyati, 2006.
7. Милли-мәдәни мирасыбыз: Самара өлкәсе татарлары. Төзүче һәм фәнни мөхәррир: Булатова М.Р. – Казан: Г. Ибраһимов исем. Тел, әдәбият һәм сәнгать институты, 2015.
8. Helva Sohbetleri, Arifaneler / Balikesirde halk adet ve inanmalari. Öğretmen Kemal Özer. – Bursa: Ant Basımevi, 1946.

Nafosat OROMOVA
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
oromovanafosat@gmail.com

ADABIY TA’LIMDA BADIIY ASAR TILINI O‘RGANISH

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy asar tili ustida ishlash, asarning poetik tilini o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, omonim va sinonimlar doirasida o‘rganish yo‘llari, fikr bayon qilish, obrazning xarakterini ochish, shu obrazga aloqador predmetlar yoki shart-sharoit, manzara kabilarni tasvirlashda so‘z va iboralarning tanlanishi, ularning o‘rinli ishlatilishi masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *metafora, paremiya, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, omonim va sinonimlar, asar mazmuni, so‘z, so‘z birikmalari.*

Аннотация: в данной статье ведется работа над языком художественного произведения, моделируется, уточняется, оживляется поэтический язык произведения, способы обучения в рамках омонимов и синонимов, выражения мнения, раскрытия характера изображения, описания предметов. или условия, связанные с этим изображением, декорацией и т. д. анализируется подбор слов и фраз, их целесообразное употребление.

Ключевые слова: *метафора, паремия, сравнение, уточнение, оживление, омонимы и синонимы, содержание произведения, слова, словосочетания.*

Annotation: in this article, working on the language of the artistic work, simulating, qualifying, revitalizing the poetic language of the work, ways of learning within the framework of homonyms and synonyms, expressing an opinion, revealing the character of the image, describing the objects or conditions related to this image, the scenery, etc. the selection of words and phrases, their appropriate use are analyzed.

Keywords: *metaphor, paremia, simile, qualification, revitalization, homonyms and synonyms, content of the work, words, phrases.*

Adabiyot o‘qitishda badiiy asar tili asosida ham mohiyatni ochib berish mumkin, bunda 5-8-sinflardagina emas, balki yuqori sinflarda ham matnni tahlil qilishdagi eng murakkab masalalardan biri – badiiy asar tilini o‘rganish masalasidir. Asar bilan tanishuv – ma’lum fikrlarni izchil ifodalab, shu fikrlar sistemasini asar holatiga keltirgan til bilan tanishuv demakdir. Asarni tahlil qilish – uning poetik tilini tahlil qilish demakdir.

Asar tahliliga oid barcha mashg‘ulotlarda shu asar tiliga ham turli yo‘l bilan to‘xtalib boriladi. Qahramonlarni o‘rganishda ham, reja tuzish yoki xarakteristika berishda ham, asar kompozitsiyasini o‘rganish yoki uning mazmuni va maqsadini aniqlashda ham asarning poetik tiliga murojaat qilmay, uni o‘rganmay turib nariga o‘tib bo‘lmaydi. Lekin shunga qaramay, yozuvchining badiiy mahoratini o‘rganish, matn mohiyatini to‘liq tushunish uchun asar tilini o‘rganish yuzasidan alohida darslar o‘tkazish lozim bo‘ladi. Bu maxsus darslardan kuzatiladigan asosiy maqsad – fikrni ifodalashdagi poetik tilning vazifasi va o‘rnini, ahamiyatini, shuningdek yozuvchining o‘z fikrini ifodalashdagi nutq boyligini ko‘zdan kechirishdir. Asar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan mashg‘ulot asar tahlili yuzasidan o‘tkaziladigan bir qancha mashg‘ulot turlariga nisbatan ancha murakkabdir. Asar tilini o‘rganish usuli:

Asarning poetik tilini o‘xshatish, sifatlash,

T/r	Asardagi kalit so‘zlar ustida ishlash usuli	Metaforalar	Paremiyalar
1.	Asar mazmunini ochuvchi eng muhim so‘zlar aniqlanadi.	Metafora haqida ma’lumot berish	Paremiyalar haqida ma’lumot berish
2.	Kalit so‘zlar etimologiyasi	Metaforani aniqlash	Paremiyalarni aniqlash
3.	Kalit so‘zga bog‘liq boshqa so‘zlar tahlili	Metaforani asar mazmuniga bog‘lash	Paremiyalarni asar mazmuniga bog‘lash
4.	Kalit so‘zning asar nomiga aloqasini izohlash	Metaforaning muallif g‘oyasiga aloqasi	Paremiyalarning muallif g‘oyasiga aloqasi
5.	Kalit so‘z qo‘llanilgan nutqiy vaziyat tahlili	Metaforalar tizimini aniqlash	Paremiyalar tizimini aniqlash

jonlantirish, omonim va sinonimlar doirasida o‘rganilsa, avvalo, bu mashg‘ulot shaklli tus olib, asar mazmunidan ajralib qolgan noto‘g‘ri darsga aylanib ketadi va o‘quvchilarni qiynab, chalg‘itib qo‘yadi. Ba’zan biror she’r o‘qilib, uning rejasi tuzilgach, mazmuni va maqsadi aniqlangach, o‘xshatish, sifatlash va mubolag‘a kabilarni ajratib, yozib kelish uyga vazifa qilib topshiriladi. Masalan, matndan sifatlashni topish uchun “qanday?”, “qanaqa?” savollari beriladi. Lekin bu savollarga javob bo‘luvchi iboralar hamma vaqt sifatlash bo‘lavermaydi. “Kumushday” degan o‘xshatish, “qaqrab yotgan ochko‘z yer suvni simirdi” degan jumladagi “ochko‘z” yer shu savolga javob bo‘ladi. Aslida esa “ochko‘z”, jonlantirishdir. Shuning uchun ham asar tilini o‘rganishda matn mazmuniga qarab til xususiyatlarini aniqlab borish ma’qul.

Badiiy asarlar tili o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlarni ba’zan tasvirlash va ifodalash vositalariga qarab aniqlash hollari ham uchraydi. Shu fikrdagi o‘qituvchilar asar tilini o‘rganishda o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, jonlantirish kabi tasvirlash vositalarini yoki omonim va sinonimlarni o‘rganishnigina ko‘zda tutadilar. Avvalo asar tilini o‘rganish malakani talab qiladi. Bundan tashqari, asar tilini o‘rganishda uning xususiyatlarini birin-ketin o‘rganib, sistemalashtirib boriladi. Shunga ko‘ra birinchi galda badiiy asar tilining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini, yozuvchining ijodiy faoliyatida bu xususiyatlar qanday o‘rin tutishini aniqlash lozim. O‘qituvchi bu masalalarni to‘g‘ri hal etganidagina asar tilini o‘rganish mashg‘ulotini to‘g‘ri tashkil qilish mumkin.

Badiiy asarning til xususiyatlarini baholashda tasvirlash vositalarini aniqlash masalaning faqat bir tomonini tashkil qiladi. Shuning uchun avvalo fikr bayon qilish, obrazning xarakterini ochish, shu obrazga aloqador predmetlar yoki shart-sharoit, manzara kabilarni tasvirlashda so‘z va iboralarning tanlanishi, ularning o‘rinli ishlatilishini o‘rganish kerak. Chunki yozuvchining badiiy mahorati birinchi galda fikrga mos iboralar, so‘z yoki so‘z birikmalarini o‘z o‘rnida ishlatishi bilan belgilanadi. Maqsadga muvofiq iboralar ishlatish esa adabiy asarning badiiyligini, go‘zalligini oshiradi. Shunga ko‘ra adabiy asar tilining badiiy bo‘lishi uchun unga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Adabiy asarda so‘z yoki so‘z birikmalari shunday ishlatilsinki, tasvirlanayotgan personaj yoki voqea-hodisalarning o‘ziga xos individual xususiyatlari aniq va konkret ko‘rinib turadigan bo‘lsin. Shu orqali o‘quvchi o‘ziga noma’lum bo‘lgan kishilar xususiyatlarining boshqalardan ajraluvchi ayrim belgilarini ko‘z o‘ngida gavdalantira olsin va tasavvur qila olsin.

2. Badiiy asar tilida tasvirlanayotgan kishi yoki voqeaning boshqalarga xos tipik xususiyat va belgilari alohida ko‘rinib turishi zarur. Haqiqatan ham badiiy asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar, bunda ishtirok etuvchi kishilar o‘quvchilarga notanishdir. Lekin shu kishilarning xatti-harakati, o‘ziga xos individual xususiyatlari avvallari tanish va ma’lum bo‘lgan kishilarni, ko‘rgan yoki eshitgan voqealarini eslatadi. Kitobxon asarda tasvirlangan qahramonga o‘xshagan kishilarni eslash va xotirlash orqali asar qahramonini ko‘z o‘ngida gavdalantiradi.

3. Yozuvchi o‘z dunyoqarashini, tasvirlanayotgan voqealarga munosabatini odatda qahramonning xatti-harakati orqali, qahramonning ruhiy kechinmalarini tasvirlash orqali bildiradi. Modomiki shunday ekan, badiiy asarning poetik tili ham emotsional ifodali bo‘lmog‘i kerak. Shu emotsional ifodalilik asarning g‘oyaviy yo‘nalishini ham, yozuvchining ruhiy kayfiyatini ham ko‘rsatib turadi.

4. Badiiy adabiyot ijtimoiy kurash va ijtimoiy tarbiya quroli bo‘lgani tufayli asarning tili ishontirarli va ta’sirchan bo‘lmog‘i lozim, toki u kitobxonning ijtimoiy xulqiga ham ta’sir ko‘rsatsin.

5. Badiiy asarning tili bo‘yoqdor, jozibali bo‘lmog‘i kerak. Shundagina asar kishi ongini o‘stirish va boyitishdan tashqari, estetik zavq bag‘ishlaydi, nazokatni o‘stiradi.

Asar tili oldiga qo‘yilgan bu besh talab va belgilarni o‘rganish anchagina murakkab bir ishdir. Bundan tashqari, o‘rganilayotgan bir matn yuzasidan bu belgilarning barchasini aniqlab chiqish ham hiylagina mashaqqatdir. Sinfda o‘rganiladigan asarlardan shu belgilarning bo‘rtib ko‘rinib turganini o‘rganib borish yillar davomida asar tilining barcha eng muhim xususiyatlarini o‘rganib chiqishga imkon beradi. Badiiy asarning mazmuni va obrazlarini o‘rganishda o‘quvchilar adabiy tilning badiiy ta’sir kuchini alohida ajratib o‘rgana olmaydilar. Ayniqsa o‘rinli ishlatilgan, mazmun va maqsadga to‘la muvofiqlashgan badiiy so‘zni alohida ajratib bo‘lmaydi. Chunki badiiy so‘z qanchalik o‘rinli ishlatilgan bo‘lsa, uni umumiy mazmundan, obrazlardan ajratib bo‘lmaydi. Bu yerda gap yozuvchi so‘zlarni qanchalik o‘rinli va maqsadga muvofiq ishlatsa, asar shunchalik jozibador bo‘lishi va mazmun bilan til bir-biriga uyg‘unlashib ketganligi ustida boryapti. Yozuvchining badiiy mahorati qanchalik yuksak bo‘lsa, uning asaridagi til rang-barangligi ham, asar mazmunini ifodalash, obrazlarni gavdalantirish, kitobxon qalbiga yetkazish ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Mashhur yozuvchi va shoirlarimiz badiiy asar yaratishda til ustida ishlashning mashaqqatli va faxrli ekanligini yuksak baholaganlar va qadrlaganlar. Shuning uchun ham buyuk rus yozuvchisi Lev Nikolaevich Tolstoy birgina “Urush va tinchlik” asarini o‘n ikki marta qayta ko‘chirgan, so‘zlarni mazmuniga to‘la uyg‘unlashtirgan va pishitgan. Badiiy asarda bir so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydigan darajada mazmunga uyg‘unlashtirish, albatta, ijodkordan katta mehnat talab qiladi. Matn ustida ishlash, asarni tahlil

qilish, ayniqsa badiiy tilni o‘rganish mashg‘ulotlarida yozuvchining shu mahorati o‘quvchilarga misollar bilan tushuntirib boriladi.

Modomiki shunday ekan, yozuvchining yurak tuyg‘ularini ifodalovchi so‘zlarni qidirishi, tanlashi va ularni o‘z o‘rnida ishlatishga harakat qilishi tabiiy holdir. Shuning uchun ham badiiy asar tilini o‘rganishda birinchi galda asar mazmunini, personajlar xarakterini, ayniqsa yozuvchining ko‘zlagan maqsadini aniqlab olish lozim. Shundagina uning so‘z va iboralarni qanday maqsadda ishlatganligini bilish oson bo‘ladi. O‘quvchilar asar mazmunini, qahramonlar holatini, yozuvchining maqsadini faqat asardan ta’sirlanib, uning umumiy ruhini o‘zlari sezgandagina tushunadilar. Bu tushunish yozuvchining badiiy til ustida qanday ishlaganligini aniqlab, bilib olishga yordam beradi. Badiiy asarlar janr xususiyatidan tashqari, voqealarni ifodalash usullari jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Tasviriy asarlar tilini o‘rganishdan tavsifiy asarlar tilini o‘rganish farq qiladi. Bu farqni aniqroq tasavvur qilish maqsadida tavsifiy xarakterdagi “Mehrobdan chayon” romanining tilini ko‘zdan kechiraylik.

Til — asar qahramoni xarakterini yorituvchi vosita. Masalan A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan olingan parchani o‘qib chiqqan o‘quvchilar uning mazmunini o‘rganish bilan birga, personajlarga xos xususiyatlarga e’tibor beradilar. Ular romanda nima deyilmoqchi ekanligi, yozuvchining bundan kuzatadigan maqsadi nimalardan iborat ekanligi haqidagi masalalarni o‘rganib chiqadilar. Undan keyin asarning badiiy til xususiyatlarini o‘rganish lozim. Bunda o‘quvchilarga asardan qahramonlarning o‘ziga xos tabiatini ochib beruvchi dialoglarni ajratib olib ularni quyidagi bosqichlar asosida tahlil qilash ko‘zda tutiladi:

T/r	Asar qahramoni tabiatini ochib beruvchi til vositalari	Bajarish usuli
1.	So‘zlar	Qahramon nutqida uchraydigan muhim so‘zlar tanlanadi
2.	Iboralar	Qahramon nutqida uchraydigan muhim iboralar tanlanadi
3.	Gaplar	Qahramon nutqida uchraydigan muhim maqollar tanlanadi
4.	Maqollar	Qahramon nutqida uchraydigan muhim so‘z, maqol va iboralar tahlil qilinadi

Asarning bu qismida Anvarning dunyoga tashrifi, uning qanday oilada tug‘ilgani, ota-onasining ahvoli tasvirlanadi. Yozuvchi shundog‘am turmush og‘irligini, Anvarning dunyoga tashrifi hech kimni quvontirmaganini, Salim bo‘yoqchining Anvardan tashqari “bir qarich, ikki qarich bolalardan beshtasiga dada edi”, deya bayon etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga Anvarni dunyoga tashrifini ota-onasiga qanday ta’sir qilganini aniqlash uchun yozuvchining munosabati aks etgan o‘rinlarni topishni topshiradi. Umuman olganda, yozuvchi Anvarga ism qo‘ymganligini “tirikchilikdan qo‘li bo‘shamagan”ligi, onasining olti bolaning xarxashasi bilan “miyasi suyulgan” iboralari bilan beradi. Bu iboralarning birortasini almashtirib ko‘rsa, asar badiiyatiga va mazmuniga putur yetadi. Yozuvchining badiiy mahoratini, asar qahramolariga xos xususiyatlarni juda ustalik bilan ko‘rsatganligini o‘quvchilarga to‘la yetkazish maqsadida personajlarga xos bo‘lgan belgilarni aniqlash va shu belgilar ifodalangan iboralarni ajratish vazifasi topshiriladi. Anvarning kelajakda o‘qib mulla bo‘lishini istagan Nodira bilan bog‘liq o‘rinlarni asardan topish mumkin.

Demak, badiiy asar mazmunini teran anglash va adabiy savodxonlikni shakllantirish uchun adabiyot darslarida o‘quvchilarga badiiy matn tili ustida ishlash haqida nazariy tushunchalar o‘rni bilan zarur miqdorda taqdim etib borilsa, ta’lim samaradorligi oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q.B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1997. 77-b.

2. G‘ulomov A.., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. O‘qituvchilar uchun metodik ko‘llanma. – T.: O‘qituvchi. 1996. 9-b.

3. Leonov S.A. Literatura. Integrirovanniye uroki. 8–9 klassi: Posobiye dlya uchitelya. – M.: Ayris, 2003. – 176 s.

4. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. 30-b.

Feruz RAJABOV ,
Qarshi MII akademik litseyi
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)

POETIK OMONIMLAR VA ULARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: bu maqolada badiiy matnning estetik vazifasida poetik omonimlar o‘rni va ularning turlari haqida fikr yuritilgan. Tilshunoslik va poetik nuqtayi nazardan omonimlar talqini manbalarga tayangan holda asoslanib, tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *ittifoq, shibhi ishtiqoq, askiya, poetik omonimlar, lingvopoetik tahlili.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль поэтических омонимов и их типов в эстетической функции художественного текста. На основе источников анализируется трактовка омонимов с точки зрения языкознания и поэтики.

Ключевые слова: *союз, шибхи иштикак, аския, поэтические омонимы, лингвопоэтический анализ.*

Annotation: this article examines the role of poetic homonyms and their types in the aesthetic function of artistic text. The interpretation of homonyms from the point of view of linguistics and poetics is analyzed based on the sources.

Key words: *alliance, shibhi ishtiqaq, askiya, poetic homonyms, linguopoetic analysis.*

Tilning estetik vazifasini o‘rganish hozirgi kunda tilshunoslar oldida turgan eng dolzarb muammoni hal etish bilan barobar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma’lumki, badiiy adabiyot tili ham kommunikativ, ham estetik vazifani bajaradi. Badiiy nutqning estetik vazifani bajarishini shu nutqning o‘ziga xos muhim belgisi deb hisoblash mumkin. Badiiy matndagi ta’sirchanlik yuqori darajasi, ko‘lamdorligi bilan xarakterlanadi. Shu xususiyatlarga ko‘ra D.E.Rozental estetik vazifani bajarishni to‘liq badiiy matnga xos, deydi. Darhaqiqat, badiiy matnning obrazlilik ko‘lami, ifoda vositalariga boyligi, badiiy so‘zlarning emotsional bo‘yoqdorligi – barchasi shu nutqning asosiy vazifasi bo‘lgan ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi vositalar hisoblanadi” . Shunday vositalardan biri omonimlar hisoblanadi.

Omonimlar o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan tuyuq, to‘rtlik, g‘azal, askiya va boshqa janrlar, lutf, tajnis, iyhom, ittifoq, shibhi ishtiqoq, ibhom kabi badiiy san’atlarda lingvopoetik vosita sifatida mohirona foydalaniladi. Shuningdek, omonimlar she’riyatda nozik so‘z o‘yinlarini ishlatish, so‘zlarning ohangdoshligini oshirish, qofiyalarni tugal voqelantirishga keng imkon beradi. Ular muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta’sirchan ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Omonimlarning ana shu xususiyatlarini teran anglagan o‘zbek adabiyoti namoyandalari o‘z she’rlari tilini yaratishda ulardan o‘ta mohirlik bilan foydalanganlar.

Ammo tilshunoslikda badiiy matnda tajnis, lutf, iyhom, ittifoq, shibhi ishtiqoq, ibhom va boshqa tasviriy vositalar uchun shakldosh birliklar asosiy vosita hisoblanadi. Bu badiiy-tasviriy vositalar uchun asos hisoblanuvchi omonimlar tilshunoslikda maxsus o‘rganilmagan. Shu maqsadda lingvopoetik nuqtayi nazardan nazmiy va nasriy matnlardagi shakldosh birliklarga yondashilsa, o‘rinli bo‘ladi, yakdil xulosalashga imkon beradi.

Badiiy matndagi omonimik birliklarni biz o‘z izlanishlarimiz natijasida tilshunoslik va poetika integratsiyasi mahsuli bo‘lgan lingvopoetika nuqtayi nazardan poetik omonim termini ostida o‘rganishni taklif qildik. Poetik omonimiya faqat badiiy matnda namoyon bo‘ladigan hodisadir.

Bir xil ohangga ega, talaffuzi bir-biriga juda yaqin, grafik jihatdan bir xillikka ega, ammo mazmunan boshqa-boshqa, bir-biridan ba’zan yozilish jihatidan farq qiladigan, ba’zan tinish belgidan farq qiladigan so‘z va so‘z shakllariga poetik omonimlar deyiladi. Poetik omonimlar ham xuddi omonimlar kabi bir necha turlarga ajratiladi: poetik omonim so‘z, poetik omonim ibora, poetik omofon, poetik omograf, poetik omonim so‘z birikma, poetik omonim gap va boshqalar. Poetik omonimlar jami poetik omonimiya deyiladi. Badiiy matndagi bu birliklarni quyidagi fan tarmoqlari bo‘yicha to‘plab o‘rganish va tahlil qilish mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi (folklor)da: Bunda poetik omonimiyaning poetik omonim so‘z, poetik omonim qo‘shimcha, poetik omonim so‘z birikmasi va gaplar, shuningdek, poetik omofonlarni ishlatish orqali so‘z o‘yinlari hosil qilinadi. Bunda tovush tomonidan o‘xshash, lekin ma’nosi turlicha bo‘lgan elementlarning, omonim so‘zmi yoki so‘z birikmasi ekanidan qat’iy nazar, matndagi har galgi takrori juda muhimligi asos qilib olinadi va ijodkorning badiiy niyati namoyon bo‘ladi. Omonimiyaning bu turidan, ayniqsa, askiyada, so‘z o‘yini va qochiriqda lingvopoetik vosita sifatida keng foydalaniladi. Zakiylik san'atida poetik omonimlardan o‘rinli foydalanish askiyachilarning mahorati sanaladi. Masalan, Abdulhay Maxsum Navbahor payrovi bo‘yicha askiyada: “Ikkovlaring ham o’ta dangasasizlar. Yakshanba kuni olma bog‘ga kirib, daraxtlami oqlaymiz”, desam, “Bizni ish kam

joyga yetaklang”, deysizlar. Bu o‘rinda ish kam “uzum ko‘tarib taraladigan moslama” va “ish kam” ma'nolarini bildirish uchun qo‘llangan.

T.Mirzayev, O.Safarov, D.O‘rayeva tomonidan nashr etilgan “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi”da:

Qizarib pishgan olmadi,
Olmadan nega olmadi?
Olmagani xo‘p bo‘bdi,
Endi kelsa — olma di (de)!

Ushbu to‘rtlikda olma-olma tilshunoslikda sof omonim bo‘lsa, birinchi misradagi olmadi (olma asos meva, -di tushum kelishigining so‘zlashuv shakli), ikkinchi misradagi olmadi (uzmadi), to‘rtinchi misrada olma di (olma degin) ma’nosida qo‘llanilmoqda va poetik omonimga misol bo‘ladi. Xrestomatiya “Tajnisli to‘rtliklar” nomi ostida bir nechta to‘rtliklar keltirilgan.

Bolalar adabiyotida. Bunda poetik omonimlar badiiy matnga o‘zgacha ruh, ko‘rishish baxsh etadi. Misralardagi jarangdorlikni, ohangdoshlikni ta'minlashda, o‘quvchiga ta'sir ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Omonim so‘zlarni bolalar she'riyatida qo‘llash ularni so‘z dunyosiga kirishga, so‘zlar ostida yotgan ma'no nozikliklarini topishga, so‘zlarni qaysi o‘rinlarda, qanday shakllarda ishlatishni bilishga chorlaydi. Masalan, K.Turdiyevaning “Sifatdosh”, “Sifat”, “Fe’l”, “Ot”, “Olmosh”, “Ravish”, “Son”, “Harakat nomi” va “Omonim” sarlavhali she’rlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘rgatishda amaliy yordam beradi.

Anvar Obidjon shakldosh so‘zlarning qavatlanishidan foydalanib leksik poetizmning ajib ko‘rinishini hosil qilgan:

Sakrog‘ichmiz, chaqqonmiz, to‘p- to‘p-to‘p.
Ranjimaymiz tepsangiz to‘p-to‘p-to‘p. [6, 10-b.]

Bu yerda birinchi kelayotgan “to‘p-to‘p-to‘p” tovushga taqlid so‘z, ikkinchi o‘rinda kelayotgani “koptok” ma'nosi beradi.

Bolalar she'riyatida butun boshli to‘plamni shakldosh so‘zlarga ajratgan ijodkorlar ham bor. Shu ma'noda Iqbol Mirzoning “Erkatoy - erka toy” to‘plami e'tiborga loyiq. Undan joy olgan 41 ta she'rda poetik omonimlardan foydalanilgan va ular vositasida bolalar tasavvurini boyitishga, atrof-olam, turfa hayvonlar, gullar, voqea-hodisalar, ularning belgi-xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarni kengaytirishga urinib ko‘rilgan. Masalan, to‘riga (yuqori qismiga) - to‘riga (to‘qigan ipiga):

Chiqib uyning to‘riga,
Yonboshladi to‘riga;

“Tulkixonning ukasiga dashnomi”, “Mushukchaga kuchukchadan savol”, “Xo‘randa timsohlar xulosasi”, “Ko‘klamdagi adir manzarasi”, “Qashqirlar qayg‘usi”, “Maynaning chorlovi”, “Loyxo‘rakning singlisiga qistovi”, “Ehtiyotkor bo‘rilar”, “Chalqancha yotgan toshbaqalar”, “Mashshoq qo‘ng‘izlar” kabi she'rlarda betartibsiz - bet artibsiz, miyov - mi yov, tog‘ ora - tog‘ora, qo‘ng‘iroq - qo‘ng‘ir, oq, beda nadir- bedanadir, oh, ular - ohular, tom osha - tomosha, es kirdi - eskirdi, kul ol - kulol, udumin - u dumin, bir ovga - birovga, o‘taka - o‘t, aka, tor doirada - tor, doirada kabi birliklar mahorat bilan qo‘llangan. Bu usul orqali leksik poetizmdan tashqari fonologik vositalardan, intonatsiyadan, so‘z tartibidan, urg‘udan ham unumli foydalanilgan. Bularning hammasi birgalikda yaxlit bir emotsional-ekspressiv va funksional-stilistik ta'sir mexanizmini yaratganki, bu bolalar adabiyotida novatorlik sanaladi. Bunday usuldan foydalanish, ayniqsa, bolalar she'riyati uchun oldin xos bo‘lmaganligiga amin bo‘lish mumkin. Maktab dasturlariga ham kiritilishi, o‘quvchilarning ong-u shuurini o‘stirishida xizmat qiladi, deb aytish mumkin.

Mumtoz adabiyotda. Buyuk so‘z ustalari tomondan yaratilgan mumtoz adabiyot namunalari hozirgi kungacha ma’no jihatdan ham, shakl jihatdan o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Buning sabablaridan biri ularda ilgari surilgan insonparvar fikrlarning go‘zal shaklda bayon qilinganidir. Nutqdagi bu go‘zallik badi’ san’atlar orqali ta’minlanadi. Badi’ san’atlarning ba’zilarini amalga oshirishda so‘zlarning tovush jihatiga muhim bo‘lsa, qolganlarida asosiy e’tibor so‘zlarning ma’nolariga beriladi. Shunga ko‘ra saj va tajnis san’atlarini qo‘llashda so‘zlarning tovush jihati muhim bo‘lgani uchun bu san’atlar “al-muhassanotu-l-lafziyya” deb nomlanadi . Badiiy asar yaratilayotganda, albatta, so‘zlarning ma’no jihati e’tiborga olinadi, lekin lafziy san’atlarda tanlangan so‘zning ma’nosi matnga mos bo‘lib, tovushlarida avvalgi so‘zdagi tovushlarga nisbatan mutanosiblik bo‘lmasa, san’at hosil qilish uchun bu so‘zning ma’nodoshlari orasidan tovush jihatdan mos keluvchi shakli tanlanadi.

Mumtoz adabiyotda tovushdoshlikni talab qiluvchi san’atlardan biri tajnisdir. Tajnis san’ati “jinos” deb ham yuritiladi. Tuyuq janrining talablaridan biridir.

“Tajnis”ning lug‘aviy ma’nosi jinsdoshlikdir. Badi’ ilmida talaffuzda o‘xshash bo‘lib, ma’no jihatdan farq qiladigan ikki so‘z tajnisni tashkil qiladi, ya’ni bu tushunchaga “paronim va omonimlarga asoslangan badiiy tasvir vositalari mujassamlashgan” .

Tajnis so‘zlardagi tovushlarning mosligiga va imlosiga ko‘ra bir necha turga bo‘lib o‘rganiladi. Xususan, ikki so‘z ham unli, ham undoshlari jihatidan (arab yozuvida esa nuqtalari va harakatlari jihatidan ham) bir-biriga to‘la mos bo‘lib tushsa, bu xil tajnislarni tajnisi tomm, ya'ni to‘liq tajnis (mutloq tajnis) deb yuritiladi. Bunday tajnislar bir xil yoki ikki xil so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra mumosil va mustavfiy tajnislarga bo‘linadi. Harf tartibi bir xil, lekin biri yozuvda ajralib tursa („Otoyim", „ot oyim") tajnisi mafruq (ajratilgan tajnis) deb yuritiladi. Bundan tashqari uning murakkab tajnis, tajnisi zoyid, tajnisi xat, tajnisi noqis, mukarrar tajnis, mutarraf tajnis, tajnisi aks, tajnisi muzayyal ko‘rinishlari, “tajnis-i-tasrih”) va boshqalarga bo‘linadi va ularning barchasi mumtoz

asarlarda keng qo‘llangan.

Umuman olganda tajnis mumtoz adabiyotda muallif fikrini ravon, ohangdor ifodalashga yordam bersa, o‘quvchi va tinglovchiga emotsional zavq berib, uning estetik didini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy adabiyotda. Zamonaviy adabiyotda yangi yo‘nalishlar va shakllarning kirib kelishi orqali poetik omonimlarning turfa xillarini ko‘rish mumkin. Badiiy asarda so‘zlarning yoki ayrim harflarning talaffuzi va yozilishidagi o‘xshashligi asosida bir xil yoki o‘xshash shaklda ham turli ma’nolar ifodalanishi mumkin. Faxriyorning “Omonimona”, “Ushshoq”, E.Vohidovning “Olma” she’ri va boshqa ijodkorlarning asarlarida ham poetik omonimlardan unumli foydalanilganligini ko‘rish mumkin.

Poetik omonimlardan o‘rinni foydalanishni barcha ijodkorlarning she'rlarida uchratish mumkin. She'riy asarlarda qo‘llangan shakldosh so‘zlar qalamga olingan voqeani ta’sirchan qilib yuzaga chiqarish, reallashtirish, narsa va hodisalarni kitobxon hayotiga yaqinlashtirish vazifalarini bajargan. Ular so‘zlarning ishlatilish o‘rinlarini kuzatadilar, ma’no nozikliklaridan boxabar bo‘ladilar, uslubiy rang-barangliklarni ilg‘ash malakasini o‘zlashtiradilar.

Darhaqiqat, poetik matnning lingvopoetik tahlili bugungi tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektidir, ularni to‘plash va tasnif qilish, leksikografik talqini zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirova R. X Badiiy matn atamasini poetik aktuallashtiruvchi vositalar. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786. 22-02-2023
2. Rustamiy S. O‘zbek mumtoz adabiyotida fonetik san’atlarning qo‘llanishi. Turkshunoslik izlanishlari ikkinchi to‘plam, Toshkent – 2009.34 b
3. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika. (Aruz, qofiya, badiiyat ilmi istilohlari tarixiga oid). Toshkent, 2001. 52 b
4. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent, 1979. 37 b
5. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. - Toshkent, 2008. – 560 b.

Saodat MUMINOVA,
Qarshi davlat universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ABDULLA ORIPOVNING TABIAT HAMDA INSONGA MUNOSABATIDAGI O‘ZIGA XOSLIK

Annotatsiya: ushbu maqolada iste’dod sohibi Abdulla Oripovning tabiat va inson muammolariga munosabati xususida bahs yuritiladi.
Kalit so‘z va iboralar: *inson, tabiat, falsafa, dunyoqarash, ijod, badiiyat.*
Annotation: this article discusses the attitude of the talented Abdulla Oripov to nature and human problems.
Keywords: *man, nature, philosophy, outlook, creativity, art.*
Аннотация: в данной статье рассматривается отношение талантливого Абдуллы Орипова к природе и проблемам человека.
Ключевые слова: *человек, природа, философия, мировоззрение, творчество, искусство.*

Inson jamiyatda yashar ekan, o‘sha jamiyatning muammolaridan chetda tura olmaydi. Qachonki, o‘zgalarning dardini, quvonchini o‘ziniki deb his qila olsagina u jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanadi. Ulug‘ Navoiy belgilagan umr fasllarining barcha bosqichlarida (tufuliyat (yoshlik) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, shabob (yigitlik) – 20 yoshdan 35 yoshgacha, kuhuliyat (o‘rta yoshlik) – 35 yoshdan 45 yoshgacha va keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha) [1] inson ma’naviy-ruhiy jihatdan turli darajada bo‘ladi. Abdulla Oripovning ilk ijodidan tortib, to umrining oxirigacha yaratgan she’rlarini kuzatsak, ularda shoir shaxsi, ma’naviy-ma’rifiy takomili yilma-yil mukammallik kasb etib borganligini ko‘ramiz. Hali yigitlik yoshidanoq o‘zining shoh asarlarini bitgan Abdulla Oripovning ijodiy shiddati umrining oxiriga qadar zarracha bo‘lsa ham pasaymadi. Adabiyotshunos olim Ulug‘bek Hamdam aytganidek: “Aslida shoirning yuragida to‘rt fasl bir pallada yashaydi. Unda beshinchi fasl hodisalari kechadi. Shoir bir lahzada olamning olti tarafini kezadi”. [2.101.] Darhaqiqat, shoirning she’rlari umr manzillarining qaysi nuqtasida yaratilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, umrboqiylik kasb eta olgan. Shoir 1964-yilda yozgan “Shunday yashar odatda odam” nomli she’rida o‘zining yashash prinsipini aniq belgilab olgan va umrining oxirgacha ana shu prinsiplariga sodiq qola oldi. Kurash, qurish, yaratish, hayqirish, jo‘shish kabi istaklarini amalga oshirdi.

Abdulla Oripovning butun ijodi inson zakosi, uning mo‘jizalarga to‘la iqlimi, ruhiyati, qalbi, yuksakligi va tubanligi qarshisida lol qotgan hayrat talqinlaridir. Shoir inson umrining qisqaligi, o‘tkinchiligi, hayot va

o‘lim yonma-yon yurishi, qo‘yayotgan har bir qadam o‘lim sari boriladigan yo‘lni qisqartira borishi haqida shunday yozadi:

Jajji go‘dak, sen tug‘ilding, sen uchun
Kim belanchak yasab turar shu damda.
Kimdir senga uchqur tulpor egarlar,
Kimdir senga hassa yo‘nar shu damda. [3.21]

Millatimiz kutgan istiqlolga erishilgandan so‘ng ulkan yangiliklar ro‘y berdi. Istiqlol tufayli diniy bilimlarni o‘rganishga keng yo‘l ochildi. “Makonda lomakonsan, endi qaydan izlagaydurman” degan misradayoq yosh shoirning o‘zga o‘lchamli olam borligini e’tirof etganini, uning uchun borliq, avvalo, makon va lomakondan iborat bo‘lganini ko‘ramiz”.[4.11] Diniy bilimlarni ham mukammal darajada bilgan shoir mustaqillikdan so‘ng “Hikmat sadolari” turkum she’rlarini e’lon qildi. Shoirlar ijodida payg‘ambarimiz hadislariga murojaat qilish, ulardan foydalanish an’anaga aylandi. Xususan, shoirning ”Hikmat sadolari” turkumi ham payg‘ambar hadislari sharhlariga bag‘ishlangan bo‘lib, uzoq tarixga ega mumtoz an’ana va XX asr o‘zbek she’riyatidagi izlanishlarning sintezi sifatida yaratildi.

Buyuk ishlar uchun kichik ishlar zamin bo‘ladi. Inson go‘daklikdan ulg‘ayadi. Ma’naviy yetuklikka ham birdan erishib qolinmaydi. Odam butun umri davomida izlanadi, ezgu ishlar qilishga shaylanadi. Zero, donishmandlar aytganlaridek, bugungi go‘dak erta katta odamga aylanadi. Kichik savoblardan ulkan savoblar yaraladi. Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumidagi she’rlari insonlar qalbini iymon nurlari bilan yoritishga, ozgina bo‘lsa ham, nur bag‘ishlashga intilgani bilan ulkan ahamiyat kasb etadi.

Agar shoir ilk she’rlaridanoq XX asr o‘zbek she’riyati mundarijasini tubdan o‘zgartirib yuborgan bo‘lsa, so‘nggi davrlar lirikasida ham bu shasht sira pasaymaganligi, aksincha, avj nuqtaga ko‘tarilganligini e’tirof etish mumkin. Erkin Vohidov haqli e’tirof etganidek: “Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She’riyat yurak sadosi bo‘lganidan ana shu murakkab tuyg‘ular olamini ifoda qiladi” [5]. Shoirning so‘nggi yillarda yaratgan she’rlarida falsafiy-intellektuallik yanada kuchayganligini ko‘rish mumkin. Inson umrning o‘tkinchiligi, vatan, xalqning ulug‘ligi, mehri, qalbning pokizaligi, fasllar falsafasi, hayotga muhabbat, oila baxti, shukronalik, hayotning qadriga yetish, salomatlik, xastalik, armon hissini kuylash ustuvor. “Falsafiy she’r mundarijasini tashkil etgan fikr shoirning shaxsiy-hayotiy tajribasi va kuzatishlaridan, hayot, umr, tiriklik, erk, zulm, adolat haqidagi tasavvur va tushunchalaridan, kechinmalaridan sizib chiqadi. Bu o‘rinda shaxsiy hayotiy tajriba avlodlar tajribasining, fikrlari, kechinmalari, qiziqish va idealining in’ikosiga aylansagina umuminsoniy mazmunga ega bo‘ladi” [6.32], – deb ta’kidlaydi professor N.Rahimjonov. Shu o‘rinda shoirning “Vaqt” nomli she’rini kuzataylik:

Sen birovga yaxshilik qilsang,
Qaytishini kutmagil aslo.
Abadiyat yonida, bilsang,
Unutilish bordir doimo.
Vaqt goyoki qilko‘prik, undan
Ikki emas, bir o‘tiladi.
Seni eslab unutmay yurgan
Odamlar ham unutiladi. [3.567]

Donishmandlik, mukammallikka to‘yingan jaydarilik, jiddiy fikrni ham hazil libosiga o‘rab ifoda qilingan misralar zimnida hayotning unutilish degan achchiq haqiqati mavjud. Hech narsa abadiy emas. Tug‘ilish o‘lim sari qo‘yilgan dastlabki qadam ekanligiga ishora bor. Bir mahallar onasi vafot etganda “ich-ichidan bo‘zlagan” shoirning armonlari, sog‘inchi, dardi, sitami, ayriliq azobi qalbini umr boyi tark etmadi:

Hazrati Xizrga yo‘liqsam albat,
Faqat bir narsani so‘rardim faqat:
Yomon nazarlardan toliqdi ruhim,
Onam nigohini ko‘rsating, hazrat. [3.629]

Inson uchun dunyoda onadek munis hamroh, mehribon yo‘q. Dono xalqimizda “Bir onang do‘st, bir tanang” degan naql bor. Bu hikmatning ma’nosini keksalikda yanada chuqur anglagan shoir ona diydorini qo‘msashi tayin. Aytish mumkinki, Abdulla Oripovning yuqoridagi to‘rtligi ko‘pgina mazmunli mohiyatlarni xotiraga oluvchi, o‘ylatuvchi fikriy kechinmadir.

Xulosa qilib aytganda, shoirning lirikasida chuqur falsafiylik, butun ijodi vaqt va zamon, inson va tabiat munosabatlari zamiriga qurilganligini, har bir she’rida tafakkur yog‘dulari chaqnab turganligini, qisqasi, tabiat–inson–jamiyat uyg‘unligining badiiy sintezi mujassamlashganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-adabiyoti-tarixi
2. Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Тошкент, 2018. - Б.101.
3. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. – Тошкент, 2019.-Б. 567.
4. Шарқ юлдузи. Адабий-бадиий, илмий, ижтимоий-сиёсий журнал. 2018-йил, 5-сон.
5. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979. - Б. 32.

Yoqutxon ERKABOYEVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti media nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
oromovanafosat@gmail.com

GONZO JURNALISTIKASINING SHAKLLANISHIDA “YANGI JURNALISTIKA”NING O‘RNI

Annotatsiya: Gonzo-jurnalistikasi AQSHda adabiyot va jurnalistika chorrahasida vujudga kelgan “yangi jurnalistika”ning ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Maqolada AQSH publitsistikasida gonzo-jurnalistikasining shakllanishiga poydevor bo‘lgan “yangi jurnalistika” yo‘nalishi tarixi tadqiq etilgan, uning paydo bo‘lishi, o‘ziga xosligi, bugungi kundagi faoliyati tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *Gonzo, Yangi jurnalistika, Xanter Tompson, makkreykerlik, muqobil, adabiy jarayon.*

Аннотация: Гонзо-журналистика считается неотъемлемой частью «новой журналистики», возникшей на стыке литературы и журналистики в США. В статье рассматривается история направления «новая журналистика», положившего начало становлению гонзо-журналистики в медиа США, анализируется его возникновение, уникальность и современная деятельность.

Ключевые слова: *Гонзо, “новая журналистика”, Хантер Томпсон, альтернатива, литературный процесс.*

Annotation: Gonzo journalism is considered an integral part of the “new journalism” that arose at the intersection of literature and journalism in the United States. The article examines the history of the “new journalism” movement, which laid the foundation for the formation of gonzo journalism in US journalism, and analyzes its emergence, uniqueness and modern activities.

Keywords: *Gonzo, new journalism, Hunter Thompson, alternative, literary process.*

1960-yillar Amerika tarixida shiddatli voqealar davri bo‘ldi. Bu o‘n yillik yosh avlodning katta avlod tomonidan o‘rnatilgan ijtimoiy me’yor va konservatizmga qarshi oshkorona namoyishi, o‘smirlar orasida “xippi” sub-madaniyatining ommalashishi, Vetnamdagi urush kampaniyasida AQSHning ishtirokiga nisbatan talabalar o‘rtasida ommaviy norozilik, tartibsizlik harakatlarining yuzaga kelishi va siyosat maydoniga Kennedi, Nikson kabi shaxslarning kirib kelishi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur voqealar mamlakatda barcha sohalar qatori haqiqat jarchisi bo‘lgan jurnalistikada ham yangi ovoz, yangi yo‘nalishning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi.

60–70-yillar AQSHda “makkreykerlik” davri ruhidan ilhomlanib “yangi jurnalistika” yo‘nalishi vujudga keldi va u jurnalistika hamda prozada muhim hodisaga aylandi [1, 45]. Jurnalistika va adabiyot chorrahasida paydo bo‘lgan mazkur yo‘nalish o‘sha davrda Amerika matbuotida shov-shuv ortidan quvib, tobora nufuzi yo‘qolib borayotgan adabiy muhitga nisbatan norozilik ovozi edi. Uning asosiy maqsadi jurnalistikani adabiy-badiiy usullar bilan boyitib, ijtimoiy rolini kuchaytirishga qaratildi.

“Yangi jurnalistika”ning kelib chiqishi, uning boshqa janrlardan o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilishdan avval “yangi jurnalistika” o‘zi nima ekanligi, mutaxassislar unga qanday ta’rif berganligini aniqlab olsak. Vikipedia lug‘atida “yangi jurnalistika”ga 1960-70-yillar Amerikadagi matbuot uslubiga nisbatan qo‘llanilgan termin bo‘lib, maqolalarni alternativ shaklda yozish texnikasi, deb ta’rif berilgan. Alternativ ommaviy axborot vositasi o‘zi nima, degan savolga rus tadqiqotchisi Svetlana Marich “Yangi uslub va janrlarni yaratish, shu bilan birga materiallarni yetkazishning yangi shakllarini ishlab chiqish faoliyati bo‘lib, u o‘zida shaxslar va kichik ijtimoiy guruhlarning erkin konseptual ijodkorligini aks ettiradi. Medianing bu turi yangi g‘oya, mediamahorat va tajribaga tayanadi”, deb ta’rif beradi [2, 42]. Amerikalik professor Jon Xellman “Yangi jurnalistika”ni quyidagicha izohlaydi: “Fikrimcha, “yangi jurnalizm”ga adabiy janr, deb qarasak, to‘g‘ri bo‘ladi. Negaki, xayoliy va real faktlarga asoslangan fantastik asar (fiction) singari “yangi jurnalizm”da ham ruhiyat va ma’naviyatga yo‘naltirilgan estetik shakl hamda maqsad bor”. Jon Xellmanning “yangi jurnalistika”ni fantastik asar deyishi mantiqan to‘g‘ridir, biroq bu paradoks. Chunki mazkur yo‘nalishda yozilgan ko‘plab namunalarda fantastika va jonli reportajlarning o‘zaro kombinatsiyasini kuzatish mumkin. Shuning uchun “yangi jurnalistika”ga shakl, uslub, til va mazmunga ega jurnalistikadagi adabiy tajriba sifatida qarash, bizningcha to‘g‘ri bo‘ladi.

Rus tadqiqotchisi Aleksey Drojjin esa Amerika prozasida haqiqiy inqilobga sabab bo‘lgan “yangi jurnalistika”ga: “Kishilarda ijobiy fikrlashni hosil qilish uchun ommaviy auditoriya ongini tuzatishga yo‘naltirilgan neogumanistik axborot modeli”, deb ta’rif beradi [3, 4]. Shuningdek, “Yangi jurnalistika” insonga nisbatan yuksak hurmat, uning qadr-qimmati, yashash huquqini e’zozlash, erkin rivojlanish, baxt-saodatga

intilishga bo‘lgan munosabatini nazarda tutadi. Uning bosh maqsadlaridan biri o‘z taqdirini o‘zi belgilaydigan va ijtimoiy ijod qilishga qodir yuksak ma’naviyatli shaxsni rivojlantirishdir” [3, 6] deydi.

Yuqoridagi qarashlarni umumiylashtirib xulosa qiladigan bo‘lsak, “yangi jurnalistika” – bu axborotning alternativ shakli. Unda na davlat tuzilmasi va na xususiy tashkilotlar pozitsiyasi aks etadi. U nafaqat an’anaviy gazeta, jurnallardagi maqolalar uchun, balki yirik hajmli esselar, mualliflik kolonkalari va boshqa jurnalistik materiallarni yozishda muqobil usulni nazarda tutadi.

“Yangi jurnalistika” juda bahsli va noaniq hodisa. Bu yo‘nalish paydo bo‘lganidan to hozirgacha tanqidchilar uni o‘rganishga kirishgan bo‘lsada, biroq haligacha qachon vujudga kelgani va unga qanday mezonlar belgilanishi borasida aniq bir to‘xtamga kela olgani yo‘q. Ba’zan “yangi jurnalistika”ni XIX asrning 80–90-yillari amerikalik jurnalist Jozef Pulitser va mediamagnat Rendal Xyorst tomonidan asos solingan “yangi jurnalistika” bilan adashtirishadi. Chindan ham, Pulitser va Xyorst jurnalistikaga “Sariq matbuot” tushunchasini olib kirib sohada yangilik qildi. “Bu ikki shaxs, ayniqsa, Pulitser AQSHda birinchilardan bo‘lib yangi davr matbuoti vujudga kelishiga katta hissa qo‘shdi. Jozef Pulitser haftaning yakshanba kunlari chiqadigan “Sunday world” gazetasini eng serdaromad nashrga aylantirdi. Gazeta ayollar, turli yoshdagi gazetxonlar va sport ishqibozlariga bag‘ishlangan maxsus ichki ilovalarni o‘z o‘quvchilariga taqdim etdi” [4, 228]. Shov-shuv, sensatsiya, rangli komikslar, mashhurlar hayoti bilan bog‘liq ovozali sarlavhalar, umuman, har qanday vosita bilan gazetxonlar e’tiborini jalb qilish Pulitser va Xyorst asos solgan jurnalistikaning o‘ziga xos xususiyati edi. Shu sabab ham unga “shov-shuvli jurnalistika” termini ko‘proq mos keladi. “Yangi jurnalistika” esa amerikalik jurnalist Tom Vulf nomi va faoliyati bilan bog‘liq.

“Yangi jurnalistika” – bu jurnalistika uchun noan’anaviy hisoblangan adabiy uslublardan foydalanib yangiliklar yozish usuli. 1963-yilda “Eskvayr” jurnalida “yangi jurnalistika” ruhida yozilgan hamda Tom Vulfning mafkuraviy-g‘oyaviy qarashlarini o‘zida ifodalagan birinchi maqola e’lon qilinadi [5, 45]. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, Tom Vulf zamonaviy avtomobillar haqidagi bu maqolasini uzoq vaqt yoza olmay qiynaladi. Yozganlari o‘ziga umuman ma’qul kelmaydi. Oxir-oqibat u noodatiy, ko‘pgina tinish belgilari ishlatilgan, avtomobil tovushlariga taqlid tarzida yozilgan fikrlarini maktub holida muharrirga jo‘natadi. Maktub asosini tovushlar tashkil qilgan bo‘lsada, Vulf kashf etgan uslub muharrirga ma’qul keladi va u material sarlavhasini “Konfet rangiga bo‘yalgan apelsinbargli oqlangan kichkintoy” (“The Kandy-Kolored Tangerine-Flake Streamline Baby”) deb qisqartirib nashrga beradi. “Eskvayr” jurnalidagi aynan mana shu maqola “yangi jurnalistika”dagi ilk ijod namunasi hisoblanadi [5, 47].

“Yangi jurnalizm” o‘sha davrning tarixiy jarayonlari, jamiyatdagi norozilik ruhi ta’sirida oshkora yoki yashirin tarzda AQSHda allaqachon qonuniylashtirilgan qadriyatlar, an’analarning samimiyligiga nisbatan sarkastik munosabatni, shu bilan birga adabiy muhitga nisbatan norozilikni bildirar edi. Tom Vulf o‘zining “Yangi jurnalistika Antologiyasi” nomli kitobida nega “yangi jurnalistika” sohada “portlash”ga sabab bo‘lganini quyidagicha izohlaydi: “XX asrning 40-50-yillari yozuvchilar orasida roman yozishdek “amerikacha orzu” uyg‘ondi. O‘sha vaqtda romanlar nafaqat adabiy janr, balki psixologik fenomenga ham aylandi. Jurnalistlar ham buyuk romannavislarga hurmat ma’nosida o‘z materiallarini roman shaklida yozishni istadi. Ular o‘sha davrning haqqoniy va eng ishonchli tasvirini faqat badiiy to‘qima va fantaziyaga asoslanib ko‘rsatish mumkin, deb hisobladi” [6, 87]. “Yangi jurnalistika” namoyondalari ham garchi axborot yetkazishda adabiyot va jurnalistika uslublari qorishuvini qo‘llagan bo‘lsada, voqealar bayonida haqiqatni buzib ko‘rsatishni inkor etdi. Ular “bellitristik” reportajlarni tayyorlashda real hayotdagi faktlarni chuqur o‘rganish xolislikni ta’minlovchi jihat ekanligiga alohida ahamiyat qaratdi. O‘sha davrda matbuotda “yangi jurnalistika” yo‘nalishidagi materiallar birinchi navbatda elita auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib, kamdan-kam hollarda oddiy o‘quvchilarga qaratilgan edi [7, 44].

1972-yil “New York Magazine” gazetasida “Yangi jurnalistika”ning tug‘ilishi; guvoh Tom Vulf hisoboti” sarlavhali maqola nashrdan chiqadi

[8]. Unda Tom Vulf “yangi jurnalistika” adabiy muhitda o‘ziga xos inqilobiy o‘zgarish bo‘lganini, uning badiiy adabiyotga ham jurnalistikaga ham birdek taalluqli yangi shakl sifatida yuzaga kelganini ta’kidlaydi: “Bilaman, ular gazeta va jurnallar uchun yozmoqchi bo‘lganlarining barchasi adabiyot olamida bunday xaosga sabab bo‘lishini, vahima uyg‘otishini, yarim asr ichida Amerika publitsistikada mutlaqo yangi yo‘nalishning paydo bo‘lishini hatto tasavvur ham qilmagan edilar... Biroq bu hodisa sodir bo‘ldi va “yangi jurnalistika” turkumiga kiruvchi uzundan uzun shaxsiy ocherklar Amerika matbuoti va adabiy-badiiy muhitining harakatlanish yo‘nalishini o‘zgartirib yubordi” [9].

“Yangi jurnalistika” fenomen sifatida Tomas Vulf, Djimmi Breyslin, Gay Taliz, Norman Meyler, Trumen Kapot kabi publitsistlar nomi va ijodi bilan bog‘liq. Bu ijodkorlar an’anaviy publitsistika voqea-hodisani yoritishda oldiga qo‘ygan vazifalarini bajara olmayotgani sabab faktlar badiiy usullarda yetkaziladigan ammo jurnalistik yondashuv bilan tavsiflanadigan maqolalar yoza boshlaydi. Aslida “yangi jurnalizm” namoyondalarining oldiga qo‘ygan

birinchi vazifasi ham zamonaviy jurnalistikani shakl va uslub jihatidan badiiy adabiyot bilan boyitish, shuningdek, jurnalistik matnlarda adabiy usullarni qo‘llash edi. Biroq tanqidchilar fikriga ko‘ra, o‘sha davrda “yangi jurnalistika” namoyondalarining eng katta yutug‘i maqolalarida adabiy usullarni qo‘llagani emas, balki asos solgan yangi yo‘nalishlari bilan ilmiy tan olinishga erishganlari bo‘ldi.

1973-yilda nashr qilingan “Yangi jurnalistika Antologiyasi” kitobi so‘zboshisida muallif Tom Vulf “yangi jurnalistika” prinsiplarini bayon etish bilan birga yo‘nalish faoliyatini tavsiflaydigan to‘rtta asosiy jihatni ham keltiradi [6]. Bular:

– jurnalist manbalarga tayanmagan holda voqealarni shaxsan o‘zi kuzatishi va ularni imkon boricha to‘liq hikoya qilishi kerak;

– matnda dialoglardan ko‘p foydalanish aniqlik effektini hosil qiladi va asardagi xarakterlarning ishonarli chiqishini ta’minlaydi;

– voqea haqida o‘quvchida tasavvur hosil qilish uchun uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish, personajlarni biror roman qahramoniga aylantirish va u bilan o‘sha obrazga mos muloqot o‘rnatish;

– chuqur tahlil uchun (Vulf buni “ijtimoiy fosh qilish” deb ataydi) vaziyatni batafsil kuzatish zarur.

Aytish mumkin, Tom Vulfning adabiyot va jurnalistikada amalga oshirgan yangiligi tobora sifati tushib borayotgan kundalik jurnalistikadan yuqori maqomdagi nasr, yangi janr – fekshn (ingl. faction, “fact” – “fakt” va “fiction” – fantastik asar – faktlarga asoslangan fantastika asar)ga asos solgani bo‘ldi. Buning uchun Vulf axborot yig‘ishning jurnalistik usullari: intervyu, reportajdan foydalandi, arxiv hujjatlari bilan ishladi va real faktlarga asoslanib materiallar tayyorladi. O‘sha vaqtdagi adabiy muhit holatidan norozi bo‘lgan Tom Vulf “yangi jurnalizm” e’tibordan qolib borayotgan romanlar o‘rnini egallashini va o‘quvchilarda voqealarning bevosita ishtrokchisi bo‘lish taassurotini uyg‘otishiga ishondi.

“Yangi jurnalistika” o‘quvchida uslubiy jihati bilan qiziqish uyg‘otishdan tashqari grafik usullar orqali ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, Tom Vulf o‘z asarlarida murakkab sintaktik qurilishlar, chigal jumlalar, qiya bosma harflar, vergul va tire, umuman, tinish belgilarini ko‘p qo‘llaydi. 1968-yilda yozilgan “Elektrosovutgichli kislota testi” kitobi “yangi jurnalistika” janrida yozilgan ana shunday asarlardan biri hisoblanadi.

Muallif bu asarda mashhur yozuvchi Kena Kiz hayotidagi sakkiz yillik inqiroz davri va 1964-1966-yillar uning atrofidagi mantiqsiz sub–madaniyat jamiyatini tasvirlaydi. Tom Vulfning bu asari “yangi jurnalistika”da chin ma’nodagi muvaffaqiyat bo‘ldi. O‘sha vaqtda The Washington Post gazetasi kitobga “yorqin, bebosh va noreal nurli kitob” deb nom berdi [10,45].

“Yangi jurnalistika” adabiy usullar asosiga qurilgan, biroq jurnalistikadan ham chegaralab qo‘yilgani yo‘q. Zero, jurnalistikaning ijtimoiy kuchini oshirish asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan “yangi jurnalizm”ning e’tiboridan shuningdek, jamiyatdagi dolzarb mavzular ham chetda qolmadi. Vaqt o‘tishi bilan u ijtimoiy, madaniy jurnalistikaga o‘z ta’sirini ko‘rsatib Amerika madaniy va ijtimoiy voqeligining muhim va ahamiyatli kuchiga aylandi.

Media industriya sohasidagi holatni tahlil qilarkan, Tom Vulf “yangi jurnalistika”da sof adabiy usullar qo‘llanilishini aytadi [6].

– sahna bayoni (kinematografizm, ya’ni voqealarning ketma-ket bayoni);

– qahramonlar dialoglari (ularning realligi);

– voqealarni aniq qahramonlar nuqtayi nazaridan talqin qilish;

– detallashtirish (barcha voqealar, faktlar, qahramonlar xarakteri, harakatlari, kayfiyatiga jiddiy e’tibor berish).

“Yangi jurnalistika” Amerika matbuotida yangi janr sifatida paydo bo‘lish bilan birga “The Boston Phoenix” (1965), “The New York Magazine” (1968), “Rolling Stone” (1967), “Texas Monthly”, “Harper's Bazaar”, “Atlantic Monthly”, “Rolling Stone” kabi bir qator yangi jurnallarning ham tashkil etilishiga zamin bo‘ldi. Shuningdek, bu uslubda yozilgan maqolalar “The New Yorker” haftalik jurnali (1925), har oyda chiqadigan “Esquire” jurnali (1932) va boshqa ko‘plab nufuzli davriy nashrlarda chop etildi” [6].

“Yangi jurnalistika” o‘sha davrdagi amerikalik jurnalistlar uchun erkin ijod sharoitini yaratib berish bilan birga jahon jurnalistikasi tarixida o‘z nomini yozib qoldirishlariga ham asos bo‘ldi. Xususan, o‘tgan asr so‘nggida AQSH jurnalistikasi maydonida jilovlab bo‘lmas, jasoratli maqolalari, sohada hech qanday qoidalarni tan olmasligi, bezoriligi bilan shuhrat topgan Xanter Tompson “yangi jurnalistika” maktabining ana shunday yorqin namoyondalaridandir.

Tom Vulf bir maqolasida Xanter Tompson shaxsiyati va ijodiga shunday ta’rif beradi: “Xanterning hayoti ijodi kabi uzoq davom etgan vahshiyona tentirashga o‘xshaydi. U XX asrning haqiqiy Mark Tveni. Xanterning jamiyatdagi barcha odatiy narsalar ustidan kinoya bilan munosabatda bo‘lishi va bu kayfiyatni ijodida ham aks ettirishi uni boshqalardan ajratib turadi. Mana shu jihati bilan Xanter bizning adabiyotimiz tarixida mutlaqo yangi, favqulodda noyob iste’dod egasi edi” [11].

Xanter Tompson uchun an’anaviy jurnalistika fikr erkinligiga to‘sqinlik qilib, Amerika jamiyatining tizimli tanazzulini aks ettiradigan qoidalarga bo‘ysunar edi. Tompson jurnalistikada jamiyatdagi muammolarni baralla aytish uchun jasorat yetishmasligidan qiynalar edi. Ammo badiiy adabiyotga hali bunday chegaralar qo‘yilmagani uchun Tompson o‘zida badiiy ijod elementlarini an’anaviy hujjatli reportaj bilan uyg‘unlashtirgan “yangi jurnalistika” yo‘nalishi

tarafdorlari safiga bajonidil qo‘shildi. Alohida qayd etish kerak, Xanter Tompson “yangi jurnalistika”ning muhim figurantlaridan biri bo‘libgina qolmay janr tarkibida shakllangan gonzo- jurnalistika uslubining asoschisi va bugungi kunga qadar yagona yorqin namoyondasi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Прутцков Г. В. “История зарубежной журналистики”.-М.:Аспект пресс,2011.
2. Марич С. //Альтернативные медиа: история и пути развития//. МЕДИА альманах. М.: 2009.- №5.
3. Дрожжин А.//Новая журналистика” и тенденции неогуманизма в современном обществе//.-М.:Мордовский государственный университет Россия. 2009.-№3.
4. Mo‘minov F., Nurmatov A. “Jahon jurnalistikasi tarixi”. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
5. Прутцков Г. В. “История зарубежной журналистики”. – М.: Аспект пресс, 2011.-Ст.45.
6. Вульф Т. “Новая журналистика и Антология новой журналистики”. – М: RoyalLib.com, 2008.
7. Прутцков Г. В. “История зарубежной журналистики”. – М.: Аспект пресс, 2011.
8. Wolfe T. // The Birth of ‘The New Journalism’; Eyewitness Report by Tom Wolfe//“New York Magazine”. 1972 /14 February. (http://nymag.com/news/media/47353/)
9. "The birth of a" new journalism "; Report of an eyewitness Tom Wolfe " // “New York Magazine”.-1972.- №6.
10. Прутцков Г. В. “История зарубежной журналистики”. – М.: Аспект пресс, 2011.
11. Вулф Т. “Wall Street Journal”.NY., 2002./ №22

Shoxida SADULLAYEVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Urganch filiali stajyor-o‘qituvchisi

DIPLOMATIK DISKURS VA UNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada diplomatik diskurs va uning xususiyatlari haqida so‘z boradi. Diplomatik nutqda eng asosiy jihat bu xabarning o‘zi, shu bilan birga xabar jo‘natuvchi va xabar qabul qiluvchi hisoblanadi. Diplomatik nutq boshqa xabarlardan o‘zining qat’iyligi, ma’lum bir qolipga solinganligi, ravshanligi shu bilan bir qatorda soddaligi bilan ajralib turadi. Maqola davomida diplomatik nutq turlari va ularning bir-biridan farqlari ham yoritib o‘tilgan. Diplomatik hujjatlar o‘z navbatida ichki va tashqi diplomatik hujjatlarga bo‘linadi. Bu hujjatlar qaysi maqsadda yozilayotganiga ko‘ra til va diplomatik me’yorlarga bo‘ysunadi. Diplomatik muloqotning muvaffaqiyati lingvistik shaxsning kognitiv, kommunikativ va lingvistik qobiliyatlari bilan belgilanadi. Diplomatik nutqni kommunikativ faoliyatning alohida shakli sifatida ko‘rish ham mumkin bo‘ladi. Diplomatik nutq uslubining asosiy xususiyatlaridan biri bu leksik va grammatik konstruksiyalarning shaxssizligi hisoblanadi. Umuman olib qaraganda, maqolada diplomatik diskurs turli xil nuqtayi nazarda yoritilgan va uning bir nechta farqlovchi xususiyatlari ham sanab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *diplomatik nutq, adresant, xabar qabul qiluvchi, diplomatiya, leksik xususiyatlar, diplomatik diskurs.*

Annotation: this article talks about diplomatik discourse and its features. In diplomatik speech, the most important aspect is the message itself, at the same time, the message sender and message receiver. Diplomatik speech is distinguished from other messages by its strictness, formality, clarity, as well as simplicity. In the article, the types of diplomatik speech and their differences are also highlighted. Diplomatik documents are divided into internal and external diplomatik documents. These documents are subject to language and diplomatik norms depending on the purpose for which they are being written. The success of diplomatik communication is determined by the cognitive, communicative and linguistic abilities of the linguistic person. It is also possible to see diplomatik speech as a separate form of communicative activity. One of the main features of the diplomatik speech style is impersonality of lexical and grammatical constructions.In general, the article covers the diplomatik discourse from different points of view and lists several of its distinguishing features.

Key words: *diplomatik speech, addressee, message recipient, diplomacy, lexical features, diplomatik discourse.*

Аннотация: в данной статье говорится о дипломатическом дискурсе и его особенностях. В дипломатической речи важнейшим аспектом является само сообщение, одновременно отправитель сообщения и получатель сообщения. Дипломатическая речь отличается от других сообщений своей строгостью, формальностью, ясностью, а также простотой. В статье также выделены виды дипломатической речи и их различия. Дипломатические документы делятся на внутренние и внешние дипломатические документы. На эти документы распространяются языковые и дипломатические нормы в зависимости от цели, для которой они написаны. Успех дипломатического общения определяется когнитивными, ком-

муникативными и языковыми способностями языковой личности. Дипломатическую речь также можно рассматривать как отдельную форму коммуникативной деятельности. Одной из основных особенностей дипломатического стиля речи является обезличенность лексических и грамматических конструкций. В целом в статье рассматривается дипломатический дискурс с разных точек зрения и перечисляются некоторые его отличительные особенности.

Ключевые слова: *дипломатическая речь, адресат, получатель сообщения, дипломатия, лексические особенности, дипломатический дискурс.*

Kirish. So‘nggi yillarda dunyoda integratsiya, globallashuv, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, siyosiy va ijtimoiy notinchlik bilan bog‘liq muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy hayotda tashqi va ichki aloqalar o‘rtasidagi chegaralarning intensiv eroziyasi mavjud. Bu davlatlar o‘rtasidagi munozaralarning kuchayishida bevosita aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy insoniyat beqarorlik va doimiy o‘zgarishlar sharoitida yashaydi.

Tadqiqot jarayonida diplomatiya sohasidagi diplomatik nutq masalalari, diplomatik yozishmalar uslub, leksikasi va semantikasi kabi masalalarda bir qator xorijlik va o‘zbek olimlari ish olib borganligi ma’lum bo‘ldi. Ular orasida diplomatik nutqning umumiy nazariyasi sohasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borib asarlar yaratgan A.A.Leontiyeva, V.Z.Demyankova, A.V.Zagorskiy, V.N.Krupnov kabi olimlarning qilgan xizmatlari e’tiborga molik hisoblanadi. Siyosiy va diplomatik nutqlarni o‘rganish va tadqiq etish borasida A.F.Borunkova, N. N. Kushnarenko, Y. V.Dubinin, V. I. Dolgova kabi tadqiqotchi olimlar sohaning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilgan.

O‘zbek olimlardan esa U.Tursunov, K.M.Musayev, N.A.Baskakov, N.K.Dmitriyev, F.S.Faseyev, B.U.Oruzbayeva, R.A.Urekenova, M.Sh.Gasimov va R. Doniyorov kabi bir qator zabardast olimlar diplomatik nutq, diplomatik nutq uslubiyati, leksikologiya, terminologiya, huquqiy atamalar va shu kabi bir qator masalalar yuzasidan ish olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid bir nechta ilmiy ishlar, maqolalar o‘rganilib, tegishlicha tahlil qilinib, qiyoslash va taqqoslash usullaridan atroflicha foydalanildi. O‘zbek va ingliz tilidagi diplomatik nutq hujjatlaridagi o‘xshashliklar va farqli jihatlar qiyoslandi, va ularning umumiy bo‘lgan jihatlarini aniqlash ustida ishlar olib borildi. Shu bilan bir qatorda tavsiflash va tasniflash metodlaridan mavzuni to‘liq ochib berish, o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun keng qamrovda foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Diplomatik nutqni diplomatiya ijtimoiy institutining kommunikativ makonida shakllangan barqaror munosabatlar tizimi deb hisoblash mumkin. Bu institutsional hodisa hisoblanadi. Bu institutsional munosabatning o‘zagini murojaat qiluvchi va qabul qiluvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa tashkil qiladi. Xabarning qabul qiluvchisi deganda, xabarni o‘qiydigan va dekodlovchilarni tushunish mumkin bo‘lsa, xabarning adresanti (yuboruvchisi) esa yozma xabarni yaratuvchi va jo‘natuvchi hisoblanadi.

Diplomatik diskurs jarayonida e’tiborga olishimiz kerak bir muhim jihat ham borki, bu mamlakatning tashqi siyosatini realizatsiya qilish jarayonida mamlakatning siyosiy jarayonida keng qamrovda ishtirok etuvchi qatlam vakillari yoki diplomatiya instituti vakillari jalb qilinadi. Ular diplomatik diskursda adresant ya’ni xabar jo‘natuvchisi rolida namoyon bo‘ladi. Diplomatiyaning xuddi shu instituti yoki boshqa institut vakillari, shuningdek umuman olganda jamiyat diplomatik diskursda xabar qabul qiluvchi hisoblanadi [1].

Diplomatiyada qat’iylik va ixchamlilik muhim hisoblanadi, bu o‘ziga xoslik shu jarayonda ishtirok etayotgan ishtirokchilarning yozish erkinligini ma’lum bir jihatdan qat’iy va muntazam ravishda kuzatishga majbur qiladi. Bu holatda diplomat o‘zini shaxs sifatida namoyon qila olmaydi, chunki diplomat diplomatik muassasa vakili hisoblanish bilan bir qatorda ma’lum maqomga ega hisoblanadi. Ayni shu jarayonda, uning o‘z shaxsiy fikri va shaxsiy xususiyatlari orqa fonga o‘tadi.

Hukumat bilan kelishmovchilik bo‘lsa, quyidagi prinsip qo‘llaniladi: «se soumettre ou se demettre» (topshirish yoki iste‘foga chiqish). Diplomatlar uchun "fikrning mustaqilligi intizomni buzish darajasiga yetmasligi kerak" [2].

Bundan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har qanday diplomatik hujjat davlat nuqtayi nazarini ifodalashi kerak. Yuboruvchi va qabul qiluvchining darajalari nisbati ma‘lum bir sxema bo‘yicha quriladi. Bu davlatlar va ularning vakillari o‘rtasida hurmat, tenglik va o‘zaro to‘g‘rilikka asoslangan munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi. Diplomatik vakillar ushbu qoidalarga diqqat bilan rioya qilishlari shart. Diplomatning ishi hujjatlar bilan chambarchas bog‘liq.

Ularni o‘qish, tayyorlash va formatlash kerak. Diplomatik hujjatlar boshqa davlat vakillariga yoki o‘z hukumatiga topshirish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Binobarin, diplomatik hujjatlarni ichki va tashqi hujjatlarga bo‘lish mumkin [1].

Davlatlar diplomatik hujjatlarining asosiy qismini idoralararo xususiyatga ega hujjatlar tashkil etadi. Alohida va, ehtimol, eng muhim kategoriya – bu

davlatlar o‘rtasidagi yozma rasmiy munosabatlarni yaratadigan va bir qator masalalar bo‘yicha o‘z pozitsiyalarini ifodalovchi hujjatlar. Bu hujjatlar “diplomatik tilda” yozilgan bo‘ladi. Nomidan ko‘rinib turibdiki, bu rasmiy diplomatik aloqalar o‘rnatiladigan va muzokaralar olib boriladigan tildir.

Diplomatik yozishmalar davlat tashqi siyosati va diplomatik faoliyatining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi, chunki u turli xil diplomatik hujjatlar va rasmiy yozishmalarning yig‘indisi bo‘lib, ular orqali davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar amalga oshiriladi. Diplomatik yozishmalar hujjatlari orasida quyidagi janrlarni ajratib ko‘rsatish odatiy holdir: shaxsiy nota, eslatma, memorandum, og‘zaki nota [3].

Fikrning so‘zga o‘tishi barcha individual holatlar bilan og‘zaki muloqotning o‘ziga xos holatiga parallel ravishda ya’ni kommunikativ aspektda sodir bo‘ladi. Bu muhokama predmeti bilan belgilanadigan kognitiv shakllanishlarning lingvistik tuzilmalariga o‘tishda ifodalanadi. Shunday qilib, yaxlit nutq ishi kognitiv, kommunikativ va lingvistik jihatlarni birlashtiradi. Birgalikda bu jihatlar "individual lingvistik shaxs ongida mavjud bo‘lgan so‘zning ichki dasturini aks ettiruvchi, uning asosidagi takliflar ierarxiyasini" ifodalaydi [4].

A.A Leontiyev ta'kidlaganidek: "Ushbu ierarxiya ma'ruzachi tomonidan vaziyatning u yoki bu tarkibiy qismining "kognitiv og‘irligi" ga qarab tasvirlangan vaziyatda ma'lum bir yo‘nalish strategiyasi asosida shakllantiriladi" [4]. Boshqacha qilib aytganda, muloqotning yagona mavzusining mavjudligi, shuningdek, bir maqsadning mavjudligi vaziyat-mavzuning psixologik tuzilishi tinglovchilar va ma'ruzachilar ongida ularning psixologik xususiyatlari bir xil bo‘lishini anglatmaydi. Diplomatik nutqning umumiy tuzilishida diplomatning lingvistik shaxsi alohida ajralib turadi. Barcha muloqotning muvaffaqiyati lingvistik shaxsning kognitiv, kommunikativ va lingvistik qobiliyatlari bilan belgilanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, diplomatik nutqni kommunikativ faoliyatning alohida shakli sifatida ko‘rish mumkin. Qabul qiluvchining o‘ziga xos xususiyatlari va shunga mos ravishda kontekstning o‘ziga xos xususiyatlari ya’ni keng ommaviy auditoriya yoki teng huquqli, tayyor va xabardor sherik muhim ahamiyatga egadir. Aynan mana shu fakt birgalikdagi muloqotning ijtimoiy modelini belgilab beradi. O‘zaro ta'sirning ijtimoiy modeli va nutq strategiyalarini tanlash, o‘zaro ta'sir kursi, belgilangan maqsadlarni amalga oshirish imkoniyati va til vositalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bevosita muloqotda ishtirok etuvchi til shaxslarining rivojlanish darajasiga bog‘liq [4].

Ommaviy xalqaro aloqalarning kengayishi, ish yuritish tizimlarining birlashtirilishi, iqtisodiy faoliyatning xalqarolashuvi, shuningdek, axborot uzatishning yangi turlarini (Internet, Faks, SMS, MMS, iCloud) yaratish ishbilarmonlik muloqotining yangi shakllari va ishbilarmonlik nutqi hajmining sezilarli darajada oshishi sifat jihatidan yuqori darajada bo‘lgan muloqot paydo bo‘lishining sabablari hisoblanadi [5].

Rasmiy diplomatik uslubning quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) nutqning yuqori tartibga solinishi (ifoda vositalarining ma'lum bir zaxirasi va ularni qurish usullari);

2) leksik konstruksiyalarning shaxssizligi;

3) rasmiyatchilik (taqdimotning qat'iyligi, so‘zlar odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma'noda ishlatiladi, obrazlilik, qoida tariqasida, juda kam yoki umuman).

Ushbu tuzilmani ko‘rib chiqishda ikkita kichik uslubni ajratib ko‘rsatish mumkin: rasmiy-hujjatlar (diplomatiya tili va qonunlar tili) va kundalik ish (rasmiy yozishmalar, ish qog‘ozlari) [6].

Umumiy tushunchalar va tez-tez takrorlanadigan holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ish yuritish shtamplaridan, takrorlanadigan leksik va frazeologik birliklardan foydalanish ham xarakterlidir (as discussed, taking into an account, it has been issued, to submit, within reporting period, muhokama qilinganidek, hisobga olingan holda, u hisobot davrida taqdim etiladi va hokazo). Ish yozishmalari mazmunning ma'lum me'yorlarini (with regard to, due to, in connection with, bo‘yicha, munosabati bilan, bog‘liqligi va boshqalar) va otlar, ya'ni odamlarning ismlari, ya'ni biron bir munosabat yoki harakat (supervisor, manufacturer, consumer, designer, nazoratchi, ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, dizayner va boshqalar) ni ifodalovchi murakkab denominativ predloglar bilan to‘la [6].

Ingliz tilida inversiya rasmiy uslubga ham xosdir. Ko‘pincha qiyosiy va shart ergash gaplardagi harakat fe'llarining cheklangan soni bilan bu hodisa sodir bo‘ladi. Bundan tashqari, inversiya qo‘shimchalarni, ayniqsa inkorlarni ajratish uchun ishlatilishi mumkin. Bunday gaplarda qo‘shma fe’l predikatining qismlari teskari tartibda bo‘ladi. Inversiyali sodda gaplarda predmet shartli ravishda ot bilan ifodalanadi. Masalan:

Should we receive the payment on time, we would definitely meet the deadline of consignment delivery – Agar biz to‘lovni o‘z vaqtida olsak, biz konsignatsiyani yetkazib berish muddatini albatta bajargan bo‘lardik.

Bir qator infinitiv konstruksiyalarning tarjimasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunga quyidagilar kiradi: is thought to – o‘ylangan, is reported to – xabar qilingan, is believed to – ishonilgan, is expected – kutilgan, is alleged to – taxmin qilingan, is considered to – deb hisoblangan.

Shularni hisobga olgan holda bu hujjatlarni diqqat

bilan bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda ingliz tili texnologiya, fan va biznes tiliga aylandi. Va eng muhimi, bu til xalqaro darajadagi muloqotda qo‘llaniladi. Tarjimon diplomatik hujjatini o‘zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o‘zbek tiliga qanday qilib to‘g‘ri va aniq tarjima qilishni bilishi kerak, shunda uning aybi bilan diplomatik vakillar o‘rtasida tarjima qilingan ma'lumotni tushunmovchilik va noto‘g‘ri qabul qilish bo‘lmaydi. Diplomatiyada yaxshi natijalarga erishish uchun siz nafaqat umumiy ingliz tilini, balki maxsus ingliz tilini ham bilishingiz kerak [7].

Chet tilidagi har qanday matn tilshunoslik fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi, diplomatik yozishmalar, ulardagi ishlatilgan leksikaning uslubiy xususiyatlari va semantik xususiyatlari diplomatik munosabatlarni olib borishda, muammo va qiyinchiliklarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holda, tilshunoslar va diplomatlar o‘zaro aloqaga kirishadi. Shu o‘rinda 2 tildagi diplomatik hujjatlarning bir tildan boshqa tilga tarjima qilinishi, ya’ni to‘g‘ri va o‘rinli tarjima ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zilar diplomatik yozishmalar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari va nozik tomonlarini bilishlari shart emas, boshqalari esa tilshunoslikning nozik va murakkab tomonlarini bilishlari shart emas deb hisoblashadi [8].

Xulosa va takliflar. Diplomatik nutq hozirgi davrda muhim ahamiyat qaratib kelinayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning zamonaviy tendensiyalari diplomatik ish yuritishning keyingi rivojlanishi masalasini yangi bosqichga qo‘ydi. Diplomatik yozishmalar va hujjatlar rasmiy-ishbilarmonlik uslubida tuzlishiga qaramasdan, rasmiy-ishbilarmonlik uslubiga kiruvchi qator hujjatlardan farq qiluvchi xususiyatlarga egaki, bu jihatlar grammatika, leksika va semantik jihatlarda yorqin namoyon bo‘ladi.

Diplomatik ish yuritish lug‘atining o‘ziga xos xususiyatlari taqdimot ohangining betarafligi, diplomatik terminologiya va xalqaro huquq terminologiyasi bilan yuqori darajada to‘yinganligi, shuningdek standartlashtirilgan nutq aylanmalaridan iborat ekanligida ko‘rinadi. Diplomatik ish yuritish leksikasi tarkibiga diplomatik hujjatning o‘ziga xos tondaligini yaratadigan iltifotli lug‘at (diplomatik xushmuomalalikning protokol rasmiy formulalari) kiritilganligi bilan uning o‘ziga xos jihati ifodalab beriladi. Ma'lumki, hujjat matnini yaratish zarurati aloqa ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Демьянков, В.З. Политический дискурс как предмет политологической филологии Политическая наука. Политический дискурс: История и современные исследования [Текст] / В. З. Демьянков. – М.: ИНИОН РАН, 2002. – 190 с
2. Камбон Ж. Дипломат. М., 1945
3. Торкунова Т.В. Как писать сочинение. Изд 4. 2002. – 220 с.
4. Леонтьев, А.А. Основы психолингвистики [Текст] / А. А. Леонтьев. – М.: Смысл, 2003. – 114 с.
5. Исмагилова Л.Р. Лексические особенности перевода деловой корреспонденции (на материалах деловых писем на английском языке экономической направленности) // Вестник ЧГУ. Серия: Филология. Искусствоведение. 2012. – №21 – С. 57-60.
6. Загорский, А. В. Теория и методология анализа международных переговоров / А. В. Загорский. – М.: 1999. –255 с.
7. Астаханов Е. М. Дипломатическое сопровождение национального бизнеса / Е. М. Астахов. – М., 2010. – 100 с.
8. Долгов, В.И., Лебедева, О.В. Консульская служба Российской Федерации на современном этапе [Текст] / В. И. Долгов, О. В. Лебедева. – М.: МГИМО, 2011. – 189 с.
9. Вебер Е.А. Опыт лингвистического исследования когнитивного диссонанса в английском дипломатическом дискурсе: Диссертация кандидат филологических наук: 10.02.04 [Текст] / Е.А. Вебер. - Иркутск, 2004. - 213 с
10. Кожетева А.С. Языковая объективация адресанта и адресата в дипломатическом дискурсе // [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.teoria-practica.ru/-1-2012/philology/kozheteva.pdf
11. Harold Nicolson, Diplomacy, London 1938
12. Викулова Л.Г. Основы теории коммуникации: практикум / Л.Г. Викулова, А.И. Шарунов. М., 2008.

Ma’rufxon KOMILOV,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Qurollanish va otish kafedrasi katta o‘qituvchisi,
dotsent, podpolkovnik

PAST CHASTOTALI INFRATOVUSH TO‘LQINLARIDAN QUROL SIFATIDA FOYDALANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada harbiy qismlarning jangovar shayligini oshirish maqsadida harbiy xizmatchilar maxsus jangovar topshiriqlarni bajarishlarida foydalanadigan zamonaviy texnik vositalardan foydalanish bo‘yicha texnik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *qurollar, mahalliy to‘qnashuvlar, infratovush to‘lqinlari, chastota, tovush to‘lqini, dengiz ovozi.*

Аннотация: в данной статье раскрываются технические возможности современных технических средств экипировки, которые военнослужащие применяют в ходе выполнения специальных боевых задачах в целях повышения боевых возможностей воинского подразделения.

Ключевые слова: оружие, локальные конфликты, инфразвуковые волны, частота, звуковая волна, голос моря.

Annotation: this article reveals the technical capabilities of modern technical facilities of equipment that military personnel use in the course of performing special combat missions in order to increase the combat capabilities of a military unit.

Key words: *weapons, local conflicts, infrasound waves, frequency, sound wave, voice of the sea.*

Akustik qurollarning yaratilish tarixi

Quloqqa eshitilmaydigan o‘ta past chastotali tebranishlar – infratovush va o‘ta yuqori – ultratovush odamlar uchun xavfli bo‘lishi Ikkinchi jahon urushidan ancha vaqt ilgari ma’lum bo‘lgan. Germaniyalik olimlar urush davrida qo‘lga olingan mahbuslarga nisbatan ultratovush va infratovush ta’sirini sinovdan o‘tkazgan. Ular birinchi bo‘lib infratovush orqali insonlarni samarali ravishda safdan chiqarish holatiga tushirishini aniqladilar: eksperimental subyektlarda bosh aylanishi, qorin og‘rig‘i, diareya, qusish va nafas olish qiyinlashuvi kuzatilgan. Odamlarning xatti-harakati ham keskin buzilgan: ongsiz qo‘rquv vahima paydo bo‘lgan, odamlar aqldan ozishgan, shuningdek, ular o‘z joniga qasd qilishga urinishgan.

Biroq, yashirincha dala maydonida o‘tkazilgan tajribalarni sinov maydonchalarida o‘tkazish bo‘yicha barcha urinishlar muvaffaqiyatsiz tugagan: infrasonik to‘lqinlarni ma’lum bir yo‘nalishda tarqatishning iloji bo‘lmagan, faqat yo‘naltirilgan odamlarga nisbatan ta’sir qilgan. Sababi generator juda katta bo‘lib uning samarali zarba berish masofasi kichik edi. Shundan keyin harbiy olimlar oddiy pulemyot ancha yaxshi ishlaydi degan xulosaga kelishgan.

2007-yil 7-noyabrda Tbilisidagi mitingni tarqatish uchun Gruziya hukumati psixotronik qurollardan – odamlarda vahima va ruhiy kasalliklarni keltirib chiqaradigan amerika akustik generatordan foydalangan. Generatorlar politsiya jiplariga o‘rnatilgan va yuqori ovozda hushtak chiqaradigan harakatlanuvchi stendda olti burchakli qalqon bo‘lgan. Namoyishchilar tomoniga yo‘naltirilgan bu qalqonlardan chiqqan tovushlar ularning qochishlariga sabab bo‘ldi.

Isroillik namoyishchilarga qarshi ham ovozli qurollar ishlatilgan. Armiya manbalari va guvohlarning so‘zlariga ko‘ra, 2008-yil 3-iyunda Falastinning Bilin qishlog‘i (Ramallah – Yahudiya) hududida namoyishchilarni tarqatish maqsadida birinchi marta yangi noyob texnologiyadan foydalanilgan. Isroillik olimlarning xatti-harakatlari natijasida yangi og‘riqli infratovush to‘lqinlarini chiqaradigan akustik tizim yaratilgan. Isroil rasmiylari namoyishchilarni tarqatish uchun yangi taktika qo‘llanganini tasdiqladi. Maxsus chastotali infratovush chiqaruvchi to‘lqinlardan har qanday tajovuzkor olomonni tarqatishda foydalanish mumkin.

Past chastotali infratovush to‘lqinli Ideal qurol

Odamni o‘ldirishning turli usullari mavjud. Shafqatsiz gangster usullari mavjud va elita usullari ham bor, gangster usuli siyosiy janjallarga ko‘ra mos kelmaydi. Bunday maqsadlarda uzoq vaqt oldin odamlar hayotiga kirgan psixotrop qurollar qo‘llaniladi. Faqat bu sir saqlangan. Internet va OAV ma’lumotlarining hayotimizga kirib kelishi bilan psixotrop qurollar haqidagi ma’lumotlar tarqaldi. Hozirgi kunda bu qurol “Nomaqbul” siyosatchilar va boshqa qonunbuzar shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

1959-yilda Britaniya hukumati fizik olim Robert Vud boshchiligida inson organlari niqobi ostida eshitilmaydigan “Nota” chiqaruvchi past chastotali trubkali qurilma yaratgan. Qurilmadan foydalanish maqsadida aholi yashash joyida sinovdan o‘tkazilgan. Qurilmani sinovdan o‘tkazish vaqtida qo‘shni uylarda yashovchi odamlar vahima ichida ko‘chaga otilib chiqqan. Keyinchalik infratovushlarni telefon orqali uzatish mumkin bo‘lgan. Ya’ni, sizga qo‘ng‘iroq qilinadi. Siz unga javoban "Allo" deya javob berasiz! Va bunga javoban sukunat hukm suradi. So‘ngra past chastotali infratovushli to‘lqin insonning eshitish organiga ta’sir

qila boshlaydi va vahimaga tushish holati bo‘lgan.

Inson qulog‘i 16 dan 20 000 gersgacha bo‘lgan chastotani ajrata oladi. Bu chegaradan pastda infratovush mavjud. Yuqorida esa ultratovush. Quloq pastroq va balandroq eshita olmaydi. Ammo odam bu tovushlarning ta’sir doirasi ichida 7 dan 13 gertsgacha bo‘lgan chastotada – tayfunlar, zilzilalar va vulqon otilishi natijasida paydo bo‘ladigan qo‘rquvning tabiiy to‘lqinini his qila oladi.

Odatda, bu turdagi psixotrop qurollar 4 xil chastotaga moslashtiriladi. Miyaga, yurakka, jigarga, taloqqa. Agarda insonning asosiy organlari ochiq holda bo‘lsa, darhol o‘lim paydo bo‘lishi mumkin. Bu infratovush tanaga xavfli ta’sir ko‘rsatadi va inson qulog‘iga eshitilmaydi. Infratovush chastotasi 2 dan 20 gersgacha ishlaydi. Insonning ichki organlari bir xil diapazonda o‘zgarib turadi. Chastotalar mos kelganda rezonans paydo bo‘ladi. Bu yurak kasalliklariga, chidab bo‘lmas bosh og‘rig‘iga va gallyutsinatsiyalarga olib kelishi mumkin. Agar hujayra atomlarining tebranish chastotasiga mos kelsa, inson qulab tushadi. Dunyoda akustik qurollar uzoq vaqtdan beri qo‘llanilgan. AQSh harbiylari Yaqin Sharqdagi urushlar vaqtida turli xil tajribalar o‘tkazmoqda. Qurollar yashirincha past chastotali tovush to‘lqinlarida ishlaydi. Ultratovush tanaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Insonning asab tizimida, yurak-qon tomir, endokrin va vegetativ tizimlarida ma’lum o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Bu qotillik. Qayerda va kim tomonidan zarba berilganini aniqlashning iloji yo‘q. Uchuvchi golland haqidagi barcha ma’lumotlar – bu yashirin sinovlar uchun bir afsona. Jamoalar tanaga chidab bo‘lmaydigan, hayotga mos kelmaydigan tovushlardan o‘zlarini dengizga tashladilar. Ko‘p yillardan buyon sodda fikrli kitobxonlar qulog‘iga quyib kelayotgan tasavvuf yo‘q. Kemalarning dengiz bo‘ylab yurishi faqat to‘lqinlar tomonidan boshqariladi. Infratovushning kuchli oqimlari odamlarda to‘satdan ta’sir etish natijasida jinnilikni keltirib chiqaradi, odamlarda vahima, qo‘rquv, chidab bo‘lmas dahshat, vahshiylik, namoyishlar vaqtida, futbol stadionlarida tajovuzkorlik holatini keltirib chiqaradi. Bu aqldan ozgan odamlar emas balki ularga akustik qurollar orqali ta’sir o‘tkazilgan.

Hozirgi kunda ovozli zarba berish uchun infratovushli to‘lqin uzatuvchi qurollarni ishlab chiqish davom etmoqda. Hatto past intensivlikdagi infratovushli tebranishlar ko‘ngil aynishi va quloqlarda turli xil ovozlarnig jiringlashiga olib keladi va ko‘rish keskinligini pasaytiradi.

O‘rtacha intensivlikdagi tebranishlar oshqozon faoliyatining buzilishi va miya disfunksiyasini kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Rezonansga olib keladigan yuqori intensiv infratovush deyarli barcha ichki organlarning ishini buzishga olib keladi va yurak to‘xtashi yoki qon tomirlarining yorilishi tufayli insonlarda o‘lim oqibati bo‘lishi mumkin. Quyidagi chastotalarda tovush tebranishlarining paydo bo‘lishiga qarshi maxsus himoya choralarini ko‘rish kerak:

20-30 Gts (bosh rezonansi) 40-100 Gts (ko‘z rezonansi)

0,5-13 Gts (vestibulyar apparatning rezonansi)

4-6 Gts (yurak rezonansi) 2 - 3 Gts (oshqozon rezonansi)

2-4 Gts (ichak rezonansi) 6 - 8 Gts (buyrak rezonansi)

2-5 Gts (qo‘l rezonansi)

Infratovush (lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, infra — ostida) – tovush to‘lqinlariga o‘xshash elastik to‘lqinlar lekin chastotalar odamlar uchun eshitiladigan chastotalar diapazonidan past. Odatda, 16-25 Gts chastotalar infratovush mintaqasining yuqori chegarasi sifatida qabul qilinadi. Infratovush diapazonining pastki chegarasi aniqlanmagan. Infratovushning o‘ndan va hatto yuzdan bir qismidagi tebranishlar amaliy qiziqish uyg‘otishi mumkin, ya’ni o‘nlab soniyali davrlar orqali. Infratovush atmosfera, o‘rmon va dengiz shovqinlarida mavjud bo‘ladi. Infratovushli tebranishlarning manbai chaqmoq oqimlari (momaqaldiroq), shuningdek, portlashlar va o‘q otilishi hisoblanadi.

Infratovush turli muhitlarda past yutilish bilan tavsiflanadi, buning natijasida havo, suv va yer qobig‘idagi infratovush to‘lqinlari juda uzoq masofalarga tarqalishi mumkin. Bu hodisa katta portlashlarning joylashishini yoki o‘q otish qurolining holatini aniqlashda amaliy qo‘llanmalarga ega. Infratovushning dengizda uzoq masofalarga tarqalishi tabiiy ofat – sunamini aniqlash imkonini beradi. Ko‘p sonli infratovushli chastotalarni o‘z ichiga olgan portlash tovushlari atmosferaning yuqori qatlamlarini va suv muhitining xususiyatlarini o‘rganish uchun ishlatiladi.

“Dengiz ovozi” – bu to‘lqin tepalari orqasida girdob hosil bo‘lishi natijasida kuchli shamollar paytida dengiz sathidan yuqorida paydo bo‘ladigan infratovush to‘lqinlardir. Infratovush past chastotali singishi bilan ajralib turadi va u uzoq masofalarga tarqalishi mumkin hamda uning tarqalish tezligi bo‘ron zonasining harakat tezligidan sezilarli darajada oshib ketganligi sababli oldindan “Dengiz ovozi” bo‘ronini bashorat qilish uchun xizmat qilishi mumkin.

Meduzalar bo‘ronning o‘ziga xos ko‘rsatkichidir. Meduzaning “qo‘ng‘iroqchalari” chetida ipsimon ko‘zlar va muvozanat saqlovchi organlari hamda kichik eshitish konuslari mavjud. Bu meduzaning “quloqlari” hisoblanadi. Ular 8-13 gers chastotali infratovushlarni eshitadi. Bo‘ron hali ham qirg‘oqdan yuzlab kilometr uzoqlikda davom etmoqda, u bu joylarga taxminan 20 soat ichida etib boradi va meduzalar buni eshitib, chuqurlikka kirib ketishadi.

Infratovushning inson tanasiga ta’sirini 60-yillarning oxirida fransuz tadqiqotchisi Gavro ma’lum

chastotalarning infratovushlari odamlarda tashvish va bezovtalikni keltirib chiqarishi mumkinligini aniqladi. 7 Gts chastotali infratovush odamlar uchun xavfli va u o‘lim holatiga ham olib kelishi mumkin.

Infratovushlti to‘lqinlarning asosiy manbalari

1-jadval

Infratovush manbai	Infratovushning xarakterli chastota diapazoni	Infratovush darajalari
Avtomobil transporti	Butun infratovush diapazoni chastotasi	Tashqi 70 dan 90 dB gacha, ichki 120 dB gacha
Temir yo‘l transporti va tramvaylar	10-16 Gs	Ichki va tashqi 85 dan 120 dB gacha
Aerodinamik va zarba ta’sirining sanoat qurilmalari	8-12 Gs	90 dan 105 dB gacha
Sanoat inshoatlari va binolarni ventilyatsiya qilish, metroda ham huddi shunday	3-20 Gs	75 dan 95 dB gacha
Reaktiv samoletlar	O‘rtacha 20 Gs	Tashqi 130 dB gacha

Xulosa.

Uzoq vaqt davomida shovqin odatda texnologiya rivojlanishi va texnologiya muvaffaqiyatining ajralmas sherigi hisoblangan. Bu hodisa tirik organizmlar faoliyati uchun xavfli bo‘lishini kam odam kutgan edi, ayniqsa odamlar eshitish qobiliyatining ma’lum darajada moslashuviga ega bo‘lib, ular eshitish qobiliyatini yo‘qotishdan va tanadagi boshqa patologik jarayonlardan himoya qilmaydi.

Bugungi kunda past chastotali infratovush to‘lqinlaridan harbiy xizmatchilar maxsus tadbirlar vaqtida ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish, tinch aholi o‘rtasida tartibni saqlash, maxsus operatsiyalarni o‘tkazishda hududda qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida foydalanishlari mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu sohani o‘rganishni dolzarb deb hisoblayman.

Foydalanilgan manbalar

1. Орлов А. А., Янковская Е. А., Белов П. А., Жуковский С. В. Извлечение материальных параметров плазмонногомультислоя из коэффициентов отражения и прохождения. // Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики – М.: Университет ИТМО, 2014. – 1, 2 выпуск 189 с.
2. Слюсарь В. Метаматериалы в антенной технике: история и основные принципы. // Электроника: наука, технология, бизнес. — 2009. № 7. С. 70-79.
3. Слюсарь В. Метаматериалы в антенной технике: история и основные принципы. – Первая миля. LastMile // Приложение к журналу «Электроника: Наука, Технология, Бизнес». — 2010. № 3-4. С. 44–60.
4. Слюсарь В. Человек-невидимка? Проще простого! // Конструктор. — 2002. — № 11.

Guli SHUKUROVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti v.b. (PhD)
e-mail: guli_k_h@mail.ru;
Joziba IDRISXONOVA,
O‘zJOKU magistri

HAYOT BILAN HAMNAFAS PUBLITSISTIKA
(Ozod Sharafiddinovning adabiy-tahliliy maqolalari asosida)

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning “Hayot bilan hamnafas” kitobidagi adabiy-tahliliy mavzuda yozilgan maqolalari tadqiq qilinadi. Shuningdek, adibning tarix va zamon ziddiyatlari, til, huquq, imon, e’tiqod, sadoqat, axloq, inson qadri kabi davrning eng dolzarb masalalariga munosabati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *badiiy publitsistika, adabiy tanqid, uslub, adabiy o‘ylar, portret.*

Аннотация: в данной статье будут рассмотрены статьи героя Узбекистана, Озода Шарафиддинова в книге “В ногу с жизнью” на литературно-аналитическую тему. Также было проанализировано отношение писателя к наиболее актуальным вопросам того периода, таким как история и современные конфликты, язык, право, вера, преданность, мораль, человеческое достоинство.

Ключевые слова: *художественная публицистика, литературная критика, стиль, литературные мысли, портрет.*

Annotation: this article will review the articles of the hero of Uzbekistan, Ozod Sharafiddinov in the book “Keeping up with life” on a literary and analytical topic. The author's attitude to the most pressing issues of this period, such as history and modern conflicts, language, law, faith, devotion, morality, and human dignity, was also analyzed.

Keywords: *artistic journalism, literary criticism, style, literary thoughts, portrait.*

Publitsistika – hayotni tasvirlashning alohida usuli, ijod turidir. U jamiyat hayotida, ayni paytda bo‘lib o‘tgan va o‘tayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik voqea-hodisalarni aks ettirib ommaga yetkazadi, davrning eng dolzarb masalalariga munosabat bildiradi, yechilishi lozim bo‘lgan muammolarni ko‘tarib chiqadi va ayni zamon kishilari manfaatlariga xizmat qiladi.

Taniqli publitsist olim, jurnalist Ahmadjon Meliboyev “Badiiy publitsistikada davr ruhi” maqolasida publitsistika ijtimoiy hayot haqida xabar berishi, uni tahlil qilishi, voqea-hodisalarni jonli, ta’sirchan tasvirlashi haqida shunday deydi: “Publitsistika, ayniqsa, yozuvchi publitsistikasini bir kishining, konkret bir ijodkorning kuyunchakligi, ijodiy faolligi bilan birga jamiyatning fikrlovchi, mushohada yurituvchi ilg‘or qatlami vakillarining umumlashma fikri, munosabati ham deb tushunmoq zarur”[1].

Shu ma’noda Ozod Sharafiddinov badiiy publitsistikasi ham “hamisha davrning, jamiyatning o‘ta muhim, goho ziddiyatli, yechimi topilmagan, murosa qilish mumkin bo‘lmagan muammolaridan bahs ochadi”[2] Zero, ayni mana shu jihatlar Ozod Sharafiddinov uslubining o‘ziga xos qirralaridir: “Uslub – o‘zlik. Uslub – xarakterning botiniy suvrati. Uslub qaysidir ma’noda taqdir. Mashhur kishilarning ilk ilmiy-ijodiy qadamlari bilan oxirgi qadamlari, izlariaro uzviy birlik, bog‘liqlik bo‘ladi. Izzat Sultonov, masalan, 30-yillardayoq adabiyot nazariyotchisi sifatida tanilgan edi. Umrining oxirigacha olim nazariya muammolari bilan shug‘ullandi. Ozod Sharafiddinov ilk kitobidayoq qalb, poeziya masalasini ko‘targan edi. Olimning barcha asarlari, maqolalarida qalb bilan bog‘liq muammolar asos qilib olinadi”[3]. Darhaqiqat, adibning “Hayot bilan hamnafas” kitobida adabiy-tahliliy mavzuda yozilgan “Ulkan san'atkor, oliyjanob inson” (Oybek ijodi haqida), “Chaqmoqdek chaqnagan she'riyat” (Hamid Olimjon haqida), “Elga manzur adib edi” (Abdulla Qahhor haqida), Umrlar bo‘ladiki... (Maqsud Shayxzoda haqida), “Yurtin madhi bo‘ldi so‘nggi satri ham”, (Mirtemir haqida), “Haqiqatning mushkul yo‘llari”, (Asqad Muxtor haqida) “Izzatga munosib otaxon ijodkor” (Izzat Sulton haqida), Insonlarga bo‘lib hamnafas (Shukrullo haqida), Haqqush hikmatlari (Omon Matjon haqida) kabi maqolalarida yurt, millat, xalq taqdiri, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayot, tarix va zamon ziddiyatlari, til, huquq, imon, e’tiqod, sadoqat, axloq, inson qadri kabi masalalar qalb iztirobi aks etgan hayotiy misollar va teran ilmiy mushohadalar asnosida tahlil qilinadi, adabiy-tanqidiy munosabatlari xolisona aks etadi. Ta’kidlash joizki, “Adabiy tanqidning yana bir xususiyati – uning publitsistika bilan chambarchas aloqadorligi. Adabiy jarayon hodisalarini va adiblarning ayrim asarlarini tahlil etib, ularning qimmatini keng ommaga tushuntirib berishga va ommaning estetik didini tarbiyalashga mo‘ljallangan tanqid o‘z o‘quvchisiga vaqtli matbuot orqali murojaat etadi. Xalq va uning adabiyoti tarixida boshlanayotgan yangi davrlarda bu xususiyat, ayniqsa, bo‘rtib ko‘rinadi.

Yangi uyg‘onish davri hisoblangan XX asr tongidagi o‘zbek jadid tanqidchiligi, Istiqlol arafalari hamda Mustaqillikning dastlabki yillaridagi o‘zbek tanqidchiligi tarixi buning yorqin dalilidir... Adabiy tanqidning o‘ziga xos ijod turi, fan sohasi ekanligini ulkan adib va tanqidchilarning yaratgan qator asarlari isbotlab turibdi. Bunga Alisher Navoiy, Fitrat, A.Qodiriy, Oybek, P.Qodirov, O. Sharafiddinov, M.Qo‘shjonov ijodlari yetarli darajada misol bo‘la oladi”[4].

Adabiyotshunos olima Shoira Ahmedovaning adabiy tanqidchilik haqida akademik qarashlari tahlil obyektimizdagi “Hayot bilan hamnafas” kitobini o‘rganishda o‘zining amaliy isbotini topdi. Mazkur “Hayot bilan hamnafas” kitobidan o‘rin olgan adabiy portretlarda Ozod Sharafiddinov hayoti davomida o‘zi munosabatga kirishgan, ko‘rgan va eshitgan, bilgan atoqli davlat rahbarlari, jamoat arboblari, olimlar, yozuvchi va shoirlar haqida yozgan xotiralari tahlilga tortiladi. Bu yodnomalarda adib qalamga olgan shaxslarning insoniy qiyofalarini, shaxsiyati va dunyoqarashini, rahbarlik va olimlik salohiyatini, ijodkorlik iste’dodini bevosita o‘ziga yoki faoliyatiga aloqador jihatlar bilan bog‘lab bayon etadi.

Jumladan, Maqsud Shayxzoda haqida yozilgan “Umrlar bo‘ladiki” esse-xotirasida sho‘ro davri mafkurasi tufayli adib taklif qilgan milliy-ma’naviy meros “Qomusi Sharqiyani yaratish taklifi shunchaki armon bo‘lib qolganini quyidagicha ifodalaydi: “Shayxzoda fozilligi tufayli ko‘pincha juda o‘rinli takliflarni o‘rtaga tashlar, fikrimizni boyitadigan mulohazalarni aytardi. Toshkentda bo‘lgan katta yig‘inlardan birida Shayxzoda Sharqning o‘tmishi, madaniyati, insoniyat tarixidagi o‘rni haqida gapirib Sharq ensiklopediyasi — “Qomusi Sharqiya”ni tayyorlash va nashr etish g‘oyasini o‘rtaga tashladi. Bu taklif qarsaklar bilan qarshi olingani yaxshi esimda. Ammo, afsuski, hali ro‘yobga chiqqanicha yo‘q”[5].

“Haqiqatning mushkul yo‘llari” maqolasida Ozod Sharafiddinov Asqad Muxtor ijodi haqida, ayniqsa, “Buxoroning jin ko‘chalari” qissasi haqida o‘zining teran ilmiy kuzatishlarini bayon qilish asnosida bevosita Fayzulla Xo‘jayev obrazi, jadidlar harakati haqidagi ijtimoiy qarashlarini quyidagicha ifodalaydi: “Asqad Muxtor qissada Buxorodagi jadidchilik harakatining murakkab xarakterini juda yaxshi ochib bergan. Bu harakatning yagona siyosiy programmasi yo‘q edi. Uning sostavida esa har xil ijtimoiy tabaqa vakillari bo‘lib, ba’zilari o‘ta o‘ng mavqelarda tursa, boshqa birlari so‘l qarashlarni olg‘a surardi. Nima bo‘lganda ham, jadidlar davrning asosiy ijtimoiy ziddiyatlarini ko‘ra olmadilar. Ular Buxoroda amirlik tuzumining negizini yo‘qotmagan holda, uni bir oz pardozlab, epaqaga keltirish payida edilar. Asqad Muxtor Mirzo Muhiddin, Mulla Ahad, Hoji Siroj, Vafo Mahzum, Porsoxo‘ja kabi obrazlar orqali jadidchilik harakatining olaquroq xarakterini ifodalagan. Bularning ba’zilari gazetalar tashkil qilib, kutubxonalar ochib, ma’lum darajada bo‘lsa-da, foydali ishlar qilishga intilganlar. Lekin Porsoxo‘jaga o‘xshaganlar istilohi madoris, sharhi hoshiyalar haqida gap sotishdan nariga o‘tmaganlar. Avvaliga ularning ma’rifat haqidagi gap-so‘zlari Fayzullaga haqiqatan ham najot yo‘lidek ko‘rinadi. Razolatning ayni zidi ma’rifat yo‘lidir deb o‘ylaydi u va kuch-g‘ayratini shu yo‘lga sarflay boshlaydi”[6].

Umuman, adibning “Hayot bilan hamnafas” to‘plamidan o‘rin olgan deyarli barcha adabiy o‘ylar va badiiy-publitsistik yo‘nalishdagi maqolalarida muayyan adib faoliyati hayotiy chizgilar asosida yoritiladi. Shuningdek, XX asr sho‘ro davri adabiyotining siyosiy-mafkuraviy bosimiga qaramasdan adabiyot, san’atning asl qonuniyatlari asosida yaratilgan eng yaxshi asarlar, badiiy yutuqlar Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Shuhrat, Shukrullo, Omon Matjon ijodi misolida tahlil qilinadi, davr manzarasi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar hayotiy dalillar asosida ifoda qilinadi. Zero, professor Saydi Umirov ta’kidlaganidek: “Ozod Sharafiddinovning yozma va og‘zaki uslubiga xos xususiyat – fazilatlardan biri rost gapni dadil va dalilli aytishi edi”[7].

Darhaqiqat, munaqqid “Hayot bilan hamnafas” to‘plamidagi deyarli barcha maqolalarida davr silsilasiga xolis baho berib, har qanday tazyiqlarga qaramasdan, adabiyot o‘z vazifasini tamomila unutmagani, hukmron mafkuraning cheklovlari ostida bo‘lsada, Oybek, Shayxzoda, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodi, ular yaratgan asarlar har qanday davr avlodi ibrat oladigan ijod maktabi bo‘lishini, zulm va ta’qiqlar ichidan quyosh yanglig‘ porlab chiqqanligini rad etilmas mushohadalari orqali tahlil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meliboyev A. Badiiy publitsistikada davr ruhi // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2011. №4. 17-25-betlar.
2. Ahmadjon Meliboyev. Badiiy publitsistikada davr ruhi (2011) (ziyouz.com)
3. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: ФАН, 2016. – Б. 201.
4. Аҳмедова Ш. Адабий танқид жанрлари ва тараққиёти. – Т.: ФАН, 2016. – Б. 7-9.
5. Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Т.: “Ўзбекистон”, 1983. – Б. 46.
6. Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Т.: “Ўзбекистон”, 1983. – Б. 102-103.
7. Умиров С. Дорилфунунлар тақдиримда. – Т.: “Шарқ”, 2008. – Б. 31.

Yulduz ESHMATOVA,
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
O‘zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, PhD
munis_76@mail.ru

IJODKOR KONSEPSIYASIDA – AYOL OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqola M.Osimning “To‘maris” qissasi haqida yozilgan. Maqolada ayol obrazini yaratishda milliy mental xususiyatlar alohida o‘rin egallashi yoritilgan. Badiiy adabiyot falsafiy-ruhiy bo‘shliqni to‘ldiruvchi yagona estetik jarayon ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: *badiiy, tarixiy, qissa, syujet, to‘qima, konsepsiya, psixoanalitik, kuzatish, ayol obrazi, tahlillar*

Аннотация. статья написана по рассказу М. Асима «Томарис». В статье подчеркивается значение национальных ментальных особенностей в создании образа женщины. Анализируется, что художественная литература является единственным эстетическим процессом, заполняющим философско-духовный пробел.

Ключевые слова: *художественный, исторический, рассказ, сюжет, фактура, концепция, психоаналитик, наблюдение, женский образ, анализ*

Annotation: the article was written based on the story “Tomaris” by M. Asim. The article emphasizes the importance of national mental characteristics in creating the image of a woman. It is analyzed that fiction is the only aesthetic process that fills the philosophical and spiritual gap.

Key words: *artistic, historical, story, plot, texture, concept, psychoanalyst, observation, female image, analysis.*

Kirish. Yozuvchi badiiy asar yozarkan, har bir bo‘layotgan voqea-hodisaga o‘z munosabatini bildirmasdan qo‘ymaydi. Chunki voqelik tabiiy va ishonarli chiqishi lozim. Ijodkorning badiiy olami benihoya keng va zalvorli. Unda olamlar aksi yashaydi. Tarixiy asarlarda ayol obrazini yoritish masalasiga kelsak, M.Osimning “To‘maris” qissasi yodimizga tushadi. Qissa yaratilgan davr sobiq ittifoq davriga to‘g‘ri keladi. Qissa syujetidagi voqealar Sharq xalqlarining afsona va rivoyatlari asos qilib olinganligi barchamizga ma’lum. Badiiy to‘qimaning nechog‘li haqqoniy chiqishi, yozuvchining tarixiy hayot manzarasini shu qadar ich-ichiga kirib tasvirlay olish malakasining o‘ziga xosligi bilan o‘lchanadi. Tarixiy qissaning konsepsiyasida millat va elatlarni dushman changalidan ozod saqlab, dushmanga qarshi mardona jang qilgan milliy qahramon – ayol siymosi gavdalantiriladi:

“Qabila boshlig‘i To‘maris o‘g‘li Siprangizni shak urug‘idan Zarina degan bir qizga uylantirmoqda. Massagetlar kelinni olib keladigan mehmonlarni kutib olish taraddudida. Yoshlar mehmonlarga joy hozirlamoqda, ayollar ovqat pishirmoqda. Yangalar o‘tov xizmatini o‘taydigan uzun soyabon aravalarni bezatmoqda...

Charchab gulxan yonida o‘tirgan yoshlar uzoqdan ot choptirib kelayotgan choparni ko‘rib, o‘rinlaridan sakrab turib ketdilar.

– Kelin... kelin kelayotir, – deb baqirdi u harsillab. – Qariyalar oldida... darhol kutib olinglar.” [1: 1].

Qissada kelin tushirish marosimi aks ettirilar ekan, To‘marisning o‘g‘li Kir qo‘shinlariga qarshi kurashning ikkinchi urinishida dushman qo‘lida o‘lishni istamay Siprangiz o‘zini-o‘zi o‘ldiradi. Bu ma’lumotlar bizgacha Geradotning “Tarix” kitobida keltiriladi. Yozuvchi Mirkarim Osim talqinida badiiy bo‘yoqdorlik bilan o‘quvchilarga yoqimli bo‘lishi uchun xilma-xil lavhalar to‘qib, hayotiy voqelik sifatida qayta gavdalantiriladi. Ijodiy konsepsiya badiiy takomilida – ayol obrazi shu qadar tiniq tasvirlanadiki, asosan, maktab yoshidagi bolalarda Vatanga bo‘lgan muhabbat, vatanparvarlik ruhini oshirishga qaratilgani bilan o‘lchanadi. Shuni qayd etish zarur qissa har bir o‘quvchining ruhiyatida olam-olam zavq uyg‘otishi tabiiy. Chunki qissa maktab yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, qissadagi yozuvchi ijodiy konsepsiyasida To‘marisning bir so‘zli, mard hamda qaytmas bahodirligini yuzaga chiqaruvchi qator fe’l-atvor, sifatlar chiziladi. Bular ham o‘z-o‘zidan qissalar badiiy tadrijida ayol obrazini yanada tiniqroq tasavvur etishga imkon beradi. “Psixoanalitiklarning aniqlashicha, “kumir”, ya’ni ideal deya bilish va intilish, garchi u inson ongli faoliyatining dastlabki bosqichiga xos bo‘lsa-da, insonni faollashtiradi, ma’lum maqsadga yo‘naltiradi. Sharqda esa o‘z ilohiy qudrati, bilimi bilangina emas, yashash tarzi, e’tiqodi bilan ham saboq bo‘lgan kishilarni “pir” deb ularga qo‘l berganlar. O‘z e’tiqodi yo‘lida o‘limga tik borgan pirlar haqida biz bugun uyg‘onish davrida eshityapmiz, o‘qiyapmiz, ular erishgan yoki erishishi mumkin bo‘lgan faoliyat ko‘lamlarini chamalab ko‘ryapmiz. Buyuk ajdodlarni mutolaa qilyapmiz. Bo‘shliqlar to‘lib borgandek bo‘lyapti” [2:19].

Mirkarim Osimning ko‘plab tarixiy qissalarida ana shu “kumir”lik tamoyili yetakchilik qiladi. Binobarin, tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat orasida juda katta farq mavjud. Chunki tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanishi fasllarning almashinuvi kabi rang-barang va ehtirosli, bo‘yoqdorli va ta’sirlidir.

Asosiy qism. Shuni alohida qayd etish lozimki, “hikoya qilinayotgan voqelik” ijodkor konsepsiyasida syujet va kompozitsion yaxlitlikni ham tartiblashtiradi. Ayol obrazini kashf etishning xilma-xil usullarini

qo‘llashni taqozo etadi. Masalan, tarixiy qissada – jang tafsiloti, maishiy qissada – oila farovonligi, falsafiy-psixologik qissada – ong osti evrilishlari sintezi kabi. Natijada mana shu uchlik ijodkor fenomenida “men” ideallashuviga olib kelishi tayin. “Badiiy asarni tahlil qilar ekanmiz, ishtirok etuvchi personajlar bilan bir qatorda, muallif shaxsining ham ishtirok etayotganligini yo ko‘rmaymiz, yoki ko‘rib-ko‘rmaslikka olamiz. Badiiy asarlarda muallif obrazi hikoya qilish uslubidan tortib, asarning tili va tasvir usullarida, hayotiy material va voqea-hodisalarga munosabatda ham aniq namoyon bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, muallif obrazi uning asarda yorqin ifodalangan estetik idroklari, tafakkuri, mafkurasi, tasvirlanayotgan narsa va illatlaridan tashkil topadi” [3:47].

Xulosa. Ushbu parchada ayol qalbining matonati, Siprangizning qallig‘i Zarinaning botiniy iztiroblarini haqqoniy ifoda eta olgan. Hayotiy voqelik (mifik) va tasavvurlar inson ongi shuurida qayta jonlantiriladi. Shuningdek, yozuvchi uni saralab, “qalb dialektikasi”ni yaratadi. To‘maris timsolida Buyuk Turon elining zabardast kurashchisi va qahramoni siymosi namoyon bo‘ladi. Dunyo uning nazdida vatandan bo‘lak boshqa sadoqatli yor bo‘lmasligini taqozo etadi. Asardagi ayol siymosining tarixiy sahnaga olib chiqilishi sobiq ittifoq davrida oson ish emasdi. Mirkarim Osim mana shu savobli ishni jasorat bilan idroklay va ifodalay olganligida desak, haq gapni aytgan bo‘lamiz. Qissadagi o‘lim bilan bog‘liq motivlar ijodkorning badiiy to‘qimasida o‘ziga xos hamdardlik tuyg‘usini oshiribgina qolmay, vaqtning eng qaltis damlarida irodasini yo‘qotmaslik tushunchasini namoyish etganligida seziladi. To‘maris bugungi kun ta’biri bilan aytganda tadbirkor va ishbilarmon ayol!

Odamlar dunyoqarashida haqqoniy tarixni bilish, To‘maris, Alpomish, Barchinoy kim, ular qanday ulug‘vor vazifalarni bajarishgan, ularning g‘oyalarida nimalar o‘z tajassumini topishgan degan masalalar kun tartibida turibdi. Qiyoslash mumkin bo‘lsa, To‘maris va Nodirabegimdagi aql-zakovat masalasi, har ikkala shaxsning ong va tafakkurida, ayol bo‘la turib ruhoniy yuksakligida katta tarixiy silsilalar uyg‘unlashadi. Gavharshodbegimning tarixiy jasorati qayta tiklanib, oqila bir uy bekasi, halol tadbirkor, shohning farmonlariga itoatkor bir sohibjamol siymo ko‘z o‘ngimizga keladi. Mana shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, qissalar poetikasida muallif yaratgan tasavvurlar sintezi o‘quvchiga katta psixologik-estetik mushohadani tuhfa qiladi. Zero, falsafiy-ruhiy bo‘shliqni to‘ldiruvchi yagona estetik jarayon bu badiiy adabiyot ekanligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topadi. Kuzatish va tahlillar shunday xulosaga kelishga asos bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Осим М. Тўмарис. Қиссалар. Манба: www.ziyouz.com
2. Эшонқул Н. Мендан “мен”гача. –Т: “Akademnshr”.
3. Раҳимов А. Роман санъати. –Фарғона. 2015. –Б. 47.

Anorxon MAMATOVA,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

MILLIY- MADANIY SO‘ZLAR AKS ETGAN LUG‘ATLARNI TUZISH MEZONLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy-madaniy so‘zlarning lug‘atlardagi izohi, ma’nolari hamda taniqli tilshunos va leksikograflarning fikrlari, leksikografiya, leksikologiyadagi o‘rni, milliy madaniy so‘zlarni tuzishda lug‘at tuzish mezonlariga mosligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, fikrlar, xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘z va iboralar: *leksikografiya, leksikologiya, lug‘at, lug‘atshunos, milliy-madaniy so‘zlar, madaniy xususiyatlar, o‘zbek madaniyatiga xos so‘zlar.*

Аннотация: в данной статье собраны сведения о толковании национально-культурных слов в словарях, их значениях, а также мнения известных лингвистов и лексикографов, их месте в лексикографии, лексикологии и совместимости национально-культурных слов с критериями создания словаря. , даны мнения, выводы.

Ключевые слова и фразы: *лексикография, лексикология, словарь, лексикограф, национально-культурные слова, культурные особенности, слова, характерные для узбекской культуры.*

Annotation: this article contains information about the interpretation of national-cultural words in dictionaries, their meanings, as well as the opinions of famous linguists and lexicographers, their place in lexicography, lexicology and the compatibility of national-cultural words with the criteria for creating a dictionary. , opinions and conclusions are given.

Key words and phrases: *lexicography, lexicology, dictionary, lexicographer, national cultural words, cultural characteristics, words characteristic of Uzbek culture.*

Kirish. Milliy-madaniy so‘zlar lug‘ati tuzilishining aniq belgilab qo‘yilgan qoidalari mavjud emas, biroq leksikograflarning tajribalari lug‘at tuzishda asosiy manba sifatida qo‘llanilishi mumkin. Dastlab leksikografiyaga leksikologiyaning kichik bo‘limi sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirda lug‘atshunoslikning ilmiy doirasi kengayib, yangi yo‘nalishlarda kirib bormoqda. Biroq lug‘atning bosh bo‘g‘ini leksikologiya asoslari bo‘lib qolaveradi. Lug‘atshunoslar so‘z izohida dastlab uning leksik xususiyatlarini inobatga olishlari lozim bo‘ladi. Chunki so‘zning bosh ma’nosi uning keyingi madaniy xususiyatlari shakllanishiga zamin yaratadi.

Leksikologiya va leksikografiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, chunki so‘zlarning leksikologik xususiyatlarini o‘rganmay turib ularni izohlab yoki tarjima qilib bo‘lmaydi. Tilning lug‘at tarkibi va uni tashkil etuvchi so‘zlar bir qator umumiy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Leksikologiya leksikani xuddi shu umumiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Bu xususiyatlar quyidagilar [2]: sinonimik, antonimik, omonimik hamda ko‘pma’nolilik kabilar.

So‘zning ma’nosi (semantikasi) va u bilan bog‘liq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Leksikaga oid bu masala bilan leksikologiyaning semasiologiya bo‘limi shug‘ullanadi. Bir necha ma’nolarga ega so‘zlarning bosh ma’nosini aniqlashtirishda semasiologiya qoidalariga murojaat qilinadi.

Til taraqqiyoti prosessida lug‘at tarkibi yangi-yangi so‘zlar hisobiga boyib borish bilan birga, undagi ayrim so‘zlar eskiradi, shuningdek, iste’moldan chiqib boradi. Demak, lug‘at sostavi avvaldan o‘zlashib kelgan va hozirda iste’moldagi so‘zlar bilan birga nisbatan yangi so‘zlarga va eskirgan so‘zlarga egaligi bilan ham xarakterlanadi.

Milliy madaniyatga xos so‘zlarning ham ba’zilari iste’moldan chiqqan bo‘lishi mumkin. Biroq tarixni yoritishda bunday so‘zlardan tez-tez foydalaniladi, e’tiborli jihati shundaki, asosan tarixiy hamda o‘zbekona milliylikni tasvirlovchi asarlar xorijiy tillarga tarjima qilinadi. Shuning uchun ham milliy-madaniy so‘zlarning lug‘atlarda berilishiga alohida ahamiyat berish shart, bunday lug‘atlar tarjimonlar uchun bosh qomus sifatida xizmat qilishi aniq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Taniqli rus tilshunosi L.V.Sherba, leksikografiyani “lug‘at tuzish” deb atalishini va sharhlanishini mutlaqo qoralaydi. Uning fikricha, oldinlar har qanday shaxs o‘z qarashlaridan kelib chiqqan holda so‘zlarni to‘plab, lug‘at hosil qilgan, ana shu eskicha qarashlarga yondashgan holda leksikografiyaga “lug‘at tuzish” deya ta’rif beriladi. Biroq lug‘at shunchaki so‘zlarni to‘plab, ularni ma’lum bir texnik tartibda joylashtirish emas, balki buning uchun lug‘atshunosda yetarlicha bilim va keng dunyoqarash talab etiladi. Demak, lug‘atshunoslik – ilmiy-nazariy dissiplinadir [1].

Lug‘atdagi so‘zni izohlashda nafaqat badiiy adabiyot yoki ilmiy manbalardan, balki jamoatchilik fikridan ham foydalanish lozim. Zero har bir so‘zning mohiyatini shu xalqning o‘zigina anglay oladi, xalq uning yaratuvchisidir. Lug‘atshunos esa bu so‘zlarni boshqalarga yetkazib beruvchi vositachi shaxs. [3; 65-bet.] Xususan, xalqning madaniy hayoti va ruhiyatini bildiruvchi so‘zlar mazkur xalqning fe’l-atvorini o‘rganishda muhim ma’lumot beruvchidir.

Tilimizda shukrona, mushkulkushod, askiya, andisha kabi o‘zbek madaniyatiga xos shunday so‘zlar borki, ular etimologik tavsifiga qaramasdan o‘zbekona xarakterni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. “Shukrona” so‘zini o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ta’rifini ko‘raylik:

SHUKRONA [minnat-dor(chi)lik, tashakkur; rahmat aytish] Qanoat va mamnunlik, shukur qilish ifodasi.

Ertasiga kampir bu sevinch-quvonchlarning shukronasiga xotin-xalajni yig‘ib, mushkulkushod o‘qittirdi. G‘ayratiy, Dovdirish. Ko‘nglingda ikki unsur hukmron ekan: biri — taqdiri azal shukronasi, biri — qasdi jon. [4; 4-bet]. Ushbu so‘zga o‘zbekona tushuncha bilan emas, balki xorijliklar nazari bilan e’tibor bering. So‘z mamnunlik va qanoat tushunchalari bilan ta’riflangan. Tabiiyki, so‘zning to‘liq ma’nosini bilishni istovchilar ta’rif berishda qo‘llanilgan so‘zlarning tarjimasini tahlil etib ko‘radi.

Mazkur so‘zlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, bu yerda har qanday muammoga sabr qilib chidash, har qanday holatda mamnun va xursand yurish kabi ma’nolarni tushunish mumkin. Biroq o‘zbek madaniyatida shukronalik juda chuqur ma’noga ega. Bu shunchaki mamnun, shod-xurram hayot kechirish emas, balki hayotning mohiyatini anglab yetishdir.

Lug‘atlarda keltirilgan izoh va undagi misollar o‘rtasida katta farq bor. Sharh oddiy so‘zlar bilan ifodalangan, ammo misolda shukronalik uchun alohida mushkulkushod ma’rakasi, ya’ni ko‘pchilik yig‘iladigan tadbir o‘tkazilganki, bu so‘zning xalq turmush tarzida qanchalik muhim o‘rin tutishidan dalolatdir. Keltirilgan misollar va fransuz tilidagi berilgan tarjimani ko‘rgan har qanday xorijlik shukrona deganda erishilgan yutuqlar uchun xudoga minnatdorchilik bildirishnigina tushunishi tabiiy. Masalan, mushkulkushod tadbiri yutuqlarga erishganda o‘tkazilmaydi, aksincha:

MUSHKULKUSHOD [qiyinchiliklarni hal qilish, bartaraf etish]. Kishining mushkulini oson qilish, ishini yurgizish maqsadida qilinadigan duo va irim-sirimlar va uni o‘tkazish yig‘ini.

Men Kutlug‘ kampirnikiga mushkulkushodga boraman, sen uyda qimirlamay o‘tirgin. [5; 69-b.]

Demak, shukrona deganda, og‘ir va muammoli

vaziyatlarda tushkunlikka tushmasdan, yomon holatdan yaxshilik izlab, umid bilan yashash, shuningdek, taqdirdan yaxshi kunlar uchun minnatdor bo‘lgan holda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga ruhan tayyor bo‘lishdir.

So‘zlarni tahlil etishda yuqorida sanab o‘tilgan leksikologik xususiyatlarga ahamiyat berilmagan. Ta’riflashda so‘zning qo‘llanilish o‘rinini tushuntiruvchi misollar keltirilmagan, natijada so‘zning tahlili sayozlashib qolgan. 2004-yilda chop ettirilgan ushbu o‘zbekcha-fransuzcha lug‘at 1989-yildagi lug‘atning yangicha nashri bo‘lib, ikki yarim mingdan ortiq yangi so‘z va jumlalar qo‘shilgan. Yangi kiritilgan so‘zlar orasida bir qancha o‘zbek madaniyatiga xos tushunchalarni ham uchratamiz. Ammo lug‘atlardagi tahlillarning ba’zilarida tafsilotlar kamroq bo‘lsa, boshqasida tarjima uchun berilgan so‘zlarning ko‘payib ketganligi e’tiborni tortadi.

Lug‘at tuzish qonuniyatlariga muvofiq shu o‘rinda badiiy adabiyot yoxud xalq og‘zaki ijodiyotidan misol keltirilganda, tushunchaning asl mohiyati yanada aniqroq bo‘lardi. Tilshunos Robert Galissonning fikriga ko‘ra, til o‘rganishda milliy madaniyatga xos so‘zlar til o‘rganuvchiga har bir tushunchani to‘g‘ri anglashiga hamda boshqa madaniyatlarning o‘ziga xosliklarini o‘rganishga ko‘maklashadi [9]. Shuning uchun ham lug‘at tuzishda milliy madaniyatga xos so‘zlarning tarjimasiga jiddiy e’tibor berish talab etiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ta’rifni lug‘at tuzish qoidalariga mutanosib ekanligini aniqlashimiz mumkin:

ASKIYA [ziyrak-lar, zakiylar] o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir janri bo‘lib, unda so‘z o‘yiniga, qochiriqlarga asoslangan holda ikki yoki undan ortiq kishi yoki taraflar musobaqalashadi. Askiya, odatda, to‘y-tomosha, sayl, ziyofat kabi yig‘inlarda o‘tkaziladi.

Askiyaga juda usta ekan, olamda dard nima, o‘lim nima ekanini butkul unutib, rosa kulishdik. [A. Qahhor, Ming bir jon.]

Latifa, lof, askiya, topishmoq va maqol janrlari yangi voqelikni o‘ziga xos ixcham shaklda aks ettiradi. [O‘TA. 127-b.]

Ushbu izoh so‘zni yetarlicha yoritib bera olgan, ayniqsa, badiiy adabiyotdan keltirilgan misol tahlilni yanada to‘ldirib turganligi tushunchaning to‘liq yoritilishi uchun xizmat qilgan. Izohlash jarayonida askiyaning hajviy janr ekanligi ta’kidlanmagan bo‘lsada, asardan keltirilgan misol orqali uning shunchaki so‘z o‘yini emas, balki hazil luqmalardan iborat ekanligi yanada tushunarli bo‘lgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atidan keltirilgan ta’rifdan xulosa qiladigan bo‘lsak, askiya bu – hozirjavoblik, kinoyali savollarga hazilomuz javob qaytarish, hajviya qilish. Shunday ekan lug‘atlarni tuzishda milliy madaniyatga xos so‘zlarning berilishiga alohida e’tibor qaratib, ularning o‘zbek xalqi hayotidagi mohiyatini aniq ifodalash lozim. Bugungi kunda o‘zbek tili ishtirokidagi ikki tilli lug‘atlarning aksariyatida milliy madaniyatga xos so‘zlarning noto‘g‘ri berilishi yoki umuman tushib qoldirilishi kabi holatlarni ko‘plab uchratish mumkin. Natijada, xorijda nashr etiladigan ba’zi adabiyotlarimizda madaniyatimizning eng sara na'munalari tushunarsiz va e’tiborsiz qolib ketmoqda. Masalan, Sh.Shoyoqubovning o‘zbek miniatyura san’atiga bag‘ishlangan “Musavvir” deb nomlangan tasviriy san’at namunalari to‘plami ingliz va rus tillariga tarjima qilingan bo‘lib, ushbu to‘plamdagi “Mushoira” nomli tasvir har ikki tilda ham tarjima qilinmasdan “mushoira” so‘zining o‘zi qoldirilgan. To‘plam, asosan, xorijlik tasviriy san’at ixlosmandlariga bag‘ishlangan bo‘lsada, unda ko‘plab izohsiz hamda tarjimasiz qoldirilgan milliy-madaniy so‘zlarni ko‘rish mumkin.

Tabiiyki, ziyoli san’atshunos bunday holatlarda tarjima lug‘atlarga murojaat qiladi. Biroq ikki tilli lug‘atlar shu kabi talablarga javob bera olyaptimi? Tahlil etilayotgan o‘zbekcha-fransuzcha lug‘atda ham mushoira so‘zi berilmagan, vaholanki mushoira so‘zi zamirida sharqona topqirlik, so‘zga chechanlik hamda bahs-munozarani go‘zal she’riy uslubda yetkaza olish kabi ajoyib xislatlar namoyon bo‘ladi.

Dunyo tillarida ko‘plab uchraydigan “kimano”, “sari” hamda “syurtik” kabi bir qancha so‘zlar borki, ular aytilishi bilanoq qaysi xalq madaniyati xususida so‘z borayotganligi ma’lum bo‘ladi. O‘zbek xalqining madaniy turmush tarzida ham shu kabi so‘zlar ko‘plab uchraydi. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: Milliy madaniyatimizga xos so‘zlarning asliyatini saqlashda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

Lug‘atshunoslik tarixida madaniyatga xos lug‘atlarning dastlabki namunalari diniy-madaniy so‘zlarni qamrab oladi. Xususan, o‘zbek madaniyatining bosh bo‘g‘ini bo‘lmish Avesto diniy kitobining asosiy adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilganidan tushunish mumkinki, ushbu madaniy lug‘atda zardushtiylikka, shu jumladan o‘zbekona qadriyatlarga xos tushunchalar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Demak, ushbu lug‘atda bir so‘zning bir nechta madaniyatlardagi konsepsiyasi ta’rif etilgan. Lug‘atning rasmiy saytlardagi umumiy tavsifida so‘z izohida quyidagi jihatlar inobatga olinganligi aytib o‘tilgan:

– so‘zning etimologiyasi va tarixi, zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni;

– aniq faktlarga asoslangan ta’rifi;

– qo‘llanilishiga oid misollar;

– zamonaviy so‘zlar va ularning hududiy xususiyatlari;

– so‘nggi besh asr mobaynida qo‘llanilib kelinayotgan eng mashhur sitatalardan misol

keltirish.

Alen Reyning uzoq yillik tajribasining nazariy asoslaridan kelib chiqib aytish mumkinki, madaniy lug‘atlardagi so‘zlarning xususiy jihatlari boshqa madaniyat bilan solishtirgandagina yaqqol namoyon bo‘lishi mumkin[9],

Haqiqatdan ham, tariximizga nazar soladigan bo‘lsak, So‘g‘diyona hududida yashovchi saklar silindir shaklidagi, uchi o‘tkir bosh kiyim kiyib yurishgan. Bu ilk o‘rta asrlarga to‘g‘ri kelib, so‘zning asl tavsifi lug‘atlardan emas, balki tarixiy manbalardan olingan.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan “shukrona”, “mushkulkushod” kabi so‘zlar borki ularning kelib chiqishi arab hamda fors tillariga borib taqalsada, o‘zbek madaniyatida ularning mohiyati mutlaqo boshqacha. Shuning uchun ham ko‘p hollarda xorijiy tillarda milliy madaniyatimizga xos so‘zlar tarjimasida xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Sababi ma’lum bir doiradagi so‘zlarni berishda e’tibor faqat uning vazifasiga qaratiladi, boshqa kategoriyalar hisobga olinmaydi, natijada kerakli so‘zning kontekstda noo‘rin qo‘llanganlagining guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa bunday holatlar vosita til orqali bir tildan ikkinchi tilga o‘zlashgan so‘zlarda kuzatilishi mumkin.

Demak, milliy-madaniy so‘zlarni lug‘atlarda berishda va ularni xorijiy tillarda tarjima qilishda so‘zning tuzilishi, ma’nolari, sinonim, antonim hamda omonimi, kelib chiqishi kabi bir qancha leksikologik xususiyatlarini unutmaslik lozim. Shundagina tushunchaning asl mohiyati va qo‘llanilish o‘rni yanada aniqroq ifodalanadi. “Qolaversa, lug‘atchilikning bosh tamoyili, undagi so‘zlik uchun so‘z tanlash masalasidir” [8, 13-b.]. Xususan, milliy-madaniy so‘zlar ikki tilli lug‘atlarda berilishidan avval izohli lug‘atlardagi asosiy sharhi o‘rganilishi kerak. Muayyan tilning izohli lug‘ati shu tilni boshqa tillar bilan birgalikda tarjima lug‘atida berish uchun bosh qomusiy manba bo‘lishi lozim. Buning uchun esa ana shu izohli lug‘atlarning o‘zida ham madaniy ma’lumotlar to‘liq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Milliy-madaniy so‘zlar lug‘atini tuzishda terminologik lug‘atlarning aniq tavsif bera olish tajribasi va sohalarga bo‘lib chiqish prinsiplaridan foydalanish kerakli natijani olishda samara berishi mumkin. “Bizningcha terminologik lug‘atlar tuzishda quyidagilarga e’tibor berish lozim bo‘ladi:

– termin aniq tushunchani ifodalashi, ya’ni definitiv funksiyani bajarishi kerak. Bunda narsa va tushuncha mutanosibligiga e’tibor berish lozim bo‘ladi;

– biror tushunchani ifodalovchi terminning leksik ma’nosi emotsional – ekspressivlik xususiyatlardan xoli bo‘lishi talab qilinadi;

– terminologik leksika tarkibiga kiruvchi so‘z va terminlar tarkibi iloji boricha o‘z qatlamiga oid bo‘lishi maqsadga muvofiq. Xalqaro terminlar bundan mustasno;

Ba’zan bir termin turli sohalarda o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lishi bilan omonimik qator hosil qilishi mumkin: morfologiya (biologiya va tilshunoslikda), assimilatsiya (tilshunoslik va etnografiyada), sistema (texnika va tilshunoslikda) kabilar. Ushbularning har biri tegishli soha terminlaridir” [8; 31-b]

Lug‘at tuzishda, deydi Alen Rey, til tarixchisining o‘zigina ishtirok etishi, bu xuddi astronom teleskopning optik tuzilishini o‘rgangandek gap. Ya’ni bir lug‘at tuzishda ham tilshunos, ham tarjimashunos va albatta, til tarixchisi ham ishtirok etmog‘i lozim. Chunki bir so‘z faqat bir yo‘nalishda o‘rganib bo‘lmaydi[9; 26-b].

Xulosa. Madaniy lug‘atlar tuzishda so‘zning leksik kompozitsiyasi va lingvistik xususiyatini adashtirmaslik lozim. So‘z uch vazifaga ega: ijtimoiy, tarixiy hamda madaniy obyekt sifatida bir tilli lug‘atlarda berilishi kerak. Boshqa lug‘atlar esa mazkur izohni lug‘atning asosiy vazifasini e’tiborga olgan holda to‘ldirib borishi zarur. Shunday ekan milliy-madaniy so‘zlarni o‘rganishda va lug‘at tuzishda millat tilining tarixini chuqur o‘rganish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grinshteyn E.M. Tarjimon ishida lug‘atlardan foydalanish. – A., 2010. 6-bet.
2. Xo‘janiyozov E. “Tilshunoslik asoslari” ma’ruzalar matni. – Nukus, 2006. 44-bet.
3. Prouvost J. Leksikografiyasini tartibga soluvchi asosiy leksikografik tamoyillar. – F., 2004. 665-bet.
4. S. Siyoyev. Yorug‘lik. 5-tom, 4-bet.
5. E. Raimov. Ajab qishloq. 769-b.
6. Raximov X. Tarjima lug‘ati. – T., 2014. 13-bet.
7. Karimov Sh. Lug‘atshunoslikda lingvomadaniy jihatlar. – T., 2014. 10-bet.
8. Abdiyev M. Terminologik lug‘atlar tuzish haqida mulohazalar. – T., 2014. 31-bet.
9. Rey A. Delesal S. Leksikografik muammolar va konfliktlar. 4-26-bet.

Nigora JO‘RANAZAROVA,
Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchi

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA METAFORA VA METONIMIYA HODISASI

Annotatsiya: ushbu maqolada X.To‘xtaboyev asarlarida qo‘llanilgan metafora va metonimiya hodisasining badiiy asardagi ahamiyati ochib berilgan. Ma’no ko‘chish usullari qo‘llanilish o‘rni semantik jihatdan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *metonimiya, metafora, shakliy o‘xshashlik, joylashish o‘xshatishligi, mazmuniy o‘xshashlik.*

Аннотация: в данной статье раскрывается значение феномена метафоры и метонимии, используемого в творчестве Х. Тохтабоева в художественном творчестве.

Ключевые слова: *метонимия, метафора, сходство формы, сходство места, сходство содержания.*

Annotation: in this article, the importance of the phenomenon of metaphor and metonymy used in the works of H. Tokhtaboyev in the artistic work is revealed.

Key words: *metonymy, metaphor, similarity of form, similarity of location, similarity of content.*

Kirish. Ma’no ko‘chishining eng ommalashgan usullaridan biri – metonimiyadir. Metonimiya so‘zi yunoncha metonimiya – “yangi nom qo‘yish”, “nomni o‘zgartirish”, “qayta nomlash” degan ma’nolarni beradi. Makon va zamondagi o‘zaro bog‘liqligi asosida bir narsa va hodisaning nomini ikkinchisiga ko‘chirish. Ikkita bir-biriga bog‘liq predmet, belgi, holatdan birining nomi tejamkorlik natijasida tushiriladi. Bunda o‘xshashlik nazarda tutilmaydi.

Metonimiya asosidagi ko‘chma ma’no – fikrni lo‘nda va tasirchan bayon qilish vositasi.[1]

“Sariq devning o‘limi” asarida ko‘chma ma’noli so‘zlardan foydalanish mahorati.[2]

Asarda ma’no ko‘chishining metonimiya usulidan namunalar:

1. Bugun komissiyaning ikki a’zosi kelmadi, qarang, ikkovi ham gripp bo‘lib qolibdi. Polkovnik bo‘g‘ilib, garchi kabinetining bo‘yi bilan eni qancha ekanligi o‘ziga azaldan ma’lum bo‘lsa ham, oyog‘ini metr qilib, yana o‘lchashga tushib ketdi.

Oyog‘ini metr qilib – bu o‘rinda oyoq o‘lchov (metr) ma’nosida kelyapti. Yani oyoq bilan o‘lchov (metr) orasida aloqadorlik mavjud. Chunki, ikkalasida ham o‘lchash imkonyati bor.

2. – Amaki, siz militsiyada sartarosh bo‘lib ishlaysizmi? – deb so‘radi Botir.

– To‘g‘ri, sartarosh bo‘lib ishlayman.

Militsiyada sartarosh – bu so‘zimiz metonimiyaning o‘ringa munosabatiga ko’ra ma’no ko‘chishi hisoblanadi. Chunki militsiya so‘zidan keyin “mahkamasi” so‘zi tushib qolyapti. Bu ham, albatta, so‘zlarni tejash, qisqa qilish ma’nosida ishlatilyapti.

3. Jang qizib ketdi. Bir tomonda “baxtiqaro” direktor boshliq tuhmatchilar yenglarini shimarib, tinim bilmay ishlab turishibdi. Bir tomonda polkovnik o‘rtoq Otajonov boshliq adolat komissiyasi ish ko‘ryapti.

Adolat komissiyasi – *bu o’rinda so’zni qayta nomlash, nomini o’zgartirish kuzatilyapti. Qonun himoyachilariga nisbatan (adolatli komissiya) deb o‘zgartirishyapti. Bu so‘zni ishlatishdan maqsad fikrni ta’sirchang bayon qilishdir.*

4. Sizda tayinli bir fikr bormi o‘zi? – deb so‘raydi. Jamol Qoraboyev beozorgina kulib: – Adolatga ozor yetmasin, deyman, – deydi. Shunday qilib, uchovlari jamuljam bo‘lib o‘tirishibdi. (75-bet)

Adolatga – *bu o‘rinda “inson” so‘zi tushib qolgan bo‘lib, adolatli insonlarga bu ish bilan ozor berib qo‘ymaslik lozimligi aytilmoqda. Gapni qisqa va lo‘nda qilish maqsadida tushirilib qoldirilgan.*

5. Savol-javob uzoqqa cho‘zilmadi. “Baxtiqaro” direktor, “men bu komissiyaga javob bermayman, adolatliroq komissiya tuzilishini talab qilaman”, – deya xayr-ma’zurni nasiya qilib chiqib ketdi.

– Sizning fikringiz? – Hoshimovadan so‘radi polkovnik.

Xayr-ma’zumi nasiya – bu yerda “so‘zi” tushirilib qoldirilgan. Bu yerda ham aloqadorlik borligi uchun tiklash mumkin. Bu gapni tushinishga halaqit bermaydi.

6. Nihoyat, mehmonlar kelib bo‘lgach, to‘yboshi Karomat opa bazmni ochib, kelin-kuyovlar baxtiga qadah ko‘tarishlaringizni so‘rayman, dedi. Men qadah degan so‘zni eshitib, bir qadah aroq tufayli boshimga qanday tashvishlar tushganini esladim-u, yugurganimcha tashqariga chiqib ketdim.

Qadah ko‘tarish – so‘zni tejash, lo‘nda ifodalash maqsadida “bir piyola” so‘zi tushib qolgan. Bu o‘rinda qadahni ko‘tarish emas, balkim uning ichidagi sharobni nazarda tutyapti. Qadah bilan sharob o‘rtasida aloqadorlik mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Metafora so‘zi yunoncha bo‘lib, (metaphora) – “ko‘chirish”, “ko‘chirma” degan ma’noni beradi. Bir predmet, belgi yoki

harakatning boshqasiga tashqi o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chishi metafora deyiladi. Narsa va hodisa orasidagi o‘xshashlik quydagicha bo‘lishi mumkin:

1. Shakliy o‘xshashlik.
2. Joylashish o‘xshashligi.
3. Mazmunan o‘xshashlik. [4]

Ma’no ko‘chishning bu usulini ko‘p uchratishimiz mumkin.

Metafora hodisasi asosan, ot turkumi doirasida, qisman fe’lda uchraydi: Qush uchdi. Samolyot uchdi qurilmalarining ikkinchisida (uchmoq) fe’li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvoziga o‘xshaydi. Shu boisdan (uchmoq) fe’li ifodalagan keyingi ma’no rnetaforik ma’no. Metafora hosila ma’no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi. Metaforik hosila ma’no nutqda juda ko‘p uchraydi. Misol uchun, “Sariq devning o‘limi” asarida ma’no ko‘chishining metafora usulidan namunalar:

1. Ehtimol, meni chuqurroq o‘rganish uchun o‘z uyiga olib borgandir? Menga ko‘rsatilgan mehribonchiliklarning hammasi yasama bo‘lsa-ya?!

Bu o‘rinda chuqurroq – mazmuniy o‘xshashlik bo‘lib, o‘sha insonni yaxshiroq bilish ma’nosini ifodalayapti. Yasama esa-u ham mazmuniy o‘xshashlik bo‘lib yolg‘on iltifot ma’nosini ifodalayapti.

2. – Yo‘q, yo‘q, kecha men sizni va butun komissiya a’zolarini aldagan edim, yolg‘on so‘zlagandim. U meni sotganda, men qarab turamanmi? Men o‘rtoq Ro‘ziyevga tuhmat uyushtirilganidan xabardorman. (65-bet)

Sotganda – *mazmuniy o‘xshashlik bo’lib, xiyonat qilgan, sotqinga nisbatan ishlatilyapti.*

3. E, ha, hamma gap bu yoqda ekan-ku, deb o‘yladim. Baqaloq bufetchining aytishicha, baxti qaro direkor uchiga chiqqan tuhmatchi, uchiga chiqqan poraxo‘r ekan.

baxti qaro – bu yerda “baxti qaro” iboraga aylanib ulgurgan metaforik o‘xshatishdir. Mazmun jihatdan qora rang “zulmat, qayg‘u tushkunlik” ma’nolarini ifodalaydi. Aynan shuning uchun hayotda baxtini topmagan insonlarga nisbatdan “baxti qaro” iborasi ishlatiladi.

4. Har kuni bosh oshpazlardan ellik so‘mdan, shu ko‘ksiga mushtlab so‘zlayotgan bufetchidan 60 so‘m olar ekan.

Bosh oshpaz – *bizga ma’lumki, metaforada o‘xshatish birinchi o‘rinda turadi. O‘xshatishda inson a’zolari asosiy obyekt bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, bosh oshpaz so‘zida ham aynan boshning ishlatilish sababi, bosh – eng yuqorida turib insoning boshqa a’zolari boshqaradi. Shuning uchun ham bosh so’zi (sardor, rahbar, ergashtiruvchi) ma’nolarni ifodalaydi. Bosh oshpaz esa boshliq degan ma’noni ifodalayapti.*

Tahlil va natijalar. “Besh bolali yigitcha” asarida uchragan metonimiya usulida ma’nosi ko‘chgan birikmalar:[3]

– Besh bolali, ke, bov ustiga bov o‘ynaymiz! – taklif qilib qoldi Hayitkalla. (66-bet)

Besh bolali – qayta nomlash, nomini o‘zgartirish yuz beryapti. Asar qahramoni Orifjonga “Besh bolali”deb murojaat qilyapti. Bu ortiqcha takrorning oldini olish uchun ham xizmat qiladi.

– Ko‘chaga chiqsak, qizlar guruh-guruhlarga bo‘linib “Lapta”, “To‘p urar”, “Qoch bolam, soy keldi” singari o‘yinlarni o‘ynashayotgan ekan.

Soy keldi – bu yerda so‘z tushirib qoldirilgan va buni biz tiklay olamiz. Misol uchun, soy keldida “suv” so‘zi tushib qoldirilgan. Ya’ni soyga suv keldi, shaklida ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi parchadan olingan misollardan ko‘rishimiz mumkinki, metafora ham asarning ta‘sirchan va ekspressivligi uchun katta xizmat qiladi. Badiiy asarda metaforadan unumli va to‘g‘ri foydalanish uslubiy jihatdan juda katta ahamiyat kasb etadi.

Keltirilgan misollardan ham ko‘rinib turibdiki, Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida ma’no ko‘chish (metafora va metonimiya) usullaridan unumli va o‘z o‘rnida qo‘llagan. Bu, albatta, asarning mohiyati, salmog‘ini oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xolyorov “O‘zbek tilida universal qo‘llanma”. – Toshkent, 2018. 86-bet.
2. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi. «Yangi asr avlodi», 2017.
3. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Besh bolali yigitcha. «Yangi asr avlodi», 2009.
4. N.Jo‘ranazarova. X.To‘xtaboyev asarlarida qo‘llanilgan iboralarda metafora va o‘xshatish hodisasi. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. ol. 3 no. 28 (2023).

Elnoza QUDRATOV,
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti,
Musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchi equdratova@mail.ru
Qaxramon BOBOQULOV
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti. qbabaqulov@mail.ru

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI BO'YICHA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Annotatsiya: maqolada Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqa bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi va bu borada mavjud muammolar tahlil qilinadi va ularning yechimi yo'lida ilmiy ahamiyatga molik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogika, urf-odat, mumtoz musiqa, kuy, san'at, dars, yosh avlod,*

Аннотация: в статье анализируется вопрос подготовки будущих учителей музыки к профессиональной деятельности по классической музыке в процессе высшего педагогического образования и существующие проблемы в этой связи, а также предлагаются научно важные рекомендации по их решению.

Ключевые слова: *педагогика, традиция, классическая музыка, мелодия, искусство, урок, молодое поколение.*

Annotation: the article analyzes the issue of preparing future music teachers for professional activities in classical music in the process of higher pedagogical education and the existing problems in this regard, and scientifically important recommendations are put forward to solve them.

Key words: *pedagogy, tradition, classical music, melody, art, lesson, young generation*

Milliy ma'naviyatning ravnaqi va umuminsoniy ma'naviyat darajasiga ko'tarilishining eng muhim omillaridan biri jamiyatda yashovchi kishilarning, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ongida milliy – ma'naviy qadriyatlarimiz timsoli bo'lgan tilimiz, san'at, urf – odat va marosimlarga to'g'ri munosabat, ularni qadrlash, asrab – avaylash, rivojlantirish uchun intilib yashash hissini tarbiyalash, boyitish va mustahkamlashdan iboratdir.

Shu jihatdan xalqimizning milliy – ma'naviy qadriyatlari tizimida muhim o'rin tutuvchi o'zbek musiqa merosi, uning tarkibidagi mumtoz musiqa san'atini yosh avlod ma'naviyatiga singdirish, ta'limning barcha bo'g'inlarida, ayniqsa, pedagogika oliy o'quv yurtlarining musiqiy ta'lim ixtisosligi bo'yicha ta'lim oluvchi bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini mukammal bilim, tushuncha va amaliy ijrochilik malakalarini egallashlariga erishish ta'lim – tarbiya oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy – pedagogik talablarni bajarish borasida muhim vazifalardan hisoblanadi.

Hamma davrlarda ham musiqa san'ati, xususan, qo'shiqchilik kishilar hayotida muhim o'rin tutib, o'zida xalq ruhiyati, orzu intilishlari, hayotiy qarashlari, hissiy kechinmalarini badiiy ifoda etishi bilan yuksak ijtimoiy tarbiyaviylik kasb etib kelgan. Birinchi prezidentimiz I. Karimov musiqa san'atining inson hayotidagi o'rni va roliga baho berar ekan shunday ta'kidlaydi: "Sharq musiqasi – sharq falsafasi – sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon merosida tutgan o'rni benihoya buyuk... Bu musiqa ming – ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. O'zining yuksak jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo'shmoqda"1/.

Musiqiy ta'limni milliy asoslarda shakllantirishning ijtimoiy talabi sifatida umumta'lim maktablarining birinchi sinfidan boshlab o'quv dasturida o'zbek xalq musiqa merosiga mansub kuy – qo'shiqlar, xalq musiqasiga asoslanib yaratilgan bastakorlar asarlari, kompazitorlarning zamonaviy janr va uslubdagi ijod namunalari bilan bir qatorda o'zbek mumtoz musiqasiga ham keng o'rin berilgan.

Ayni paytda umumta'lim maktablaridagi "musiqa madaniyati" o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni dastur va darsliklarga kiritilgan mumtoz kuy – qo'shiqlar bilan tanishtirib borish, kerakli bilim va tushunchalar orqali o'quvchilarda ushbu san'at turiga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishga qay darajada erishilmoqda degan savol to'g'ilishi tabiiy. Bu o'rinda mumtoz asarlarni tinglash, kuylash, tahlil qilish jarayonida ularning g'oyaviy – badiiy mazmuni, badiiy obrazlarini tasavvur qilish, kuy va qo'shiq matnini o'zaro mutanosibligini, sinxronlik xususiyatini anglash, mukammal ijod va nodir iste'dod mahsuli bo'lgan asarni mumtozlik xususiyatini belgilovchi sifatlarini hamda kuy, ohang, nola, bezak, qochirim kabi milliy ijrochilikka xos unsurlarni o'quvchilar tomonidan to'g'ri idrok etish, fahmlash, farqlash, baholay olish, milliy cholg'ular ijrosidagi o'ziga xos nafosatini his eta olishlari nuqtayi nazaridan darslarni nazariy, amaliy va metodik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil qilinishi ko'zda tutilmoqda.

Pedagogik kuzatuv va tahlillar aksariyat umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati" darslari

ta’lim standarti talablari darajasida o‘tilmayotganligini, bu o‘rinda musiqa o‘qituvchilarining malakaviy tayyorgarliklari qoniqarli darajada emasligini, ayniqsa, o‘zbek xalq musiqa ijodiyoti, uning eng mukammal va murakkab turi bo‘lgan mumtoz musiqa san’ati bo‘yicha yetarli bilim va malakalarga ega emasliklari eng asosiy muammo bo‘lib qolayotganligini ta’kidlash o‘rinlidir. Zero, musiqa darslarida milliy musiqiy meros, uning janrlari, ijro uslublari, mumtoz asarlarning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari to‘g‘risidagi nazariy va amaliy tushuncha, bilimlarni berishda musiqa o‘qituvchilari asosiy subyektlar bo‘lib, ularning ushbu yo‘nalishdagi kasbiy malakalari hal qiluvchi rol o‘ynaydi va kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etilishiga erishishni kafolatlaydi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlashda 1 – 7 sinflar fan dasturi va darsliklarining yil va chorak mavzulari bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va tushunchalar, kuylash, tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar “An’anaviy xalq musiqasi va maqom asoslari” hamda “O‘zbek mumtoz qo‘shiqchiligi” fanlarini o‘tilishida inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini o‘zbek xalq mumtoz musiqasidan yaxshi xabardor va kasbiy tayyorgarlikka egaligi o‘quvchilarda xalq musiqa merosi, uning rivojlanishi, turlari, mahalliy ijrochilik uslublari, mumtoz musiqaning milliy musiqa madaniyatimizda tutgan o‘rni va ahamiyati, mashhur ijodkorlari haqida yetarli bilimlarga ega bo‘lishi va ularda milliy musiqamizga barqaror qiziqishni hamda musiqa darslarini pedagogik va metodik jihatdan yuqori samaradorlik kasb etishiga erishish imkonini beradi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim tizimida bir qator masalalarni hal qilish lozim. Bular:

1. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining “Musiqiy ta’lim” yo‘nalishi o‘quv rejasidagi “An’anaviy xalq musiqasi va maqom asoslari” hamda “O‘zbek mumtoz qo‘shiqchiligi” fanlariga ajratilgan o‘quv soatlari hajmini ko‘paytirish va ularni bitta fan tarkibida umulashtirish;

2. Mazkur fanlarni o‘qitish mazmunida umumta’lim maktablarining 1 – 7 sinf dasturi va darsliklariga kiritilgan mumtoz kuy qo‘shiqlar va ular haqidagi nazariy ma’lumotlar ko‘zda tutilgan ta’limning pedagogik va metodik tizimini yaratish;

3. Tinglash va kuylash uchun namunalarni sinf, guruh, o‘quvchilarni imkoniyatlari, ovoz diapozoni, musiqiy tayyorgarliklariga ko‘ra asarlarni tanlashga qo‘yiladigan pedagogik talablarni ishlab chiqish;

4. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar va yondashuvlar asosida qiziqarli tashkil etishga yo‘naltirilgan tavsiyalar bilan qurollantirish;

5. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini o‘zbek mumtoz va maqom san’ati bo‘yicha turli ko‘rik – tanlovlar, konsertlar, musiqiy ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etishlariga keng imkoniyat va shart – sharoitlar yaratish;

6. Talabalarni umumta’lim maktablari bilan o‘zaro ijodiy hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish, o‘quv va pedagogik amaliyotlar jarayonida bajariladigan ishlar mazmunida mumtoz musiqa bilan amaliy ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e’tiborni kuchaytirish.

7. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktab ta'limiga tayyorlashda sinfdan tashqari faoliyatga – badiiy havaskorlik to'garaklari ishiga e'tiborni kuchaytirish, bu jarayonida ularni mustaqil va ijodiy ishlashlari uchun zarur shart – sharoitlarni yaratish. Aynan mana shu faoliyat talabalarning o'z ustida mustaqil ishlash, izlanish va erishgan yutuqlarini keng jamoatchilik oldida namoyish qilishga bo'lgan intilish va qiziqishlarini ruyobga chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Ta’kidlab o‘tilgan muammolarni ijobiy yechimiga erishish bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarini maktab faoliyatiga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bilan umumta’lim maktablarida ta’lim sifati va samaradorligin ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida barkamol avlodni tarbiyalash, milliy – ma’naviy, musiqiy – estetik madaniyatni shakllantirishni yanada yuqori darajaga ko‘tarilishiga va shu orqali jamiyatimizning ma’naviy – ma’rifiy negizini mustahkamlash borasida olib borilayotgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda yangi ufqlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. –Toshkent, O‘zbekiston, 1998, 322 bet.O
2. O‘zbek xalq musiqasi. To’plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1-Tom. –T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955y.567b.
3. Hamidov H. O’zbek an’anviy qo’shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O’qituvchi, 1996y.
4. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta’limi. jurnal-T.: 2021. -№3, - B. 82-84.
5. Abdukarimova E.I. Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classical music// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences. Research learning.- Volume: 7 Number: 6 Issue: 2056-5852 Publication Year: 2019. www. Scopus.com

Umidjon AXMEDOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Email: axmedovumidjon87@gmail.com

MATN YARATILISHINI DISKURSIV FAOLIYATINING BIR TURI SIFATIDA TALQIN QILISH USHBU HODISANING DINAMIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: matn yaratilishini diskursiv faoliyatining bir turi sifatida talqin qilish ushbu hodisaning dinamik xususiyatlariga, jarayonli belgilariga ko‘proq e’tibor qaratishni talab qiladi. Matnni o‘zgarmas, harakatsiz, turg‘un xususiyatlarga ega bo‘lgan hodisani ko‘rinishida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Matnning maqomini, kategorial belgilarini aniqlash uchun uning ongli diskursiv faoliyat bilan bog‘liq tomonlariga e’tiborini kuchaytirish lozim bo‘ladi. Lisoniy hodisalar talqiniga yangicha yondashuv natijasida tadqiq maqsadi matn yaratishning inson kognitiv qobilyati bilan bog‘liq jihatlarini aniqlash sari yo‘naladi.

Kalit so’zlar: *badiiy matn, diskurs, lingvokulturologiya, madaniyatshunoslik, kategorial belgilar, kognativ.*

Annotation: interpretation of text creation as a type of discursive activity requires paying more attention to the dynamic features and process signs of this phenomenon. It is impossible to imagine the text as an unchanging, motionless, stable phenomenon. In order to determine the status and categorical features of the text, it is necessary to pay more attention to its aspects related to conscious discursive activity. As a result of a new approach to the interpretation of linguistic phenomena, the purpose of the research is to determine the aspects of text creation related to the human cognitive ability.

Key words: *artistic text, discourse, linguo-cultural studies, cultural studies, categorical symbols, cognate.*

Аннотация: интерпретация текстотворчества как вида дискурсивной деятельности требует большего внимания к динамическим особенностям и процессуальным признакам этого явления. Невозможно представить текст как неизменное, неподвижное, устойчивое явление. Для определения статуса и категориальных особенностей текста необходимо уделить больше внимания его аспектам, связанным с сознательной дискурсивной деятельностью. В результате нового подхода к интерпретации языковых явлений целью исследования является определение аспектов текстообразования, связанных с познавательными способностями человека.

Ключевые слова: *художественный текст, дискурс, лингвокультурология, культурология, категориальные символы, родственные слова.*

KIRISH

Matn yaratilishini diskursiv faoliyatining bir turi sifatida talqin qilish ushbu hodisaning dinamik xususiyatlariga, jarayonli belgilariga ko‘proq e'tibor qaratishni talab qiladi. Matnni o‘zgarmas, harakatsiz, turg‘un xususiyatlarga ega bo‘lgan hodisani ko‘rinishida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Matnning maqomini, kategorial belgilarini aniqlash uchun uning ongli diskursiv faoliyat bilan bog‘liq tomonlariga e’tiborini kuchaytirish lozim bo‘ladi. Lisoniy hodisalar talqiniga yangicha yondashuv natijasida tadqiq maqsadi matn yaratishning inson kognativ qobilyati bilan bog‘liq jihatlarini aniqlash sari yo‘naladi. Subyektning kommunikativ-ijtimoiy hamda til tizimi qoida-normalariga mos ravishda matn yaratish va uni mazmunan idrok etish qobiliyati nutqiy tafakkur faoliyatining samarasini ta’minlovchi asosiy omillardandir.

Kognitiv tilshunoslikning vazifalari, uning asosiy tamoyillarini aniqlashda harakat qilgan tilshunoslar ushbu yo‘nalishdagi tahlilda “kognitiv muqobillik” va “bevosita muqobillik” tamoyillarini farqlash muhimligini alohida uqtiradi. “Kognitiv muqobillik”, olimning ta`biricha, biror bir birlik haqida tasavvur qilish yoki uning haqida fikr yuritishda ushbu birlikni qanday idrok etilishi va hosil bo‘lgan tushunchaning qay darajada kognitiv voqelikka mos kelishini anglatadi. Ushbu tamoyil “bevosita muqobillik” holatiga ziddir. Binobarin, oxirgi tamoyilga binoan lisoniy voqelanish unsurlarining mazmuni bevosita voqelikdagi hodisalar mohiyatga mos keladi.

Voqelikni idrok etish esa inson uning mohiyatini to‘la tasavvur etishi, boshqacha aytganda, to‘g‘ri “hazm qila bilmog‘i” yoki anglamog‘i lozim. Faqat shundagina mazmunan aniq va tugal matn yaratiladi. Demak, matn, shubhasiz, kognitiv tilshunosliki tahlil obyekti bo‘la oladi hamda ushbu yo‘nalish doirasida uning mazmuniga xos botiniy xususiyatlar, konseptuallashuv jarayonida hosil bo‘ladigan mental qolipining tuzilishi o‘rganiladi.

Matnning kognitiv tahlil obyekti sifatida e`tirof etilishi bevosita uning tabiati haqidagi tasavvurlaring ham ma’lum darajada o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Natijada I.P. Susovning matn tabiat ikki jihatga ega (tekst dvuluk po cvoey priroda) degan tavsiri o‘z paytida (o‘tgan asrning 80-yillar) qanchalik to‘g‘ri deb qabul qilingan bo‘lishiga qaramasdan, bu qarash hozirgi kunda tadqiqotchilarni qoniqtirmay qo‘ydi. Matnning ko‘p jihatli va ko‘p qirrali hodisa ekanligi tinimsiz ta’kidlanayotgan bir paytda, biz matnning lisoniy voqelikda tutgan o‘rnini tasvirlovchi zanjirga yana bir xalqani qo‘shishni

ma’qul ko‘rgan bo‘lar edik va bu xalqa voqelik haqidagi tasavvurning konseptuallashuvini aks ettiradi.

Kognitiv tilshunoslikning xos tadqiq uslublarining matn tahliliga tatbiq qilinishi, birinchi navbatda, matnning kommunikativ tizim va umuman, insonning borliq haqidagi bilimining asosiy unsuri sifatida e’tirof etilishi bilan bog‘liqdir. Bunday e’tirof esa, o‘z navbatida, tadqiqotchilarni e’tiborini matnning ichki tuzilishi, strukturaviy xususuyatlaridan uning yaratilishi va mazmunan idrok etilishi (retsipient tomonodan qabul qilinishi) jarayoniga ko‘chishiga sabab bo‘ladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasini “lisoniy jarayonlar, lisoniy birlik va kategoriya kabilarni ularning xotirasi, tasavvur, idrok, ong bilan munosabatida o‘rganish” deb bilgan E.S.Kubryakova keyinchlik ushbu vazifani “lisoniy strukturalar va bilim strukturasi o‘rtasida mavjud bo‘lgan doimiy muqobillikni yoritish” darajasigacha kengaytirildi. Matn, eng muhim lisoniy struktura bo‘lish bilan bir qatorda, boshqa har qanday tuzilmaning ajratilishi uchun asos xizmatini o‘tar ekan, u kognativ-diskursiv tahlilda ham asosiy “sinov maydoni” bo‘la olishga qodir. Darhaqiqat, matn tilshunoslikning taraqqiyoti davrida “matn” tushunchasi ancha tor ma`noda talqin qilinib, tadqiqotchilar e`tiborini asosan uning moddiy jihatlarini tortib kelayotgan edi. Matn yaratilishi va idrokni uzluksiz jarayon sifatida tasavvur qilish lozimligi faqat tilshunoslik fanida yuzaga kelgan “kognitiv inqilob” sharoitidagina ayon bo‘ldi.

Ma’lumki, kommunikativ statika va dinamika, jarayon va natija qarama-qarshiligi hamda mushtarakligida kechadi. Xuddi shu tarzdagi qarama-qarshiliklar va munosabatlar tizimida yaratiladigan matnni haqiqiy kommunikativ birlik sifatida e`tirof etib, uning kategorial xususiyatlari haqida so‘z yuritishimiz mumkin. Shu jihatdan, ayrim tilshunoslarning “matn nihoyatda mavhum xarakterga ega va uni kommunikativ faoliyatdan ajratib olish mumkin” degan davolari, bizningcha, g‘ayritabiiydir. Kichik hajmdagi matnlarning mazmuniy xususiyatlari bilan shug‘ullangan olimlarning ushbu da'vosi bir qarashda asoslidek tuyuladi, chunki qayta takrorlanish va o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan yozma (ayniqsa, badiiy)matn nutq vaziyati bilan bevosita bog‘liqlik xususiyatida ega emasdek ko‘rinadi. Ammo yozma matn ham muloqot vaziyatiga aloqadarlik xususiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Ma`lumki, situativlik matning doimiy kategorial belgilaridan biridir va buning isbotini biz dastlab matnning qayta takrorlanishi sharoitlarida o‘z asosiy kommunikativ mazmunini saqlab qolishida yaqqol ko‘ramiz. Har qanday muloqot sharoitida matn vositasida uzatilayotgan axborotning qiymati saqlanadi, zero, uzatilayotgan axborotga nisbatan qo‘yiladigan asosiy talab – uning ushbu muloqot sharoiti uchun yangiligi, muhimligidir. Albatta, bunda matn muallifi axborotni uzatishning eng ma`qul usulini topishi zarur bo‘lganidek, retsipient ham matn tuzilishiga tayangan holda muallif unda qanday axborotni yetkazish niyatida ekanligini zukkolik bilan to‘g‘ri anglay bilishi muhimdir.

Nutqiy tuzilmalarning matn maqomini olishga kommunikativ faoliyati ishtirokchilarining munosabati ham muhimligini unutmaslik lozim. A.A.Zalevskayaning sharhicha, har qanday nutq qatori uning faqat muallif yoki retsipient bilan munosabatda faollashuvidagina matn bo‘la oladi. Matn inson tomonidan yaratiladi va idrok etiladi, insonning ishtiroksiz tasavvur qilinayotgan matn faqatgina “moddiy gavda” ko‘rinishini oladi. Taniqli psixolingvist A.A.Zalevskayaning fikriga batamom qo‘shilishni istasak ham, lekin bir kichik e`tirozimizni bildirmaslikni imkoni yoq. Haqiqatdan ham matn unga mazmun bag‘ishlovchi faoliyatning ijrochi (muallif yoki retsipient) siz hech qanday qiymatga (olimning ta`bricha – “ichki quvvatga”) ega bo‘lmaydi, ammo matnning o‘z-o‘zicha, alohida “gavda” sifatida mavjud bo‘lishi tasvvur qilish qiyinligini olima unutgandek ko‘rinadi. Balki, bu uning tilshunoslikda hanuz hukmron bo‘lib turgan matn va diskurs hodisalarini keskin qarama-qarshi qo‘yish an`anasidan to‘liq voz kecha olmaganidan bo‘lsa kerak .Bu ikki hodisaning ziddiyatini faollik – nofaollik, dinamik – statik xususiyatlarning qarama – qarshiligi bilan bog‘lashga intilayotganlar oxir – oqibatda matnni yozma nutq mahsuli, diskursni esa og‘zaki muloqot mahsuli sifatida ta`riflashga harakat qiladilar. Ushbu yo‘sindagi talqin, so‘zsiz, ularning birini (matnni) moddiy hosila, ikkinchisini (diskurs) esa nomoddiy natija ko‘rinishda tasavvur qilishga undaydi.

Matn va diskurs munosabati masalasi hamda ularning ziddiyatli hodisalari sifatida talqin qilinishi matn tilshunosligi taraqqiyoti uchun noxush holatlar tug‘dirishi mumkinligini tilshunoslarimiz tomonidan e’tirof etilgan. Biz ham ularning fikrlarini quvvatlagan holda matnning yozma va og‘zaki ko‘rinishda mavjud bo‘lishini batamom e’tirof etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent : Fan, 1981.
2. Abdullayev A. Ozbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.- Toshkent, 1983.
3. Abdupattoyev M.T. O‘zbek matnida supersintaktik butunliklar. – Toshkent 1998.
4. Boymirzayev S. Matn mazmunida temporallik semantikasi. – Toshkent: O‘zME, 2009.
5. Yo‘ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent : Fan, 2007.
6. Kamenskaya O.L.Tekst I kommunikatsiya. – M.:V`ssh.shk.,1990.
7. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent:O‘qituvchi,1995.
8. Lyapon M.V. Sm`slovaya struktura slojnogo predlojeniya I teksta. – M.:Nauka, 1986.

Sohila AMINOVA,
A teacher at Chirchik State Pedagogical University
E-mail: sohilaaminova@gmail.com

XALQ OG‘ZAKI IJODI (EPOS) DA QAHRAMONLIK KONSEPSIYASINING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada, qahramonlikning eposdagi ahamiyati, konsepsiya tushunchasi va badiiy asarlarda konsepsiyani ifoda etish usullari haqida gapirilgan. Eposning xalq ideallari, hayotning keng ko‘lamli tasvirlanishi, voqealar va janglardagi qahramonliklar, epik janrlarning turlari va ularning adabiy tarixdagi o‘rni to‘g‘risida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. *Epos, konsepsiya, qaxramonlik,janr, syujet, idealism, ong, badiiy asar.*

Аннотация: в данной статье говорится о значении героизма в эпосе, понятии концепта и способах выражения этого концепта в художественных произведениях. Также даются сведения о народных идеалах эпоса, масштабном изображении быта, героических событий и сражений, типах эпических жанров и их месте в истории литературы.

Ключевые слова: *Эпос, концепция, героизм, жанр, сюжет, идеализм, сознание, художественное произведение.*

Annotation: this article talks about the concept of heroism in the era, the concept of the concept and the ways of expressing this concept in works of art. There is also information about the folk ideals of the epic, large-scale depictions of everyday life, heroic events and battles, types of epic genres and their place in historical literature.

Key words: *Epic, concept, heroism, genre, plot, idealism, consciousness, fiction.*

Inson faoliyati murakkablashuvi bilan bog‘liq holda epos ham teranlashib borgan. Ammo uning asosiy tomoni baribir qahramonlikni kuylashdan iborat bo‘lib qolavergan. Inson faoliyatining o‘zgarishi natijasida eposda uning janglardagi, muhabbat va haqiqat, go‘zallik va adolat uchun kurashlardagi qahramonliklari ham kuylana boshlagan.

Konsepsiya (lot. conceptio – majmua, tizim) – 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtayi nazar; 2) adabiyotda – biror asarning asosiy g‘oyasi. Konsepsiya badiiy asar mohiyatini, ijodkorning „meni“ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo‘lishi mumkin. Ba’zan muallif mo‘ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e’tibori bilan asar o‘z konsepsiyasiga ko‘ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo‘ladi. O‘quvchining ma’naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar konsepsiyasi alohida ta’kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Inson va borliq mohiyatiga ko‘ra, konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o‘z konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san’at asarining konsepsiyasi tarzida qo‘yish ham mumkin.

Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi – usuli bo‘lib ham maydonga chiqadi. Umuman, konsepsiya badiiy asarning san’at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o‘rnini hamda o‘quvchilar ommasiga ta’sir etish darajasini belgilaydi. Eposni janrlarga ajratishda hajm ham mezon bo‘lolmaydi. Zero, ayrim hikoya yoki romanlar hajman qissalarga yaqin bo‘lishi va aksincha holatlar kuzatilishi mumkin. Biroq odatda hikoya, qissa va romanlar hajmi sanoqdagi tartibga mos tarzda kattarib borishi ham inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Epos janrlari badiiy shakl xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Masalan, syujet nuqtayi nazaridan olinsa, roman ko‘p chiziqli murakkab syujetga egaligi, qissa syujeti, asosan, bosh qahramon tevaragida uyushishi, hikoya syujeti, odatda, bitta yoki bir-biriga uzviy bog‘liq bir necha voqea asosiga qurilishi kuzatiladi. Hikoya, qissa va roman eposning asosiy janrlari sanaladi. Shu bilan birga, epik turning asosiy bo‘lmagan qator janrlari ham mavjud. Ularni hayotni badiiy qamrash ko‘lami jihatidan quyidagi tartibda tasniflash mumkin :

- kichik epik shakllar: latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse;
- o‘rta epik shakllar: qissa (povest);
- xalq eposi, epik doston, roman, epopeya.

Shu tariqa eposda xalq ideallari va umuman hayot keng ko‘lamda qamrab olingan. Eposga ba’zan hayotdagi katta voqea tayanch qilib olingan. Masalan, “Iliada” uchun asosiy mazmun sifatida og‘ir Troya urushi tanlangan. Gohida eposga kichik, epizodik, ammo katta umumlashmalar chiqarishga imkon beruvchi voqealar negiz bo‘lgan. Jumladan, “Alpomish”dagi hodisalar qadimgi ikki urug‘ orasida zakot masalasi tufayli kelib chiqqan nizodan boshlanadi. Epos, odatda, u yoki bu xalq, ba’zida, umuman, butun insoniyat hayotidagi katta bir davrning ko‘zgusidir. Bu ko‘zguda faqatgina tashqi voqealar, maishat-u odatlarigina emas, balki davrning ruhi, falsafasi, xalq kayfiyati, istiqboli ham aks etadi. Badiiy adabiyot rivoji davomida adabiy turlar bir-biri bilan uyg‘unlashib ketaveradi. O‘zbek

adabiyotida uzoq vaqt lirika yetakchilik qilgan bo‘lsa, XX asr boshidan unda epos ustunlikka erishadi.

Chunonchi, “Iliada” va “Odisseya” qadimgi yunonlar davrining janglari, xudolari, kishilari, qahramonliklari, axloqiy va afsonaviy qarashlari, orzu-umidlari haqida keng tasavvur bersa, “Alpomish” eposi xalqimizning urug‘chilik va qabilachilik zamonidagi hayoti, urf-odatlari, dunyoqarashi, insoniy muhabbat uchun kurashishlari manzarasini yaqqol gavdalantiradi. Eposning tug‘ilish davrida hamma yerda to‘lig‘icha xalq, jamoa ijodining samarasi bo‘lgan. Ammo eposning jamoa tomonidan ijod etilganligi unda alohida kuchlar, iste’dodlar ishtirok etganligini inkor qilmaydi. “Alpomish” qadimda xalq tomonidan aytilgan bo‘lsa-da, davrlar o‘tishi bilan u sayqallanib, mukammallashib kelgan.

O‘zbek eposlari, O‘zbekiston va O‘zbek tilidagi turli xalqlarning milliy adabiyotida jismoniy kuch, o‘zaro yordam va qahramonlik kabi mazkur konsepsiyalarga asoslangan bo‘lishi bilan taniladigan epik qahramonlarning tarixiy va adabiy yozma asarlaridir. Qahramonlik konsepsiyasi, epik qahramonlarning yurishlari va jangi, jismoniy kuch va odamlar orasidagi samaradorlikning yuksalishi, idealizm va ruh bilan bog'liqlik, milliyat va ong va boshqalar kabi muhim mazkur filosofiyalarni aks ettiradi. O‘zbek eposlarida qahramonlik konsepsiyasi, adabiyotdagi boshqa turli mazkur konsepsiyalar bilan birga, jismoniy kuch va jangiylikning muhim ahamiyatiga ega bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Qahramonlar, ko‘p qator milliy adabiyotda xalqlar tomonidan iste’mol qilingan xususiyatli epik qahramonlardir. Ularning jismoniy va ruhiy kuchlari, odamlar orasidagi kuchli aloqalari, yuksak erkinlik va adolatsizlik bilan kurashishlari, milliyat va ong haqida idealistik fikrlarni o‘z ichiga oladi.

Mashhur O‘zbek eposlari orasida "Alpomish," "Qorqut," "O‘g'uznama," "Farhod va Shirin" kabi asarlar keltirilishi bilan qahramonlik konsepsiyasi o‘zining eng yuqori darajasiga erishganligi hisoblanadi. Bu eposlar o‘zbek xalqlarining jismoniy va ruhiy kuchini, qahramonlikning yuksalishini va ongini ifodalaydi. Ular tufayli, o‘zbek adabiyotida qahramonlik konsepsiyasi milliyatning yuksalishi va xalqlarning ideal qahramonlarga qarshi qo‘ygan umidlari bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning o‘z tarixini va ruhini ifodalaydi. Qahramonlik konsepsiyasi, O‘zbek eposlarida milliyat, ong, jismoniy va ruhiy kuchning yuksalishi va jangiylik asosida kurashishning muhim qismini ifodalaydi. Bu epik qahramonlar, xalqning yuksak erkinlik va adolatsizlik idealini va milliyatga xizmat qilishga bo‘lgan ishonch va erkinlikni aks ettiradi. Qahramonlik konsepsiyasi O‘zbek eposlarining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi va o‘zbek adabiyotining asosiy qismidir.

Qahramonlik konsepsiyasi O‘zbek eposlaridagi tarixiy va adabiy yozma asarlar orqali yetakchi milliy g‘oyalar va qadriyatlar bilan og‘zakilashtirilganligi uchun o‘zbek adabiyotining muhim qismini tashkil etadi.

Qahramonlar O‘zbek eposlarida adolat, erkinlik va odamlar orasidagi samaradorlikni aks ettiradilar. ularning janglarda adolatsizlik bilan kurashishlari va faqatgina haqqa ishonishlari, ularning milliyat va ongga qo‘ygan umidlarini ifodalaydi. Ularning jismoniy va ruhiy kuchlari, adolatga erishishlari va yaxshi bilan yomonni ajratishlari, o‘zbek xalqining qahramonlik, erkinlik va adolatga qarshi qo‘ygan qadriyatlarini ifodalaydi. Bundan tashqari, qahramonlik konsepsiyasi O‘zbek eposlaridagi milliyat, ong va boshqalar kabi muhim mavzular bilan bog‘liqdir...

Bu epik qahramonlar, xalqning tarixiy va adabiyotidagi muhim shaxslar hisoblanadi va o‘zbek adabiyotining asosiy qismidir. Eposning qahramonlik konsepsiyasining inson faoliyati, janglar, muhabbat, haqiqat, go‘zallik va adolatga oid qahramonliklarni kuylashdan iborat bo‘lgan asosiy tomoni bayon qilinadi. Konsepsiya tushunchasi ma’lumot berilgan va adabiyotdagi ahamiyati ta’riflangan. Badiiy asarlar, xususan eposlar, muallifning konsepsiyasini ifoda etish usullari bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy shart-sharoitlar va muallifning subyektiv qarashlariga qarab o‘quvchining ma’naviy-ruhiy saviyasini oshirishi mumkin. Maqolada eposning janrlari, ularning badiiy shakl xususiyatlari, xalq eposining ideallari, hayotning keng tasvirlanishi va O‘zbek eposlarining qahramonlik konsepsiyasi haqida ma’lumotlar berilgan. Barcha ma’lumotlar epos va qahramonlik konsepsiyasining muhim aspektlarini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdiyev Erkin //Adabiyotshunoslikka kirish// O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: Iqtisod-moliya, 2007. -304 b.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” 2005.
4. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: “Muharrir”, 2011.
5. Kholmatov, O. U. U. (2020). Interpretation of" lost generation" in the creation of Erih Maria remark. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research, Journal, 10(11), 1654-1659.

Sohiba ARZIKULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
arzikulovasohiba4@gmail.com

CHO‘LPONNING KICHIK NASRIY ASARLARIDA MILLAT TAQDIRINING AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada Cho‘lponning kichik nasriy asarlari, xususan, “Qurboni jaholat”, “Doktor Muhammadiyor”, “Novvoy qiz”, “O‘ktabr qizi” asarlarida millat taqdirining aks ettirilishi yoritilgan. Cho‘lponning kichik hikoyalari “Kecha va kunduz” romanining yaratilishi uchun asos bo‘lganligiga urg‘u berilgan. Yuqorida sanalgan asarlardagi qahramonlarning qismatida tub burilish yasagan voqealarning sabablarini ko‘rsatishdagi Cho‘lpon mahorati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *jaholat, hikoya, o‘quv, ilmsizlik, johillik, xalq dardi, mavjud sharoit, xalq turmushi.*

Аннотация: в данной статье освещается отражение судьбы нации в малых прозаических произведениях Чолпона, в частности, “Жертва невежества”, “Доктор Мухаммадиёр”, “Девушка-пекарь”, “Октябрьская девушка”. Подчеркивается, что рассказы Чолпона легли в основу создания романа “Ночь и День”. Раскрывается мастерство Чолпана в показе причин событий, внесших коренный перелом в судьбы героев названных произведений.

Ключевое слова: *невежество, рассказ, образование, невежество, невежество, болезнь народа, существующие условия, жизнь народа.*

Annotation: this article highlights the reflection of the fate of the nation in Cholpon's small prose works, in particular, "Victim of Ignorance", "Doctor Muhammadiyor", "Baker Girl", "October Girl". It is emphasized that Cholpon's short stories were the basis for the creation of the novel "Night and Day". Cholpan's skill in showing the reasons for the events that made a radical change in the fate of the characters in the above-mentioned works is revealed.

Key words: *ignorance, story, education, ignorance, ignorance, people's disease, existing conditions, people's life.*

Kirish. “Tong yulduzi” bo‘lib porlagan Cho‘lpon adabiyotimiz osmonida o‘chmas iz qoldirdi. Cho‘lponning ijod osmoni ma’rifat yog‘dusi bilan chaqnagan yulduzlarga to‘la edi. Bu yulduzlar Cho‘lponning o‘lmas she’rlari, kishini mushohadaga undovchi maqolalari, hikoya, roman va dramalaridir deya ayta olamiz. Cho‘lpon ilk ijod namunalaridan biri bo‘lgan “Doktor Muhammadiyor” hikoyasida Hoji sartarosh tilidan quyidagi jumlani ayttiradi: “Jaholatga qarshi to‘p, miltiq, to‘pponcha, xanjar, o‘q-doru – yolg‘iz o‘quv, o‘quv” [2: 272]. Zotan, bu fikrlar har qaysi davr, zamon uchun ham o‘rinlidir. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q” [1: 114].

Asosiy qism. Cho‘lpon asarlarida badiiy voqelikni poetik til va obrazlar orqali jonlantirishga erishgan ijodkordir. Cho‘lpon 20-yillarda yozgan “Oydin kechalarda”, “Qor qo‘ynida lola”, “Novvoy qiz” singari hikoyalarida o‘zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini badiiy tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g‘oyani aks ettirgan. Umuman, o‘zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho‘lpon she’riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham, hatto, “Kecha va kunduz” romanining ham asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab bergan. Zero, Cho‘lponning kichik nasriy hikoyalari “Kecha va kunduz” asari uchun xamirturush bo‘lgan.

Adibning “Qurboni jaholat” deb nomlangan birinchi hikoyasiyoq jadidchilik g‘oyalariga hamohang ravishda ma’rifiy mavzusida yaratilgan. Uning yosh qahramoni Eshmurod bilim olishni, Yevropa shaharlarga borib o‘qishni orzu qiladi. Cho‘lpon voqealar bayonini keltirar ekan, Eshmurod va Mo‘minjon o‘rtasidagi suhbatga ta’lim masalasini qo‘yishni afzal bildi. O‘sha yili yozilgan “Doktor Muhammadiyor” deb atalgan hikoyasida ham Turkiston yoshlarining chet ellarga borib o‘qib, el-u yurtiga foyda keltiradigan odamlar bo‘lib yetishuvini orzu qiladi. Chunonchi, adib keng va ochiq tafakkurni, erkin va ozod milliy yuksalishni, ma’rifat va madaniyat orqali hayotni go‘zallashtirishni orzu qildi, shu yo‘lda tinmay faoliyat ko‘rsatib, ijod qilganligini o‘z sayohatnomasida quyidagicha xulosalaydi: “Shu kalta sayohatning natijasida ko‘p narsalarni ko‘rdik. 5-6 yillik buzg‘unlik tarixini joy-joyida varaqlab, o‘qib ko‘rdik. Buzg‘unlik haqiqatan juda kuchlik. Yurt – buzulg‘on. Lokin uning munbat tuprog‘i ko‘chib ketgani yo‘q, joyida. U tuproq orqali yana yurtning yashnatmak siz va bizning qo‘limizda, hurmatli o‘qug‘uvchilar” [2: 279]. Mazkur fikrlar Cho‘lponning dunyoqarashi ezilgan, xo‘rlangan, vayronaga aylangan o‘lkaning

ijtimoiy muhitida o‘z xalqi va yurtini ozod ko‘rish istagi, mustaqillik orzulari tarzida shakllanganligini isbotlaydi.

“Doktor Muhammadiyor” hikoyasi tahlili. Cho‘lponning ilk mashqlaridayoq realistik va didaktik adabiyotga xos xususiyatlar ziddiyatga kirishganini ko‘rsatadi. Yosh adib ibratli qahramon yaratish maqsadini ko‘zlagani holda qahramonini o‘zining tajribasidan kelib chiqqan holda talqin qiladi, unga o‘zining o‘y-hislarini singdirib yuboradi. Haj niyati ila safarga otlangan Hoji sartarosh ko‘plab yurtlarni kezadi, lekin tugal ilmga ega emasligi sabab ham bu sayohati davomida ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois ham u yakka-yu yagona dilbandi Muhammadiyorni ilmli qilishni istaydi. Bu yo‘lda bor imkoniyatlarini ishga soladi. Mahalliy boylardan yordam kutadi. Lekin bular foyda bermadi. Hoji sartaroshning o‘limiga esa o‘sha o‘zi nafratlangan JAHOLAT sabab bo‘ladi. U so‘nggi nafasini olar ekan farzandiga ilm olib, yetuk shaxs bo‘lishni vasiyat qiladi. Muhammadiyor avvaliga otasining qotillaridan o‘ch olishni niyat qiladi, biroq otasining o‘limiga haqiqiy sabab ilmsizlik, johillik ekanligini tushunadi va jaholatni o‘quv bilan yengmoqqa bel bog‘laydi. Millatidan yordam ko‘rmagan Muhammadiyor Bokuga boradi va chin ma’nodagi yordamni shu yerdan topadi. Maktabni, gimnaziyani, dorilfununni a’lo natijalar bilan tugatadi va, hattoki, Shvetsariyaga borib keladi. Shunda ham uning qalbini Turkistonning rivojlanishdan orqada ekanligi ezardi. Vataniga doktor sifatida qaytgan Muhammadiyor kambag‘allarni bepul davolaydi. Bu hikoyada ko‘rsatilgan jarayonlar, ko‘tarilgan mavzu Cho‘lponning ijodda mavhum g‘oyadan emas, real hayotdan kelib chiqish ehtiyojini sezayotganidan, vujudida san’atkor va tashviqotchi kurashayotganidan dalolatdir. Ijodiy o‘sishda bu kurash san’atkor foydasiga hal bo‘lishi tabiiy edi, biroq Cho‘lpon ijtimoiy faoliyat qozonida qaynagani uchun, ya’ni jadid muhiti havosidan nafas olgani uchun uning ijodiy tamoyillaridagi o‘zgarishlar ko‘proq tashqi ta’sir natijasida yuz berdi. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining takomilida Cho‘lponning munosib hissasi bor. Xususan, “Oydin kechalarda” novellistik hikoyaning adabiyotimizdagi ilk va mumtoz namunasi sanashimiz mumkin. [4: 332] Hikoyada ayolning baxtga zorligi, e’tiborda chetda ekanligi tasvirlangan. Cho‘lpon “obyektiv” tasvir imkoniyatlaridan maksimal foydalanadi, badiiy voqelikka turli nuqtalardan qarash, “kutilmaganlik effekti” kabi vositalardan samarali foydalanadi. Adabiyotimiz uchun yangi hisoblangan mazkur usul va vositalarning milliy ruhga yo‘g‘rilgan holda olib kirilishi kitobxonni bu usuldagi asarlarni qabul qilishga tayyorlashni osonlashtirishga sabab bergani ham davr uchun muhim edi.

Cho‘lponning “Novvoy qiz” hikoyasida Sharq ayoliga xos hayo, iffat saqlangan holda o‘zbek ayoli ham bilim olishi kerak, dunyoviy ilm shu’lasidan bahramand bo‘lishi kerak, fikr-mulohazasini oshkora avj pardada aytishi kerak deydi. [3: 274] Bularga erishmoq uchun esa yana va yana o‘quv kerak, harakat qilish kerakligini ta’kidlaydi. Adib nazarda tutgan hayotiy haqiqat esa bunday edi: yo‘lda ketayotgan inson boshini ortiq darajada yerga qaratib yuborar ekan, u oyoq ostidagi tuproqni ko‘radi, bu holatdan esa ikki xil natijani kutish mumkin:

1) boshini juda egib yuborgan kishi oldidagi yo‘lni ko‘rmaydi va u to‘siqqa borib uriladi;

2) ortiqcha egilgan bosh shu alfozda ketaversa, sekin asta bel egiladi, tizzalar bukilib tiz cho‘kadi, oxir-oqibat esa tuproqqa qorishadi.

Tajribali adibning “O‘ktabr qizi” hikoyasi ham alamli haqiqatdan sizib chiqqan asardir. Hikoyada o‘zbek ayolining dardlari obrazlar orqali ayanchli talqin etiladi. Diltortar ovozi bilan dildagi dardlarni kuyga solgan qizning holatini ifodalashdagi mahoratga qarang. Hikoyadan keltirilgan quyidagi parchaga qaraylik: “O‘zbek qizining o‘z og‘zidan, o‘z tili bilan to‘kilgan o‘zbek dardlari, uning dutorining ijirg‘anuvchi tovushlari bilan birga o‘zbek xalqining zang bosib kelayotgan dillariga shuncha yaxshi ta’sir qildikim, zanglari sekin-sekin yuvilib, artilib borg‘ondek bo‘ldilar. Shuning uchun xalq ruhi uni sevdi”. [2: 306] Uni sevgan xalq unga Vannaychaxon deb nom berdi. Cho‘lpon mahorati bu bilan cheklanib qolmadi. Hamisha tabiatga oshno bo‘lgan ijod kishisi Cho‘lpon qizning o‘limi xabarini bunday tasvir etadi: “Yiroqlardan qarg‘alarning mudhish nag‘malari, shodlik kuylari eshitildi. Borib ko‘rdilar: paxta kabi oppoq tan, ko‘k qarg‘a shohidan ko‘ylak – qonga belangan. Yuzdagi nurlar yiroq o‘lkalarni eslab uchib ketgan qushlar bilan birga ketganlar” [2: 306]. Bu jumlalar yozuvchining folklordan yaxshigina xabardorligidan dalolat beryapti, chunki qarg‘alar yomon xabar keltirishi xalq orasida bor gap.

“Vannaychaxon o‘lgan... Vannaychaxonni eri o‘ldirgan... Shafqatsiz er xalq qizining hayot bo‘g‘izlariga pichoq qadag‘on... Vannaycha turmushga, qullar, cho‘rilar turmushiga isyon qilg‘an, kishanlarni yumshoq qo‘li bilan uzgan, parchalag‘on bir o‘zbek qizi edi.” [2. 307]. Qullikdan qutulishga intilganning, erk uchun kurashganning achchiq qismati shundayligini ko‘rib turgan ijodkor jim tura olmasdi. Vannaycha orqali butun erksiz ayollar ahvoli tasvirga olingan.

Xulosa. Cho‘lponning kichik nasriy asarlarini kuzatganda uning chin ma’nodagi ijodkor shaxs, izlanuvchan, yangilikka o‘ch inson bo‘lganiga amin bo‘lamiz. Cho‘lpon asarlarining ildizi haqiqatdir. Cho‘lpon asarlari reallikka asoslangan, aynan mana shu jihati ham bu asarlarning boqiy bardavom ekanligini, o‘ziga xosligini va badiiy qiymatini yillar davomida oshirib borsa oshiradiki, aslo yo‘q bo‘lib

ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Izlanuvchan adib xorijiy adabiyotlarga xos usul va vositalarni dadillik bilan adabiyotimizga tadbiq qildi, tajriba qilishdan, bu yo‘lda muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo‘rqib o‘tirmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Cho‘lpon. Asarlar. II jild. –T.: 1994. 470-b.
3. Erkinova F. M. Cho‘lponning “Novvoy qiz” hikoyasiga chizgilar. “Science and innovatsion”. 2022/2-son.
4. Ko‘charova D. K. “Hikoyaning struktural tahlili” (“Oydin kechalarda” hikoyasi asosida). “Pedagogs” internatsional research juornal. 2022/2-son.

Ruqiya XUSANOVA,
Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi

G‘ARB BADIIY IJODIDA MIF

Annotatsiya: bu maqolada g‘arbda mif va uning paydo bo‘lishi, qadimgi xalqlar miflari va ularning o‘ziga xosligi, “Bilgamish” dostonidagi mifologik qarashlar, boshqa g‘arb mamlakatlardagi miflari hamda qadimgi yunon miflarining o‘xshash jihatlari haqida, mifga bo‘lgan qiziqishlarni o‘rganuvchi mifologik maktabning vujudga kelishi haqida fikr-mulohazalarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *mif, mifologiya, tafakkur, Qur’on, Injil, Shumer, metafora.*

Аннотация: в данной статье сосредоточено внимание на мифе и его возникновении на Западе, мифах древних народов и их своеобразии, мифологических взглядах в эпосе «Бильгамеш», мифах в других странах Запада и подобных аспектах древнегреческих мифов, о мнениях, о возникновении мифологической школы изучающей интересы.

Ключевые слова: *миф, мифология, мысль, Коран, Библия, Шумер, метафора.*

Annotation: in this article, the myth and its emergence in the West, the myths of ancient people and their uniqueness, mythological views in the epic "Bilgamish", myths in other Western countries and similar aspects of ancient Greek myths, about the myth attention is focused on the opinions about the emergence of the mythological school that studies interests.

Key words: *myth, mythology, thought, Koran, Bible, Sumerian, metaphor.*

KIRISH

Mif (yunoncha mythos – rivoyat, hikoya, masal) – xalq xalq og‘zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo‘lgan, voqelik(olam)haqidagi tasavvurlarni konkret obrazlar vositasida aks ettiruvchi rivoyaviy asarlardir. Mifologiya ko‘plab miflardan tashkil topadi. Ular qadimgi odamlar uchun tafakkur shakli bo‘lib, miflar vositasida olam sir-sinoatlarini bilishga intilganlar. Deylik, yunonlar chaqmoq chaqishini Zevsning, dengizdagi dahshatli dovullarni Poseydonning g‘azablangani bilan izohlaganlar, inson taqdiridagi turfa evrilishlarda ilohlarning aralashuvini ko‘rganlar. Qadim qadim zamonlardan beri insoniyat quyoshning chiqishi va botishi, dengiz suvlarining ko‘tarilib tushishi, suv toshqini, quyosh va oyning tutilishi, vulqonlar otilishini tushunmoqchi bo‘lishgan. Shu yo‘ldagi urinishlar miflarni paydo qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Miflar hamma xalqlarda bor. Ulardagi voqealar ko‘pincha mushtarak bo‘lishi mumkin. Ba’zan ertak va miflarni adashtirib yuborish hollari ham kuzatiladi. Ertak muallifi o‘quvchini qiziqtirish uchun har xil poetik usullardan foydalanib harakat qiladi, lekin o‘zi voqealarga ishonmaydi. Uning maqsadi o‘quvchini jalb qilish. Mif yaratuvchilari esa o‘z rivoyatlariga ishonadi. Mifda ishonch eng muhim atribut. Mif voqealariga ishonch bo‘lmasa, mif tabiatini to‘liq tushunib bo‘lmaydi. Mifning vazifasi u yoki bu voqea mohiyatini tushuntirishdir. Mif insonni o‘rab turgan olamni tushuntirishning asosiy yo‘li bo‘lgan. Qadimgi Shumer miflarini oladigan bo‘lsak, “Bilgamish” dostonining o‘n birinchi bitigida Nuh to‘foni aks etadi. “Injil”da keltiriladigan Nuh to‘foni bilan bog‘liq rivoyat syujeti ham “Bilgamish” dostonida uchraydi. “Bilgamish” dostonining matni fanda “Nineviya” varianti deyiladi... Bu nusxa ham Shumerlarning asl nusxasidan emas, balki eski Bobil variantidan olingan va to‘ldirilgan nusxadir. Asl Shumer nusxasi bu nusxadan va Bibliyadan ikki ming yillar oldin yozilgan edi, og‘zaki holda og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgani esa undan ham ilgari paydo bo‘lgan, deb yozadi shumerlar haqida maxsus asar yozgan (“Shumerlar va Turon qavmlari”) o‘zbek olimi Zoyir Zayitov.

Misr mifida yerning paydo bo‘lishi haqida rivoyatlar bor. Ko‘plab xalqlar miflarida azaldan hamma joyda suv bor bo‘lgan, ummondan yer paydo bo‘lgan deyiladi. Misrga oid mifga ko‘ra Nun (xaos) quyosh ma'budi Rani paydo qildi (Bu hozirgi ilmiy qarashlarga ham to‘g‘ri keladi). Ra havo (Shu ma'budi)ni va namlik (Tefnut)ni yaratdi. Havo va namlik yer (Gora ma'budi) va osmon (Nut ma'budasi)ni yaratdi.

Avstraliya mifi.Ular avloddan avlodga birinchi qush, hayvon va o‘simlikning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlarni aytib kelishadi. Eng ko‘p kenguru va it haqidagi miflar tarqalgan. Aborigenlar kenguruni odam-

kengurudan paydo bo‘lgan deb ishonishgan.

Shimol va Amerika miflari. Shimolning ibtidoiy odamlari uchun kit muqaddas maxluq hisoblangan. Ovchilarga uni ummon ma'budasi Sedna yuborgan deb bilishgan. Agar Sedna odamlardan hafa bo‘lsa, kit va tyulen yubormagan. Kitni ovlashib, maydalashib, bir qism go‘shtni o‘zlariga, bir parchasini suyagiga qo‘shib ummonga, ma'budaga otishgan. Otilgandan kit yana qayta tiriladi va Sedna uni bizga beradi, deb ishonishgan.

Afrika. Olamning yaratilishi bilan bog‘liq mif. Bushmen-san qabilasi quyoshning yaratilishini shunday tushuntiradi. Ulkan maxluq bor edi. Bir qo‘lini ko‘tarishi bilan qo‘ltig‘i ostidan quyosh chiqar, yer yuzi nurga chulg‘anardi.

Qadimgi yunon miflari. Narsiss haqida mif bo‘lib, uning go‘zalligi va oshig‘I Exo haqidagi rivoyatdan iboratdir. Rivoyatga ko‘ra suvda o‘z aksini ko‘rib o‘zini sevib qolgan Narsiss iztirob chekib quridi. Odamlar ancha vaqtdan keyin sohilda bir gulni topib olishadi: oq narsis gulni. Rim shoiri Ovidiy “Metamorfoza” asarida Narsiss gulni qanday paydo bo‘lishi haqida batafsil yozadi.

Amerika, Afrika, Okeaniya kabi mamlakatlar topilgan va ularning ham o‘z miflari paydo bo‘lgan. Etnograf va folklorchilar ularni yozib olishgan. Antik davr madaniyatining, jumladan, yunon mifologiyasining jahon xalqlari taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta'siri beqiyosdir. Yunon xalqining miflari umumbashariy madaniyatning asoslaridan biri bo‘lib, u hozirgi zamon kishisining tasavvuri va tafakkuri tarziga chuqur kirib borgan. Qadimgi yunon mifologiyasi yerda hayotning paydo bo‘lishini, tabiatdagi hodisalarning yuz berishi sabablarini tushuntirishga bo‘lgan urinishi sifatida, inson o‘z atrof-muhitidagi o‘rnini aniqlashga ojiz bo‘lgan davrda paydo bo‘lgan edi. Miflar yaratilishining o‘zi insonning ijodga va o‘z-o‘zini bilib olishga qo‘ygan ilk qadami edi. Yurt kezib yurgan aed – qo‘shiqchilar tomonidan ijro etilgan barcha afsonalar, madhiyalar va qo‘shiqlar zamonlar o‘tishi bilan shoirlar tomonidan dostonlarga aylantirilgan. Zamonlar o‘tishi bilan olam haqidagi mifologik tasavvurning o‘rnini ilmiy bilimlarga va tabiat hodisalarini o‘rganish natijalariga asoslangan qarashlar egalladi. Ilgari sirli tuyulgan ko‘plab hodisalar ilmiy jihatdan asoslab berildi. Biroq shunga qaramay, miflar yo‘qolib ketmadi, ular o‘z hayotini adabiyotda davom ettirdi. Zevs, Prometey, Gerakl va boshqa qadimgi miflarning qahramonlari, turli davr yozuvchilarining asarlaridan joy oldilar.

Miflardan hikoya qilinishicha, yerda dastavval dahshatli mahluqlar: Devlar, oyoqlari o‘rnida bahaybat ilonlar bilanglab turgan gigantlar, kattaligi tog‘day yuz-qo‘lliklar, peshonasi o‘rtasida bittagina chaqchaygan ko‘zi bor vahshiy kiklop (siklop)lar, yer va osmonning dahshatli bolalari-qudratli titanlar yashagan. Yunonlar gigantlar va titanlar obrazida tabiatning yovuz kuchlarini gavdalantirganlar. Miflarning hikoya qilishicha, tabiatning bu yovuz kuchlari dunyoda tartib o‘rnatgan va unga hukumronlik qilgan Chaqmoq, Bulut osmon ilohi Zevs tomonidan jilovlangan va bo‘ysundirilgan. Titanlar o‘rniga Zevs saltanati bunyodga kelgan.

Yunonlar xudolarni odam shaklida tasavvur qilganlar, ularning bir-birlari bilan munosabatlari ham kishilar o‘rtasidagi munosabatga o‘xshagan. Yunon xudolari o‘zaro janjallashgan, yarashgan, odamlar hayotiga doimo aralashib turgan, urushlarda ishtirok etgan. Har bir xudoning o‘ziga yarasha ishi bo‘lgan, olamda ma'lum «xo‘jalik»ni «boshqargan». Yunonlar o‘z xudolariga odamlar singari tabiat (xarakter) va xulq-atvor berganlar, xudolar oddiy odamlardan faqat o‘lmasligi bilangina farq qilgan. Homerning “Iliada” va “Odisseya”, Aristofan, Vergiliy, Ovidiy asarlari ham miflar asosida yaratilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga ko‘ra ayta olamizki, folklor, mif va yozma adabiyot mushtarak yo‘nalishlardir. Bu uch tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Chunki mifologik qarashlardan folklor kelib chiqqani kabi, yozma adabiyot ham o‘z navbatida har ikkalasining mevasi bo‘lib vujudga kelgan.

Turli mifologik qarashlarning bog‘liqligi va ularning o‘rganilishiga bo‘lgan qiziqishlar Mifologik maktabning dunyoga kelishiga sabab bo‘ldi. Mifologik maktab folkloristika va adabiyotshunoslikda romantizm davrida paydo bo‘lgan ilmiy yo‘nalish. Mifologik maktabni mifologiya haqida fan bilan bitta narsa deb qaralmasligi lozim. Mifologik maktabning falsafiy asosi F.Shelling va A. va F. Shlegeylar romantizmining estetikasiga borib taqaladi. 18-19 asrlarda “Mifologiya bo‘yicha qo‘llanma” (X.G.Xeyne) va boshqa shu kabi ilmiy asarlar yozilgan. Mifologik maktabning to‘liq shakllanishi aka-uka Gimmlar nomi bilan bog‘liq. Ular xalq poeziyasining boshlanishini “ilohiy ibtido” bilan bog‘lashadi. Mifdan ertak, epos va afsonalar kelib chiqqan, folklorni esa xalqning ijodi deb bilishdi. “Nemis mifologiyasi” (1835) kitobida haqiqiy mifologik an'analar aynan nemis mifologiyasida yaxshi saqlanib qolganligi g‘oyasini ilgari surishadi.

XULOSA

Demak, antik davrlardan buyon g‘arbda ham miflarga qiziqish kuchli bo‘lgan. Buning isboti sifatida o‘sha davrlarda ham yerning paydo bo‘lishidan tortib to tabiat hodisalarigacha qiziqishlar kundan-kunga ortgani sayin mifologik tushunchalarga suyanilganiga e’tibor qaratamiz. Buning natijasida yuzaga kelgan ko‘plab mifologik rivoyatlar g‘arb ijodiy adabiyotini bugungi kunga qadar boyitib kelayotganligi tahsinga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kun N.A. Qadimgi Yunonistonning afsona va miflari. T., 2013.
2. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb.-T.,1997.
3. Saidov U. Sharq va G‘arb:madaniyatlar tutashgan manzillar.-T.:Yangi asr avlodi, 2009.

4. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. Toshkent. Mumtoz so‘z. 2013.
5. Zoyir Ziyotov. Shumerlar va Turon qavmlari. Toshkent. Mumtoz so‘z. 2012.

Nargiza NEMATOVA,
Renessans ta’lim universiteti
Filologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINING O‘QITISH HOLATI VA ZARURIYATI

Annotatsiya: muallif rus tilini yanada samarali o‘rgatish va o‘qitishda an’anaviy va noan’anvaiy, yuzma-yuz mashg‘ulotlariga etibor qaratish kerakligi haqida fikr yuritgan.

Kalit so‘zlar: *imkoniyat, fan, mashg‘ulot, multimedia, animatsiya.*

Аннотация: автор считает, что для более эффективного преподавания и обучения русскому языку необходимо уделять внимание традиционному и нетрадиционному очному обучению.

Ключевые слова: *возможность, наука, обучение, мультимедиа, анимация.*

Annotation: the author thought that in order to teach and teach the Russian language more effectively, it is necessary to pay attention to traditional and non-traditional, face-to-face training.

Key words: *opportunity, science, training, multimedia, animation.*

Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda har bir shaxsni bir necha tillarni bilishi shubhasiz. o‘z imkoniyatini yanada samarali amalga oshirishga imkon beradi, shaxsiy hayotida va shaxsiy qobiliyatini faoliyatning turli sohalarida kerak bo‘ladi. Rus tili har doim millatlararo aloqa vositasi hisoblangan, ya’ni inson o‘zini o‘zi anglash imkoniyatini beradigan ko‘p millatli ko‘p madaniyatli vositadir. Filologik ta’lim shakllanish bilan chambarchas bog‘liq inson axborot madaniyati deb aytishadi. Oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashda o‘qitiladigan fanlar qatorida “Rus tili” fanining o‘rni alohida. "Rus tili" fani bilan "Ona tili»ning farqi shundaki nutq amaliyotining miqdori yuqoriligi (oilada, do‘stlar, tanishlar va boshqalar bilan) va rus tilida muloqot qilishi, oliy ta’limdagi chegaralangan haftalik soatlardagi amaliy seminarlar doirasi bilan cheklanadi. Rus tilini yanada samarali o‘rgatish va o‘qitish uchun nutq ko‘nikmalarini nutq amaliyoti hajmini oshirish kerak, an’anaviy va noan’anaviy, yuzma-yuz mashg‘ulotlarida rivojlantirish kerak [1]. Rus tilini chet tili sifatida o‘qitish universitetga kirishdan oldin, bo‘lajak pedagoglar tilning so‘z boyligi va uning grammatik tuzilmalarini o‘rganganlarida amalga oshiriladi. Oliy ta’lim muassasalarida bilimlar ma’ruza va amaliy didaktik tizimlar bo‘yicha ishlab chiqiladi, bu yerda jarayon o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan o‘quv materiallari bilan boyitiladi. Ammo bu fanning hozirdagi o‘quv soatlari bo‘lajak pedagoglarni til savodxonligini oshirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

3. Jo Godefroid; Emmanuel Stip. Psychologie et santé mentale (фр.). — Laval, Québec: Éditions Études vivante, 1993. — 167 p.
4. Грекова Т.Н. Кожно-гальванический рефлекс как показатель изменений психического состояния. Физиология человека, 1975, т. 1, № 6.
5. Ubaydullayeva, Z. (2023, December). NOVERBAL HISSIYOT IFODALOVCHI VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. In Fergana state university conference (pp. 154-154).
6. Hofstede, Geert (December 1986). "Cultural differences in teaching and learning". International Journal of Intercultural Relations. 10 (3). International Academy for Intercultural Research: 301–320

Bobur ISMOILOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
ismoilov_bobur@Internet.ru
O‘zbekiston TDSHU professori, f.f.d Muxlisa Ziyovuddinova taqrizi asosida

BALOG‘AT ILMI RIVOJIDA «MIFTOHU-L-ULUM» ASARINING O‘RNI

Annotatsiya: balog‘at ilmining ilm sifatida shakllanishini uchta davrga ajratish mumkin. Birinchi davr nahvshunoslar davri bo‘lib, bu paytda balog‘at haqida ba’zi ma’lumotlar boshqa asarlar tarkibida shakllandi. Sibavayh, Mubarrad, Ibn Jinniy kabi adiblar bu ilmga oid fikr mulohazalarni aytib o‘tganlar. Ikkinchi bosqich, rivojlanish bosqichi bu davrda balog‘atga oid ko‘plab fikr va ma’lumotlar Bu Al-Johiz, Ibn Mu’taz, Abu Ubayda Ma’mar, Ibn Mu’taz, Abu Hilol Askariy, Qudama ibn Ja’far kabilar ijodida uchraydi. Uchinchi bosqich mustaqil bo‘lish davri bu davrda Abdulqohir Jurjoniy, Yusuf Sakkokiy, Xatib Taftazoniy balog‘atga oid mustaqil asarlar yaratdi.

Kalit so‘zlar: *balog‘at, johiliyat davri, maoniy, bayon, badi’, Asroru-l-balog‘a, Miftohu-l-ulum, Talxisu-l-miftoh, uch davr, Nahvshunoslar, rivojlanish bosqichi, mustaqil bo‘lish davri.*

Annotation: the origination of puberty science as a science can be divided into three periods. The first period is the duration of ethnographers, during which some details about puberty was formed in other works. Writers such as Sibawayh, Mubarrad, and Ibn Jinni have demostrated their views on this science. The second period is the stage of development. During this period, many ideas and information about adulthood can be established in the works of Al-Jahiz, Ibn Mu'taz, Abu Ubayda Ma'mar, Ibn Mu'taz, Abu Hilal Askari, Ja'far ibn Yahya, Qudama ibn Ja'far. The third stage is the period of independence. In this period, Abdulkahir Jurjani, Yusuf Sakkoki, Khatib Taftazani created independent works related to adulthood.

Key words: *puberty, period of ignorance, ma'oni, text, badi', Asroru-l-balog'a, Miftohu-l-ulum, Talhisu-l-miftah, three periods, , stage of development, period of independence.*

Аннотация: период развития науки о риторики можно разделит на три этапа. Первый период — период грамматиков, в этот период сформировалис некоторые сведения о науке о половом созревании в других работах. Такие ученые, как Сибавайх, Мубаррад и Ибн Джинни, поделилис своими мыслями об этой науке. второй этап развития, в этот период много информатсии можно найти в трудах Ал-Джахиза, Ибн Мутаза, Абу Убайды Мамара, Ибн Мутаза, Абу Хилала Аскари, Кудамы ибн Джафара. Третий период – период независимости. В этот период Абдулкохир Джурджани, Юсуф Саккоки, Хатиб Тафтазани написали самостоятелные произведения о риторике.

Ключевые слова: *Риторика, период, невежества, наука о значениях, наука повествования, наука бади, Асрору-л-балага, Мифтаху-л-улум, Талхису-л-мифтах, три периода, грамматисты, этап развития, этап независимости.*

Kirish. Balog‘at ilmining paydo bo‘lishi johiliyat davriga borib taqaladi. Arab shoirlari o‘sha davrning eng fasohatli, so‘zga usta, kishilari edi. Ular balog‘at ilmi uning terminlari haqida bilmasada, uni fikriy va zavqiy jihatdan bilishardi. Ular gapirsa, she’r aytsa o‘ylamasdan fasih va balig‘ gapirishar edi bu ularning fitratida bor edi. Chunki arab adabiyotidagi eng go‘zal she’rlar johiliyat davrida aytilgan she’rlar hisoblanadi. She’r aytish, gapirishning o‘ziga xos qonun qoidalari bo‘lgan lekin u qoidalar yozuvda emas, fitriy o‘zlarining zavqidan kelib chiqib aytganlar. Jumladagi fasohat va balog‘atni yoki kamchiliklarni fitriy sezishardi. Islom kelgan paytda ham balog‘at va fasohat bo‘lgan Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom eng balog‘atli so‘zlovchi bo‘lganlar sahobalar ham juda fasohatli so‘zlashgan. Qur’oni Karim kelib, butun dunyoda she’riyat va fasohatda tengsiz bo‘lgan arablarni bu borada maydonga chaqirdi va ularning hammasini ojiz qoldirdi. Qur’on insonlarni undagi balog‘atni va uning qoidalarini o‘rganishga undadi. Va musulmonlar bunga qattiq kirishishdi hamda Qur’ondagi go‘zalliklarni chiqarish jarayonida shu ilm paydo bo‘ldi va rivojlanib bordi.

Balog‘at ilmini ulamolar uchta bosqichga bo‘lib o‘rganishadi bunda johiliyat davrini hisobga olmaydilar chunki bu davrdagi balog‘at ilmi fan sifatida bo‘lmagan, unga oid alohida terminlar yo‘q edi. Bu uch bosqich quyidagilar:

Birinchi bosqich boshqa ilmlarning zamirida paydo bo‘lish bosqichi bu paytda balog‘atning ilk chizgilari paydo bo‘lib, boshqa asarlarning ichida fikr va mulohaza shaklida paydo bo‘ldi. Bu katta nahvshunoslar davri. masalan, Sibavayh, Mubarrad, Ibn Jinniy kabi nahv imomlari o‘zlarining kitoblarida balog‘at ilmiga oid bo‘lgan fikr mulohazalarni aytib o‘tganlar va balog‘atga oid ba’zi terminlarni keltirganlar.

Ikkinchi bosqich rivojlanish bosqichi bu davrda balog‘atga oid fikrlar o‘sib asta-sekin etilib, pishib keladi va mustaqil fasllar holatiga o‘tadi. Bu davrda Abu Usmon Al-Johiz “Al-bayon va-t-tabyin”, “Iyjazu-l-Qur’on” asarida maoniy ilmi haqida ma’lumot keltirgan, Ibn Mu’taz “Albadi’” asarida bayon ilmi haqida yozadi,

Abu Ubayda Ma’mar “Majozu-l-Qur’on” asarida bayon ilmi haqida ma’lumot keltirib, Qur’onda uchragan asl ma’nosidan boshqa ma’nodagi so‘zlarni o‘rganib chiqadi. Ibn Mu’taz “Albadi’” asarida badi’ ilmi haqida yozadi va uni 5 ta bobga bo‘ladi. Abu Hilol Askariyning “Alkitobat va she’r” asari unda she’rlar va risolalar va balog‘at to‘g‘risida bahs ham bor. Ularga yana Ja’far ibn Yahyo, Sahl ibn Horun, Qudama ibn Ja’farlar ergashdi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyati ular balog‘atni kengroq ma’noda tushunishgan. Masalan asarni va she’rni chiroyli qiladigan va uni buzadigan harqanday narsalarni nazarda tutilgan.

Uchinchi bosqich mustaqil bo‘lish davri hisoblanadi. Bu davrda balog‘at haqida mustaqil asarlar yaratila boshlaydi. Bu davr Abdulqohir Jurjoniy (vafoti 1078 yil) davriga to‘g‘ri keladi u zot birinchi bo‘lib, balog‘at ilmini boshqa ilmlardan alohida ajratib, oldingi fikrlarni ko‘p jihatdan takomillashtirib, ularni tasniflab o‘rganganib, balog‘at ilmining rivojiga juda katta hissa qo‘shgan. Uning bu haqdagi asarlari “Asroru-l-balog‘a”, “Daloilu-l-i’jaz” hisoblanadi. Unda balog‘atni bo‘limlarga bo‘lmasada, tugal shaklga keltirmagan bo‘lsada, balog‘at ilmi va uning tarkibiga kiruvchi ilmlar haqida ma’lumotlarni keltirib, terminlarini ta’riflagan. Uning bu asarlari undan avvalgi asarlardan tubdan farq qiladi. Bu asar undan keyin Abu Ya’qub Sakkokiy “Miftohu-l-ulum” asarini yaratgunga qadar shu holda saqlandi. Shundan so‘ng Sakkokiy “Miftohu-l-ulum” asarini yaratdi va u Jurjoniy, Zamaxshariy va boshqa balog‘at ilmi olimlarining asarlarini chuqur o‘rganadi va ulardan ilhomlanadi va xulosa qilgan holda balog‘at ilmiga oid o‘zining davrigacha hech uchramagan mukammal asar yaratadi. U birinchi bo‘lib balog‘at ilmini boblarga, bo‘limlarga, fasllarga ajratadi va tartiblab mukammal qoidalarini ishlab chiqib, to‘liq shakllantirdi. Bu asar shu davrgacha yozilgan asarlarning eng mukammaliga aylanadi. Ibn Xoldun “Sakkokiy bu ilmni birinchi bo‘lib, tartiblagan, xulosalagan va hozirgi tartibga keltirgan adibdir” deydi. Shundan keyin Sakkokiyning asari juda mashhur bo‘lib ketadi va o‘quv dargohlarida dars beriladigan manbaga aylanadi. Yusuf Sakkokiy XIII asr arab tilshunosligida buyuk iz qoldirgan adib bo‘lib u sarf, nahv, maoniy, bayon, badi’, she’r, qofiya, aruz, mantiq ilmlarining yetuk mutaxassisi hisoblangan. Uning “Miftohu-l-ulum” asari shu darajada mashhur bo‘lib, ommalashganidan unga musulmon diyorlarida ko‘plab sharhlar yozildi, juda ko‘plab qo‘lyozma nusxalari ko‘chirildi va nashrlari chop qilindi hamda boshqa tillarga tarjima qilindi. Bunga sabab asar o‘z ichiga o‘n ikkita muhim ilmlarni olgan edi. Asosan asarning uchinchi qismi ma’nolar qismi mashhur bo‘ldi va butun dunyo bo‘ylab keng tarqaldi. Olim asarini uchta asosiy katta bo‘limga ajratadi shundan birinchi bo‘lim sarf(morfologiya), ikkinchi bo‘lim nahv (sintaksis) va uchinchi bo‘lim balog‘at bo‘limi bo‘lib uni uchta ilmga ajratadi ular maoniy ilmi, bayon ilmi va badi’ ilmi. Shuningdek Sakkokiy asarida bu ilmlarga aloqador bo‘lgan aruz, qofiya, mantiq ilmlari haqida ham qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. Maoniy qismida jumlaning holat taqozosiga ko‘ra gapirish qoidalari o‘rganiladi, bayon ilmida majoz, tashbih va kinoya haqida gap ketadi, badi’ ilmida badiy go‘zalliklar haqida ma’lumot beriladi. Olimning asarni yozishidan maqsadi Qur’oni Karimni to‘g‘ri o‘rganishga qaratilgan edi shuning uchun u asariga harflar ularning talaffuzi, sifatlaridan tortib, ishtiqoq ilmi, sarf, nahv, ma’oniy, bayon, badi’, mantiq, aruz, she’r, qofiya ilmlarigacha kiritdi va ularni mukammal holatda tushuntirdi. Bu asar Abduraymon Qazviniyning “talxisu-l-miftoh” asari yozilgunga qadar darslik sifatida o‘tildi. Qazviniyning “talxisu-l-miftoh” (Miftohning qisqarmasi) asarini “Miftohu-l-ulum” asariga talxis ya’ni qisqa sharh tarzida yozadi, tushunarli qilib, qisqaroq holga keltiradi, yanada tartiblaydi, tatbiq etadi, o‘zidan va Jurjoniyning kitoblaridan ham ko‘pgina narsalar qo‘shadi va mukammal ilmiy matn holatiga keltiradi. Sakkokiyga ba’zi raddiyalar ham beradi, chunki Sakkokiy asari tili juda qiyin edi va juda cho‘zilib ketgan edi deydi. Qazviniyning asari ham juda ommalashib mashhur bo‘lib ketadiki, hatto aslidan ya’ni Sakkokiy asaridan ham mashhur bo‘ladi va madrasalarda o‘tiladigan kitobga aylanadi. Bu asarga ham hoshiyalar, nazmiy matnlar yoziladi. Bulardan boshqa ko‘pgina balog‘atga oid kitoblar ham yozilagan lekin ular ulamolar tomonidan va xalq tomonidan yaxshi qabul qilinmaganligi uchun mashhur bo‘lmagan. Lekin balog‘at ilmida Jurjoniy, Sakkokiy va Qazviniyning asarlari eng mashhuri bo‘lib qolaverdi. Yigirma birinchi asrga kelib himmatlar susayib, aql o‘tmaslashib, qobiliyatlar zaiflashib qoldi va bu kitoblarni o‘qish og‘irlik qilib qoldi va olimlar osonroq balog‘at kitoblarini yozishdi. Bulardan “Balog‘atu-l-vodiha”, “Durusu-l-balag‘o”, “Javahiru-l-balag‘o”, “Taysiru-l-balag‘o” kabilar. Lekin bu kitoblar “Miftohu-l-ulum” va “talxisu-l-miftoh” asarlarini o‘qishdan oldin o‘qitiladi bularni o‘qib bo‘lgandan so‘ng “Miftohu-l-ulum” va “Talxisu-l-miftoh” asarlariga o‘tiladi. Balog‘at tarixiga e’tibor berilsa Jurjoniy va Sakkokiydan so‘ng balog‘at tarixida katta yangilik qilinmaganini ko‘rish mumkin bu ikki olim balog‘at osmonidagi ikki yorqin yulduz hisoblanadi. Qazviniy esa Sakkokiyning asarini osonlashtirgan xolos katta yangilik qilmagan. Bulardan keyin Qur’on asosda ba’zi i’jozlar kashf qilingan va qilinmoqda bu to qiyomatgacha davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 621 ابو يعقوب سوسف السكاكي. مفتاح العلوم. دار الكتب العلمية. بيروت.1987. ص.
2.188 ابو يعقوب سوسف السكاكي. مخطوطة مفتاح العلوم. مكتبة جامعة اسطنبول. ص.

3. حفني ناصف-محمد دياب-سلطان محمد-مصطفى تميم. دروس البلاغة.شموس البراعة.مكتبة البشري.كراستي باكستان. 2009ء. 11430م.
4. 152.تلخيص المفتاح. محمد بن عبد الرحمان القزويني. 2010. ص
5. 179شرح مفتاح العلوم.سعد الدين مسعود ابن عمر التفتازاني. 5628 رقم. ص
6.160 شرح تلخيص مفتاح. الشريف الجرجاني. 6061 رقم. ص
7. http://|www.shamela/ws,ابو الفيض المقلب بمرتضى الزبيدي . تاج العروس من ج
ابو الحسن علي بن محمد الشؤيفي جرجاني.ضبط دار الكتب العلمية-بيروت-لبنان.ص 97 .8 المصباح شرح المفتاح
9.Salimaxon Rustamiy. “Balog‘at ilmida lingvistik nazariyalar va til hodisalarining yoritilishi monografiyasi”. – T:.“Navro‘z”nashriyoti, 2017.170-b
10. Ahmad Taroziy. Funun-l-balog‘a. – T:. Xazina, 1996.212-b
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. –T.: Hilol-nashr nashriyoti, 2021.

Dildora SALIMOVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
furqatovnadildor@gmail.com

YOSH BOLALARDA SO‘Z O‘ZLASHTIRISH TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada psixolingvistikada o‘rganiladigan masalalar, til o‘zlashtirish hodisasi va yosh bolalarda yangi so‘zlarni o‘zlashtirish jarayoni haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: *til, nutq, psixolingvistika, til o‘zlashtirish, nutq ontogenezi, tezkor xaritalash.*
Annotation: this article discusses the issues of psycholinguistics, the phenomenon of language acquisition, and the process of new word acquisition in young children.
Key words: *language, speech, psycholinguistics, language acquisition, speech ontogeny, fast mapping.*

Psixolingvistika tilshunoslikning qator yangi sohalaridan bo‘lmish pragmalingvistika, matn lingvistikasi, matnni o‘rganishda antroposentrik yondashuv, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalarga oid masalalarni tahlil qilish yo‘nalishidagi tadqiqot ishlari bilan chambarchas bog‘liq. Til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli tilshunosikda ham, psixologiyada ham tekshirish obyekti sanaladi. Shunga ko‘ra, bu ikki fanning sintezi sifatida psixolingvistika yo‘nalishi yuzaga keldi. Ushbu atama dastlab 1946-yilda amerika psixologi N.Pronko tomonidan qo‘llangan bo‘lib, XX asrning 50-yillaridan boshlab keng yoyildi. Psixolingvistika atamasi dastlab har qanday chegaradosh lingvopsixologik sohadagi tadqiqotlarni anglatish uchun ishlatiladi. 1953-yil AQSHning Indiana shtati Blugmenton shahrida universitetlararo ilmiy seminar o‘tkazildi. Bu seminarda tilshunoslik va psixologiyani birlashtirish, hosil bo‘lgan yangi ilmiy nazariyani fan sifatida “Psixolingvistika” deb nomlash taklif etiladi.

Lingvopsixologiya sohasidagi nazariy va amaliy xarakterdagi masalalar bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, nutqiy oqimning paydo bo‘lishi, nutqni qabul qilish, til o‘zlashtirish – ona tili va xorijiy tillarni bola tomonidan o‘zlashtirilishi kabi hodisalarni aniqlash o‘zbek tilshunosligi oldida turgan vazifalardir. Psixolingvistikada ontogenez termini inson lisoniy qobiliyatlarining shakllanishini anglatadi. Nutq ontogenezi nutqiy faoliyat nazariyasining tarkibiy qismi bo‘lib, u individda nutq mahsulining shakllanishi, nutqiy qobiliyat ko‘nikmasining paydo bo‘lishini o‘rganadi. Hozirgi kunda til o‘zlashtirish (nutq ontogenezi) nazariyasi keng qamrovli soha hisoblanib, asosan, 4 ta qarashni ilgari suradi.

1. Xatti-harakatga asoslangan qarash. Ushbu qarashga ko‘ra, bolalar tilni boshqa narsalarni o‘rgangandek o‘rganishadi. Atrofdagi bir qancha tovushlarni guruhlantirish, shakllantirish va shunga o‘xshash holatlarda mazkur tovush va ta’sirlarni yuzaga chiqarish amalga oshiriladi.

2. Ijtimoiy ta’sirlarga asoslangan qarash. Bunda til o‘zlashtirish to‘g‘ridan to‘g‘ri taqlid qilish asosida talqin qilinadi.

3. Ona tiliga asoslangan qarash. Bu qarash inson yaralganidan til u bilan birga paydo bo‘lganligini hamda u bilan birga rivojlanib borganini uqtiradi. Tug‘ilgan chaqaloq lisoniy qobiliyatni o‘zi bilan birga irsiy jihatdan olib o‘tish xususiyatiga ega bolishini ta’kidlaydi.

4. Biologik asoslarga tayangan qarash. Bu qarashga ko‘ra, Noam Xomskiy va Erik Lennerberg kabi tilshunoslar tilni o‘zlashtirishni biologik asoslarga bog‘lashadi.

Inson til o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lib tug‘iladi. Ammo bu imkoniyatni yuzaga chiqarish uchun o‘z ehtiyojlarini jamiyat bilan aloqada qondira olishi kerak. Jamiyat bilan aloqada bo‘lmas ekan, olam gultoji – inson hech qachon o‘z ona tilini o‘zlashtirolmaydi, til ko‘nikmalarini ham egallay olmaydi. Fikrimiz dalili sifatida, 13 yoshli Maugli degan qizchani misol qilishimiz mumkin. O‘rmondan topilgan bu qizni “odamlashtirish” uchun qilingan harakatlar juda sekinlik bilan amalga oshgan. Ayniqsa, nutqqa o‘rgatish qiyin bo‘lgan. Bu misol tilning jamiyat bilan aloqadorligini, inson jamiyatdan ayro holda tilni o‘zlashtira olmasligini

isbotlaydi. Psixolingvistika nutqni hosil qilish, nutqni qabul qilish, shuningdek, ona tili va chet tilini o‘zlashtirish jarayonlariga murojaat qilar ekan, buni qanday yuz berishini tushunish uchun psixolingvistika bolalar nutqining rivojlanishiga diqqat qaratadi.

Dastlab bola til o‘zlashtirishni turli tovush shakllarini o‘zlashtirishdan boshlaydi (a-aaa, baa, ba-ba, da-da). Ushbu fonemalar ketma-ketligini talaffuz qilganda atrofdagilarning qaytargan reaksiyasi natijasida bola bu tovushlarni turli ko‘rinishlarda taqdim qiladi.

Yangi atamaning ma’nosini o‘rganishda bolalar uning ma’nosini tushunishlari, asl ma’nosini o‘rganishlari va u qarama-qarshi bo‘lgan ma’nolarini aniqlashlari kerak. Buning uchun bolalar kattalarning so‘zlariga va bu so‘zlardan foydalanish usullariga e’tibor berishlari zarur[1].

Til o‘zlashtirishning eng muhim bosqichi maktabgacha yosh davriga to‘g‘ri keladi. Kattalar bolalarga bilvosita yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri yangi so‘zlarni taklif qilishadi. Ular odatda, so‘zlarni ko‘rsatish olmoshlari bilan keltirib qisqa holatda qo‘llashadi: “Bu – gul”, “Mana bu – kapalak” kabi. Ammo bolalar bu so‘zlarni o‘zlashtirishganini qanday bilsa bo‘ladi? Agar ular yangi so‘zni o‘z-o‘zidan takrorlasa yoki keyingi nutqiga kiritsa, bu ular so‘zni kontekstda qo‘llashgani, uni takrorlash orqali aniq ko‘rsatayotganlarini bilish mumkin. Bolalar yangi so‘zlarni, ular uchun notanish so‘zlarni payqashsa, bu xabarni takrorlash orqali bildirishlari mumkin. O‘zbek tili ona tilisi bo‘lgan Ali ismli bolaning onasi bilan suhbatiga diqqat qilamiz:

Ona: Ali, qara bu yerda qanday chiroyli gullar bor ekan.

Bola: (gullarga qaraydi)

Ona : Bu – boychechak

Bola: Boychechak?

Ona : Ha, boychechak

Bola: Boychechak (boychechakka qarab tabassum qiladi)

Yuqoridagi vaziyat bolalar suhbat davomida tanish so‘zlarga qaraganda yangi so‘zni ko‘proq takrorlash orqali bu so‘zni umumiy leksikoniga qo‘shishini isbotlaydi.

Eve Clark yangi so‘zlar yosh bolalarga qanchalik ta’sir qilishini ko‘rib chiqadi[2]. Ularning ba’zilaridan shunchaki vaziyatni kuzatib, qabul qilish zarur bo‘lgan umumiy jarayon haqida xulosa chiqarish mumkin. U tadqiqotida ingliz tili ona tilisi bo‘lgan Anna ismli qizcha bilan bog‘liq vaziyatni keltiradi.

Anna ichimlik idishini ushlab turibdi va uning sut bilan to‘ldirilishini kutmoqda. Anna qo‘lidagi idishni stakan emas, finjon deb biladi. Kattalar unga stakanni berishi va uni sut bilan to‘ldirib berishlarini taklif qilishadi. Bu vaziyatda Anna hech qanday javob bermaydi. Ammo u qo‘lidagi ichimlik idishini stakan deb atash mumkin degan xulosaga keladi. Demak, bolalar suhbat davomida yangi so‘zni eshitganda hech qanday javob berishmasa ham, o‘zlari uchun pragmatik xulosa chiqarib, yangi so‘zlardan birini o‘zlashtirib oladi.

Bolalar yangi so‘zlarni uchratganda kattalarning xatti-harakati va imo-ishoralariga tayanadilar. Bolalarning kontekstdagi notanish so‘zga qandaydir boshlang‘ich ma’nosini tezda berish qobiliyati “tezkor xaritalash” deb ataladi. Tezkor xaritalash bo‘yicha dastlabki tadqiqot Dockrell tomonidan kuzatilgan[3]. Bir tadqiqotda u 3 va 4 yoshli bolalarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan bir nechta o‘yinchoq hayvonlarni unga olib berishlari so‘raladi. Bolalar navbat bilan o‘yinchoq hayvonlarni olib berishadi. Eng oxirida bolalarga notanish hayvon chumolixo‘r nomi aytiladi. Bu so‘zni ilk marta eshitgan bolalar olinmay qolgan atigi bitta o‘yinchoq hayvon shunday nomlanishini tushunib, darhol uni olib berishadi. Tezkor xaritalash bolalarning yangi so‘zlarni mumkin bo‘lgan ma’nolari haqida dastlabki xulosalarini oladi. Bolalar lug‘atidagi so‘zlar ko‘payib borgani sayin, hozirgacha o‘zlashtirgan so‘zlarni tartibga sola boshlaydi. Ular bir xil semantik guruhga mansub so‘zlarni, masalan, kishilar, joylar, o‘simliklar, hayvonlar, transport vositalari, o‘yinchoqlar tana a’zolari va boshqalarni ifodalovchi so‘zlarni guruhlab chiqishadi. Yosh ulg‘aygani sari bu qatorga yangidan yangi guruhdagi so‘zlar qatori qo‘shilib boradi.

P.Bloomning so‘zlariga ko‘ra, bolalar so‘zlarni boshqa maqsadlar uchun mavjud bo‘lgan murakkab kognitiv qobiliyatlar orqali o‘zlashtiradilar [4]. Bularga boshqalarning niyatlari haqida xulosa chiqarish qobiliyati, tushunchalarni egallash qobiliyati, sintaktik tuzilmani baholash va umumiy o‘rganish va xotira qobiliyatlari kiradi. Boshqa tadqiqotchilar so‘z o‘zlashtirishni ushbu imkoniyatlarning ba’zilari bilan bog‘lashsa-da, Bloom birinchi bo‘lib, to‘liq tushuntirish uchun ularning barchasini qanday talab qilishni ko‘rsatgan. Hatto oddiy otlarni o‘zlashtirish murakkab usullarda o‘zaro ta’sir qiluvchi boy konseptual, ijtimoiy va lingvistik imkoniyatlarni talab qiladi.

Tilni o‘zlashtirish ona tili va xorijiy tillarni o‘zlashtirish jarayoniga tegishli bo‘lib, yosh bolalarda ona tilining o‘zlashtirilish jarayonini tavsiflash, yosh bolalarda ona tili hamda ikkinchi til sifatida o‘zbek tili leksikasini o‘zlashtirish jarayonini tadqiq etish shu tilning ona tili hamda chet tili sifatida o‘qitilishiga ta’sir etibgina qolmay, tadqiqotchilarimiz oldiga amaliy tajriba o‘tkazish masalasini ham qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Clark, Eve V. 2006. Color, reference, and expertise in language acquisition. Journal of Experimental Child Psychology 94, 339-343.

2. Clark, Eve V. 2007. Young children’s uptake of new words in conversation. Language in Society 36, 157-182.

3. Dockrell, Julie E. 1981. The child’s acquisition of unfamiliar words: An experimental study.

4. Bloom P. (2000) How Children Learn the Meanings of Words, MIT Press

Zulxumor ASHUROVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATIDA OLQOR DAMIN SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar she’riyatida muhim o‘rin tutgan Olqor Damin she’riyati lingvopoetikasi haqida so‘z yuritilgan. Shoirning “Gugurt monologi”, “Beparvo haqida qo‘shiq”, “Kelajakka o‘tinch»”she’rlaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, matn, aspekt, badiiy asar tili.*

Annotation: this article deals with the lingvopathy of Olcar Damin’s poetry which plays an important role in children’s poetry here are some examples of the poet’s poems “Song of the game a song is about careless a shame for the future”.

Keywords: *linguopoetics text a spect, language of art.*

Аннотация: в этой статье рассматривается лингвопоэтия поэзии Олкара Дамина, которая играет важную роль в детской поэзии. Вот несколько примеров поэтических поэм «Песня о игре, песня о пренебрежении, стыд за будущее».

Ключевые слова: *лингвопоэтика, текст, аспект, язык искусства.*

Adabiyot – so‘z san’ati. Uning bosh unsuri, demak so‘zdir. Har bir muallif o‘zining asarida tilda mavjud bo‘lgan so‘zlardan foydalanib, san’at asarini yaratadi. Asar tili ustida izlanishlar olib borish jarayonida o‘z navbatida matn tiplari, badiiy matnni bog‘lovchi vositalar, nutq uslubi. Matn xususiyatlari kabilarga e’tibor qaratadi, aslini olganda ham badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda asosiy e'tibor qaratiladigan qismlari ham mana shulardir. O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganish va tadqiq etishda taniqli tilshunos olimlar A.Rustamov, X.Doniyorov, O‘.Abdurahmonov, B.Bafafoyev, F, Ishoqov va boshqalar ko‘plab ishlar olib borishganining guvohi bo‘lamiz va albatta bugungi kunda ham badiiy asar tilini o‘rganish muammosi davom etib kelmoqda. Bunda ta’kidlab o‘tish kerakki, ikki asosiy yo‘nalishga tayangan holda ish olib borilayotganini kuzatishimiz mumkin: «tildagi o‘sish-o‘zgarishlarni o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, uslubi haqida xulosa chiqaruvchi aspekt – stilistik aspekt».

Shuni ta’kidlash joizki, bu ikki aspekt badiiy asar tilini o‘rganish jarayonida hamisha bir-birini to‘ldirib keladi. Shoir Olqor Damin she'riyatining badiiy tahlilida ham aynan mana shu aspektlarga tayangan holda tadqiq olib boramiz

Shoirning «Sabr haykali» nomli she'riy to‘plami 1991-yilda nashr etilgan. She’rlar. Hajm belgisiga ko‘ra matn tipi minimal (makromatn)lar tipiga kiradi. «Badiiy uslubda minimal matn deyilganda, biror mavzuni yoritishga bag‘ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalagan maqol, matal, va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she’r va she’riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog‘lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi».

Gugurt monologi
Gugurtman, tunlarga
Men – gugurt shakliga
Kirgan Insonman!

Ushbu matn to‘rt misradan iborat. Tarkiblanish jihatidan esa ikkita gapdan iborat. Sarlavhadagi “monolog” so‘zi matnning gugurt tilidan so‘zlanishini ko‘rsatib beradi, ammo matnning mohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qilmaydi. Birinchi gap “Gugurtman, tunlarga qarshi isyonman”da “isyon” so‘zi gugurtning sifatiga xizmat qiladi. Bu erda “tun” o‘zi alohida tasviriy so‘z bo‘lgani bois “gugurt”ning matnda keltirilmagan xususiyati – yonib, atrofga nur taratishini anglashga ko‘makchilik qiladi va o‘z navbatida “isyon”ning matnda anglashilayotgan “yonish” xususiyatini “gugurt shakliga kirgan Inson” matnning asosiy g‘oyasini ochib beradi.

“Monologik nutq badiiy asar qahramonlarining o‘z-o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan nutqidir”. Nazmiy asarlarning aksariyatida bo‘lgani kabi Olqor Damin she’riyati ham monologik nutqqa asoslangan.

Bu dunyo –bir bezatilgan uy,
Unga bir-bir kirib chiqamiz.
Qay birimiz qoldirib nedir,
Qay birimiz yulib chiqamiz.
Bu dunyo –bir bezatilgan uy,
Unga bir-bir kirib chiqamiz.
Qay birimiz yugurib chiqsak ,
Qay birimiz yurib chiqamiz.

Bu dunyo bir bezatilgan uy.....

Ba'zi she'rlarida diologik nutqning ham guvohi bo'lamiz… Masalan,

"Beparvo haqida qo'shiq" she'rida:

– Bu dunyoni qurtday kemirar .
– Kim?
– Beparvolar
– Bu dunyoni do'lday emirar
– Kim?
– Beparvolar.
– Bu dunyoni zulukday so'rar.
– Kim?
– Beparvolar.
– Bu dunyoda tug'ilmay o'lar.
– Kim?
– Beparvolar.

She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari yuqori bo'lganligi va tez idrok etilgani bois undagi fonetik birliklarning xususiyatlariga undagi fonetik birliklarning xususiyatlariga ham e'tibor berish lozim. She'riyatda alliteratsiya (undosh tovushlarning takrori), assonans (unlilar takrori) va geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan keng foydalaniladi.

"Tabassum to'kilgan –
To'kildi quyoshning kulgusi"
yoki
"Tinimsiz to'kilgan injular ",
"Qora tunning qora qo'ynida,
Erkalanar sim-siyoh soching",
yoki
"Sumbuling – sochlaring
Suvdayin suluv,
Sumbuling sog'inib sirishkim
suv-suv.
Sumbuling suvdayin simiray,
sanam:
sumbuling saodat suviday,
Sanam!"

Nasrda bo'lgani kabi she'riyatda ham so'zdan oqilona foydalanish ijodkorning qobiliyatiga, salohiyatiga bog'liq.

Agar u so'zni marjondek bir ipga tizolsa, demakki, u so'zdan betakror tasvir, kutilmagan badiiy lavha, qo'yingki go'zal bir san'at asari yaratgan bo'ladi. Muallif so'z qo'llashda uning o'z ma'nosidan tashqari so'z qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no va mazmunlarini ham bilishi lozim bo'ladi. Olqor Daminning "Kelajakka o'tinch" she'ri quyidagicha ifodasini topgan:

Beshik tebranadi....
Bosh tebratgan kabi belanchak .
Shirin uyqularni
Go'dagiga baxsh eta olmay.
Sel bo'lib allalar aytar
kelinchak.
Beshik tebranadi,
Uning qo'ynida
Tebranib yotadi
Ertaning egasi –
bol go'dak.
Ertaga....uning bosh tebratib
Qolishiga
Sira yo'l qo'ymagil,
Odil kelajak!!

Ushbu matndagi beshikning bosh tebratishi va bolaning kelajakda "bosh tebratib" qolishi shoirning so'zga qo'shimcha ma'no yuklay olish nozikliklarini yuklay olish qobiliyatidan darak beradi. Shuningdek, "bol" so'zining ushbu matnda bolaning sifati uchun xizmat qildirish ham so'z qo'llash san'atining ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy matn tahlilida yuqorda keltirganimizdek, o'z tamoyillari mavjud va bu jarayonda unga tayangan holda ish olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati. – Toshkent: O'zbekiston, 1962.
2. Yo'ldoshev M.Badiiy matn va ularning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA "Fan", 2007. 38-bet.
3. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: "Fan ", 1981. 160-bet.

Uktam SHUKUROV,
SamDChTI Ikkinchi chet tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

MATNNI TUSHUNISHNING KOGNITIV NAZARIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada matnni tushunishning kognitiv nazariyasi ikki turdagi bilimni jalb qilishni tavsiya qiladi. Bular olam haqidagi va lisoniy bilimlar bo‘lib, ular biri ikkinchisini to‘ldirgan holda tagma’noni fahmlashni ta’minlaydi. Implikat yoki yashirin ma’noning faollashuvi ko‘p jihatdan muloqot ishtirokchilarining bilim zaxirasi moslashuvi bilan bog‘liqligi haqida ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy diskurs, kognitologiya, germenevtika,madaniyat, generativ grammatika, germenevtik halqa, antropotsentrik, intuitsiya, uslub.*

Аннотация: в данной статье когнитивная теория понимания текста рекомендует задействовать два типа знаний. Это мировоззренческие и лингвистические знания, которые дополняют друг друга и обеспечивают понимание смысла. Подчеркнуто, что активизация подтекста или скрытого смысла во многом связана с адаптацией базы знаний участников диалога.

Ключевые слова: *художественный дискурс, когнитология, герменевтика, культура, порождающая грамматика, герменевтический фолк, антропоцентризм, интуиция, стиль.*

Annotation: in this article, the cognitive theory of text comprehension recommends the involvement of two types of knowledge. These are world and linguistic knowledge, which complement each other and provide understanding of meaning. It has been emphasized that the activation of the implication or hidden meaning is largely related to the adaptation of the knowledge base of the participants of the dialogue.

Keywords: *artistic discourse, cognitology, hermeneutics, culture, generative grammar, hermeneutic folk, anthropocentric, intuition, style.*

Diskursiv faoliyat tadqiqiga qiziqishning kuchayishi til tizimining ko‘p qirrali hodisa ekanligini tavsiflash, uning inson hayotining turli tomonlari bilan aloqadorligini isbotlash uchun zamin yaratadi. Diskursiv faoliyat, matn vositasida doimiy ravishda harakatchan bo‘lgan tilning mohiyatini, uning qonuniyatlarini anglash mumkin. Bu qonuniyatlar asosan lisoniy birlikning gapdan yuqori birliklar tarkibida faollashuvida namoyon bo‘ladi.

Diskurs, xuddi matn kabi, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarining tadqiq obyektidir. Odatda, kommunikatsiya to‘rt bosqichdan iborat jarayon ko‘rinishida talqin qilinadi: maqsad-reja-matn-ta’sir. Ushbu to‘rtlikda markaziy o‘rinni matn egallashi begumon, unga nisbatan so‘zlovchi (yozuvchi)ning maqsadi va mo‘ljali aniqlanadi. Z.Y. Turayeva matn hodisasini o‘rganishda yuzaga keladigan asosiy muammo uning mohiyatini belgilovchi xususiyatlarni aniqlashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Olima, shuningdek, badiiy matn muammosiga alohida e’tibor qaratadi. Uning qaydicha, “badiiy matn tili – alohida belgilar tizimidir va bu barcha tillar uchun umumiydir. Til – badiiy matn uchun “qurilish materiali” rolini o‘taydi.

Badiiy diskurs haqida gapirayotib, E.V. Paduchevaning 1996-yilda nashrdan chiqqan “Semantik tadqiqotlar” nomli monografiyasini qo‘lga olmaslikning iloji yo‘q. Ishning ikkinchi bobi badiiy adabiyot tili tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda adabiy tanqidning asosida lingvistik tahlil turishi ta’kidlanadi. Muallifning yozishicha, “adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid matnning tahlilisiz to‘liq emas – adabiyotshunoslikning ilk bosqichida mukammal lingvistik tahlil yetakchilik qiladi.

Badiiy asarda muhim o‘rinni egallaydigan narrativ (hikoya) va og‘zaki diskurs munosabatini o‘rgangan E.V. Paducheva lisoniy birliklarning narrativ matnda og‘zaki diskursga qiyosan vazifasining o‘zgarishi o‘z sababiga ega ekanligini va ushbu sababni o‘rganish orqali til birliklarining umumiy ma’nosini aniqlash mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi.

Haqiqatdan diskursda so‘zlovchi o‘zini aks ettirishi badiiy ijodning muhim omilidir. Fanda “egotsentrizm” atamasini olgan bu hodisa til tizimida turli usullarda namoyon bo‘ladi. Mazkur xususiyatsiz til miqdoran cheklangan birliklar vositasida olamda kechayotgan voqea-hodisalarni turli ko‘rinishlarda tasvirlash qobiliyatidan mahrum bo‘lar edi.

Aytilganlar badiiy asarni kognitiv va pragmatik tahlil usullari tatbiqida tahlil qilish lozimligidan darak beradi. Bunday yondashuv asosida muallif ongli faoliyatini personajlar va o‘quvchi ongi nuqtayi nazaridan idrok etishga imkon beradi.

Kognitsiya yoki ong faoliyati, tilshunoslar talqinida, olam haqidagi bilimni egallash, saqlash, qayta ishlash, uzatish va undan foydalanish faoliyatidir. Inson xatti-harakatlarini tushunish madaniyat va jamiyatdan ko‘ra ko‘proq til bilan bog‘liqdir. Shu bois, tilni kognitologiya tamoyillari asosida tadqiq qilishda inson tomonidan tilni o‘zlashtirish mexanizmlarini tavsiflash va izohlash masalasi turadi.

Kognitiv yondashuv lisoniy hodisalarni tavsiflashning usuli sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida tobora keng yoyilib bormoqda. Hozirgi paytda ushbu sohalardagi ilmiy adabiyotlarda kognitiv tahlil borasida katta hajmdagi axborot to‘plangan. Kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishini ba’zilar amerikalik ruhshunos Jorj Miller va tilshunos Noam

Chomskiylarning nomlari bilan bog‘laydi.

Kognitiv tilshunoslik rivojining keyingi bosqichlarida N.Chomskiy asos solgan generativ grammatika nazariyasi o‘zini to‘lig‘icha oqlamaganligi ma’lum bo‘ldi. Generativistlarning grammatik strukturlarning tug‘maligi haqidagi g‘oyasi insonni lisoniy ijod, yaratuvchanlikdan chetlashtirib, “kichik mashina”ga tenglashtirib qo‘yishga sabab tug‘diradi. Biroq, Sh. Safarov ta’kidlaganidek, “Chomskiy tasvirlayotgan “til” tizimida so‘zlovchi aytishi mumkin bo‘lgan hamma narsa (gaplar to‘plami) oldindan mavjud bo‘lsa, unda yangilikka intilishga hojat bormikan?!.... Hammasi oldindan ma’lum bo‘lsa, so‘zlovchining vazifasi avtomatlashgan qoidalarni takrorlashdan iborat bo‘ladi. Inson xotirasida yuzaga keladigan jarayonlar axborot tashuvchi lisoniy tuzilmalarning tarkib topishida ishtirok etishi kognitologiyada doimo ta’kidlanadi.

Mashhur rus tilshunosi G.V. Kolshanskiy, badiiy matnning mazmun tuzilishi haqida gapirayotib, uning semantik yaxlitligidan qa’ti nazar mantiqdan ko‘ra, ko‘proq muallifning nutqiy markazga ega bo‘lish bilan birgalikda, ma’lum bir struktur tuzilishda aks topishini qayd etadi. Mazkur struktura esa nolisoniy motivga yoki u yoki bu syujetning individual idrokiga bog‘liq holda shakllanadi. Ammo bu holatda muallifning “o‘zboshimchaligi” kuzatilmasdan, balki, badiiy matnning yaxlitligini mazmuniy-konseptual axborot, uslub va janr qaramog‘ida ekanligini e’tirof etmoq kerak [Колшанский 1984: 64].

Demak, matn va diskurs hodisalari tahliliga kognitiv-pragmatik yondashuv an’anaviy sintaktik yondashuv paytida ko‘zga tashlanadigan kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. Lekin kognitiv-pragmatik tahlilni ham nuqsonsiz bo‘lishini tasavvur qilish qiyin. Shu sabab matnni til tizimining alohida bir sathini aks ettiruvchi hodisa sifatida qabul qilish xavfli. Bu turlarni bir xil mezonlar asosida, birgina yondashuv usullari tatbiqida tavsiflash yoki tasniflash qiyin masala. Shu sabab, kognitiv-pragmatik yondashuvni matnning tub mohiyatini aniqlashtiradigan yetakchi yo‘nalish sifatida e’tirof etgan holda, uni boshqa tahlil usullari bilan hamohang bo‘lishi va hamkorlik qilishi mumkinligini inkor etmaslik lozim.

Nemis olimi tomonidan olg‘a surilgan tushunish jarayonini “qayta tiklash” amali sifatida talqin qilish g‘oyasi germenevtika sohasi rivojida katta rolni o‘tadi.

F. Shleyermaxer tushunish harakatini qiyoslash amali bilan bog‘laydi. Bu amalning asosida yangini oldindan ma’lum bo‘lgan axborot bilan chog‘ishtirish harakati turadi. Bizning tushunib etganimiz o‘zaro bog‘langan qismlardan iborat yaxlit “xalqa”dir. Mazkur “germenevtik xalqa” doirasida sodir bo‘ladigan tushunish faoliyati qiyoslash usuli tatbiqidagi subyektiv tahlilga suyanadi [Карасик 2010: 87].

Tushunish jarayoni tizimli xususiyatga ega va qismlarning yaxlit bilan ma’lum bir lisoniy tuzilma doirasidagi o‘zaro hamkorligida kechadi. Matnning alohida qismlari, unsurlarini anglash uchun ular ma’lum bir tizim doirasida sintezlashuvi va tizimning tashkiliy qismlari maqomini olishi darkor. Yaxlitlik tasavvuriga intuitsiya asosida erishish mumkin va bunda tushunish hissiyotli ko‘rinish oladi.

So‘z, gap, matn kabi birliklarni tushunish jarayoni tadqiqi zamirida turli nazariy qarashlarning tatbiqi turadi. Ma’lumki, murakkab obyektlar tahlilida ularning tuzilishi tabiatan murakkabligini e’tiborga olish lozim. Bizningcha, murakkablikda boshqa lisoniy birliklardan qolishmaydigan matn hodisasining mazmuniy xususiyatlarini o‘rganish ham shunday yondashuvni talab qiladi.

Darhaqiqat, mazmun ifodasi har qanday nutqiy harakatning markazida turadi va aynan mazmun matnni alohida shaxs tomonidan ma’lum madaniy-tarixiy sharoitda yaratilgan artefakt maqomida baholashga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. 92-b.
2. Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. - М.: Наука, 1984. - 176 с.
3. Карасик В.И. Языковая кристаллизация смысла. - Волгоград: Парадигма, 2010. - 428 с.
4. Тураева З.Я. Художественный текст и пространственно - временные отношения // Семантико - стилистические исследования текста и предложения. - Л. 1980. - С. 3 - 11.
5. Михайлова Е.М. Художественное время как категория текста: Автореф. дисс. … с канд. филол. наук. - М., 1983. - 26 с.
6. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvistikasi. – T.: Fan, 2000. 217-b.

Sherzodbek PAZLIDDINOV,
Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTBga qarashli 64-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fanlar metodbirlashma rahbari
sherzodpazlidinov369@gmail.com

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA MILLIY XARAKTER

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Muhammad Yusuf ijodida milliy xarakter masalasi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Muhammad Yusuf o‘z asarlarida milliy xarakter, milliy qadriyatlar va an’analarni yorqin aks ettirgan. Uning qahramonlari o‘zbek xalqining ma’naviy qiyofasini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: *Muhammad Yusuf, milliy xarakter, o‘zbek adabiyoti, milliy qadriyatlar, an’analar.*

Аннотация: в данной статье исследуется вопрос национального характера в творчестве Мухаммада Юсуфа, яркого представителя узбекской литературы. Согласно результатам исследования, Мухаммад Юсуф в своих произведениях ярко отражал национальный характер, национальные ценности и традиции. Его герои раскрывают духовный облик узбекского народа.

Ключевые слова: *Мухаммад Юсуф, национальный характер, узбекская литература, национальные ценности, традиции.*

Annotation: this article explores the issue of national character in the work of Muhammad Yusuf, a brilliant exponent of Uzbek literature. According to the results of the study, Muhammad Yusuf vividly reflected the national character, national values and traditions in his works. His heroes show the spiritual image of the Uzbek people.

Keywords: *Muhammad Yusuf, national character, Uzbek literature, national values, traditions.*

Kirish. Muhammad Yusuf o‘zbek xalqining sevimli shoirlaridan biri sifatida mashhur. Uning she’rlarida xalqimizning quvonch-u iztiroblari, orzu va armonlari, milliy urf-odatlari va qadriyatlari ochib berilgan. Garchi shoir sodda va ravon tilda yozgan bo‘lsa-da, asarlarining mazmun-mohiyati nihoyatda chuqur va terandir. Muhammad Yusufning she’riyatida o‘zbek xalqining xarakteri va milliy o‘zligini ko‘rish mumkin.

Usullar va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida Muhammad Yusuf she’riyati batafsil o‘rganildi, uning o‘zbek milliy xarakteriga doir asarlari matn tahlili usuli bilan tadqiq etildi. Tadqiqotda shoirning "Tanish teraklar", "Ishq kemasi", "Ko‘nglimda bir yor", "Erka kiyik" kabi she’riy to‘plamlari hamda vafotidan keyin nashr etilgan "Saylanma" asarlaridagi milliy ruhiyatga oid she’rlar asos qilib olindi. Shuningdek, Muhammad Yusuf ijodi va uning milliy masalalarni yoritishiga doir adabiyotshunoslarning tadqiqotlari ko‘rib chiqildi [1], [2], [3].

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot Muhammad Yusuf ijodida o‘zbek xalqining milliy xarakteri va ruhiyati chuqur aks ettirilganini ko‘rsatdi. Shoirning "O‘zbegim", "Turkman qiz", "Qirg‘iz qiz", "Kokilingni kim kesdi" kabi she’rlarida o‘zbek va qardosh xalqlar vakillarining xarakteri, ma’naviyati, turmush tarzi yorqin ifodalangan. Uning "Halima enam allalari" turkum she’rlarida esa o‘zbek onalarining mehrini, farzandga bo‘lgan cheksiz muhabbatini ko‘rish mumkin. Muhammad Yusuf she’riyatida ona diyor tuyg'usi, urf-odatlarimiz ulug'lanishi, vatan va millat taqdiri uchun qayg‘urish kabi xalqimizga xos xislatlar o‘z aksini topgan [4].

Tahlil va muhokama. Muhammad Yusuf ijodida milliy xarakter masalasi alohida ahamiyatga ega. Shoirning she’rlarini tahlil qilish uning aynan shu masalaga jiddiy e’tibor berganini ko‘rsatadi. U xalq ruhiyati va milliy qadriyatlarni badiiy tarzda ochib berishga intilgan. Shoir "Men o‘z bilganimdan qolmadim" she’rida o‘z ijodiy prinsipini shunday bayon etadi:

"Quvroq bo‘l deyishdi. Yolg‘on ham kerak,
Jindak xushomad ham, quloq solmadim.
Oqni oppoq ko‘rdim, qorani - qora
Men o‘z bilganimdan qolmadim." [5]

Ko‘rinadiki, Muhammad Yusuf ayni haqiqatni, xalq dardini samimiy yozishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi.

Shoir "Halima enam allalari" turkumida o‘zbek ayollarining ma’naviy qiyofasini, onalik mehri va farzandga muhabbat hislarini ta’sirli misralarda ifodalaydi:

"Allayim, bolam, allayim,
Sen mendan ko‘ra quvongin.
Allayim, bolam, allayim,
Barchangga Olloh yor bo‘lsin". [2, 23]

"Turkman qiz", "Qirg‘iz qiz" kabi she’rlarda esa

shoir boshqa turkiy xalqlar vakillari xarakteridagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni ochib beradi.

Muhammad Yusuf she’riyatini milliy xarakter nuqtayi nazaridan o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Zero, shoirning asarlarida xalq xarakteri va ruhiyati shu qadar teran ifoda etilganki, ularni tahlil qilish millatning o‘zligini anglash va asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada olimlarimiz samarali ilmiy izlanishlar olib borishmoqda [6], [7].

Muhammad Yusuf ijodini milliy ma’naviyatimiz nuqtayi nazaridan o‘rganish va tadqiq etishning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida o‘zlikni anglash va asrash masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shoirning milliy ruhiyat, o‘zbek xalqi mentaliteti va turmush tarziga bag‘ishlangan asarlari milliy o‘zlikni idrok etish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotchi B. Rahmonovning fikricha, Muhammad Yusuf she’riyatidagi milliy xarakter konsepsiyasi shoirning hayotiy falsafasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish g‘oyasi bilan bog‘liq [3]. Chindan ham, shoir o‘z ijodida milliy xususiyatlarni yuksak badiiy shakllarda aks ettirish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarning umuminsoniy mohiyatini ham ochib beradi.

Adabiyotshunos J. Suvonova Muhammad Yusuf she’rlaridagi xalqchillik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratadi. Olimaning ta’kidlashicha, "shoir o‘z she’rlarida xalqning dardi bilan yashaydi, xalqning quvonchi bilan quvonadi. Shu bois, Muhammad Yusuf she’riyati samimiy va xalqchil bo‘lib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashgan" [4, 49].

Darhaqiqat, Muhammad Yusuf xalq hayoti, milliy ruhiyat va qadriyatlarni teran poetik tafakkur bilan umumlashtirib, ularning falsafiy-estetik mohiyatini ochib beradi. Uning she’rlarida o‘zbek mentalitetining barcha qirralari – mehmondo‘stlik, ota-onaga hurmat, iffat va nomus, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar yorqin aks etgan. Shu bois, shoirning milliy xarakterga oid she’rlari o‘zining hayotiy va xalqchil xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Muhammad Yusuf she’riyatini milliy xarakter prizmasidan tahlil va tadqiq etish nafaqat adabiyotshunoslik, balki milliy ma’naviyatni yuksaltirish nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosalar. Muhammad Yusuf o‘zbek milliy she’riyatida alohida o‘rin tutgan ijodkordir. Uning ijodida milliy xarakter va xalq ruhiyati masalasi markaziy o‘rinni egallaydi.

Shoir asarlarida o‘zbek xalqining mentaliteti, qadriyatlari, urf-odatlari va turmush tarzi o‘zining yorqin badiiy ifodasini topgan.

Muhammad Yusufning milliy xarakterga oid she’rlari nozik va teran kuzatishlar samarasi bo‘lib, ular xalqimizning ma’naviy dunyosini ochib beradi.

Shoirning milliy masalalarga bag‘ishlangan she’riyati bugungi kunda ham dolzarb sanaladi hamda o‘zbek she’riyatshunosligida muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Umuman olganda, Muhammad Yusuf ijodida o‘zbek milliy xarakteri, mentaliteti, qadriyatlari va turmush tarzi yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. Uning milliy ruhiyatga oid she’rlarini o‘rganish va tahlil qilish adabiyotshunoslik hamda milliy ma’naviyatni yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov, U. (2018). Muhammad Yusuf she’riyatining milliy xususiyatlari. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Qurbonov, D. (2012). Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida milliy o‘zlik talqini. "Sohibqiron" jurnali, 2(4), 48-52.
3. Yusupova, D. (2020). Hozirgi o‘zbek she’riyatida milliy qadriyatlar masalasi. "Ilm sarchashmalari" jurnali, 12(1), 58-62.
4. Muhammad Yusuf. (2009). Saylanma. – Toshkent, Sharq.
5. Muhammad Yusuf. (2001). Osmonimga olib ketaman. – Toshkent, Yozuvchi. (54-bet)
6. Rahmonov, B. (2021). Muhammad Yusuf lirikasida milliy xarakter talqini. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent.
7. Suvonova, J. (2018). Muhammad Yusuf she’rlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi. Ilmiy tahliliy axborot, 5, 46-50.

Fazilat ESHBOYEVA
Guliston davlat universiteti
Stajyor-o'qituvchi

PRAGMALINGVISTIKANING SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya: mazkur maqolada pragmalingvistikaning yuzaga kelish tarixi, xorijda hamda mamlakatimizda ushbu sohaning taraqqiyot bosqichlari, olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarning natijalari hamda salmog`i, mazkur yo`nalishning istiqbolli jihatlari muhokamaga tortiladi.

Kalit so'zlar: *pragmalingvistika, nutqiy akt, nutqiy muloqot, diskurs, mustaqillik.*

Аннотация: в данной статье рассматривается история возникновения прагмалингвистики, этапы развития этой области за рубежом и в нашей стране, результаты и значение исследований, проводимых учеными, а также перспективные аспекты этого направления.

Ключевые слова: *прагмалингвистика, речевой акт, речевое общение, дискурс, самостоятельность.*

Annotation: this article discusses the history of the emergence of pragmalinguistics, the stages of development of this field abroad and in our country, the results and importance of the research conducted by scientists, and the promising aspects of this direction.

Key words: *pragmalinguistics, speech act, speech communication, discourse, independence.*

KIRISH

Bugungi kunda "Pragmatika" — "Pragmalingvistika" nomli yangi soha sifatida rivojlanib, o'rganilmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda. Pragmalingvistikaning asosiy maqsadlaridan biri lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini, ya'ni tilni axborot-kommunikatsiya vositasi sifatida o'rganishdir. O'tgan asr oxirlarida antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida maydonga kelgan pragmalingvistikada til egalarining borliqni idrok etishi, olam haqidagi tasavvurlari va uni tilda aks ettirishi, lisoniy tafakkuri, til ko'nikmasi, nutqiy faoliyati, nutq obyekti haqidagi bilimlari, ruhiyati, voqelikka munosabati, kasb-kori, yoshi, gender belgisi kabi nolisoniy omillar bilan bog'liq holda tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Pragmalingvistikaning jahon tilshunosligida keng miqyosda o'rganila boshlashi o'tgan asrning 60-80 yillariga borib taqaladi. Mazkur davrda J. Ostin, J. Syorl kabi tilshunoslar tomonidan yaratilgan "nutqiy akt"nazariyasi yuzaga keldi. Nutqiy muloqotning eng kichik amaliy ko'rinishi nutqiy akt sanaladi. U, albatta, nutq muomalasi qoidalari va tartibiga bo'ysunadigan maqsadli nutqiy harakat sifatida tushuniladi. Nutq aktlarining umumiy jamlanmasi nutqiy faoliyatni tashkil etadi. Mazkur nazariyaning asosiy tadqiqot obyektiga so'zlovchi, adresat va ularning o'zaro munosabati, muloqot vaziyati bilan aloqador qator masalalar kiradi. Xususan, tilga falsafiy yondashuvda til nutqning amaldagi ko'rinishi va reallik bilan aloqadorligini aniqlash uchun xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng sobiq tuzumdagi fanga bo'lgan biryoqlama ideologik yondashuvlar barham topdi. Iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalar singari ilmu fanga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Sobiq tuzum davrida o'sha sistemada yashagan xalqlar ongiga singdirilishiga harakat qilingan materialistik qarashlar nisbiy tushuncha ekanligi isbotlandi. Buning natijasida ilmiy tadqiqotlarga biryoqlama qarashlar o'rnini har tomonlama, turli faktorlarni e'tiborga oladigan pishiq, mulohazaga undaydigan ishlarni amalga oshirish imkoni yaratildi. Xususan, gumanitar fanlarda mazkur o'zgarishlarni kengroq kuzatish mumkin. Jumladan, tarixga bo'lgan munosabat umuman o'zgacha ko'rinishga ega edi. Ittifoqdagi boshqa xalqlarning tarixi qariyb o'rganilmas, o'rganilgan taqdirda ham salbiy munosabat ko'zga tashlanar edi. Adabiyot sohasida esa obrazlarning salbiy va ijobiy xususiyatlarga ajratilishi, inson tabiatiga, psixologiyasiga tegishli omillarni cheklagan holda tahlil etish keng rivojlangan edi. Albatta, bu kabi kamchiliklar tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ham o'z aksini topar edi. Ayniqsa, til tadqiqotlarida tilning inson ruhiyati, kognitsiyasiga oid omillar e'tiborga olinmas, g'arb tilshunosligida amalga oshirilgan ba'zi tadqiqotlar (xususan, kognitiv tilshunoslikka oid materiallar) tan olinishiga senzura ta'sirida imkon berilmas edi. Aynan mustaqillik tufayligina o'zbek tili tadqiqotiga qiziquvchilar jahon tilshunosligidagi yangiliklardan bevosita xabardor bo'la boshladilar, hamda shu asosda o'z ishlarini amalga oshira boshladilar..

Mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligida erishilgan yutuqlar sifatida A. No'rmonov shakl va mazmun munosabatini tadqiq qilish jarayonida shakl va mazmun birliklari o'rtasidagi mutanosiblik (simmetriya) va nomutanosiblik (assimmetriya), tagbilim, tagma'no, mazmuniy sinkretizm, sintaktik transformatsiya, sintaktik omonimiya va sinonimiya, kommunikativ bo'linish va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortganligini ta'kidlab o'tadi .

M. Hakimov tomonidan 1994 yilda himoya qilingan ‘O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari’ nomzodlik dissertatsiyasi o‘zbek tiliga oid pragmalingvistika sohasiga tegishli dastlabki tadqiqotlar qatoriga kiradi.

Sanab o‘tilgan ilmiy tadqiqotlar, bajarilgan ishlarning natijasi o‘laroq, keyinchalik Respublikamizda pragmalingvistika sohasining nutqiy muloqot, matn shakllanishi, pragmatik belgilar shakllanishi, diskurs xususiyatlari, nutqiy faoliyat turlariga taalluqli qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Jumladan, J.Safarovning “Структура дипломатического дискурса и лексико-фразеологический состав” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ingliz tilidagi turli janrdagi diplomatik matnlarning pragmalingvistik va ijtimoiy lingvistik xususiyatlari tahlil etiladi.

Sohaga oid keng qamrovli ishlarni olib borayotgan olimalardan biri S. Boymirzayeva sanaladi. Uning 2010-yilda himoya qilgan ‘O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar’ nomli doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tili matnini tashkil qiluvchi semiotik birliklarni kategorial belgilari aniqlangan, matn mazmunining kognitiv- diskursiv tavsifi, kommunikativ-pragmatik shakllanishi, modallik maydonining freym vositalarini yoritishga qaratilgan edi. Ishda o‘zbek tili matnining kommunikativ pragmatik mazmunini aniqlashda kognitiv amallardan foydalanilgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Mustaqillikdan bugungacha davr mobaynida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, sog‘lomlashtirish kabi barcha sohalarda ulkan hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Albatta, bu kabi yutuqlarga erishishning ortida nafaqat mehnat, shijoat, ijodkorlik, balki hukumatimiz, xususan hukumatimiz olib borgan oqilona siyosati turibdi. Jumladan, O‘zbekistonda tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlardan biri deb, shubhasiz jahon tilshunosligida keng tadqiq etilayotgan pragmalingvistikaning Respublikamizdagi taraqqiyotini keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lingvistik ensiklopedik lug‘at. – Moskva: SE, 1990. 687-b.
2. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosliga tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. 232-b.
3. Pirs Ch.P. Pragmatizmning boshlanishi / Ingliz tilidan tarjima, so'zboshi V.V. Kiryushchenko, M.V. Kolopotina - Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universitetining falsafa fakulteti metafizik tadqiqotlar laboratoriyasi; Aletheia, 2000. -352 s.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. ‘O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’. – Toshkent, 2000. 300-b.
5. Susov I.P. Tilshunoslikka kirish: lingvistik va filologiya yo'nalishlari talabalari uchun darslik / I.P. Susov. – M.: AST: Vostok-Zapad, 2007. 379-b.

Umar CHORIYEV
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

CHO‘LPON SHE'RIYATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI SHARHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Cho‘lponning she’riyatga kirib kelishi, uning she’riyatidagi o‘ziga xos jihatlar, tarjima masalalari, shoir-olimlarning shoir haqidagi qarashlari muhokama etiladi hamda ayrim misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *she`riyat, metod, tarjima, she`r, shoir, olim.*

Аннотация: в данной статье обсуждаются вхождение Чолпона в поэзию, особенности его поэзии, вопросы перевода, мнения поэтов-ученых о поэте и приводятся некоторые примеры.

Ключевые слова: *Поэзия, метод, перевод, поэзия, поэт, учёный*

Annotation: in this article, Cholpon's entry into poetry, the specific aspects of his poetry, translation issues, the opinions of poets-scholars about the poet are discussed and some examples are given.

Key words: *poetry, method, translation, poetry, poet, scientist.*

KIRISH

Cho‘lpon she’riyatida inson va muhit bilan bog‘liq obrazlar ham alohida tizimni tashkil etadi. Shoirning “Somon parcha”, “Binafsha”, “Yana ko‘klam” she’rlarida inson va muhit bilan bog‘liq muammolar talqin etiladi.

Har bir inson hayotda muayyan kamolot yo‘lini bosib o‘tadi. Bu insonning ma’lum darajada o‘zligini anglashi, dunyoqarashi shakllanishi yo‘lidir. Tasavvuf adabiyotida bu yo‘l – “ishq yo‘li, sir yo‘li, hurriyat yo‘li”dir [1]. Bu yo‘lda mashaqqat va riyozat chekib, uning amallarini ado etgan odamgina uning nurli manzillarini zabt etib, komillik martabasiga erishadi. Ham dunyoviy, ham tasavvuf adabiyotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan Cho‘lpon ijodida ham yo‘l va yo‘lovchi obrazlarining turli talqinlariga duch kelamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Cho‘lpon adabiyot muhitiga jadid adabiyoti orqali kirib keldi. Uning havosidan nafas oldi. O‘n yetti yoshida

yozgan “Adabiyot nadir” maqolasi bilan adabiyotning jonkuyar targ‘ibotchisiga aylandi. Millatni ma’rifat va haqiqatga boshlovchi yo‘lni adabiyotda deb bildi. Shu sabab ijodining ilk davridan yangi adabiyot yaratish orzusi bilan yashadi. Cho‘lponning adabiy-nazariy, publitsistik maqolalarini kuzatganimizda “yo‘lsizlik”dan qiynalayotgan yo‘lchining iztiroblarini anglaymiz: “O‘zimning yo‘lsizligimdan biroz so‘zlab o‘tayin. Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o‘qiyman: bir xil, bir xil, bir xil! Ko‘ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir! Botu, G‘ayratiy, Oltoy, Oybek, Julqunboylarni o‘qiymen, quvontiradir, xolos! Ular mening uchun yongan chiroqlarim bo‘lsa ham, mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo Siddiqiy va Hakimzodalarni o‘qimaymen, o‘qimaymen. Meni shu holga solg‘an o‘shalar!!!” [4]. “Eski adabiyot bilan yangi adabiyot o‘rtasida qolg‘on sharqlik yosh chinakam chuchmal bir vaziyatda” ekanligini teran anglagan Cho‘lpon mumtoz shoirlar ijodini kamsitmagan holda, jahon adabiyotiga yo‘l izladi. Shu sababdan Tagorga murojaat qildi. Umumiy maqsadimiz mushtarak bo‘lgan Sharq va G‘arb adabiyoti o‘rtasidagi “oltin ko‘prik” – ulug‘ hind adabiyoti haqida Cho‘lpon uch maqola e’lon qilib, uning asarlari bilan o‘zbek kitobxonlarini bahramand etmoqchi edi. Cho‘lpon shu bilan yosh avlodni jahon adabiyotining keng imkoniyatlaridan foydalanishga da’vat etdi. Ustoz Ozod Sharafiddinov o‘rinli ta’kidlaganidek, “...20-yillarda ham, undan keyingi davrlarda ham Cho‘lponning bu xitobi hech kimning qulog‘iga yetib borgani yo‘q. Chunki sovet hokimiyati yillarida amalga oshirilgan adabiy siyosat – chinakam san’at namunalarini yaratishdan ko‘ra yozuvchilarni hukmron mafkuraning sodiq soldatlariga aylantirishga qaratilgan edi” [3].

Cho‘lponning nasriy va she’riy asarlarida ham ilm-ma’rifat izlab safarga chiqqan qahramonlarni uchratamiz. “Do‘xtur Muhammadyor” hikoyasi qahramoni ilm-ma’rifat izlab xorijiy yurtlarda bo‘ladi. Buning oqibatida baxtli hayotga erishadi. “Kecha” romani qahramoni – Miryoqub ham Qrim safarida jadid bilan uchrashadi. Jadid uning dunyoqarashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, “Yo‘l esdaligi”, “Vayronalar orasidan” safarnomalarida ham Cho‘lpon sayyoh sifatida o‘lkaning mahzun manzaralarini tasvirlaydi.

Cho‘lpon she’riyatida yo‘l, yo‘lovchi obrazlari alohida tizim darajasiga ko‘tarilgan. Qalbida ezgu niyatlar, buyuk amallar ila ulug‘ yo‘lga otlangan lirik qahramon sharqning eski chigalini yechish uchun keng cho‘llardan, dengizlardan o‘tadi:

Yo‘limizda cho‘llar, suvlar, dengizlar,
Bosguvchisin tanib bo‘lmaslik izlar,
Shul izlarni bosib, dengizlar kechib
Buyuk amal bilan boramiz bizlar.

Yurakdagi saqlab yurgan amallar
Yo‘llardagi dengizlardan ulug‘roq.
Ezilganlar tilak tilar bu yo‘li Burungidan to‘lug‘roq.
Mahkam qilib bog‘langan kamarlar! [5].

Cho‘lpon nazarida buyuk amal – yo‘llardagi dengizlardan ulug‘roq maqsad – Sharqning eski chigalini yechmak. Lirik qahramon qalbi “Eski chigal”ni yechish umidi bilan shu qadar to‘lganki, u hatto qanot bog‘lab uchishga ham tayyor. Chunki Sharqning “eski chigali”ni ochish – yo‘lchining asl muddaosi. She’r matnidan ham anglashiladiki, lirik qahramonning borar manzili bitta – “ezilganlar tilak tilar yo‘li” – istiqlol yo‘lidir.

Cho‘lpon she’riyatida yo‘lchi ma’lum bir tadrijiylik asosida rivojlanib boradi. Bu shoir yashagan muhit, makon va zamon tushunchalari bilan bog‘liq jarayondir. Ma’lumki, Cho‘lpon butun umri davomida istiqlol orzusi bilan yashadi. Afsuski, Turkiston muxtoriyatining bostirilishi, milliy istiqlolchilik harakatining mag‘lubiyati shoirning ezgu armonlarini sarobga aylantirdi. Shu jihatdan, shoirning 20-yillarda yozgan she’rlarida tushkunlik, mahzun kayfiyat ruhi ustuvorlik qiladi. 1922 yili yozilgan “Yupanmoq istagi” she’rida shunday ruhiy iztiroblarni kuzatamiz:

Charchagan yo‘lovchi yo‘ldan adashsa,
Tekis yo‘l qolsa-da tog‘larni oshsa,
Yo‘lni ko‘rsatuvchi yulduz-da qochsa,
Shunda yupatgaymi yalang‘och cho‘llar? [5].

Albatta, shoir hayoti tekis kechmagan. Uning boshiga yog‘ilgan malomat toshlari, ezgu amallarning sarobga aylanishi – yo‘lchi istak yo‘llarining kesilishi, ba’zan unga yo‘l ko‘rsatuvchi yulduzning-da qochganligi lirik qahramonning hayotda yupanch izlashiga sabab bo‘ladi.

D. Quronovning Cho‘lponning lirik qahramoni “yo yorni istab, yo yorug‘ bir yulduzni istab yo‘lga chiqqan” gapida jon bor. Shoirning mashhur “Qalandar ishqi”dagi “Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni” misrasida ham istiqlol ishqi bilan yonayotgan oshiq iztiroblari aks etgan. Bundan tashqari, shoirning ikki taxallusi ham yo‘l, yo‘lchi, yo‘lovchi tushunchalari bilan bog‘liqdir.

XULOSA VA MUNOZARA

Umuman olganda, Cho‘lpon ijodidagi yo‘l, yo‘lovchi, somon parcha, binafsha, ko‘klam obrazlari shoir poetik dunyosini teranroq anglashdagi muhim timsollardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohim Haqqul. Irfon va idrok. –T.: Ma’naviyat, 1998.
2. Quronov Dilmurod. Cho‘lpon poetikasi (nasriy asarlari asosida). Doktor.diss. –T., 1998., 120 b.
3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. –T., Sharq: 2004.
4. Cho‘lpon. Adabiyot nadir. –T., Cho‘lpon., 1994.
5. Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. I jild. –T., 1994.

Navbahor KAMOLOVA,
Qarshi innovatsion ta'lim universiteti o'qituvchisi

XALQ DOSTONLARIDA TIL VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: maqolada epik ijrochining til vositalaridan foydalanish mahorati Fozil shoirning "Alpomish" dostoni misolida tahlilga tortilgan bo'lib, unda doston matnida zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, qahramon xarakteri va ruhiy vaziyatini yoritishdagi o'rni nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: *epik ijro, baxshi, doston, til vositasi, leksik-semantik, zoonimlar.*

Annotation: in the article, the skill of using language tools of the epic performer is analyzed on the example of the epic "Alpomish" by the poet Fazil, in which the role of lexical-semantic features of zoonyms in the text of the epic, in illuminating the character and mental state of the hero, is theoretically explained.

Keywords: *epic performance, bakhshi, epic, language tool, lexical-semantic, zoonyms.*

Xalq dostonlari tili borasida bir qator tadqiqot ishlari X.Doniyorov va B.To'ychiyev, A.Ishayev, D.Abdurahmonov, H.Bektemirov, G.Jumanazarova va boshqa ilmiy maqolalarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, ammo dostonlar shevasi va leksemalarning vazifaviy-mazmuniy, etimologik va statistik tahlili, grammatik xususiyati va uslubiy bo'yoqdorlik muammosini tizimli amalga oshirish orqali qator nazariy masalalarni qiyoslash imkoniyati yuzaga keladi. Dostonlar tilini o'rganish folklorshunoslik va tilshunoslik fanlarining uzviy aloqadorlik, nazariy masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish uchun bir qator nazariy va amaliy mavzularni qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy va struktural, etnofolkloristik masalalarni tarixiylik nuqtayi nazardan oydinlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa tilshunoslik va folklorshunoslik fanlarining o'zaro aloqadorlik masalalariga xos dinamik o'sish hamda transformatsion o'zgarish xususiyatlarini nazariy asoslash uchun yetarli ma'lumotlar faktini beradi. Birinchidan, folklorshunoslik nuqtayi nazaridan baxshi o'rgangan va ijro etgan qahramonlar xarakteri, tipik qiyofasiga doir ijrochilik mahoratini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Ikkinchidan, doston voqealarini tasvirlashda baxshining epik klishe va formulalarni ijro etish jarayoniga doir badiiylik qirralari namoyon bo'ladi. Uchinchidan, baxshi til vositalarini maxsus o'zlashtirmasa-da, ammo uning epik bilimida mavjud matnlarni yaxlit kompozitsion holatga keltirishda, badiiy-estetik tafakkurida mavjud dunyoqarashini kengaytirib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. To'rtinchidan, dostonlar tilidagi leksik-stilistik qatlamlarning semantik tabiatini yoritish orqali baxshi so'z boyligini baholash, nutqning norasmiy, xalqchil unsurlari (qarg'ish, so'kish va haqorat so'zlar)ning lingvopoetik xususiyatlarini, shuningdek, lingvomadaniy birliklarning xalq ruhiyati va dunyoqarashi, milliy mentalitetga mos holda yaratilganligini lisoniy dalillash imkoniyati yuzaga keladi [1,8]. Shevashunoslikning nazariy masalalarini tadqiq etish imkoniyatini kengaytiradi. Beshinchidan, tilshunoslik fanining leksik qatlami, adabiy til mezonlarini shakllantirishda muhim faktik ma'lumotlar beradi.

O'zbek tilshunosligining keyingi yillardagi taraqqiyoti tilning barcha bo'limlarida bo'lgani kabi leksikologiyasida ham bir qator ishlar yuzaga keldi. Ayniqsa, tildagi so'zlarni umumiylik va xususiylik mezonlaridan kelib chiqib, unga tizim sifatida yondashish, atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarni jins-tur va butun-bo'lak asosida o'rganish, tahlil qilish lug'atshunosligimizni boyitishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Tildagi barcha leksemalarda bo'lgani kabi zoonimlarni, jumladan, ot-hayvon nomi bilan bog'liq atamalarni semantik jihatdan tahlil qilish hamda ularni izohli lug'atlar tarkibiga kiritish muhim ahamiyatga egadir. Chunki ot nomi bilan bog'liq atamalarning og'zaki va yozma manbalarda ko'plab atash ma'nosiga ega bo'lgan nomlari mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi umumiste'moldagi lug'atimizda qo'llanilmaydi. Ot nomi bilan bog'liq atamalarni birgina "Alpomish" dostoni misolida ko'rib chiqsak, bunga yanada ishonch hosil qilamiz. Ma'lumki, "Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti o'zining syujet va kompozitsion yaxlitligi, obrazlar tizimi, tasviriy vositalarining badiiy mukammalligi bilan bir qatorda xalq tiliga xos so'zlarining boy, rang-barang qo'llanishi bilan diqqatga sazovordir [2]. Dostonda xalq tilining turli xil formalari, xalq hayoti bilan bog'liq urf-odatlar, an'analar, narsa-hodisalar va jihozlarda o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, zoonimlar-hayvonlar nomi bilan bog'liq tushuncha va atamalar, ayniqsa, alohida ajralib turadi. Chunki "o'zbeklar qadimdan eliboy xalq bo'lganligidan uning tilidan ham mollarni yoshiga, jinsiga, rangiga, turiga va xususiyatiga qarab farqlovchi so'z va atamalar g'oyat mo'l"

dir [3,21]. Bu esa Fozil shoirning xalq tiliga xos xususiyatlarni mahorat bilan o‘zlashtirganligidan dalolat beradi. Garchi dostonda xalq tiliga xos so‘zlarning ko‘plab shakli keltirilgan bo‘lsa-da, biz zoonimlarga doir masalalarning ayrim qirralari borasida fikr bildirsak.

Ma’lumki, dostonda zoonimlar – hayvonlar nomi bilan bog‘liq atamalarni uch guruhga chorvachilik, tuyachilik va yilqichilikka bo‘lib o‘rganish mumkin. Ammo bir maqola doirasidagi xulosalardan kelib chiqqan holda dostonda qo‘llanilgan yilqi va yilqichilikka doir ayrim uchraydigan so‘zlarning leksik va leksik-semantik xususiyatlariga e’tibor qaratsak.

Umumiy xususiyatiga ko‘ra ot-hayvon atamasi “yakka tuyoqlilarga mansub sut emizuvchi yirik ish ulov hayvoni” [4,547] bo‘lib, bitta atash ma’nosiga ega bo‘lgan jins tushunchasini ifodalaydi. Ushbu atamaga semantik tahlil nuqtayi nazardan yondashsak, uning boshqa ma’noli qismlari mavjudligi va ular turli belgilari bilan farq qiluvchi kichik tizimni tashkil qilishi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Dostonda ham ushbu atamaning turli-tuman atash ma’nosiga ega semalari mavjud bo‘lib, har biri o‘z ifoda vositasiga ega. Buni quyidagi misollarda ham ko‘rish mumkin: Yilqi, mollari bir uyur falon to‘qayda yuribdi... Ostida suvoraga minib yurgan saman yo‘rg‘asi bor... Ko‘kaldosh alp Ko‘kdo‘naning ustida... Mindirganman shundayin to‘bichoqqa... Bu cho‘birni qanday minib yurasan... Shovqimga irg‘iydi arabi tulpor... Bilsang, otam qo‘yabkergan qulunni... Biyaga yetolmay charchab qoladi... Shunday bo‘lar to‘riq otning odati... Shapaq otga yetib bordi Boychibor... To‘qayda yilqilar barini olsin... Asiya tulpor ekan o‘zbakning oti... Yilqichidan bedov saylab minmagan... Ostingda irg‘iydi, bu arg‘umog‘ing... Ultontozning jiyron otin... Tarlon biya Boychiborning onasi va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda ot-hayvon nomi bilan bog‘liq atamalar dostonning turli o‘rinlarida qo‘llanib, voqealar rivoji, qahramonlar ruhiy holatini ochishga alohida vazifa o‘taydi. O‘z navbatida bir jinsga mansub hayvonning “rang-tusi, jinsiga, turli tashqi jismoniy belgilariga, yetilgan hamda yetilmaganligiga, yoshiga, xonaki yoki yovvoyiligiga” ko‘ra olima R.Safarova “Leksik-semantik munosabatlarning turlari” [5,36] o‘quv qo‘llanmasida bir necha turga bo‘lib o‘rganadi. Dostonda qo‘llangan ot jinsiga mansub atamalarni ham ana shu xususiyatlariga ko‘ra turlarga ajratganimizda quyidagicha ichki atash ma’nosidagi alohidalik ko‘zga tashlanadi: a) ot nomi bilan bog‘liq atamalarning to‘da-bo‘lak ma’nosiga ko‘ra qo‘llanishi: uyur, yilqi; б) ot jinsiga mansub atamalarning rang-tusiga ko‘ra farqlovchi ma’nolarini ifodalovchi so‘zlar: saman – sarg‘ish somon rang ot; to‘riq – qora to‘q, qizil jiyron, chipor ot; tarlon – ola targ‘il, chovkar ot; shapaq ot; jiyron – qizg‘ish ot; v) ot jinsiga mansub atamalarning tashqi jismoniy belgilariga ko‘ra farqlanigi: yugurikligi, bo‘yining baland – pastligi, gavda tuzilishi, a’zolarining shakli va boshqa hususiyatlariga ko‘ra: arg‘umoq – chopqir zotli ot; bedov – uchqur o‘ynoqi ot; qirchang‘i – oriq, qari ot; arabi ot – uzun bo‘yin, xipchadan kelgan chopqir ot; so‘poq ot – gavdasi cho‘ziq, baland ot; to‘bichoq – chopqir ot; g) ot jinsiga mansub atamalarning yetilmagan turi nomini ifodalovchi so‘zlar: qulun – otning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi; d) ot nomi bilan bog‘liq atamalarning jinsiga ko‘ra turlari: ayg‘ir – erkak ot, biya – urg‘ochi bolali ot; e) ot jinsiga xos atamalarning o‘sish darajasiga ko‘ra farqlanishi: qulun – otning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi; toy – otning bir yoshdan o‘tgan bolasi; do‘nan – to‘rt yashar ot; ё) ot jinsiga mansub atamalarning xonaki yoki yovvoyi yoxud past naslli turlari: arg‘umoq, bedov, arabi ot, to‘bichoq, cho‘bir; ж) ot nomi bilan bog‘liq atamalrning faqat afsonaviy nuqtai – nazardan qo‘llanilishi: boychibor, tulpor va boshqalar.

Xullas, dostonda ot nomi bilan bog‘liq atamalar o‘zining boy, jozibali hamda ichki tizimlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda dostonda xalq tilining boy imkoniyatlari ko‘plab o‘rinlarda qo‘llanilganki, ularning ham leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish, tahlil qilish lug‘atshunosligimizni yanada boyitishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси. Филол.фанлари доктор автор. –Тошкент, 2017. – Б. 8.
2. Алпомиш. Достон. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчи Т.Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1999.
3. Туйчиев Б. “Алпомиш” достони ва халқ тили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999. №4. –Б.21.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. – М., - Б. 547
5. Сафарова Р. Лексик- семантик муносабатларнинг турлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б. 36

Gulnoza SHODIYEVA,
Samarkand Institute of Economics and Service
Assistant teacher of the Department of Language Teaching
e-mail: shodievagulnoza@gmail.com

KONSEPT – TILNING ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA

Annotatsiya: konsept – bu madaniyat sohasida ilmiy manbalarni, hamda ong va tilni bog‘lovchi birlik hisoblanadi. Konseptlar tilni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun ularni o‘rganish dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada konsept so‘zining mohiyati va uning bir qancha xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, kognitivlik, konsept, ideal obraz, kategorial model, lisoniy konseptuallashtirish.*

Аннотация: концепт – это единица, связывающая науку и ресурсы, а также сознание и язык в сфере культуры. Концепты играют важную роль в понимании языка, поэтому их изучение становится одной из актуальных проблем. В данной статье говорится о сущности слова-концепта и некоторых его особенностях.

Ключевые слова: *лингвистика, познание, концепт, идеальный образ, категориальная модель, языковая согласованность.*

Annotation: a concept is a unit that connects science and resources, as well as consciousness and language in the field of culture. Concepts play an important role in understanding language, so their study becomes one of the current problems. This article talks about the essence of the concept word and some of its features.

Key words: *linguistics, cognition, concept, ideal image, categorical model, linguistic consistency.*

Yangi bilimlar sohasi – lingvomadaniyatshunoslik – o‘zida lingvistik va madaniy manbalarni mujassam etuvchi xususiy tushuncha-atamaologik apparatni yaratadi. Ushbu apparat uchun asos bo‘lib, so‘nggi paytlarda faol rivojlanayotgan «konsept» tushunchasi xizmat qilishi mumkin.

Tilshunoslikning bu yo‘nalishida lisoniy konseptuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Lisoniy konseptuallashtirish obyektiv voqelik yoki uning biror qismini til vositasida ifodalashdir, ya’ni “...inson ongida to‘plangan ma’nolarning verballashtirilgan shakli va dunyo haqidagi bilimlarining muayyan til vositasida tizimlashtirilishi bo‘lib”, “kognitivlik o‘z tuzilishiga ko‘ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi” [4, 302].

Freym kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, har qanday matn ma’lum bir freym ifodasi sifatida qaraladi. Har qanday freymda ko‘p qirrali axborot o‘zaro bog‘langan bo‘lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi, shuningdek, birgalikda harakatga tushadigan va bir-birini “qo‘zg‘atadigan mantiqiy idrok elementlarining o‘zaro munosabati asosida yuzaga keladigan tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Konsept lingvistik vosita sifatida dunyo haqidagi tasavvurni paydo qilishda xizmat qiladigan birliklarning ideal mental borlig‘ini ko‘rib chiqishga xizmat qiladi. «Konsept» tushunchasiga ikki tomonlama yondashish mumkin: lingvistik tushuncha sifatida va falsafiy tushuncha sifatida.

Falsafiy nuqtayi nazardan, konsept o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qator faktorlar, ya’ni milliy qadriyatlar, folklor, din, hayotiy tajriba kabilar natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Konsept qaysidir ma’noda inson va olam o‘rtasida madaniy qatlamni tashkil etadi. Lingvistik adabiyotlarda «konsept» atamasi turlicha talqin qilinadi, shuning uchun ushbu atamaning juda ko‘plab ta’riflari mavjud. Bir guruh olimlar konseptni odam bilan va uning milliy, madaniy, kasb-hunar, yosh xususiyatlari va boshqa tajribalari bilan uzviy bog‘liq va muloqotni yengillashtiruvchi bir qator predmetlarning yashirin matndagi «o‘rinbosarlar»i, hamda ayrim o‘rnini bosuvchi ma’nolari deb tushunishadi

Boshqa bir guruh olimlar fikriga ko‘ra, konsept – insonning butun bir borliq haqidagi madaniy shartlangan qarashlarini o‘zida mujassam etgan, muayyan nomga ega bo‘lgan «ideal» olam obyektidir. Ushbu tadqiqot uchun konsept atamasini kognitologiya nuqtai nazaridan o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. «Kognitiv iboralarning qisqa lug‘ati»da atamaga quyidagicha ta’rif beriladi: «Konsept – bu inson psixikasida yuzaga keladigan butun olam tasviri, miya tili va konseptual tizim, mental leksikon hamda inson xotirasini o‘zida mujassam etadigan birlikdir» [1,269].

Ko‘plab lingvistlar konseptni mantiqiy shakllangan ma’noviy tuzilmalarga oid «ichki» va kategorial tarzda so‘zlarga bog‘liq bo‘lgan «tashqi» tomondan ko‘rib chiqadi. Konseptning ichki strukturasi muayyan so‘zning o‘xshash ma’nolarda boshqa so‘zlar bilan qo‘llanilishi uchun xizmat qilsa, tashqi struktura barcha ma’nolar uchun kategorial model hisoblanadi. Tushuncha elementi real yoki tasavvur qilingan obyekt haqidagi ma’lumot orqali shakllanadi. Konseptning obrazli elementi esa, borliqni anglashning usuli bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu element tarkibiga tilda mavjud bo‘lgan barcha taqdim etilgan so‘zlarning ichki formalari kiradi va ular konseptni tasvirlash uchun xizmat qiladi.

Konseptning bir necha xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Konsept – bu narsalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani aniqlovchi reprezentatsiyadir.
- Konseptlar – ideal obrazlardir.
- Konsept – albatta so‘z bilan ifodalanadi. [3,196]

Konsept tushunchasini o‘rganishdagi asosiy muammolardan biri bu konsept va til birliklari o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. So‘z va konsept bir xil ifodalanishiga qaramay o‘ziga xos ilmiy tadqiqot paradoksini vujudga keltiradi, ya’ni konsept ham so‘z, ham so‘z emas. Bir qator milliy madaniyatdagi so‘z-konseptlarning ta’riflanishi o‘sha madaniyatning konseptlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biz bir so‘zni ta’riflashda boshqa bir so‘zga murojaat qilamiz va o‘zimiz bilmagan holda o‘sha bizni qiziqtirayotgan so‘zning qisman izohini keltiramiz. A. Vejbitskaya «so‘z» va «konsept» atamalarini bir-birini o‘rnini bosa oladigan atamalar qatoriga kiritadi. U konsept – minimum bu tilni uzatuvchi oddiy so‘z bilan uning ma’nosiga qisman erishish va konsept – maksimum esa so‘zning ma’nosiga to‘liq erishish kabi tushunchalarni keltiradi [2,104].

Shunday qilib, konseptlar yakka tarzda bir shaxsning ongida ham, guruh tarzda omma ongida ham mavjud bo‘lishi mumkin. Konseptlar insoniy tajribani aks ettiruvchi axborot strukturasi va ong birligi hisoblanadi. Tafakkurni tajriba shakllantiradi. Tafakkur va tajriba individual, xususiy bo‘lgani kabi, jamoaviy, umumiy ham bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, konseptlar jamoaviy va individual bo‘lishi mumkin, o‘z navbatida jamoaviy konseptlar makro va mikroguruhlarga, ya’ni milliy, madaniy va umuminsoniy konseptlarga bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесностъ. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Академия, 1997. – С. 269
2. Бабушкин А.Р. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. -104 с.
3. Berlin, B. and Kay, P. Basic color terms: their universality and evolution. – Berkeley, Oxford: University of California: Paperback ed., 1991. -196 p.
4. Birren, F. Color psychology and color therapy: A factual study of the in-fluense of color on human life. – N.Y., cop., 1961. -302 p.

Xasan GAFFOROV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Tillarni o‘qitish” kafedrasi assistant o‘qituvchisi
e-mail: qurgoshin19@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR ADABIYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti hamda unda ko‘zga tashlanadigan gender xususiyatlar, shuningdek, feministik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi kabi masalalar tadqiqot markaziga olingan. Maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida o‘chmas iz qoldirgan Zulfiya hamda uning ijodida namoyon bo‘ladigan adabiyotning feministik xususiyatlari tadqiq etilgandir.

Kalit so‘zlar: *an’anaviy murojaat shakli, ayol nutqi, erkak nutqi, sintaktik birliklar doirasidagi gender farqlar, gender omili, o‘zbek ayollari nutqi, o‘zbek xalq mentaliteti.*

Аннотация: в данной статье в центр исследования взяты узбекская литература и гендерные особенности, а также проявление феминистских черт. В статье исследуются Зульфия, оставившая неизгладимый след в узбекском литературоведении, и феминистские черты литературы, проявляющиеся в ее творчестве.

Ключевые слова: *традиционная форма обращения, Женская речь, Мужская речь, Гендерные различия внутри синтаксических единиц, Гендерный фактор, Речь узбекских женщин, Узбекский народный менталитет.*

Annotation: in this article, Uzbek literature and gender features, as well as the manifestation of feminist features, are taken into the center of research. The article examines Zulfiya, who left an indelible mark on Uzbek literary studies, and the feminist features of literature manifested in his work.

Key words: *traditional form of address, Female speech, Male speech, Gender differences within syntactic units, Gender factor, Uzbek women's speech, Uzbek folk mentality.*

Ayollar matni haqida gapirganda, ular ayol muallifligidagi badiiy asarni nazarda tutadi va bunday matnlarni

o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar maxsus "ayollar adabiy tanqidi"ga kiradi. Markaziy Osiyo mintaqamizda ilmiy muomalaga kirib kelayotgan bu yangi terminologiya idrok etishda ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. G‘arbda bu faoliyat sohalari uzoq vaqt oldin feministik harakat ta’siri ostida paydo bo‘lib, ayollarning erkaklar bilan teng ravishda yuqori estetik sifatdagi ma’naviy mahsulotni yaratish qobiliyatini ta’kidlaydi. Ushbu masala bilan bog‘liq tadqiqotlar hali ham muhokama qilinmoqda.

Ayollar ijodiga oid mavzu qizg‘in munozaralarga sabab bo‘ladi – bu madaniy hodisani to‘liq inkor etishdan so‘zsiz tan olishgacha; uning konseptual apparati o‘zining shakllanishini endigina boshdan kechirmoqda va tushunilmoqda. "Ushbu kontseptsiyani qo‘llashga qarshi bo‘lganlarning asosiy dalillaridan biri bu faqat yaxshi va yomon adabiyotlar mavjud, ular jinsga qarab ajratilmaydi". Bizning tadqiqotimiz feministik yo‘nalishdagi gendershunoslikdan farqlanishini alohida ta’kidlaymiz, biz zamonaviy o‘zbek ayollar nasrini mumtoz adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz; O‘zbek adabiy tanqidiga oid yangi tushunchalar kam qo‘llaniladi va ilmiy dalil bazasini talab qiladi. Jamiyatdagi har bir shaxs o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Shu sababdan so‘zlovchilar nutqning pragmatik vaziyatini yuzaga keltirar ekan, ushbu nutqning kognitiv-pragmatik xususiyatlarida gender farqlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ayol qahramonlarning nutqi pragmatik jihatdan olganda ham gender xususiyatlarga boydir. Ular nutqlarida ko‘proq suhbat borayotgan mavzuga nisbatan o‘zlarining ruhiy-hissiy munosabatini bildirishadi hamda gapning ifodaliligini oshirish uchun o‘z nutqlarida erkak so‘zlovchilarga nisbatan ko‘proq leksik kuchaytirgichlar hamda gap qurilishining turli shakllaridan foydalanishadi. Ayollarning nutqlari pragmatik jihatdan tahlil qilinsa, nutqni amalga oshirishning pragmatik maqsadi asosan hamdardlik, shikoyat, e’tiroz hamda maslahatdir. Shuningdek, ularning nutqlarida erkaklar nutqidan farqli ravishda salbiy baho ustunlik qiladi.

Ma’lumki, fanda gender ijtimoiy-madaniy tizim sifatida tushuniladi. "Gender" (gender – ijtimoiy jins) va "jinsiy" (biologik) tushunchalari mavjud. Gender ijtimoiy-madaniy vaziyat bilan bog‘liq holda yaratilgan bo‘lib, u ayol va erkakning ma’lum xususiyatlarini belgilaydi (biz hammamiz erkak va ayollik xususiyatlari bilan ijtimoiylashganmiz). Bu shaxsning muayyan jamiyat va ijtimoiy-madaniy muhit vakili sifatida shakllanishining murakkab jarayonidir. Bu jarayonda til ayniqsa muhim rol o‘ynaydi. O‘z navbatida, til nutq san’atining asosini tashkil qiladi. Afsuski, o‘zbek adabiyotshunosligida ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha gendershunoslik natijalari juda sekin va ehtiyotkorona idrok etilib, ilmiy muomalada tushuncha va atamalarning qo‘llanilishi yoki qo‘llanilishi cheklangan. O‘zbekistonda ayollar tengligi siyosati sohasida olib borilayotgan ishlarga ko‘p samarali va munosib e'tibor qaratganiga qaramay. Masalan, iqtidorli yoshlar uchun shoir Zulfiya nomidagi ayollar uchun Davlat mukofoti ta’sis etildi. Ushbu mukofot badiiy ijod, san’at va sportning turli yo‘nalishlarida katta muvaffaqiyatlarga erishgan o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan ayollar va qizlarga beriladi. Ayniqsa, keyingi yillarda taqdirlanganlar orasida badiiy asar yaratishda o‘zining “ayol” uslubini shakllantirgan yozuvchi va shoir ayollar ham borligini alohida ta’kidlash joiz.

Albatta, bu yosh iste’dod sohiblari Zulfiya, Saida Zununova kabi o‘z salaflari ijodining davomchilaridir. Ikkinchisi sovet davrida yashagan va ishlagan; zamondoshlarimiz – Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo va boshqalar ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotiga qo‘shilgan salmoqli hissadir. Ta’kidlash joizki, zamonaviy o‘zbek ayollar adabiyoti, xususan, nasri G‘arbda muhabbat mavzulariga bag‘ishlangan “ayollar romani” sifatida qabul qilingan adabiyotdan tubdan farq qiladi. O‘zbek adiblari uchun muhabbat aslo asosiy mavzu emas. Zamonaviy adabiy tanqidning zaif nuqtasi "gendershunoslikning asosiy tushunchalarini bilmaslik va o‘zlashtirishni istamaslik".

Shunday qilib, bizning zamonaviy o‘zbek ayollar nasrini tahlil qilishda ishtirok etishimiz bir qancha omillarga asoslanadi: muallif ayol, bosh qahramon ayol, asar muammosi va mavzusi u yoki bu ma’noda ayol taqdiri bilan bog‘liq. XX asr oxiri jahon adabiy tanqidida. Ayollar nasri, umuman, ayollar adabiyoti kabi, adabiy-madaniy hodisa sifatida e’tirof etila boshlandi, o‘zbek filologiyasida bu yo‘l endigina boshlanmoqda. Bunda asosiy e’tibor alohida ayol estetikasi, ayol qo‘l yozuvi va umuman ayol ijodining mavjudligiga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gordon L. (1990). Gender and Higher Education in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press. -278 p.

2. Gordon L. Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press, 1990 – 187 p.

3. Jespersen J. (1998). The woman / the feminist critique of language / ed. by D. Cameron. L. 1998. –352 p.

4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Фил.фанлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993. 19-бет.

5. Искандарова, Ш. М. Узбек тили лексикаси мазмуни майдон сифатида (шахс микромайдони): Автореф. дисс… докт. филол. наук. — Тошкент, 1999; Расулова М. И.. Проблемы лексической категоризации в линг-вистике: Дисс. … докт. филол. наук. — Ташкент, 1999; Xusnida ISROILOVA,

Gulnigor SHAROPOVA,
Buxoro davlat universiteti
Pedagogika fanlari erkin tadqiqotchisi

BOLANING MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJLANISHIDA KITOBXONLIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada bola rivojlanishi va shu jarayonda tarbiya, irsiyat hamda muhitning ahamiyati, bola ma'naviyatining yuksalishida oila va jamiyatning o'rni, oiladagi go'zal muhitda tarbiyalangan bolaning dunyoqarashi teranligi, farzand tarbiyasidagi asosiy omillar, bolani kitobga qiziqtirish jarayonlari masalalari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *rivojlanish, ruhiyat, irsiyat, jamiyat, kitobxonlik madaniyati, farzand tarbiyasi, mutolaa madaniyati, odam rivojlanishi, umuminsoniy qadriyatlar, ziyoli farzand, barkamol inson, fikrlash doirasi.*

Annotation: this article describes the importance of upbringing, heredity and environment in the development of a child, the role of family and society in the development of a child's spirituality, the depth of the worldview of a child brought up in a beautiful environment in the family, the main factors in child education, and the processes of making a child interested in books.

Key words: *development, mentality, heredity, society, reading culture, child upbringing, reading culture, human development, universal human values, intellectual child, well-rounded person, circle of thinking.*

Аннотация: в данной статье описывается значение воспитания, наследственности и среды в развитии ребенка, роль семьи и общества в развитии духовности ребенка, глубина мировоззрения ребенка, воспитывающегося в прекрасной обстановке в семье, основные факторы воспитания детей и процессы формирования интереса ребенка к книге.

Ключевые слова: *развитие, психика, наследственность, общество, культура чтения, воспитание ребенка, культура чтения, развитие человека, общечеловеческие ценности, интеллектуальный ребенок, всесторонняя личность, круг мышления.*

Odam bolasining rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, yetakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida atrof-muhitni bilish va o'zlashtirishda yetakchi vazifani bajaradi.



1-rasm

Tarbiya, irsiyat (nasl) va muhit bolaning rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Agar ana shu uchta omil bolaga ijobiy ta’sir qilsa, u kelajakda barkamol inson bo‘lishi va salbiy tomondan ta’sir qilsa, badaxloq kimsaga aylanishi mumkin.

Tarbiya – inson kamolotiga ta’sir etuvchi tashqi va eng muhim omil hisoblanadi. “Tarbiya” arabcha so‘z bo‘lib, o‘stirdi, rahbarlik qildi, isloh qildi degan ma’nolarni bildiradi.

Oila muhiti – insonning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko‘z ochib ota-onasini, qarindosh-urug‘ini ko‘radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta’sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo‘lsa, bolaning axloqi go‘zal va fazilatli bo‘lib ulg‘ayadi.

Ijtimoiy muhit – ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar insonga alohida ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy aloqa, ya’ni insonlararo o‘zaro munosabatlar natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. Jamiyatda ma’naviy muhit yaxshi, adolat ustuvor bo‘lsa, inson faoliyatiga ijobiy ta’sir qilishi va aksincha bo‘lsa, salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Farzand tarbiyasidagi eng asosiy omillardan biri bu kitob mutolaasidir. Kitob bilan tanishish, mutolaa qilish, insonga o‘zgacha zavq beradi. kitobxon mutolaa qilar ekan kitob bilan yaqinroq tanishadi, uning ilmiy-badiiy qimmati haqida tasavvur hosil qila boshlaydi, fikrlaydi, mutolaa madaniyati yuksaladi.

Mutolaa madaniyati kishining manbaani to‘laqonli tushunishi, undan zavq olishi, muallif fikri va g‘oyasini anglash hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Kitob mutolaasi insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg‘unlashish, ma`naviy foyda olishga yo‘naltiradi. “Mutolaa” so‘zi arabcha o‘qish degan ma`noni anglatadi, bugungi kunda esa u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushuncha anglatadi. Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to‘plab avlodlarga etkazadi. Haqiqatdan ham hech bir manbaa kitob kabi inson kamolotini yuksaltira olmaydi. Har bir kitobxon o‘z yosh toifasidan kelib chiqib badiiy asarlar yoki ilmiy asarlarni o‘qishi, yoritilgan fikrlarni yanada teranroq anglab yetishiga imkon hosil bo‘ladi. Buning uchun ota-ona, bog‘cha, maktab hamkorligida bolaning qiziqishlari to‘la qonli o‘rganilishi kerak. Bir bolaga yeti mahalla ota-ona deganlaridek, farzand tarbiyasida,ularning ma’naviyatli madaniyatli bo‘lib kamol topishida barcha birdek mas`ul hisoblanadi. Kitob o‘qishni odat qilmagan oila – ma’naviy qashshoq oiladir deb bejizga aytishmagan. Shunday ekan faqat ota-ona emas balki kutubxona xodimlari ham o‘z kasbining yetuk mutaxasisi bo‘lishi, kitobxonlarga, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda kitob to‘g‘ri kitob tanlab berishi kerak bo‘ladi.

“Kitob seni hali sen ko‘rmagan dunyoga olib boradi, sen eshitmagan so‘zlarni aytadi” deydi Geytsen. Darhaqiqat, kitob juda ko‘plab sir-sinoatlarga boydir. Uning boyliklari hech ado bo‘lmaydi. Kitob insonga qanot bag‘ishlaydi.

Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlod ta’lim-tarbiyasida kitobning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta’kidlab, “Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi”, aytgan fikrlari fikrimizning dalilidir.

Bolalarni kitobga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz, albatta, oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo‘lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham sh maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-ona bolalarni kitobga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishda o‘zlari namuna bo‘lishlari va o‘zlari kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi. Oilada ota-ona kitobga mehr qo‘ygan bo‘lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo‘ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo‘ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so‘zi, qilayotgan ishini o‘ylab bajaradigan, bir so‘z bilan aytganda, o‘zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo‘lib voyaga yetadi. Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi. Bolalarga yoshlikdan o‘zbek xalq ertaklaridan so‘zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylik, mehmondo‘stlik kabi insoniy fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi. Bundan tashqari,

buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz va ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlar esa bola tarbiyasida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus. – T., 2019-yil 19-mart.
2. “O‘zbekiston Respublikasiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7- iyundagi PQ-4354-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Zarafshon”, 2018-yil 29- dekabr, 155-156-son.
4. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. №. 8. 3-5-betlar.
5. Hayitov H. A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – С. 11-14.
6. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – Т. 14. – С. 101-105.
7. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT – HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. №. 12-3. 72-73-bet.
8. Akhmadovich, K. K., & Badriddinovna, S. G. (2023, January). HISTORICAL GENESIS OF UZBEK CHILDREN'S READING, PRINCIPLES OF DEVELOPMENT AND AESTHETIC EXPRESSION OF NATIONALITY IN THEM. In E Conference Zone (pp. 47-51).
9. Akhmadovich, K. K., & Badriddinovna, S. G. (2023, January). THE CONCEPT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN'S READING. In E Conference Zone (pp. 28-33).
10. Badriddinovna, S. G. (2022). PSYCHO-DIDACTIC FOUNDATIONS OF THE LEARNING PROCESS IN PRIMARY EDUCATION. International Journal of Pedagogics, 2(09), 58-63.
11. Akhmadovich, K. K., & Badriddinovna, S. G. (2023). ANALYTICAL METHODS OF PROVERBS IN CHILDREN'S LITERATURE. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 775-775.
12. Omonova, N. R. K., & Djurayeva, N. B. (2021). AN OVERVIEW OF HEALTH TOURISM WITHIN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S TOURISM STRATEGY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 754-759.
13. Sharopova, G. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA MAQOLLARNING TAHLILIY METODLARI. Science and innovation in the education system, 2(5), 130-135.
14. Nilufar, O., & Hamroev, H. R. (2021, March). MEDICAL TOURISM: PROBLEMS AND POTENTIALS OF UZBEKISTAN. In Euro-Asia Conferences (Vol. 3, No. 1, pp. 34-37).
15. Ahmadovich H. H. et al. O‘QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – T., 2022. №. 1. 343-345-betlar.
16. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – T., 2022. №. 1. 332-334-betlar.
17. Omonova, N. R., & Isokova, G. S. (2022). The significance of interactive methods in teaching in Higher Education. Science and Education, 3(12), 661-666.
18. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – T., 2010.
19. Oilada bolalarda kitobxonlikni shakllantirish omillari / Феруза Таджибаева, Шахноза Камолова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 27 (317). — С. 384-386. — URL: https://moluch.ru/archive/317/72350/ (дата обращения: 15.04.2024).
20. I.Valiyev, “Xoja Buxoriy” o‘rta maxsus islom bilim yurti o‘qituvchisi Bolani shakllantiruvchi uch omil.

Ruxsora RAXIMOVA,
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

DIDAKTIK O‘YINLARNING ETNOGENEZISI XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada didaktik o‘yinlarning etnogenezisi xususida ilmiy-nazariy tahlillar qilingan.
Аннотация: в данной статье проведен научно-теоретический анализ этногенеза дидактических игр.
Annotation: in this article, scientific-theoretical analyzes were made regarding the ethnogenesis of didactic games.

Millat yoshlarini jamoaviylik xususiyatini shakllantiruvchi qadimgi didaktik o‘yinlarida ma’lum bir xalqning folklori, milliy kiyim-kechaklari, raqs-harakatlari, xo‘jalik-madaniy an’analari va shu kabi qator etnopedagogik belgilari aks etgan. Xalq o‘yinlari sirasiga bir necha o‘yinlarning o‘nlab shakllari, ularni etnopedagogik tahlili milliy urf-odat, tamoyillarga ko‘ra tartib-qoidalari, etikasi, ramziy shakllari, sovrin va ularni topshirish tartiblari, har bir tamoshabin, mehmonlarga ko‘rsatiladigan ehtirom bilan bog‘liq udumlar tahlil qilinar ekan, bu yo‘nalishda uloq va kurash o‘yinlarining usullari va tarbiyaviy mohiyatini yoritish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi davr pedagogikasida didaktik o‘yinlarining tarixiy-genetik asoslari ochib berilmaganligi tufayli o‘yinlarning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti tamoyillari ham haligacha to‘liq o‘rganilmagan.

Etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, tarixan bir muhitda yashab, o‘tmish madaniyati bir zaminda vujudga kelgan, biroq ayni paytda mustaqil davlat bo‘lib yashayotgan respublikalarning tarixiy ildizlarini qidirib topish, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklash borasidagi intilishlarini hayotning o‘zi zaruriyat darajasiga ko‘tarmoqda.

Xalq o‘yinlari haqidagi yozma ma’lumotlarni XI asrda yashagan taniqli turkiyshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan ham olish mumkin. Mazkur asarda keltirilgan ma’lumotlar xalq o‘yinlarining yuzaga kelish tarixi va evolyutsiyasini o‘rganish imkonini beradi. Jumladan, turkiy qavmlar orasida to‘p bilan o‘ynaladigan qadimiy o‘yinlardan biri – “chavgon” keng rasm bo‘lgan edi. “Devonu lug‘otit turk”da bu o‘yinga taalluqli bo‘lgan quyidagi atamalar keltiriladi: “Tanguq” – chavgon o‘yinida koptokni tortilgan o‘tovdan o‘tkazganga beriladigan ipak kiyimlik, “tasal” – chavgon o‘yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq, “tobiq” – chavgon bilan uriladigan koptok, to‘p. Kattalarning chavgon o‘yini asosida “O‘t bandal” nomli bolalar o‘yini yuzaga kelgan.

“Bandal” so‘zining ma’nosi “bosh qismi cho‘qmoqli yog‘och” deb izohlanadi. Odatda, bunday cho‘qmoqli tayoq bilan chavgon o‘yinida koptok urilgan. Bolalar esa bunday cho‘qmoqli tayoqlarning uchini yondirib, kechki paytda bir-birlariga tayoqlar o‘qtalib o‘ynaganlar, shu tufayli bir qadar xavfli bo‘lgan, o‘ta ehtiyotkorlikni talab qilgan bu o‘yin “O‘t bandal” deb atalgan. O‘yinda faqat o‘g‘il bolalar ishtirok etib, ularning qo‘rqmas, jasur bo‘lib ulg‘ayishlari nazarda tutilgan. Qadimgi ajdodlarimiz bosqinchi qabilalar hujumini qaytarib, o‘zlarini himoya qilishlari uchun jangu jadal sirlarini puxta egallashlari talab qilinardi. Shuning uchun qilichbozlik, nayzabozlik, o‘q otish-tirandozlik sirlarini o‘zlashtirish maqsadida turli tuman jangovar o‘yinlarni ham o‘ylab topganlar. “Agar tomosha uchun bir-ikki marotaba chavgon o‘ynasang ravodir va lekin ko‘p otlig‘ bilan chiqib izdihom qilmag‘ilkim, sakkiz otliqdan ziyoda bo‘lishg‘a hojat yo‘q. Sen maydonning bir boshida turg‘il, yana bir kishi maydonning oxirida tursin. Olti kishi maydonda to‘pni ursin, Har vaqt to‘p sening tarafingga kelsa, to‘pni urg‘il va maydonning oxirig‘a surg‘il, ammo olomonning ichig‘a otmag‘il. Chavgon o‘yinining yo‘li shudir. Shu bilan birga marraga yetirishg‘aa muvaffaq bo‘l. Ammo urush maydonig‘a kirsang, sustkashlik qilmag‘il, darang, sustkashlik yaxshi emasdir”.

Kaykovus “Qobusnoma”da qadimgi chovgon o‘yinining umumiy qoidalari haqida batafsil ma’lumot beradi. Har bir guruhda sakkizta otliq a’zolar bo‘lishi, maydonni ikki tomonida ikki kishi turishi kerak ekanligini uqtiradi. Chavgon o‘yini ishtirokchilardan juda chaqqon va serharakat bo‘lishni talab qilishini ta’kidlaydi. Ot bilan o‘ynaladigan xalq o‘yinlaridan biri uloq (ko‘pkari) ham mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq, ya’ni turkiy xalqlarda azal-azaldan bo‘ri muqaddas jonivor sifatida e’zozlangan. Ko‘kbo‘ri qadimgi turklarning bobokaloni O‘g‘izxonga rizq-ro‘z berish to‘g‘risida yo‘llarni ko‘rsatganligi, shundan buyon bo‘ri bilan uchrashgan kun Navro‘z, Ko‘kbo‘ri kuni ro‘shnolikka chiqqan kun bo‘lib qolganligi afsonada o‘z ifodasini topgan. Ikkinchidan, “Ko‘kboru” o‘yini “muqaddas bo‘ri” sharafiga uyushtirilganligi obrazli tarzda unga totem sifatida qaralganligini ko‘rsatadi .

Bolalar o‘yinlari qaysi shakl, mavzu, yo‘nalishga ega bo‘lmasin, loy-tuproq bilanmi, yog‘ochu kaltakmi, ip-u arqon bilanmi, qaysinisi bo‘lsa ham bolani turmush ikir-chikirlari, uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik ishlari, umuman katta hayotga tayyorlashda o‘ziga xos hunar maktabi rolini o‘ynagan . Ajdodlarimiz farzand tarbiyasida jismoniy mashqlarning muhim ahamiyat kasb etishini, jismonan chiniqqan bola ijtimoiy hayotning har qanday qiyinchiliklariga sabr-bardoshli bo‘lib, hayotga tayyor bo‘lishini yaxshi anglashgan.

Ayrim bolalar didaktik o‘yinlari genezisi O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi yozma manbasi “Avesto”ga borib taqaladi. Ma’lumki, “Avesto”da zardushtiylarda to‘rt unsur – suv, havo, tuproq va olov muqaddas sanalishi e’tirof etilgan. Qadimdan bolalar o‘yini hisoblangan “Mung‘us-mung‘us” o‘yini suvni muqaddas sanab poklanish uchun unga sho‘ng‘ish tufayli shakllangan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ot-it-turk”asarida ushbu suv bilan bog‘liq o‘yinlarga quyidagicha ta’rif keltiriladi: “Qalinguladi – kishi suv ustida qalqib turdi, bu oyoqlarini, tizzalarini harakatlantirib, suv uzra turishdir – qalingular. Suv bilan bog‘liq suvda suzish o‘yini qadimda chapsar deb atalishini ta’kidlaydi.

Elshunos olim Qoshg‘ariy ushbu asarida bolalarni hozirjavoblikka, tez fikrlashga, tafakkur doirasini kengaytirish bilan bog‘liq qadimiy bolalar o‘yini bo‘lgan mo‘ng‘uz-mo‘ng‘uz haqida shunday qimmatli ma’lumotni keltiradi: “mo‘ng‘iz-mo‘ng‘iz deyilgan bolalarning bir turli o‘yini. Bu shunday; bolalar tiz cho‘kib, dengiz labida o‘tiradilar. Sonlari orasiga ho‘l qum solib to‘ldiradilar. So‘ng qo‘llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri (ona boshisi) mo‘ng‘iz-mo‘ng‘iz deydi. Qolganlari- ne mo‘ng‘iz? – nimaning mo‘ng‘iz (shohi)? deb so‘raydilar. U birin- ketin shohli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So‘ng ona boshi ular orasida tuya, eshak singari shoxi yo‘q hayvonlar otini aytib, chalg‘itadi. Bolalarning birortasi uning ketidan shoxsiz hayvonni otini aytib yuborsa, u suvga itarib yuboriladi”. Bolalar o‘yinlari qaysi shakl, mavzu, yo‘nalishga ega bo‘lmasin, loy-tuproq bilanmi, yog‘och-u kaltakmi, ip-u arqon bilanmi, qaysinisi bo‘lsa ham bolani turmush ikir-chikirlari, uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik ishlari, umuman, katta hayotga tayyorlashda o‘ziga xos hunar maktabi rolini o‘ynagan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, qadimgi didaktik o‘yinlar millat bolalarini jismoniy sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda, ularni jamoaviylik ruhida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoshg‘ariy M. Devoni lug‘oti-t-turk. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2017. 447,449.454-betlar.
2. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 111-bet.
3. Душекеев Т. Кок бору кылымадарды кариткан ойин, Кок бору кылмдарды карытаар ойин. Кок бору.1999. № 5. 24-август.
4. Is’hoqov B.B. Bolalar o‘yinlarining etnografik xususiyatlari // O‘zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent-Namangan, 2007. 249-bet.

Dilfuza JUMABOYEVA,
O‘zMU Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi
1-kurs magistranti
Dilfuzajumaboyeva2@gmail.com.

MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING “TA’VIZ UL-OSHIQIN” DEVONIDAGI ANTROPONIMIK BIRLIKLAR TADQIQI

Annotatsiya: maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida antroponimik birliklarning qo‘llanilishi, shoirning bunday nomlarni qo‘llashdan ko‘zlagan maqsadlari misollar asosida tahlil qilingan. Bunda, asosan, diniy nomlar (payg‘ambarlar, avliyolar va Qur’onda nomi keltirilgan kishilar) izohining lingvistik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *onomastika, solih banda, go‘zallik timsoli, pretsedent birliklar, tiriklik ramzi, Masih, debocha.*

Annotation: the article presents examples of the use of anthroponymic units used in the book “Ta’viz ul-ashiqin” by Mohammad Reza Ogahi, and the poet’s goals for using such names. Mainly, the linguistic characteristics of the interpretation of religious names (prophets, saints and people mentioned in the Qur’an) are analyzed. Key words: onomastics, “righteous banda”, symbol of beauty, precedent units, “symbol of life”, Christ, prologue. Аннотация: в статье на примерах анализируется употребление антропонимических единиц в книге Мухаммада Резы Огахи «Тавиз ул-ашикин» и цели поэта от использования таких имен. В основном анализируются лингвистические особенности интерпретации религиозных имен (пророков, святых и людей, упомянутых в Коране).

Ключевые слова: *ономастика, праведный раб, символ красоты, прецедентные единицы, символ жизни, Христос, пролог.*

Mumtoz asarlarni tadqiq etish, yozma manbalarning ilmiy, ma’rifiy, axloqiy-ma’naviy qiymatini belgilash, badiiy jihatlarini yoritish, til xususiyatlarini o‘rganish filologik sohaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Sir emaski, ko‘hna yozma manbalarda xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli, urf-odati, an’analari aks etadi. Demak, jamiyat va til tarixidan boxabar bo‘lishda yozma yodgorliklar muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, Atoiy asarlari leksik tarkibini tadqiq etish nafaqat o‘zbek xalqining uzoq o‘tmishini ilmiy asosda yoritish, shuningdek,

o‘zbek tili va adabiyoti tarixini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham g‘oyat muhimdir, bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Mumtoz adabiy manbalar tili leksik-semantik sathini ham an’anaviy, ham sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish yo‘lida qator tadqiqotlar dunyo yuzini ko‘rdi. So‘nggi yillarda ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy-madaniy va adabiy merosga munosabat o‘zgardi, ularni o‘rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan, xalqimiz ma’naviyatida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ adiblarning asarlarini asl manbalardan o‘qib-o‘rganish, ular ijodiga xolis baho berish va targ‘ib-u tashviq etish ishlari keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Bugungi kunda ajdodlarimiz ma’naviy merosi, Sharq allomalarining ijodiy merosi har tomonlama o‘rganila boshladi. Iste’dodli shoir Atoiyning ilmiy-adabiy merosi, jumladan, asarlari tili ham har tomonlama tadqiq etila boshlandi. Atoiyning Tanlangan asarlari 1958- va 1960-yillarda e’lon qilingan. Shoir devonining to‘liq va mukammal nashri 2008-yilda S.Rafiddinov tomonidan amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda tilshunoslikning ko‘plab sohalari qatorida onomastika ham rivoj topib bormoqda, bu yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan, monografiya, darslik, maqolalar nashr etilmoqda. Jumladan, onomastika tarkibidagi antroponimlar tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari e’lon qilingan.

E.Qilichev, N.Husanov, N.Nazarova, N.Xalilova, R.Mo‘minova kabi tadqiqotchilar o‘zlarining qator ishlarida antroponimlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etganlar. Bundan tashqari, o‘zbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroflicha to‘planib, nomzodlik dissertatsiyalari (Э.Бегматов, 1965; Ғ. Сатторов, 1990; С.Раҳимов, 1998; Р.Худойберганов, 2007) himoya qilingan. E.Begmatovning “Kishi nomlari imlosi”, “O‘zbek ismlari imlosi”, “O‘zbek ismlari”, “O‘zbek ismlari ma’nosi”, “Ism chiroyi” nomli kitoblari nashr ettirilgan.

Antroponimika onomastikaning bir bo‘limi sifatida kishilarning atoqli otlari, laqablari, taxalluslarini o‘rganadi. O‘zbek tilshunosligida bu sohada samarali faoliyat olib borgan, o‘zining qator ilmiy nomzodlik dissertatsiyalari, maqolalari bilan antroponimika rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan tilshunos olim E.Begmatov o‘zbek antroponimik birliklari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadi:

1. Ismlar – konkret shaxsga berilgan ismlar;
2. Laqablar;
3. Taxalluslar;
4. O‘zbeklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan ba’zi shakllari (“qizi”, “o‘g‘li”) yordamida nomlash;
5. Shaxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida;
6. O‘tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari.

Antroponimik birliklar bir qator ilmiy tadqiqotlarning obyekti bo‘lgan. Q.Olloyorov ham o‘z maqolasida devonda uchraydigan antroponimik nomlarni tadqiq etgan. Ko‘plab shoirlar o‘z asarlarida diniy, afsonaviy, mifologik shaxslar nomlarini keltirish orqali ma’lum bir ma’noni ifodalashga harakat qiladilar, bu adabiyot ilmida talmeh san’atini vujudga keltiradi. Tilshunoslik ilmida antroponimlar pretsendent birliklar sifatida matn tarkibida o‘rganiladi va ular “pretsedent nomlar” deya ta’riflanadi. Antroponimlardan ko‘p va xo‘p foydalangan ijodkor sifatida Ogahiyni keltirishimiz mumkin. Uning devonda foydalangan antroponimik nomlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Payg‘ambarlar nomlari: Muso, Iso, Sulaymon, Yusuf .
2. Avliyolar nomlari: Xizr, Luqmon.
3. Hukmdorlar nomlari: Doro, Xisrav, Iskandar.
4. Faylasuf va shoirlar: Faridun, Arastu, Navoiy, Munis, Atoiy.
5. Badiiy qahramonlar: Farhod, Shirin, Layli, Majnun.
6. Afsonaviy qahramonlar: Jamshid, Vomiq, Rustam, Hotam.

Shoirning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida eng ko‘p keltirilgan shaxs nomi bu Iso Masihdir. Iso Masih alayhissalom.... qissasi Qur’oni Karimning turli suralarida keltirilgan. Ya’ni, Makkada ham, Madinada ham nozil bo‘lgan suralarda Iso alayhissalom haqida ma’lumotlar bor. Shuningdek, “Maborak” ma’nosini anglatuvchi Iso alayhissalomning sharafli laqabi bo‘lgan “Masih” so‘zi 11 marta zikr qilingan. Iso Masih o‘liklarga jon bag‘ishlovchi zot sifatida ta’riflanadi. Ogahiy ham o‘z g‘azallarida Iso Masihning xuddi shu karomatini ifodalashga harakat qiladi:

Garchi Iso nutqidin topg‘ay o‘luk jon lazzatin,
Lek jonparvar so‘zing yuz qotladur ondin laziz. (“Ta’viz ul-oshiqin”,161-b)

Gar dardidin o‘lsang ne g‘amkim bu kecha aylab karam,
Shirin labu jonbaxsh dam Isoyi davroning kelur. (“Ta’viz ul-oshiqin”, 187-b).

Xizr – hadislarda “solih banda” sifatida tilga olinadi. Ayrim din ulamolari uni payg‘ambar deb, ayrimlari esa Olloh ilmini ziyoda qilgan solih banda deya hisoblashgan. Imom Buxoriy, Ibn Qayyimlar fikricha Xizr boshqa insonlar singari vafot etgan. Uning tirikligi aytilgan barcha hadislar nosahihdir. “Qissasi Rabg‘uziy”ning “Muso birla Xizrning rif’at darajasi bayoni” bobida ul zot haqida quyidagilar bitilagan: Muso xushlanib aydi: “Iziyo, bu karomatkim manga berding, azin kim ersaga berdingmu?” Yorlig‘ keldi: Ey Muso, tengizlar azoqinda maning bir qulim bor. Saning ilming aning ilmi to‘shinda bir qatra suvcha

bo‘lg‘ay. Aning ilmi daryodek”. Bu o‘rinda Xizrga ishora qilinmoqda. Ogahiy devonining juda ko‘p o‘rinlarida bu zotning umriboqiy ekanligi, ya’ni “obi hayot” suvidan ichganligi, insonlarga doim hayot, yaxshilik ulashishiga ishora qiladi.

Agar hayvon zulolin Xizr bersa og‘zima olmon,
Ki, durdi boda lutf etsa manga gulchehra soqiy bas. (234-bet)

Ogahiy hatto bitta g‘azalida bir necha bor bu obrazga murojaat qiladi va har bir murojaatida uning nomini “obi hayvon”ga, ya’ni “tiriklik suvi”ga bog‘laydi, “Gulshan atrofida rayhon” (260-bet), “Topdi jovidon xat” (259-bet) nomli g‘azallarini fikrimizning isboti sifatida keltiramiz.

Chashmayi hayvon uza Xizr aylagandekdur makon,
Buki qilmish la’li jon baxshi uza orom xat. (“Gulshan atrofida rayhon”)

Bo‘ldi la’li jonbaxshing uzra to namoyon xat,
Ey pari, Xizr yanglig‘ topdi jovidon jon xat (“Topdi jovidon xat”)

Ogahiygacha ham mumtoz adabiyotda Xizr obrazi faol bo‘lgan va aynan “tiriklik ramzi” sifatida qo‘llanilgan. Shoir ham bu an’anani davom ettirgan holda o‘z she’rlariga bu obrazni olib kirgan.

Sulaymon (a.s) – Qur’onda nomi zikr etilgan payg‘ambar hisoblanadi. U haqida Fariduddin Attorning “Ilohiynoma” asarida anchagina rivoyatlar keltirib o‘tilgan. Badiiy adabiyotda ko‘proq uning shohligiga, butun ins-u jinslar, shamol, qushlar, parilar, devlarni o‘ziga bo‘ysundirganligi, sehrli uzugi va taxtiga urg‘u beriladi, ya’ni uning shunday ulkan saltanatni o‘z qo‘l ostida tutib adolatli boshqara olganligi e’tirof etiladi. Yusuf Xos Hojib ham Sulaymon payg‘ambarning aynan shu xislatini tasvirlaydi: Qanï yek parï quš bu yalŋuq Üzä, uluγluq qïlïγlï qïlïnči tüz-ä – Qani dev, pari, qush (va) xalqlar Uzra, ulug‘lik qilgan fe’l-atvori go‘zal (kishi) [Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig]. Ogahiy ham o‘z g‘azallarida Sulaymon (a.s)ning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan xislatlarini keltirishga va shu yo‘l bilan metaforik o‘xshatishlar yaratishga erishadi.

Qo‘lig‘a topshurub iqbolu davlat hotamin to hashr,
Bori ofoq elig‘a hukm surmakda Sulaymon et.(120-b.)

Ushbu misralar orqali shoir Sulaymon (a.s)ning haqgo‘y va adolatparvar hukmdor bo‘lganligi, o‘z eliga doim muruvvatli bo‘lganligini ifodalashga harakat qiladi. Rabg‘uziy o‘z asarida “Sulaymon qarinchqa bilan so‘zlashgani” bobini keltirib o‘tadi va unda Sulaymonning qarinchqa (chumoli) bilan bo‘lgan suhbati o‘z aksini topadi. Bunda ikkisi ham o‘z eliga hukmdor ekanligi va saltanatidagi har bir tirik jon uchun mas’ul ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan. Ogahiy devonida qarinchqa so‘zi o‘rnida mo‘r so‘zi qo‘llaniladi, shoir debochadayoq Sulaymon va mo‘r obrazlariga murojaat qiladi:

Yo‘qki g‘alat ayladim, o‘ylaki bir xasta mo‘r,
Chekkusi poyi malax tuhfa Sulaymon sori.

Yana bir misol:

Lojaram jon naqdin olib kelmisham,
Mo‘rdin budur Sulaymon tuhfasi (78-b)

Qorun – Qur’onda nomi keltirilgan, Muso alayhissalom qavmidan bo‘lgan kishi. Sinov tariqasida unga Olloh taolo tomonidan shu qadar ko‘p boylik beriladiki, sanog‘i o‘ziga ma’lum emas edi. Lekin u noshukrlik ila Allohga isyon qildi va barcha boyliklarining sababchisi o‘zi ekanligini aytdi. Qorun ham qavmiga zo‘ravonlik qilgani uchun Alloh uni yerga yutdirib tashladi. Alloh taolo u haqida shunday xabar qilgan: “Albatta, Qorun o‘zi Muso qavmidan edi. Bas, u (qavmdoshlariga) kibr havo qildi... Bas, Biz (Qorunni) ham, uning hovli-joyini ham Yerga yutdirdik” (Qasos surasi, 76-81-b.). Ogahiy ham g‘azallarida Qorunning moliga ishora qiladi.

Yer yuzining naqdi-yu ostida Qorun moli ham
Jam o‘lib sarto qadam ganjingg‘a munzam bo‘ldi tut (118-b.).

Har odamiki davlatu himmatg‘a topdi dast,
Yo‘qtur anga xazinayi Qorung‘a ihtiyoj (139-b.)

Falotun (Aflotun) miloddan avvalgi IV asrda yashagan faylasuf olim. Shoir o‘z ijodida Falotunning o‘ta aqlli, mutafakkir shaxs bo‘lganligiga ishora qiladi:

Ilm-u hikmatda o‘tub haddin kamoli donishing,
Yuz Falotun ajz ila olingda mulzam bo‘ldi tut (118-b.)

Ayyub – Qur’oni Karimning to‘rt o‘rnida nomi zikr etilgan payg‘ambar. Ayyub (a.s.) Allohning ikki sinoviga uchradilar. Birinchidan og‘ir dardga mubtalo bo‘ldilar, badanlari irib, qurtlab ketdi, tillari va qalblaridan boshqa sog‘ joylari qolmadi va ana shu imtihon o‘n sakkiz yil davom etdi. Ikkinchidan butun mol-dunyolari yo‘q bo‘ldi. Devonda Ayyub (a.s) sabr timsoli sifatida keltirilgan:

Ey ko‘ngul, vasl istasang sabr et balou dardg‘a
Kim, muqarrib tangrig‘a bu shevadin Ayyub eruru (203-b.)

Yusuf – Ya’qub alayhissalomning o‘g‘li, Qur’onda nomi zikr etilgan payg‘ambar. Go‘zallik timsoli sifatida e’tirof etiladi:

Yo‘qsa maqsad Yusufi ravshan jamoli mehrining,
Partavi birla munavvar chohi bobildur mango (82-b.).

Shuningdek, devonda Yusuf (a.s) nomi ba’zi o‘rinlarda birikmali tarzda ham ifodalanadi:

Yusufi Misriy ango gar qulluq etsa tong emas,
Kim, bori olam aro husn ahlig‘a sulton erur... (195-b.)

Bunda uning tug‘ilib o‘sgan joyiga ishora tarzida “misrlik Yusuf” birikmasidan foydalanilgan. Bundan tashqari, “Mohi Kan’on”, ya’ni “Kan’onning oyi” birikmasi ham qo‘llaniladi. Bunday hodisa tilshunoslikka oid adabiyotlarda alluziya deb nomlanadi.

Ya’qub – Qur’onda nomi zikr etilgan payg‘ambar.

Ya’qub (a.s) Yusuf (a.s)ning otasi bo‘lib, uning ko‘yida yig‘lab, oxir-oqibat ko‘zlari ojiz bo‘lib qoladi. Ogahiy ham qayg‘uli holatni ifodalash uchun ushbu motivdan foydalanadi.

Oh tortib lahza-lahza bedili mankubdek,
Hech tinmay dam-badam qon yig‘labon Ya’qubdek (112-b.)

Xulosa qilib aytganda Atoiyning so‘z boyligini lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish yodgorlik tilidagi leksik birliklarning qo‘llanishi yuzasidan aniq ma’lumotga ega bo‘lish, onomastik birliklarning miqdor bo‘yicha nisbati to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritish, so‘z qo‘llash mahorati hamda o‘ziga xos jihatlari haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Asarning til xususiyatlarini atroflicha o‘rganish ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi borasidagi qarashlarga aniqlik kiritadi hamda o‘zbek tili tarixiy leksikologiyasi uchun ham qimmatli ma’lumotlar beradi.

Foydalangan adabyotlar

1. Ҳожиаҳмедов А. Огаҳий даҳосининг олмос қирралари. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Т.,1999; Ҳамидов З. Огаҳий шеъриятининг тили хусусида // Тил va адабиёт таълими, 2009. №1.74-80; Йўлдошев Р. Огаҳийнинг тил ҳақидаги қарашлари // ЎТА, №3. 2011. Б. 117-119.
2. Рафиддинов С. Мавлоно Атойи. Девони шайхзода Атойи. – Т.: Фан, 2008.
3. Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиѐти, 1978
4. Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2014.
5. N. Nazarova. Antroponimlarning o‘rganilishi. – Toshkent, 2021
6. N. Xalilova. Antroponimlarning lisoniy tadqiqi xususida. – Toshkent, 2021.
7. R.Mo‘minova. Antroponimlarning o‘rganilish muammosi. – Toshkent, 2023.
8. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
9. Q.Olloyorov. Muhammadrizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida uchraydigan onomastik birliklarning lisoniy xususiyatlari. – Toshkent, 2020.
10. Д. Худойберганова. Матннинг антропосентрик тадқиқи. Диссертация. — Тошкент: Фан, 2013.
11. Muhammad Sayyid Tantoviy. Payg‘ambarlar tarixi. Qur’oni Karim qissalari. Tarjimon: Ziyovuddin Rahim.
12. Носируддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи, 1991.-Б. 20.
13. Shayx Farididdun Attor. Ilohiynoma. – T.: Musiqa, 2007.
14. Носируддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи, 1991. - Б. 35-38.
16. Rahmatulloh qori Obidov. Payg‘ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. – Toshkent: Movorounnahr, 2005.
17. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.

Davlatjon TOSHTEMIROV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti 2-kurs magistranti
@davlatjonkomilovichoffical

JOMIY VA NAVOIY IJODIDA SO‘Z VA SHOIRLIK HAQIDAGI QARASHLAR

Annotatsiya: bu maqolada Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning she’r va shoirlik ilmi bo‘yicha turli qarashlarini bilib olish mumkin. Maqolada ijodkorlarning aynan she’r va shoirlik darajotlarini aynan qarashlar orqali ifodalab berilgan.

Kalit so‘zlar: *she’r, Abdurahmon Jomiy, Bahoriston, suxan, suxango‘y.*

Аннотация: в этой статье вы можете узнать разные взгляды Абдурахмана Джами и Алишера Навои про науку о стихотворении и поэзии. В статье поэтичность и поэтические качества творцов выражены через их взгляды.

Ключевые слова: *поэзия, Абдуррахман Джами, Бахаристан, слово.*

Annotation: in this article you can find out the different views of Abdurahman Jami and Alisher Navoi on the science of poetry in the article the poetry and poetic qualities of the creators are expressed trough thiers views.

Key words: *poem, Abdurahman Jami, Bahoriston, poetic word.*

She’r ilmi azaldan yuksak mavzu darajasida bo‘lgan. Bu mavzu Kaykovusning “Qobusnoma”sidan ham ta’rif etilgan bo‘lib, bunda so‘zni eng muqaddas unsur ekanligini ta’riflagan. “So‘zni bag‘oyat ulug‘ bilg‘il, so‘z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdur” . Bu jumlada “so‘z osmondan kelmas” birikmasini ikki xil tahlil qilishimiz mumkin. Birinchisi: so‘zning ilohiy emasligi (adabiyotda osmon ko‘pincha Allohgan ishora qiladi). Ikkinchisi esa So‘zni osmondan olgan (haqiqatdan yiroq) holatda ishlatmaslik. Asarning yettinchi bobining sarsuxanidagi “ey farzand,

sen suxango‘y bo‘lg‘il va lekin durug‘go‘y bo‘lmag‘il” fikrga tayanadigan bo‘lsak, ikkinchi fikr maqsadga muvofiq. Hazrat Navoiy ham “Hayrat ul-abror” dostonining XIV bobida so‘z haqida quyidagicha fikr bildiradi:

“Bo‘lmasa e’joz maqomida nazm,
Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm” .

(Mazmuni: Nazm bu qadar yuksak e’zozlanmasa, Tangri kalomida she’r bo‘lmas edi).

Даҳр муқайяд била озодаси,
Борча эрур «коф» ила «нун» зодаси.

(Mazmuni: Dunyodagi barcha o‘zaro bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan narsalarning barchasi shu “kof” va “nun” harflarining zurriyotlaridir). Baytda butun borliqning yaratuvchisi “kof” va “nun” harflaridan ya’ni kun so‘zidan olamni yaratgani ishora qilingan. Mavlono Abdurahmon Jomiy “Bahoriston”da she’rni juda yuksak va fazilatga boyligini, she’rdan sehrliroq sehr yo‘qligini ta’kidlaydi. “Pas she’r-kalome boshad mavzun va muqaffiy va taxayyul va adami taxayyul va siddq va adami sidqro dar on haqiqat e’tibor ne”.

She’r shunchalik muqaddas ekan, shoirlikning ham mas’uliyati o‘ta og‘ir. Shoirlikka ham talablar va vazifalar yuqori. “Suxango‘y shul kishi bo‘lg‘aykim, ul har so‘zni desa xalqqa ma’qul bo‘lg‘ay” . Unsurulmaoliy o‘z asarida shoirlarga va voizlarga yuqoridagi kabi talab qo‘ymoqda. Kamol Xo‘jandiy esa shoirga shunday talab qo‘yadi: “Hofizi nekxoni neknavis, har ki haq go‘yadat shunav suxanash” (shoir bo‘lsang, to‘g‘ri yoz, kimki senga haqiqatni aytsa, uning so‘zlarini eshit). “Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o‘z davrining she’r va shoirlari haqida ko‘p qarashlarni bildirib o‘tganlar. Qobiliyatli shoirlarni e’tirof etib, she’riyat maskaniga dog‘ tushiradigan shoirlarga-da jiddiy e’tiroz bildirganlar va tanqid qilganlar. O‘z davrining ustodlari she’r yozishni shunchaki shod-u xursandlik uchun emas, balki hayol ummonidan ma’no xazinalarini termoq ekanligini ta’kidlab o‘tganlar.

Mavlono Abdurahmon Jomiy va Hazrat Alisher Navoiy ham asl iste’dod egalarini iliq fikrlar ila eslab o‘tadi. Va ularga tahsinlar aytadi. Navoiy ijodkorlarni bir necha guruhga bo‘ladi. “Avvalgi jamoat – nuqudi ku nuzi ma’rifati ilohiydin g‘aniylar va xalq ta’rifidin mustarniylardur”. Navoiy asl iste’dod egalarini yuqoridagi ta’rif bilan e’zozlaydi. Ya’ni bu guruhga kiruvchilar quvvatni ilohiy ma’rifatdan oladi. Va bu guruhga kiruvchilar sifatida Hazrat Ali(r.a.)ni, Farididdin Attor, Mavlono Jaloliddin Rumiylarni misol qiladilar. Ushbu guruh shoirlarining she’r yozishdan maqsadi ilohiyat ilmini ulug‘lamoq va targ‘ib qilmoq ekanligini aytadi. Navbatdagi guruhga esa haqiqat sirlarini majoz sirlariga aralashtirib kuylovchilardir. “Yana bir jamoatdurlarkim, haqiqat asrorig‘a majoz tariqin maxlud qilibdurlar” . Bu guruhga esa, Shayx Sa’diy Sheroziyni kiritadi va bu shoirni pardozchi shoir sifatida ta’riflaydi. G‘azalda uch kishi matlali qit’asida esa, Shayx Sa’diyni Iso nafaslik (she’rlari ila tiriltirish xususiyatiga ega) shoir deya ta’riflaydi. Abudurahmon Jomiy esa, Shayx Sa’diyni quyidagicha ta’riflaydi: “Hech kas pesh az vay besh az vay tariqi g‘azal navarzida va suxanoni vay hama tavoifro maqbul aftoda”. Ungacha hech kim g‘azal yo‘lini u kabi bosmaganini aytib o‘tadi. Uning ga’zallari hamma toifa insonlarga birdek maqbul tushishini alohida ta’kidlaydi. Jomiy Shayx Sa’diy Sheroziy haqida bir shoir she’r yozganini aytadi va shu qo‘shbaytni keltiradi:

Dar she’r se tan payombaronand,
Harchand, ki “lo nabiyu ba’di”.
Avsof-u qasida-yu g‘azalro
Firdavsiy-u Anvariy-u Sa’diy

(Mazmuni: She’r olamining uch payg‘ambari bor. Garchand, she’riyatda payg‘ambar bo‘lmasa-da. Doston-u qasida-yu g‘azalda Firdavsiy, Anvariy, Sa’diy). Navoiy yuqoridagi guruhga kirituvchi yana bir shoir Amir Xusrav Dehlaviy hisoblanadi. Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida bu shoirni shunday tavsiflaydi: “Ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi Amir Xisrav Dehlaviy(dir)”. Ya’ni ishq ahlining pok va sodiq a’zosi Amir Xusrav Dehlaviydir. Aburahmon Jomiy esa “Bahoriston”da Amir Xusrav Dehlaviy haqida shunday fikrlarni keltiradi: “Ba tatabbuyi Hoqoniy mekunad. Harchand dar qasida ba vay narasida, ammo g‘azalro az vay guzaronida”. Uning Hoqoniyga ergashganini, qasidada undan o‘tmagan bo‘lsa-da, g‘azalnavislikda undan ancha ilgarilab ketganini aytadi. Va “G‘azalhoi vay ba vositai maonii oshno, ki arbobi ishqu muhabbat ba xasbi zavqu vijdoni xud onro darmeyobad, maqbuli ham akas aftodast” barcha uning g‘azallaridagi ma’noga oshno ekanligini va ishq-muhabbat ahli o‘z zavqini (vijdoniga qarab) topa olgani uchun hammaga manzur bo‘lishini ta’kidlaydi. Navoiy shoirlarning yana bir turini keltirib bu tur vakili majozda ham haqiqat (Haq taolo ishqi nazarda tutilgan)da ham birdek kamolga erishganligini aytib o‘tadi va bu turga tariqatdagi ustozi Mavlono Abdurahmon Jomiynigina kiritadi. “Yana Haqiqat va majoz tariyqida komil va ilmi ikkalasi tariqida vofiy va shomil, nazm ahlining muqtado va imomi Hazrati Shayx ul - islom Mavlono nur ul-millati va - a - din Abdurahmon al-Jomiy (navvarallohu marqaduhu va quddisa sirrahu)dur” . Navoiy o‘z tariqatdagi pirini nazm ahlining peshqadam ustozi deya ta’rif etadi. “Avvalg‘i tabaqa ravishi va kamolida ham sharifmaqol va so‘nggi tabaqaning ham adosi latoyifida sohibkamoldurkim, olamda zavqu hol ahli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular maorifi bila huzur qilurlar”. (Mazmuni: Birinchi guruh ravishida so‘zi sharafli va so‘nggi guruhning ham uslubi go‘zalliklarida kamol egasidirki, dunyodagi

ilohiy haqiqat shaydolari ham, pok insoniy muhabbat ahllari ham bularning latif va ma'nodor so'zlari bilan xushnuddurlar va tarqatgan ma'rifatlari bilan huzur qiladilar). U piri Mavlono Jomiyning vafoti munosabati bilan marsiya ham yozadi hamda dunyoning bu ayriliqdan ilojsiz qolganini ta'riflaydi.

Tu biraftiyu dili halqi jahon zor bimond.
To qiyomat ba firoqi tu giriftor bimond.
Z-otashi ohi dili so'xtagon to ba abad,
Dudho dar hami in gunbazi davvor bimond...

"Sen ketgach butun jahon ahli zor qoldi. To qiyomatga qadar sening firoqingga giriftor bo'ldi. Bu firoq otashidan kuygan qalblarning tutuni to abad bu osmon gumbazida qoldi" – deb tariqatdagi pirining vafotini bayon qilmoqda.

Do'ston, dar hama fan nodirayi olam ku?
Afzalu afsahi ajnosi bani odam ku?

Yuqoridagi misrada esa Jomiyni "barcha fanlarning kamyob odami" – deb, ta'riflamoqda.

Shahriyoroni jahon joma zada chok ba tan,
Peshi tobuti tu budand ba ahvoli taboh.

(Mazmuni: Dunyoning shohlari ortingda yaqo chok bo'lib qoldi. Xarob ahvolda tobuting poyiga qoldi).

Jomiy ham Navoiyga o'zgacha ixlos qo'ygan shoir edi. "Va soxibdavlate, ki zamoni mo ba vujudi sharifi u Musharraf ast" . Mavlono Abdurahmon Jomiy Hazrat Navoiyni shunday ta'riflaydi: "Bizning zamonimiz bu sohibi davlat borligidan va uning buyukligidan musharrafdir".

Har ikkala ijodkor benazir adabiy tanqidchilar. Ular she'r ilmini va ma'no oynasining zuhurini anglagan she'r donishmandlaridirlar. Bu haqida adabiyotshunos A. Samadov shunday deydi: "Tanqidiy adabiy, xususan shershunosi dar asri XV base ravnaq yofta bud. Dar in davr dar majlishoi Jomiyu Navoi, Jamomadxoi ahli shahr. Mahfilhoi adibon va so'hbatxoi arboboni mulki irfon tez-tez bazmhoi adabiy dar mubohisahoi shershinosi barpo megardidand" . XV asr adabiy tanqidida she'riyat ancha taraqqiy etdi. Bu davrda Jomiy va Navoiy majlislari ham adabiy yig'inlarida ko'plab adabiy suhbatlar va bahslar o'tkazilardi. Ikki buyuk munaqqid ham talant sohiblarini yuqoridagi kabi ko'klarga ko'taradi, turli iliq ta'riflar bilan eslaydi va zikr qiladi. Ammo shoirlik deb atalmish bo'stonning "no'noq qushcha"larini ustoz sifatida tanqid ostiga oladi. Va shoirlikning qanchalik nozik ekanligini aytib o'tadi. Xususan Jomiy "Bahoriston" nomli asarida she'rni har bir shoirning ummonidagi marvarid sifatida baholaydi. Jomiy she'r o'g'rilarini-da qattiq tanqid qiladi.

"Shoire peshi Soxib Abbod qasida ovard: har bayte az devone va har ma'ni zodai tab'i suxandone. Soxib Abbod guft:- Az baroi mo ajab katori shutur ovarday. Agar kase maxorashon bikshoyad xar yake az galai digar giroyad". "Bahoriston" asarining 6-ravzasidan olingan "Shoiri sherduzd" hikoyatidan olingan parchada she'r o'g'irlovchi shoirlarni tanqid qiladi. (Mazmuni: Bir shoir Sohib Abbodning oldiga bir qasida keltiradi. Uning har bir bayti har xil shoirlar devonidan, har bir baytdagi ma'no esa boshqa suxandondan olingan bo'ladi. Shunda Sohib Abbod shoirga javob beradi: menga bir ajoyib tuyalar karvonini keltiribsiz, agar bu tuyalarning ipini yechib yuborsak, barchasi o'z galasiga ketib qoladi va sizning qasidangizda biror misra qolmaydi). Jomiy she'rduzdlikni yuqoridagi mutoyiba orqali qoralaydi.

Az xunuk she'ri xesh yak misra
Gar kuni naqsh bar dari do'zax,
Az Jahannam barad harorati nor
Dar hamin ovard burudati yax.

Ya'ni:

Sovuq she'rlaringdan bir misrasini
Do'zax eshigiga osdirib qo'ysang-
Jahannam olovi so'nar bir onda,
Do'zax muzlab qolar misoli xarsang.

Hazrat Alisher Navoiy ham bu kabi shoirlarni "adno tabaqasi jamoatedurlar" , ya'ni pastki tabaqa shoirlari deya ta'riflaydi va bu kabi shoirlarni kibrlilikda ayblab, qoralaydi. "So'zlarida ne haqoyiq va maorif noshidin halovat va nazmlarida ne shavq va ishq o'tidin harorat" . (so'zlarida ma'no va ma'rifat bolidan zarra yo'q, nazmlarida ishq o'tidan shavq va harorat yo'q". Bu guruh vakillarini ming marta harakatlar qilib bir bayt yozsa, shoirlik maqomini yetti qavat oshirishini, biror bayti yaxshi chiqib qolsa, har tomonga jar solib, shuni ham zoe ketkazishlarini aytib o'tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022.
3. А. Самадов. Назарияи адабиётшиносӣ қисми I. – Тошкент, 2010. 7-б. (tojik tilida)
4. Тӯйчӣ Миров Мавлон Каримов. Хрестоматияи адабиёти тоҷик синфи 9. – Душанбе: маориф, 1985.
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989.
6. Камол Хӯҷандӣ. Девон. – Душанбе: Ирфон,1985. 431-б.

Islombek ARALOV,
Alfraganus universiteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

QAMASHI SHEVASIDA UMUMTURKIY QATLAM

Annotatsiya: bu maqolada o‘zbek tili qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yuzaga kelgan shevaga xos so‘zlar, umumturkiy so‘zlarning shevadan sohalar bo‘yicha tarqalishi, uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlarini ifodalovchi so‘zlar, oziq-ovqatga oid so‘zlarning ko‘pchiligi o‘zbek adabiy tilida, yondosh turkiy tillar leksik qatlamida qo‘llanishi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: *dialekt, umumturkiy so‘z, antonim, nomlar, qipchoq shevasi, frazeologizm, ma'no.*

Annotation: in this article, dialect-specific words formed by adding Uzbek language suffixes, distribution of common Turkish words from the dialect by sectors, words expressing the names of household items, food-related It is said that most of the words are used in the Uzbek literary language, in the lexical layer of neighboring Turkic languages.

Keywords: *dialect, common Turkish word, antonym, names, Kipchak dialect, phraseology, meaning.*

Аннотация: в данной статье диалектно-специфические слова, образованные путем добавления суффиксов узбекского языка, распределение общетурецких слов из диалекта по секторам, слова, выражающие названия предметов домашнего обихода, связанные с едой, сказано, что большая часть слов используется в узбекском языке. литературный язык, в лексическом слое соседних тюркских языков.

Ключевые слова: *диалект, общетюркское слово, антоним, имена, кыпчакский диалект, фразеология, значение.*

Markaziy Osiyo hududida yashovchi mahalliy turkiy xalqlar tillarining leksik qatlamidagi asl turkiy so‘zlar orasida ko‘p jihatdan o‘xshashlik bor. Bu o‘xshash so‘zlar eng muhim tushunchalarni ifodalaydi va bir xil vazifani bajaradi. Lekin ba’zi so‘zlar turkiy tillarning o‘z fonetik talaffuz me’yorlariga bo‘ysungan holda biroz boshqacharoq talaffuz qilinadi. Demak, biz turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar haqida fikr yuritar ekanmiz, bunda fonetik o‘zgarishlar emas, tub va tipologik o‘zgarishlarni tahlil qilishimiz kerak.

Agar shevalar leksikasining lug‘at boyligiga nazar tashlasak, uning tarkibida tub o‘zbekcha so‘zlar asosiy o‘rinni egallaydi. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek shevalari uchun umumiy bo‘lgan o‘zbekcha so‘zlarni faqat bitta turkiy tilning o‘zigagina xos deb bo‘lmaydi, balki bunday so‘zlar ko‘pchilik turkiy xalqlarning lug‘at boyligiga oid so‘zlar bo‘lib, ular shu turkiy tillar leksikasining negizini tashkil qiluvchi asosiy manbalaridan biridir. Umumiy o‘zbek tilining asosini tashkil etuvchi tub o‘zbekcha so‘zlar shevalar kabi Qashqadaryo o‘zbek shevalarining ham asosini tashkil etadi. Bunday so‘zlar ba’zi fonetik farqlar bilan boshqa qardosh turkiy tillar uchun ham umumiylikka egadir.Masalan, Qamashi o‘zbek shevalarida o:g‘ã, ä:g‘ã, ove, ə:vöz, arq’aъ, bo:vir, tish, qash, bű́rű́:n, yä:mg‘ыr (turkman); ä:ga, ã:go‘z, ‘ãrkå̀, bã:g‘ű́r, dãshъ, gãshъ, yalǿsh: ъə:g‘ã, ъa:uo‘z, ba:ǿzъ, ba:ǿrъ, ya:gű́sh va yana shu kabi so‘zlar.

Bunday umumturkiy so‘zlar asosan aniq hayotiy tushunchalarni ifodalaydi va yasalishi uchun zaxira bo‘lib xizmat qiladi. Bunday so‘zlarni biror dialekt yoki faqat o‘zbek adabiy tiliga mansub bo‘lgan so‘zlar deb aytish mumkin emas. Qamashi o‘zbek shevalari leksikasidagi so‘zlarning asosini umumxalq o‘zbek tili va uning shevalaridagi singari qadimgi turkiy yozma obidalarga xos bo‘lgan so‘zlar tashkil etadi. Buni XI asrda yashab o‘tgan mashhur olim, tilshunos Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘atit-turk” asari bilan solishtirganda yana ham yaqqolroq ko‘rishimiz mumkin. Qamashi shevalarida quyidagi so‘zlarni Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atut- turk” asaridagi so‘zlar bilan qiyos qilamiz: j-lovchi alqo‘ndi, y-lovchi olqune-sovun qoldig‘i, alqindi-tamom bo‘ldi; j-lovchi avradi-ovradi y-lovchi; Anduz-tog‘ piyozi, anduz -yerdan qazib olinadigan o‘simlik ildizi: j-lovchi. Ā:xǿr-oxur: j-lovchi, ъo:vrǿndi y-lovchi, og‘rindi-xafa bo‘ldi, og‘rindi-alamlandi (“Devoni lug‘atut-turk”). Yuqorida qayd etilgan “Devoni lug‘ati-turk” asaridan keltirilgan so‘zlar, ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan.

Qamashi o‘zbek shevalari bo‘yicha keltirilgan mazkur qiyosiy misollar dialektolog A. Ishayevning “XI asr yozma yodgorligi bo‘lgan devondagi til faktlarining asosiy qismi hozirgi o‘zbek adabiy tiliga nisbatan o‘zbek tilining qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalariga mansub shevalarda ko‘proq saqlangan” degan fikrni to‘la tasdiqlaydi.

Biz tadqiqot o‘tkazayotgan mazkur shevalarning leksik sistemasidagi ko‘pgina so‘zlar qadimgi yozma manbalardan bizgacha fonetik, semantik o‘zgarishlar bilan yetib kelgan. Bunday so‘zlar vaqt o‘tishi, tilning ravnaq topishi va rivojlanishi natijasida yangi ma’no hosil qilib, bora-bora shakli va ma’nosidan yiroqlashgan. Masalan: alang -yalang, tekis (“Devoni lug‘atut-turk” 1.154 keyingi o‘rinlarda) ãlãng-ariq bo‘yiga chiqarilgan tuproq; äl’chäqъ-yumshoq tabiatli

(“Devoni lug‘atut-turk”1,162), əngārā-ekini yig‘ib olingan katta yer maydoni (“Devoni lug‘atut-turk” 1.120), oyeloq-uloq (Devoni lug‘atut-turk”1,141), süyel-sugal; sǿgal-siyal-kasal (Devoni lug‘atut-turk”1,375); Täg‘ä-amaki (“Devoni lug‘atut-turk”256), tə:g‘ə:-tog‘a kabi. Agar shunday so‘zlarga xronologik jihatdan nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning fonetik qiyofasi va semantik holatiga ko‘ra oldingi ma’nosidan ancha uzoqlashganiga guvoh bo‘lamiz. Professor Sh. Shoabdurahmonov aytganidek, “Fonetik va ma’no jihatdan uzoqlashish eski sifat elementlarining paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelgan”.

Qamashi o‘zbek shevalarining leksik qatlamida shunday so‘zlar mavjudki, ularning anchagina qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi. Lekin ko‘pgina turkiy adabiy tillarda ishlatiladi.

Masalan: j-lovchi: Вылтыгъ-bultir-o‘tgan yil, bűldǿ:r (“Devoni lug‘atut -turk” 1425-bet), qozoqcha bə:ldыr, tatarcha -bыldыgъ, shaxal-shoxal (chiyabo‘ri) qiyoslaylik: qoraqalpoqcha- shäg‘al, no‘g‘aycha-shakal kabi.Qamashi qipchoq shevasida adabiy til leksik qatlamida uchramaydigan frazeologizmlar miqdori talaygina. Har bir frazeologizm o‘ziga xos xuxusiyatlarga ko‘ra alohidalikka ega. Frazeologizmlarning ma’noviy jihati orqali ham ularning xilma-xil shakllari namoyon bo‘ladi. Antonim frazeologizmlar ham tilning lug‘at tarkibini boyitish, kengaytirish, fikrni ta’sirchan ifodalash vazifalarini bajaradi.

Umumxalq o‘zbek tili, uning shevalari, shuningdek, Qamashi o‘zbek shevalari leksik tarkibi bilan adabiy turkiy tillar leksik tarkibi orasida ma’lum bir o‘xshashlik saqlangan bo‘lsa ham, o‘zbek tilining faqat o‘ziga xos bo‘lgan so‘zlar ham shevalar lug‘at tarkibidagi so‘zlarning anchagina miqdorini tashkil etadi. Ba’zan bir nechta turkiy tillarning lug‘at boyligida bo‘lishi mumkin, ma’no hajmiga ko‘ra o‘zaro biri ikkinchisini qoplamaydi.Masalan, Qashqadaryo o‘zbek shevalaridagi “basalqa” so‘zi oldin-keyin tug‘ilgan bolalar ma’nosini anglatadi. Qozoq tilidagi “basalqa” so‘zi esa “aql o‘rgatish” ma’nosida ishlatiladi .

Ammo bunday so‘zlar ma’no jihatidan qanchalik farq qilmasin, umumturkiy leksik qatlamning lug‘at boyligi bo‘lib qolaveradi. Qamashi shevalarida uchraydigan ayrim umumo‘zbek tilining o‘z qo‘shimchalari yoki boshqa tillardan olingan qo‘shimchalarni qo‘shish va ikki so‘zning birikuvidan yangi ma’no kasb etadigan shevalarga xos bo‘lgan so‘zlar ham yuzaga kelgan.

1.O‘zbek tilining o‘z o‘zak so‘zlariga o‘zbek tili qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yuzaga kelgan shevaga xos so‘zlar: buro‘m-bur-im-bo'rim(muyulish), yenchiyenche:(uloq, qo‘zilarga en soluvchi shaxs), uyrim-uyur-im(girdob)-uyurim-quligich (odam yuzidagi kulgich), achguch-achg‘och (kalit), qirg‘o‘ch-qir-go‘ch (kapgircha), xekkelik-xekke-lik (sezgirlik).

2.O‘zbekcha o‘zak so‘zlarga tojik tili qo‘shimchalarini qo‘shish orqali paydo bo‘ladigan shevaga xos so‘zlar: orqador-orqa-dor (achchig‘i tez chiqadigan odam), emchekdesh (emakdosh) uka, doyrebent(to‘g‘on), telpekdo‘z-telpek-do‘z (telpak tikuvchi), arqatarash (tarashla fe’lidan).

3.Ikki so‘zning birikuvidan yuzaga keladigan shevaga xos shunday birliklar borki, ularning har bir komponenti o‘zbek adabiy tiliga ma’lum bo‘lsa-da, lekin o‘sha komponentlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan so‘z adabiy tilda uchramaydi.

Masalan, yeryoge-kerosin, qolag‘och-qo‘lyog‘och (oxirda biror narsani yanchish uchun ishlatiladigan cho‘qmor), xöppasu (chippakka chiqmoq), ochatoli (molning son go‘shti) kabi leksemalar shevalarning o‘zida hosil bo‘lgan so‘zlar bo‘lib ulardan ayrimlari boshqa o‘zbek shevalarida hamda ba’zi turkiy tillarda ishlatiladi.

4.Umumturkiy so‘zlarning shevada sohalar bo‘yicha tarqalishi: Qashqadaryo Qamashi o‘zbek shevalaridan sohaga oid to‘plangan leksik materiallar qarab chiqilsa, hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibi mazkur shevalar uchun ham xos ekanligini ko‘rish mumkin. Bunday so‘zlar tabiat hodisalari, mavjudotlarni ifodalovchi ot kategoriyalardagi yer, suv, yomg‘ir, daryo, bug‘doy, un, shamol, non, chaqmoq va boshqalar, sifat kategoriyasidagi oq, qizil, katta, kichik, yosh, qari, uzun va boshqalar, asosiy harakat va holatni ifodalaydigan fe’llardagi: tur, o‘tir, kel, yur, chop, sur, hayda, qara, to‘qi va boshqalar, shuningdek, son, olmosh, ravish kabi turkumlar kategoriyasidagi so‘zlar va jamoat joylarida so‘zlashuvchi jamoa uchun muhimdir.

Barcha shevalarda, shu qatorda, Qamashi shevalarida sheva vakillarining hayoti va faoliyatining turli sohalariga oid bo‘lgan so‘z va terminlar uchraydiki, bu leksik xususiyatlar turli sohalarga oid so‘z va terminlarning juda mayda ishlatilishida yaqqol ko‘rinadi.

Jumladan, 1. Qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar:

Qamashi j-lovchi qipchoq shevalarida: Atậ (ota), enâ (ona). Bälâ (bola). Neverê (nabira, nevara). Cheverê (chavara) chegara. Evâra (chevaraning bolasi). Bəgänə yoki Sêrberâ (duvaraning bolasi).

2.Odam uzvini ifodalovchi so‘zlar: Tậkậ, xêvich (qoshig‘ich), bävǿr (jigar), bäldыr (boldir), iyəl (engak), djelkâ (iyin); ye-lovchi ъeg‘n (yelka), müröt (mo‘ylov); manglay, ye-lovchi mañlay (peshona). Mazkur shevalarda qo‘l barmoqlarining ifodalanishi quyidagicha j-lovchi shevalarda bashbarmoq ye-lovchi shevalarda bashmalog‘ adabiy nutqda bosh barmoq; at’i djǿqъ barmoq-shödât barmoq-ko‘rsatko‘ch barmoq; bortan bậrmakêttê barmoq-orta barmoq; chüldűr chümêk-uzuk barmoq-tortinch barmoq; chǿnâchâq (kichkinê), buvêk (jinjaloq), beshinch barmoq (jimjiloq).

3.Uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlarini ifodalovchi so‘zlar kishilik taraqqiyotining juda qadim zamonlar bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyat a’zolarining kundalik

ehtiyojini moddiy va madaniy hayotining o‘sib borishi davomida yuzaga keladi.

Uy-ro‘zg‘or buyumlarini bildiruvchi örãqъ, bälg‘âъ, böltâ:, qäzän, täbä:qъ, qäşıqъ, Çǿ:m’çъ kabi so‘zlar qadimdan turkiy turkiy tillarda mavjud bo‘lib, ular turli ma’nolarda qo‘llangan. Turmush uchun zarur bo‘lgan har bir buyumning o‘z qo‘llanish o‘rni, nomi, shakli mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Маҳмуд Кошғарий. "Девону лугатит турк". Т. I. – Тошкент: Фан, 1960. 2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2018.
3. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. – Тошкент: Академнашр, 2010.
4. Шоабдурамонов Ш. Узбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари.- Тошкент, 1962.
5. Йўлдошева Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси. -Тошкент, Фан-1986-yil
6. Chambers J. K., Peter Trudgill. Dialectology. Cambrige University Press. 2004. – T.
7. Поливанов Е. Д. Диалектология. -Тошкент. 1993.
8. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат).–Т.: Фан, 1969. – 168 б.

Gulira’no RASHIDOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti
gulira’norashidova1@gmail.com

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI “TO‘N” LEKSEMASINING LINGVOKULTUREMALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada “lingvokulturema” termini haqida hamda “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan “to‘n” lingvokulturemasining umumiy ma’nosi, asarda qo‘llanilishi, shuningdek, sinonimlarining berilishi va ularning turli nomlanishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturema, to‘n, chakmon, tarix, xalq, madaniyat, libos, milliy, predmet.*

Аннотация: в данной статье говорится о термине “лингвокультура” и общем значении слова “to‘n” лингвокультуры, использованном в романе “O‘tkan kunlar”, его использовании в произведении, а также приводятся синонимы и их различные названия.

Ключевые слова: *лингвокультурема, тўн, чакмон, история, народ, культура, одежда, национальный, предмет.*

Annotation: in this article talks about the term “linguculture” and the general meaning of the “to‘n” linguculture used in the novel “O‘tkan kunlar”, its use in the work, as well as giving synonyms and their different names.

Key words: *lingvokulturema, to‘n, chakmon, history, people, culture, dress, national, subject.*

Kirish. Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. **"Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar** kiradi. **Lingvokulturema** mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko‘rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o‘sha birliklarning semantikasi tashkil etadi" . Quyida “O‘tkan kunlar” romanidagi to‘n leksemasining lingvokulturemalarini ko‘rib chiqamiz. O‘zbek milliy liboslari juda yorqin, chiroyli qulay bo‘lib, xalqning boy madaniy an’analari va turmush tarzining bir qismi hisoblanadi. Shaharlarda milliy libosdagi odamlarni topish kamdan-kam uchraydi, bugungi kunda u an’anaviy bayram tadbirlarida kiyiladi, ammo qishloqda u hali ham kundalik va dam olish kunlari kiyiladigan liboslarning bir qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Erkaklar milliy libosining asosini chopon tashkil etadi, u belga ro‘mol – qiyiqcha bilan bog‘lanadi. An’anaviy bosh kiyim - do‘ppi. Badaniga ko‘ylak, ishton – pastki qismiga torayib turadigan keng shim kiyiladi. Oyoqlari yupqa teridan tikilgan etiklar kiyiladi. To‘liq libosdagi kamarlar ko‘pincha juda oqlangan - baxmal yoki kashta tikilgan, kumush naqshli zardo‘zlik naqshlari bilan beztilgan bo‘ladi. Kundalik ko‘ylak uzun ro‘moldek kamar bilan bog‘lanib turadi.

“O‘tkan kunlar” romanida to‘n lingvokulturemasining turli sinonimlari bilan tanishib chiqamiz. "Uy jihozga g‘oyatda boy, go‘yo muzaxona tusini berar edi. Taxmonda turlik rangda atlas va shohilardan qoplang‘an ko‘rpalar, taxmon toqchalarig‘a uyilgan par yostiqlar, qator-qator xitoyi jononlar: kosalar, ko‘zalar, chinni choydishlar, laganlar, kumush qinlik xanjar va qilichlar, qalqon va siparlar, dorga soling‘an turlik-turlik er va xotin kiyimlari: po‘stin, chakmon va boshqalar, qip-qizil gilam va shohi ko‘rpachalar kishi ko‘zini qamashdirar darajada edilar" . Chakmon leksemasi ham to‘n lingvokulturemasining sinonimi bo‘lib ikkalasi

bir ma’noni anglatadi. Yoki asarda chopon leksemasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda butun bir xalqni aynan shu lingvokulturema orqali nomlanishiga guvoh bo‘lamiz.

“— Janobi padari arus shahanshohi Musulmonqul bahodir zamoni adolatlarida ham, — dedi Homid, — qora choponliqlar hanuz tinch yotmay yurtni qipchoq og‘alarig‘a qarshi oyog‘landirmoqchi bo‘ladirlar, ishni yana tadbirsiz qora choponlar qo‘lig‘a olib mamlakatni buzg‘unliqqa solmoqchi bo‘ladirlar...”

Bu davrda harbiy amaldorlarning ustki kiyimiga qarab ularning lavozimini aniqlash mumkin edi. “Bu kishi Azizbekning amri lashkari va o‘ng qo‘li bo‘lg‘an Rayimbek dodxoh edi. Uning qatoridag‘i ikkinchi kishi kichikroq saman otka otlanib, ustiga Buxoroning ola bayroq matasidan chopon kiyib, kamar o‘rniga choponini tugmalagan, boshig‘a katta salla o‘rab, qamchi sopi bilan egarning qoshig‘a takya qilg‘an; to‘la ko‘rkam yuzlik, katta malla ko‘zlik, uzun mosh-guruch soqollik mullanamo bir zot bo‘lib, bu kishi yaroqsiz edi”. “Darbozaning ikki biqinini o‘rab olg‘an loyig‘a gullar, naqshlar tushirilib ishlangan sakkiz gazlar yuksaklikda o‘rda qo‘rg‘oni, darbozaning ikki burjida alachami, bo‘zdanmi uzun choponlar kiyib, boshlarig‘a quloqchin qo‘ndirg‘an, qayish kamar ustidan qilich tiqinib miltiqlarig‘a suyang‘an ikki yigit ko‘rinadirlar — bular navbatchi o‘rda qorovulidir”. Yuqorida keltirilgan ola bayroq matosidan qilingan chopon va bo‘zdan tikilgan choponlar narxi o‘rtasida farq bor. Bo‘z arzon mato hisoblanib, nafis va yuqa bo‘ladi. Ola bayroq matosi adras nusxali yo‘l-yo‘l mato bo‘lib bo‘zga qaraganda ancha pishiq va qalin mato hisoblanadi. Aynan mana shundan ularning ya’ni qimmat yoki arzon matodan tikilgan kiyim kiyishidan lavozim va mavqeyini bilib olishimiz mumkin.

“Azizbek qamchisini ko‘ndalang qo‘yib mudofi’larga qulliq qildi va hudaychiga buyurdi: — Qo‘rg‘on begiga kimxob to‘n, yuzboshilarg‘a atlas chopon, boshqa yigitlarga uch tangadan pul in’om beril-sin”. Bu yerda ham kimxob to‘n va atlas matolarining bir-biridan farqlanishini ko‘rishimiz mumkin. "Yusufbek hoji egnida kimxob chopon bilan o‘rdadan chiqdi. O‘rdadagi «Chopon muborak bo‘lsin!» deb so‘rag‘uchilarg‘a istehzo iljayishi ostida bir turlik muhmal javob berar edi. Ul o‘rda ko‘prugidan o‘tar ekan, boyag‘idek qilib o‘zicha yana bir kulimsirab qo‘ydi va telbalarcha o‘z-o‘ziga so‘zlanib ketdi: «O‘ttuz ikki tangadan soliq yig‘, emish... Bir haftadan keyinga qolmasin emish..."

To‘nning turlari ko‘p bo‘lib, guppi chopon paxtasi kamroq solininb, mato ustidan qaviladigan ustki kiyimdir. "Qovoq devona deganimiz o‘rta yosh, siyrak soqol, qotma, kun issig‘lig‘ig‘a qarshi o‘chakishkandek boshig‘a eski telpak, egniga paxtasidan boshqasi to‘zib ketkan guppi chopon kiyib, yangi bo‘z belboqni besh-olti aylandirib bog‘lag‘an va unga besh-oltita chilim qovoqdan tortib to suvqovoq, nosqovoq va tomosha qovoq-larg‘acha osqan; qovoqlarning og‘irlig‘idan arang harakat qiladirg‘an o‘z zamonasining mashhur bir devonasi edi."

Bu davrda ayollar ham to‘n kiyishgan, faqat bu kiyimlar ayollarga xos shaklda tikilgan. Romanda Oftob oyimning ham guppi chopon kiyib yurishi ta'riflab o‘tiladi. "Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko‘ynak, ustidan odmi xon atlas guppi kiygan, boshig‘a oq dakanani xom tashlag‘an, o‘ttuz besh yoshlar chamaliq go‘zal, xush bichim bir xotin." Bundan tashqari ayollar mursak deb ataladigan chopon ham kiyishgan. Mursak-avra-astarlik uzun yengli ustki kiyim bo‘lgan. Bichimi to‘g‘ri bichimli, to‘n yoqali, oldi chuqurroq o‘yilgan, etak barlari bir-biriga kirgan. Mursak baxmal, kimxob, parcha, adras, shoyi matolardan tayyorlangan.mursakning ichiga yupqa paxta solib qavilgan qishki hamda yalang qavatli avra-astarli yozgi turlari ham bo‘lgan. "Ul o‘z uyida o‘lturg‘anida ham ustidagi atlas ko‘ynak bilan adras mursakni, oq shohi dakana bilan kahrabo tasbihni qo‘ymay, qish kunlari tanchadan par yostiqqa kunlari ayvonning to‘riga yoslanib Hasanalining xotini bo‘lg‘an Oybodoqqa, cho‘ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldirmasliqni tanbihlabkina o‘lturar edi."

Asarda shuni ham bilib olishimiz mumkinki, zarrin to‘nlar faqat xon va hurmatli hokimlar nazariga tushgan kishilargagina kiydirilgan. "Musulmonqul maktubni tugatdi-da, uyatsiz ravishda Otabekka qarab iljaydi va hudaychiga buyurdi.

— Ikkita zarrin to‘n keltir! Otabekning mo‘jiza qabilidan so‘ng daqiqalarida ikkinchi qayta qutilishni ko‘rgan O‘tabboy qushbegi beixtiyor yoqasini ushladi. Xudoyorxon ham yirtqich qayinotasining changalidan qutilg‘anini tabrik qil-g‘andek Otabekka kulib boqdi. Musulmonqul oqsoqlanib, o‘z qo‘li bilan Otabekka zarrin to‘n kiyguzar ekan:

— Otangizning katta xizmati soyasida o‘limdan qutilg‘aningizdek zarrin to‘nliq ham bo‘ldingiz, — deb yana bir qayta uyatsizlandi."

Xulosa. Qodiriy asarlaridagi sehrli jozibaning omillaridan biri uning milliy tilidir Adib asar yozish uchun poydevor bo‘ladigan manba qidirgan paytda o‘zbek xalqiga tegishli bo‘lgan jozibador, madaniy va go‘zal til shaklini ham izladi. Manbani xalq og‘zaki ijodidan topgan bo‘lsa, bunday til shaklini adabiy tilimizga asos bo‘lgan lahjalarimiz va ularning zahirasi hisoblangan shevalarimizdan izladi va topishga muyassar bo‘ldi. Shu asnoda barcha shevalarimiz adabiy til uchun bitmas-tuganmas xazina ekanligiga amin bo‘lgan holda buni amalda isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lingvokulturologiya til va madaniyat fani sifatida rivojlanishi va uning tahlillari. Normurodov. B.
2. O‘tkan kunlar. Roman Abdulla Qodiriy www.ziyouz.com kutubxonasi, 2007.
3. Shoira Usmonova. “Lingvokulturologiya” darslik. — Toshkent, 2019.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab//O‘zbek tili adabiyoti. — Toshkent, 2012.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I.I — M: 1981.
6. Numonov. A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi // Tanlangan asarlar. 2-jild. — Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Numonov A. Sepr-Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi haqida mulohazalar. —Toshkent, 2011.
8. Stepanov S. (Zamonaviy ensiklopediya) 44-48 Rossiya (2011)
9. Babushkin A. (Zamonaviy konseptsiya lingvokulturologiyasi) 140-166Moskva
10. Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М.: Издательский центр «Академия», 2000.
11. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука, 2010.
12. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқот 2013. 4. Хроленко А. Т. Основы лингвокультурологии. Учебное пособие. М. : “Наука”, 2009.
13. Anvarovna, N. S. (2017). The issue of lexical competence formation in the process of teaching chinese language. Ббк 66.4 (5 кит) а 251, 143
14. Назарова, С. А. (2021). Межкультурная коммуникативная комптенция: уровень сформированности и результаты констатирующего среза студентов-филологов (китайский язык). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 147-155. 9.

Majnuniso KAMOLOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti
kamolovamajnuniso@gmail.com

TASAVVUFIY TUSHUNCHA, TAMOYILLARNING MUMTOZ ADABIYOTDAGI MA’RIFIY POETIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada Tasavvuf adabiyotiga oid ayrim termin va tushunchalar ifodalangan bo‘lib, ularning ma’nolari har xil adabiyotlardan foydalangan holda turli olimlar qarashlari bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, adabiyot, botin, zohir, usul, tamoyil, poetika, so‘fiy, murid.*

Annotation: this article expresses certain terms and concepts related to the literature of mysticism, the meanings of which are explained by the views of various scientists using different literature.

Key words: *mysticism, literature, internal, external, method, principle, poetics, Sufi, murid.*

Аннотация: в этой статье представлены некоторые термины и понятия, относящиеся к мистической литературе, значения которых объясняются взглядами разных ученых с использованием разной литературы.

Ключевые слова: *мистика, литература, Ботин, Захир, метод, принцип, поэтика, суфий, Мюрид.*

Tasavvufshunoslik tarixida ayrim g‘arb olimlari bilan islom mutasavviflarining qarashlari o‘rtasida ziddiyatlar bor. Tasavvuf islomdan tashqarida deyuvchilar uni islomga qarshi qo‘yish yo‘lidan boradilar va mustaqil ta’limot sifatida tushuntirmoqchi bo‘ladilar. Mumtoz tasavvufshunoslik esa tasavvuf islomning ichida paydo bo‘lgan, uning «vatani» Qur’oni karimdir, chunki u zohiriy ilm (ilmi qol) emas, balki ilmi holdir deb tushuntiradi.

Shuning uchun uning bosh omili farz amallarini talab etuvchi shariatning bosh kitobi Kalomullohdir. Mutasavvuf o‘z ibodatiga, Ollohga bo‘lgan sevgisiga teskari kelmagan dunyodan yuz o‘girmaydi. U ibodat payti ibodatini ado etadi, avrod (duolar) payti avrod o‘qish bilan mashg‘ul bo‘ladi, ish paytida ishlaydi. Ishlashdan maqsad shon-shuhrat, mansab, mavqe, boylik emas, balki insonlarga xizmat etish, ommaga foyda keltirishdir. Zero, Hadisi sharifda aytilganidek, «Insonlarning yaxshisi insonlarga naf’ keltiruvchilardir».

Chunki omma manfaatini o‘ylash ham ibodatga kiradi: «Dunyoni ko‘r, sayr qil, ichiga kir, ammo dunyo sening ichingga kirmasin».

Eng ko‘p uchraydigan tasavvufiy tushunchalardan biri bu – Tariqatdir. Tariqat nazariyasi milodiy XI asrdan boshlab shakllanish davriga kirgan va sekin-asta tariqatlanish tamoyillari ishlab chiqilgan. Tasavvuf olimlari orasida nisbatan birinchi bo‘lib tariqatlanish ilmi va tamoyillariga yuzlangan alloma Abul Hasan

Xujviriy (vaf. 1074) bo‘lgan. Uning "Kashfu-l-mahjub" ("Poklanish yo‘llarining kashfiyoti") asari (1073) da muxosibiylik, kassariylik, malomashiylik, tayfuriylik, junaydiylik, nuriylik, sahliylik, hakimiylik, xarraziylik, xafifiylik, sayariylik singari o‘n tariqat zikr qilingan. Mardud (rad qilingan) tariqatlar sifatida xulumiylik va xallojiylik keltirilgan.

Alloh taologa quruq, ko‘r-ko‘rona mutelikning hojati yo‘q. Uning g‘azabidan qo‘rqibgina amri ma’rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. Shuning uchun so‘fiylar Allohni jon-dildan sevish, uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko‘ngilni nafs-u hirs g‘uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vaslig‘a yetishish va bundan lazzatlanish g‘oyasini keng targ‘ib qildilar. Inson ruhi ilohiydir va, demak, asosiy maqsad — ilohiy olamga borib qo‘shilmoqdir, dedilar.

Shu tariqa, dunyodan ko‘ngil uzgan, ammo zohidlarga o‘xshamaydigan, «bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan (Hofiz Sheroziy), zehn-u zakovat, aql-u farosatda tengsiz, ammo o‘zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toatu ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo‘lgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bunday odamlarning fe’l-atvori, yurish -turishi, xoriqulodda (odatdan tashqari) so‘zlari va ishlari atrofdagilarni hayratga solar, ba’zilarining g‘aybdan bashorat beruvchi karomatlari, sirli mo‘jizalari aqllarni lol qoldirardi. Ularni ahdulloh, avliyo, ahdi hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga olardilar. Ammo bu toifaga nisbatan ko‘proq «so‘fiy» nomi qo‘llanilgan, chunki ushbu so‘zning ma’nosi ancha keng bo‘lib, boshqa tushuncha va atamalarni o‘z ichiga sig‘dirardi.

Xo‘sh, so‘fiy so‘zi qayerdan paydo bo‘lgan? Bu haqida bir necha xil qarashlar bor. Ba’zilar bu so‘z «saf» so‘zidan kelib chiqqan deydilar, chunki so‘fiy Iloh yo‘liga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Ba’zi olimlar uni «suffa» so‘zidan hosil bo‘lgan deb aytadilar: ashobi suffa Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tirikliklaridayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishilar bo‘lib, so‘fiylar shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh olimlar so‘fiy so‘zi «safo» so‘zidan kelib chiqqan, chunki bu toifaning qalbi siyaqu safo oftobiday porlab turadi, deganlar. Yana ba’zilar so‘fiy “sufuh” so‘zidan yasalgan, sufuh — biror bir narsaning xulosasidir, bu jamoa xalqning xulosasi bo‘lganligi sababli ularni so‘fiy deganlar, deb yozadilar.

So‘fiy so‘zi «sof» so‘zidan kelib chiqqan, deguvchilar ham bor. Abu Rayhon Beruniy bo‘lsa «Osor ul-boqiya» asarida ushbu so‘zni yunoncha «suf», ya’ni faylasuf so‘zining oxirgi qismidan yasalgan deb ko‘rsatadi. Ammo ko‘pchilik so‘fiy so‘zi arabcha “suf” so‘zidan hosil bo‘lgan, degan fikrni bildiradilar. «Suf» so‘zining lug‘aviy ma’nosi jun va jundan to‘qilgan matodir. So‘fiylar ko‘p hollarda jun chakmon yoki qo‘y terisidan tikilgan po‘stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni jun kiyimlilar (forschasi pashminapo‘sh), ya’ni so‘fiy deb yuritganlar. Bizningcha, shu keyingi etimologik ma’no haqiqatga yaqinroqdir, zero, so‘fiy so‘zining «suf» so‘zidan yasalishi arab tili qonun-qoidalariga mos keladi.

Agar «suf» so‘zidan so‘fiy yasalgan bo‘lsa, o‘z navbatida, «sufiy»dan tasavvuf», «mustasuf», «muttasuf», «mutasavvif» so‘zlari hosil bo‘lgan. Mustasuf o‘zini so‘fiylarga o‘xshatib, taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi amal-mansab, mol-u mulkka intilishdan iborat bo‘lgan kishilarga nisbatan ishlatilgan so‘z bo‘lsa, muttasuf tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan, biroq so‘fiy darajasiga ko‘tarila olmagan kishidir. Qalban so‘fiyona g‘oyalarga moyil, tasavvufni e’tiqod — maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o‘tamagan, rasman so‘fiy bo‘lmagan odamlar esa mutasavvif hisoblanganlar. Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniy» nomli asarida so‘fiylarning o‘zini ham uch guruhga ajratgan: muoshirlar, mutarassimlar, muhaqqiqlar.

Muoshirlar — tariqat ahlining muxlislari. Ular darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, darveshlar suhbatida ishtirok etadilar, ularning xizmatlarini bajaradilar va savobga o‘zlarini sherik deb biladilar. «Mutarassim» so‘zining ma’nosi rasmu rusumga ergashuvchi demak, ammo mutarassimlar darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalar-da, botinan hol talabgordirlar va shu toifaga ixloslari tufayli ilohiy fayzdan bahramanddirlar.

Muhaqqiqlar — Haqqa yetganlar, ularni oliy martabali so‘fiylar deb ta’riflash mumkin. Haqiqiy avliyolar, shayxu murshidlar shular ichidan yetishib chiqqan. Bu o‘rinda muhaqqiq so‘fiylarning najib sifatlari xususida to‘xtalib o‘tish joiz, deb hisoblaymiz. Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, chin so‘fiy o‘zlikdan hamda foniy dunyodan voz kechgan va Haq baqosida o‘zligini qayta topgan zot bo‘lib, suratda bandayu, ma’nila ozod kishidir. Surat — tashqi ko‘rinishda banda bo‘lish — jism-tanani Iloh toatiga bag‘ishlash bo‘lsa, ma’nida ozodlik — botinni barcha aloqalardan tozalab, ruhni hur va pok saqlash demak. So‘fiyga hech bir narsa va hech bir kishi qaram bo‘lmasligi; uning o‘zi ham hech bir narsaning, hech bir odamning qarami bo‘lmasligi kerak. Xoja Bahouddin Naqshband aytganlariday:

Hechi mo neyu hech kam ne,
Az payi hech-hech-hech g‘am ne,
Janda bar pushtu pusht-go‘riston,
Ro‘ze, ki mirem hech motam ne.

Ma’nosi: Hech narsamiz bo‘lmaganligi uchun hech kamimiz yo‘q, o‘sha «hech», ya’ni narsa ketidan quvib, g‘am ham chekmaymiz. Egnimizda — janda, orqamizda — go‘riston, biz vafot etgan kun hech bir

motamning ham keragi yo‘q.

Alisher Navoiy ham Bahouddin Naqshband va Abdurahmon Jomiyni, garchi Xusrav Dehlaviy, kabi payg‘ambar davomchisi, deb atamasa-da, lekin ularni «murshidi ofoq», «koshifi asrori iloh», barcha ishlardan xabardor karomatli va pok niyatli zotlar sifatida ta’rif-tavsif etadi. Xoja Ahror Valiy ham shunday ta’riflagan:

Mulki jahon mazrai dehqoni ul,
Balki jahon mulki nigahboni ul.
Yo‘q mamolikka nigahbon bo‘lub,
Borcha salotin uza sulton bo‘lub...
Haq so‘zini elga qilurda ado,
Teng ko‘runub ollida shohu gado.
(«Hayrat ul-abror»dan)

Bu faqat shoirlarning hayajonli ta’rif-tavsifi emas, albatta. Buni o‘rta asrlar kishisining tafakkur tarzi va dunyoqarashi ifodasi, deb bilmoq kerak. So‘fiy va darveshlar haqiqatan ham katta nufuz va obro‘ga ega edilar. Muqtadir shayxlargina emas, qalandarlar, eshonlar, majzub, «devonalar», oddiy darveshlarni ham odamlar hurmat qilganlar. Shuning natijasi o‘laroq, darveshlik harakati keng quloch yoygan, darveshlik udumlari shakllanib, darveshlar alohida bir toifa — tabaqa sifatida jamiyatda muhim o‘rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш. А. Мансур., " Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири.," – Тошкент: , Тошкент ислом университети,, 2016, p. – 624 б.
2. A. MUHAMMADIYEV, "NAVOIYNING G‘AZALLARIDAGI IRFONIY G‘OYALAR TAHLILI," in Mashhur-press. – Toshkent, 2020.
3. N. Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
4. I. Haqqul. "Abduxoliq G‘ijduvoniy va tasavvuf". – Toshkent, 2023.
5. Ҳ. Болтабоев, "И С Л О М ТАСАВВУФИ М АН БАЛАРИ". – Ташкент, "O‘qituvchi", 2005.
6. Э. ВОҲИДОВ, АЛИШЕР НАВОИЙ ҒАЗАЛЛАРИГА ШАРҲЛАР, www.ziyouz.com.

Maftunaxon SAPAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
saparovamaftuna9@gmail.com

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING «AL-QISTAS FI ILMI-L-ARUD» VA AHMAD TAROZIYNING «FUNUNU-L-BALOG‘A» ASARLARIDA MAFOIYLUN ASLIY RUKNINING YORITILISHI

Annotatsiya: maqolada Mahmud Zamaxshariyning «Al-Qistas fi ilmi-l-arud» va Ahmad Taroziyning «Fununu-l-balog‘a» manbalarida berilgan mafoiylun asliy rukni qiyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Ularda keltirilgan o‘xshash va farqli jihatlar batafsil yoritilib, sharhlangan va misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: *zihof va illalar, sodda o‘zgartish, birikkan o‘zgartish, mafoiylun, furu’.*

Аннотация: в статье со сравнительной точки зрения изучается мафайлун, приведенный в источниках Махмуда Замахшари «Аль-Кистас фи илми-л-аруд» и Ахмада Тарази «Фунуну-л-балага». Сходства и различия подробно объяснены, прокомментированы и проиллюстрированы примерами.

Ключевые слова и фразы: *зихафы и иллы, простое изменение, прикрепилые изменение, мафойилун, фуру'.*

Annotation: in the article, the mafaiylun given in Mahmud Zamakhshari's "Al-Qistas fi ilmi-l-arud" and Ahmad Tarazi's "Fununu-l-balaga" sources are studied from a comparative point of view. Similarities and differences are explained in detail, commentated and illustrated with examples.

Key words and phrases: *zihofs and illas, simple change, connected change, mafoiylun, far’.*

O‘rta asrlar mumtoz aruz tizimini o‘rganar ekanmiz unga doir bo‘lgan atamalarni bilish va tadqiq etish lozim bo‘ladi. Bu borada, asosan, turkiy hamda fors tillarida bitilgan aruziy asarlar haqida ko‘plab izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, aynan Mahmud Zamaxshariyning «Al-Qistas fi ilmi-l-arud» va Ahmad Taroziyning «Fununu-l-balog‘a» asarlari qiyosiy nuqtayi nazardan o‘rganilmagan edi. Maqolamizda biz

bu ikki asarda keltirilgan mafoiylun asliy ruknining o‘zgartish (zihof va illa)lari va ular natijasida yuzaga keladigan furu’larini tadqiq etamiz.

Dastlab, ba’zi aruziy istilohlar sharhiga to‘xtalamiz. Zihof va illa – bu asliy ruknda ro‘y beradigan tovush orttirilishi, juzv tushishi va harf sukunlanishi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Maqolamizda ularni birlashtirgan holda «o‘zgartishlar» degan umumiy nom ostida keltiramiz. She’riy asar tarkibida ular ta’sirida asliy ruknning tarmoq ruknlarga o‘tganidagi o‘zgargan nomi furu’ deb ataladi.

O‘z navbatida o‘zgartishlar tuzilishiga ko‘ra sodda va birikkan turlariga bo‘linadi. Sodda o‘zgartishlar – muallif tomonidan nomlanib keltirilgan mufrad va murakkab zihof va illalar. Birikkan o‘zgartish – muallif asarida ikki mufrad yo murakkab zihof yoki illani o‘zaro biriktirib keltirish asosida yuzaga keladigan birlik. U «mufrad o‘zgartish va mufrad o‘zgartish» yoki «mufrad o‘zgartish va murakkab o‘zgartish» ko‘rinishida bo‘lib, yangi furu’ – tarmoq rukn hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.

Mafoiylun asliy ruknida qo‘llaniluvchi o‘zgartishlar miqdori biz o‘rganayotgan har ikkala manbalarda turlicha keltirilgan. Jumladan, Mahmud Zamaxshariyning «Al-Qistas fi ilmi-l-arud» asarida yettita ekanligi aytilib, avval furu’lari keltiriladi, so‘ngra o‘zgartishlar berilib, ayrimlari sharhlanadi [1:35]. Ahmad Taroziy qalamiga mansub bo‘lgan «Fununu-l-balog‘a»ning bizga ma’lum bo‘lgan «Xazina» nashrida esa o‘nta deb keltirilgan bo‘lsa-da, ulardan oltitasi sanalib, o‘ntasi sharhlanadi [5:153]. Bizningcha, bunga eski o‘zbek yozuvidan kirill xatiga o‘tkazish bilan bog‘liq ayrim qiyinchiliklar sabab bo‘lgan. Quyida asarlarda keltirilgan o‘zgartishlar va ular natijasida hosil bo‘lgan barcha furu’larini ko‘rib o‘tamiz.

Dastlab, har ikki manbada keltirilgan sodda o‘zgartishlarga to‘xtalamiz. Ularda birinchi o‘zgartish sifatida qabz keltiriladi. Qabz – ruknning beshinchi sukunlangan harfini tashlab yuborish: mafoiylun → mafoilun. U bayt tarkibida «maqbuz» deb yuritiladi. Bu o‘rinda shunga e’tibor berishimiz lozimki, ushbu sukunlangan – sokin beshinchi harf yengil sababning ikkinchi qismi bo‘lishi kerak. Shundagina asliy rukn o‘rganayotgan zihofimizga muvofiq bo‘ladi.

Navbatdagi birlik sifatida kaff keltiriladi. Kaff – yettinchi harf sokin bo‘lganida, uni tushirish: mafoiylun → mafoiylu. Hosil bo‘lgan furu’lar «makfuf» deb ataladi.

So‘ngra qasr keltiriladi. Qasr – rukn so‘nggidagi yengil sababning sokin harfini tashlab yuborish va mutaharrikini sukunlash: mafoiylun → mafoiylu → mafoiyl. U bayt tarkibida «maqsur» deb yuritiladi.

Hazf – asliy rukn oxiridagi yengil sababni tushirish: mafoiylun → mafoiy = fauvlun. Hosil bo‘lgan natija «mahzuf» deb ataladi.

Xarm – bayt boshidagi majmu’ vatadning avvalini tushirish: mafoiylun → foiylun = maf’uvlun. U bayt tarkibida «axram» deb yuritiladi.

Shatr – maqbuzning boshini olish, ya’ni qabz va xarmning birlashuvidir. Bunda asliy rukn boshidagi birikkan vatadning birinchi mutaharriki va ruknning beshinchi sokin harflari tushiriladi: mafoiylun → mafoilun → foilun. Hosil bo‘lgan furu’ «Al-Qistas fi ilmi-l-arud»da «ashtar» deb keltiriladi. Lekin «Fununu-l-balog‘a»da o‘zgartish nomi «satr», furu’ esa «astar» deb beriladi.

Xarb – makfufni xarm qilish yo‘li bilan hosil qilinadi. Ya’ni birikkan vatadga mansub ruknning birinchi mutaharriki va yettinchi sokin harflari tushiriladi: mafoiylun → mafoiylu → foiylu = maf’uvlu. Furu’ aruz ilmida «axrab» deb yuritiladi.

Mahmud Zamaxshariydan farqli ravishda Ahmad Taroziy hazazni mafoiylun asliy ruknining o‘zgartishlari qatorida keltirish mumkin, deb hisoblaydi va, bilishimizcha, unga yangi furu’ olib kiradi. Hazaz – asliy rukn tarkibidagi birikkan vatadni tushirish: mafoiylun → iylun = fa’lun. Hosil bo‘lgan furu’ «Al-Qistas fi ilmi-l-arud»da «ahazz» deya, «Fununu-l-balog‘a»da esa «axaz» shaklida beriladi.

Shuningdek, birikkan o‘zgartishlar ham keltirilgan bo‘lib, ularni quyida tadqiq etamiz. Ahmad Taroziy ushbu asliy rukn tarkibida yana bir necha zihof va illalarni qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi va ularni quyidagicha keltiradi. Dastlab, qabz va hazazning birikishi natijasida hosil bo‘luvchi furu’ni keltiradi. Bunda asliy ruknning avval beshinchi sokin harfi, so‘ngra uning birikkan vatadi tushuriladi: mafoiylun → mafoilun → ilun = faal. «Funun-l-balog‘a»da keltirilishicha, hosil bo‘lgan furu’ bayt tarkibida «maqbuzi axaz» deb yuritiladi.

So‘ngra hazaz va hazflar keltiriladi. Bunda asliy rukn tarkibidagi birikkan vatad, so‘ngra furu’ oxiridagi yengil sabab tushiriladi: mafoiylun → iylun → iy = fa’. Hosil bo‘lgan furu’ «Fununu-l-balog‘a»ning ushbu qismida nomlanmaydi.

Ularni quyida jadval asosida keltiramiz:

T./r.	«Al-Qistas fi ilmi-l-aruḍ» asarida keltirilgan zihof va illalar nomi	«Funun-l-balog'a» asarida keltirilgan zihof va illalar nomi
Sodda o'zgartishlar		
1	Maqbuz	Qabz
2	Kaff	Kaff
3	Qasr	Qasr
4	Hazf	Hazf
5	Xarm	Xarm
6	Shatr	Satr
7	Xarb	Xarb
8	–	Hazz
Birikkan o'zgartishlar		
9	–	Qabz hazz
10	–	Hazf hazz

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, aruz ilmining tayanch ustunlaridan biri bo'lgan o'zgartishlarni qiyosan o'rganish bu boradagi ilmimizni yana-da aniqlashtiribgina qolmay, bilimlarimizni oshirib, mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

١. جارالله محمود الزمخشري.القسطاس في علم العروض. / تحقيق الدكتور فخر الدين قباوة. – بَيروت: مكتبة المعارف, ١٩٨٩.– ص. ١٤٢

2. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энсиклопедияси, 1997. I жилд. – 453 бет.

3. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энсиклопедияси, 1997. II жилд. – 453 бет.

4. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2002. № 1-6; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. – № 1-3.

5. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. // Масъул муҳаррир Ҳасанов Б. – Тошкент: Хазина, 1996. – 212 бет.

6. Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Монография. – Тошкент: Таълим-медиа, 2019. – 264 бет.

7. Ҳасанов Б. Арабча-ўзбекча бошланғич луғат. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 1996. – 584 бет.

Saida'loxon BUZRUKXONOV,
Osiyo xalqaro universiteti
1-kurs magistranti

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TARBIYA JARAYONI MOHIYATI XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxsga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri tarbiyaning asosiy mohiyati, xususan, Sharq allomalaridan Alisher Navoiy qarashlarida inson kamolida tarbiyaning ta'siri xususida so'z boradi. Olim ijodida badiiyatga yo'g'rilgan hayotiy haqiqatlarning inson va olam aro o'zaro munosabati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, komil inson, tasavvuf, majoziy ifodalar.*

Annotation: in this article, one of the main factors affecting the personality is the main essence of education, in particular, the influence of education on human development in the views of Alisher Navoi, one of the scholars of the East. In the work of the scientist, the interaction between man and the universe is analyzed.

Key words: *education, perfect man, mysticism, figurative expressions.*

Inson muammosi azal-azaldan butun dunyo olimlari, mutafakkirlari qarashlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ular inson zotini yuksaklikka ko'targanlar, uni tirik mavjudotlar orasida eng a'losi deb hisoblaganlar. Insonga bo'lgan e'tibor kuchaydi, unga g'amxo'rlik qilish, uning manfaatlari to'g'risida qayg'urish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish davlatning ustuvor siyosatiga, kundalik faoliyatiga aylandi. O'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarning inson va uni

yashashdan maqsadi, mukammal jamiyat, odil va ma'rifatli shoh, komil inson haqidagi qimmatli fikrlari hozirgacha o'z qadrini yo'qotmasdan, insoniyatga xizmat qilmoqda. Buyuk mutafakkir olim hazrat Alisher Navoiy o'zining nasriy va nazmiy asarlarida, o'lmas dostonlarida umuminsoniy ruh bilan sug'orilgan komil inson, mukammal jamiyat va odil hukmdor haqidagi g'oyalarni ilgari surdi. Uning insonparvarlik, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, axloq va xulq-odob qoidalari, ta'lim-tarbiya, yuksak insoniy qadriyatlar to'g'risidagi dono fikrlari keyingi davrlarda va hozir ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari kishilarda vatanparvarlik, o'zlikni anglash, odamiylik, halol va pok bo'lish, nafsni tiyish, sabr-bardoshli va yetuk inson bo'lib yetishish kabi fazilatlarni kasb qilishida, yuksak ma'naviyat yengilmas kuch ekanligini chuqur anglab yetishida muhim ahamiyatga ega.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda. Avvalambor, tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga suyanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, huquqshunoslik, psixologiya fanlari ma'lumotiga asoslanadi. Hozirgi zamon pedogogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy shunchalik ta'sir ko'rsatish emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bu o'rinda Sharq allomalarining inson kamoloti xususidagi fikrlarini asosiy yo'riqnoma qilish ayni muddaodir.

Agar Navoiy "Xamsa" sida jamlangan dunyoqarashini yaxlit bir tizim sifatida olib qaraydigan bo'lsak, uning markazida, shubhasiz, inson, shoirning otashin gumanizmi, odamiylik konsepsiyasi, adl-u insof, sahovat va muhabbat haqidagi fikr-o'ylari, buyuk tafakkur olami yotadi. Navoiy ijodida eng asosiy insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga xoslik tomoni shundaki, o'zi yashagan davrgacha faoliyat yuritgan barcha mutafakkir va ijodkorlardan farqli ravishda ilohiylik va dunyoviylik tamoyilini uyg'unlashib ketganligidadir. Ilohiy g'oyalar, timsollar uning uchun inson hamisha intiladigan ideal olam bo'lsa, dunyo shu ideal olamning ko'zgusi, ibrat va saboq maydoni. Zero, insonda koinotning, ilohiy olamning hikmatlari, mohiyati aks etgan. Ayniqsa, bu boradagi qarashlar "Hayrat ul-abror" dostonini asosini tashkil etadi. "Neki olami kubroda bor – olami sug'roda bor", deydi Navoiy ushbu dostonida. Olami kubro – katta olam, ya'ni koinot, borliq. Olami sug'ro – kichik olam, ya'ni inson. Bunday qarash aslida Odam Atoning yaratilishi haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Odam Ato tuproqdan yaratilib, keyin unga ruh, jon ato etildi. Demak, inson modda va ruh yoki yoki tabiat va ilohdan vujudga kelgan. Shu bois inson tiynatining o'zida majoz va haqiqat, ilohiylik va dunyoviylik mujassam. Bu olam yagonaligi haqidagi vahdat ul-vujud ta'limotiga muvofiqdir. Ya'ni: "O'z vujudungg'a tafakkur aylagil, Har ne istarsan, o'zungdin istagil". Shu yo'lda inson axloqi poklanadi va u komillik darajasiga ko'tariladi. Alisher Navoiy soxta dindorlik, dindan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanish, botiniy olamga qaramay, zohiriy rasm-rusumlarni bajarish bilan kerilish, riyokorlik, shafqatsizlikni qoralaydi. Inson avvalo yaxshi axloqi, niyatining (himmatining) ulug'vorligi, ilohiyligi bilan inson. Agar bunday bo'lmasa, ya'ni kishi qalbida ezgulikka, xayrga muhabbat bo'lmasa, uning imoniga ishonish qiyin. Imon botiniy olamning tozaligi va butunligi, haqqa yaqinligini namoyon etib turishi kerak. Shu zaminda Navoiyning butun ijodi aqidaparastlik, diniy sxolastika va jaholatni rad etadi. Aynan ushbu mulohazalar boshqa hech bir mutafakkir ijodida uchramagan. Dinning faqat ezgulik yo'lida hizmat qilishi lozimligini alohida ta'kidlagan va shunga chaqirgan. SHuning barobarida, bu masala g'oyaviy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim jihatlardan biridir.

Alisher Navoiyning "Xamsa"ga kirgan dostonlarining har birida insonparvarlik g'oyalari yaqqol namoyon bo'ladi. Uning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" va boshqa dostonlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, Suqrot, Aflotun timsollarida vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar, olijanob qadriyatlar jamlangan. Bu obrazlar allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik qarashlariga mos holda bayon qilinadi. Hazrat Navoiy odamiylik, vafodorlik, mehr-oqibat, xalq g'amida yashash, uning farovonligi, baxt-saodati yo'lida hatto jonini fido qilish, xayr-ehson, o'zgalarga saxiylik qilish kabi fazilatlarni hamma narsadan yuqori qo'yadi. Mutafakkir bu bilan insonni, uning xislatlarini ulug'laydi, uni boshqa jonzotlardan a'lo ekanligini ishonarli tarzda isbotlab beradi. Xulosa qilib aytganda, hazrat Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og'ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, "Xamsa" sining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug'orilgan. Mutafakkir insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun beradi. Ushbu dostonida kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostgo'ylik, saxiylik, donolik, muhtoj va yetim-esirlarga yordam berish, bag'rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik – bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi bo'lib, insonni kamolot sari, ezgulikka yetaklaydi.

Ibn Arabiy "Futuzot"da yozishicha, hamdning

haqiqati ham “muqaddas va munazzah bir qul bo‘lishidir” . Shu qullik bandalik sharofati tufayli insonning o‘zini ruhan yangidan anglaydi, tasavvur va taxayyulidagi mavhumlik, murakkabliklardan oson voz kechadi. Navoiy esa komillikni haqqa bandalik bilan uyg‘unlashtirib, uni kamolotning nihoyasi degan xulosani ilgari suradi. Navoiy nazmiy va nasriy asarlaridagi murojaatlarida, ayniqsa, “Munojot” asarida Tangrining komil sifatlarini ta’riflash barobarida o‘zining ojizligini, unga bo‘lgan ehtiyojlarini izhor qiladi. Sharq she’riyatida aynan mana shu “ojizlik izhori” an’anaviy bayon usullaridan bo‘lib, komil insonga xos bo‘lmish fazilatlardan sanalgan. Navoiyning ilohiy ishq, faqru fano va sof irfoniy tushunchalar yoritilgan g‘azallaridagi qosh, ko‘z, lab, xol kabi o‘nlab poetik obrazlar Olloh va komil inson o‘rtasidagi aloqa hamda birlik holatlaridan qayta-qayta xabar yetkazib turadiki, fahm-farosati o‘tkir kitobxon mohiyatan o‘zining ma’shuqi azaldan ajrata olmasligiga dildan iqror bo‘ladi. Navoiy fikricha, inson qancha buyuk bo‘lsa, uning hayotga munosabati ham, shuncha teran va zalvorli, qalbi shuncha nozik va najib tuyg‘ularga boy bo‘ladi. U o‘ziga o‘xshagan yuksak didli, qaynoq qalbli, ma’naviy olami boy, dengizday behudud va gulday nozik, navoday dilrabo dili bor insonlarni qo‘msaydi. Komil inson “bir tomondan, jami ruhiy-ma’naviy qudrat, aqlu zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan shu cho‘qqiga intilib muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan”. Alisher Navoiy komil inson to’g’risida butun bir ta’limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g’azallari, “Xamsa”ga kirgan dostonlari, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqalarda komil inson qanday bo’lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xamsa: Hayrat ul-abror, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Sab’ai sayyor, Saddi Iskandariy. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
2. Иброхим Ҳаққул. Навоий шеҳриятида ҳақ ва шахс муносабати. Ўзбек тили ва адабиёти. 2013 йил 5 сон
3. Toshmurodova Q., Kamolova N. Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub” asari va iqtisodiy tarbiya. Til va adabiyot ta’limi. 2003-yil, 1-son.

Dilnoza IBRAGIMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-kurs magistratnti

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARNING SURATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Oripov lirikasida uchraydigan lingvopoetik xususiyatlarning turli ko‘rinishlari, turli xil misralar misolida tushuntirib berishga harakat qilingan.
Kalit so‘zlar: *lirika, she’riyat, san’at, misra, lingvistika, poetika, adabiyot.*
Annotation: in this article, an attempt was made to explain the various forms of linguopoetic features found in the lyrics of Abdulla Oripov, using the example of different verses.
Key words: *lyric, poetry, art, verse, linguistics, poetics, literature.*
Аннотация: в данной статье предпринята попытка объяснить различные формы лингвопоэтических особенностей, встречающиеся в лирике Абдуллы Орипова, на примере разных стихов.
Ключевые слова: *лирика, поэзия, искусство, стих, языкознание, поэтика, литература.*

San’at olamida gul ko‘p, chaman ko‘p. O‘zbek adabiyotida o‘zining chamanzorini yarata olgan buyuk ijodkorlardan biri Abdulla Oripovdir. O‘zbekiston Qahramoni, inson qalbining musavviri Abdulla Oripovning ko‘plab asarlari millionlab insonlar qalbida joy olgan. Abdulla Oripovning she’rlarida olam va odam, inson va tabiat, hayot va o‘lim, yaxshilik va qabohat, orzu va armon, mehr va nafrat, adolat va haqsizlik kabi manosabatlar o‘zaro kurashadi. Abdulla Oripov she’riyatining lingvopoetik tahlili uning badiiy so‘z imkoniyatidan mohirona qo‘llaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Inson qalbi bilan hazillashmangsiz
Unda millat yashar, unda til yashar.
Unda avlod faxri yashaydi, so‘zsiz
Unda istiqomat qiladi bashar.

Mazkur to‘rtlikda keltirilgan unda so‘zi vositasida shoir anafora san’atidan unumli foydalangan. Ushbu so‘z shunchaki takror emas, balki lirik qahramon fikrini ta’kidlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Inson qalbi

shunday umumanki, unda millat, tili, ona, avlod faxri, umuman, butun bashariyat yashashini ta'kidlamoqda.

Gohida sevinib, gohi g'amdadir
Ishq uzra yozardim, men erkin qanot.
Bilmadim qaysi kun, qaysi damdadir
Mening qismatimga chang soldi sayyod.
Yuqoridagi to'rtlikda esa shoir.
"Gohida sevinib, gohi g'amdadir"

deganda tazod (zid ma'noli so'zlar-antiteza) san'atidan unumli foydalangan.

Ishq uzra yozardim, men erkin qanot
Mening qismatimga chang soldi sayyod.

Misralarida metaforani qo'llaydi. Shoirning birgina onasi Turdixol momo xotirasiga bag'ishlangan "Onajon" she'ri orqali kitobxon uning falsafiy qarashlari noqadar teran va boy ekanligining shohidi bo'ladi.

Garchi fano har kimsaga,
Azaliy bir qismatdir.
Lekin, ona tiriklik ham,
Bilsang yarim hikmatdir.

Lirik qahramon "bu foniy dunyo hammaga berilgan qismat, lekin onajon

tiriklik ham yarim hikmatdir" deya xitob qiladi. Onasining erta vafot etganiga

afsus-nadomatlar qiladi. Onasining o'rni har qadamda, har lahzada bilinayotganligini ta'kidlaydi.

U kun chetda oh chekardim,
G'ussalarning dastidan.
Sen otamga pul beribsan,
Yostig'ingning ostidan.
Aytibsanki onasizlik,
Kelmasin hech o'yiga.
Sarf qilingiz menga emas,
Abdullaning to'yiga.
O o'g'lingga sen shafqatni,
Bilardingku onajon!
Bundan ko'ra bag'rim o'ysang
Bo'lardiku onajon!
Zarragina rahm etgali
Sabring menga yo'qmidi?!
Onajonim bundan o'zga
Jabring menga yo'qmidi?!
Yo'qmidi hech o'zga gapiring,
Nola qilib so'ylasang.
Nahot, axir so'nggi dam ham,
Farzandlaring o'ylasang.

Ha! Har bir o'zbek onasi farzandini oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazarkan o'lar chog'ida ham farzandlarini, faqat va faqat farzandlari uchun jon kuydiradi. Ularning baxtli yashashlarini istaydi. Shoir ana shu she'rida nafaqat o'zining ruhiy holatini, balki ana shunday og'ir judolikni boshidan o'tkazgan insonlar qismatini, ularning ruhiy iztiroblarini go'zal chizgilarda ifoda etgan.

Abdulla Oripov ijodidagi o'ziga xos yo'nalish, lirik qahramonning murojaatidir. Bu murojaat shunchaki emas, qahramonning ichki kechinmalar ifodasi lirik qahramon menini yoritib berishga xizmat qilgan.

Insonda qanot yo'q,
Achinmang unga.
Zotan unga yurak,
Sabot berilgan.
Qushda-chi sabot yo'q,
Shuning uchun unga.
Qochib qolmoq uchun,
Qanot berilgan.

Shoirning har bir she'ri mushohadagi boy va serqirradir.

Shoir inson va olam o'rtasidagi mutonosiblikni so'z vositasida kitobxonga tasvirlashga uringan.

Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan
Nechun bilmovdim avval birinchi mahabbatim!
Parvo qilmovdim avval birinchi muhabbatim.

Lirik qahramon ushbu satrlar orqali "Oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'u bo'lishini, inson umri ham bir xilda bo'lmasligini "tuynuksiz qasr" birikmasi vositasida ifodalagan. Birgina ana shu jumla ham shoirning poetik mahorati nechog'lik mukammal ekanligini ko'rsatib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Qahramoni, davlatimiz madhiyasi muallifi, zabardast shoir Abdulla Oripov ijodini tahlil qilish jarayonida ijod tilining betakrorligi, lingvopoetik tadqiq asoslarining barcha yo'nalishlarini o'zida ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurod Quronov.Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI, 2004.
2. Kalonova Nodira. ABDULLA ORIPOV ASARLARI LINGVOPOETIKASI, maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor. December. 2022.
3. A. Hojiyev. "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati". – Toshkent, 1985. 164-bet.
4. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent, 2000. 260-b.

Parizoda AXRORXO‘JAYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti
adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti;
Mahmudaxon DADAJONOVA,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani
16-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

“CHOLIQUSHI” – IZTIROB ROMANI

Annotatsiya: ushbu maqolada kitobxonlarga “Choliqushi”, “Tamg‘a”, “Iztirob” romanlari bilan yaxshi tanish bo‘lgan turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” asari tahlil etiladi. Roman qahramonlari, asarning yozilish tarixi va sababi, Faridaning ichki kechinmalarini anglatadigan syujetlarning ayrimlari, roman uslubi va asarning badiiy-g‘oyaviy maqsadiga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *turk jumhuriyati, xarakter, Farida, Qushadasi, so‘zlashuv uslubi, ta’lim masalasi.*

Аннотация: в данной статье анализируется произведение «Чоликуши» турецкого писателя Рашода Нури Гюнтекина, романы которого «Чоликуши», «Тамга», «Изтироб» хорошо известны читателям. Будут обсуждаться персонажи романа, история и причина написания произведения, некоторые сюжеты, отражающие внутренние переживания Фариды, стиль романа и художественно-идеологическая цель произведения.

Ключевые слова: *турецкая Республика, характер, Фарида, Кушадасы, стиль речи, проблема образования.*

Annotation: this article analyzes the work "Choliqushi" by the Turkish writer Rashod Nuri Guntekin, whose novels "Choliqushi", "Tamga", "Iztirob" are well known to the readers. The characters of the novel, the history and reason for writing the work, some of the plots representing Farida's inner experiences, the style of the novel and the artistic and ideological purpose of the work will be discussed.

Key words: *Republic of Turkey, character, Farida, Kushadasi, speech style, education issue.*

Shunday asarlar bo‘ladiki, bir o‘qishdayoq qalbingizdan joy oladi. Qahramonlar xarakteri, fe’l-atvori, ularning kechmishlarini o‘qib “men haqimda ekan-ku”, – deb yuborganingizni bilmay qolasiz. Turk adadabiyotining durdona asarlaridan biri bo‘lgan “Choliqushi” ham mana shunday asarlardan biridir. Rashod Nuri Guri Guntekin ushbu asarda ayollar ruhiyati, ularning qalb kechinmalari, iztiroblari, o‘y-xayollarini mahorat bilan aks ettirgan. “Choliqushi” romani o‘tgan voqealarga asoslangan bo‘lib, asarda tilga olingan qahramonning hayotiy ismi Feride Po‘latdir. Bugungi kunda Qushadasidagi uyi restavratsiya qilingan. Yozuvchi ushbu romanni dastlab “Istanbul qizi” nomli to‘rt pardali sahna asari sifatida yozgan.

“Choliqushi” romanida bo‘lib o‘tgan voqealar XX asrning ilk choragiga tegishlidir. Feridening Qushadasida yashagan paytda Birinchi jahon urushi dahshatlari asarda ham ko‘rinish bermasdan qolmagan. Yozuvchi XX asr boshlaridagi turk xalqi hayotini ko‘p jihatdan mohirona yoritib bera olgan.

Choliqushi”ni shunchaki bir ishqiy roman bo‘lib qolishidan qutqargan, an’anaviy sevgi-muhabbat mavzusida yozilgan boshqa asarlardan farqi ayni paytda romanning o‘sha davr ijtimoiy holatidan ham hikoya qilishidir. Romanning sotsial jihatini yoritib bergan keng ma’noli so‘z bu Onado‘ludir. Bu so‘zning mantiqiy dunyosi ichida ham shu hudud hamda shu hududda yashagan insonlar va ularga tegishli muammolar joy olgan. Asarda Onado‘lu va u yerda yashagan insonlar hayotiga nazar tashlaganimizda yo‘qsillik, jaholat, yashash zavqidan mahrumlik kabi holatlarga duch kelamiz. Feride bir muddat yashagan Zaynilar qishlog‘i tasvirlari nafaqat Onado‘lu, balki o‘sha davrda hukumat tepasida bo‘lgan Usmonli iqtidorining haqiqatlarini ham ko‘z oldimizda qip-yalang‘och namoyon qiladi. Zaynilar qishlog‘i tasvirida asosan “yakkam-dukkam kulbalar”, “taxta uylar”, “cho‘ka boshlagan qop-qora vayronalar”, “u yer bu yerda tutab yotgan yong‘in xarobalari” kabi ifodalar qo‘llanilgan. U yerdagi o‘quvchilar ahvoli ham juda achinarli edi.

O‘zi ham muallim bo‘lgan yozuvchi roman qahramoni Ferideni ham o‘qituvchi tarzida gavdalantirib, asarda ta’lim-tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Romanda an’anaviy ta’lim-tarbiya tushunchasi va yangi ta’lim berish shakli orasida kurash yuzaga keladi. Zaynilar qishlog‘idagi Hadicha xonim o‘qituvchilik qila oladigan darajada yetarli bilimga ega emas, o‘quvchilarni uradi, o‘lim tahlikasini targ‘ib qiladi, dars paytida o‘quvchilarni yerga o‘tqizib, baland ovozda o‘qishga majbur qiladi, bo‘yi yetgan qizlarning o‘qishiga qarshi chiqadi. Yangi ta’lim tizimida yetishib chiqqan Feride esa Hadicha xonimning amallariga butunlay qarshi bo‘lib, o‘quvchilarni o‘zi bilgan metodda o‘qita boshlaydi. Bolalarni ketma-ket o‘tqizadi, shovqin qilishlariga yo‘l qo‘ymaydi, katta yoshli qizlarga ham ta’lim beradi, o‘lim tahlikasini yo‘qqa chiqarishga urinib, yashash zavqini targ‘ib qiladi.

O‘sha davrda ta’lim sohasidagi tanqid qilingan yana bir jihat o‘qituvchi maoshining juda kamligi edi. Feride Onado‘luda ishlab yurgan paytlarida onasidan qolgan qimmatli buyumlarini sotib kun ko‘radi, puli

tugaganda esa hatto och qolgan vaqtlari ham bo‘ladi: “Men muallimlikni ochlikdan o‘lmaslik uchun qabul qilgan edim. Hisobim to‘g‘ri chiqmadi. Bu kasb bir kun ochlikdan o‘ldirishi hech gap emas”.

Asarda Choliqushi – Feride Turkiya jumhuriyati uchun namuna bo‘la oladigan obrazdir. Farida sho‘x, shaddod, tirishqoq, shu bilan birga g‘ururli, o‘zini o‘zgaga xafa qildirib qo‘ymaydigan obraz. Aynan mana shu jihatlari Turkiya jumhuriyati tarbiyalamoqchi bo‘lgan yoshlar siymosidir.

Choliqushi voyaga yetgan qiz bo‘lsa-da o‘ta sodda, mug‘ombir, kattalarni ham o‘z do‘stidek ko‘radi. Misol uchun gilos terish voqeasini eslaylik:

– Siz xunukmisiz qizim?

– Nimalar deyapsiz? Nima, men o‘zimni bilmaymanmi? – dedim. – Qiz degan ham shunaqa bo‘larmishmi? Qizga uzun bo‘y, sariq soch, moviy yoki yashil ko‘zlar lozim...

Ushbu jumlalar Faridaning shaddodligi, o‘zligini o‘zgadan yashirmasligini, har bir vaziyatni boricha qabul qiladigan va favqulodda yechim o‘ylab topa oladigan qiz ekanligidan darak beradi. Dastlab u otgan gilos danagi qo‘shnisining burniga tegish, buning ustiga o‘zini kulgidan tiyolmay o‘zini namoyish etib qo‘yishi, keksaning qalbiga so‘zlari xatti-harakati bilan yo‘l topishi, “ – Ro‘molchaga parvo qilmang... Hali burnimni artganim yo‘q. Top-toza” deb biroz quvlik, biroz xijolatlik, biroz aybdorlik bilan gilos uzatishi ham uning bor xarakterini ochib berolgan.

Romanda nafaqat ishq-muhabbat, ta’lim, balki mehr-muhabbat mavzusiga ham katta e’tibor berilgan. Doktor Hayrullobey, Ehsonbey, Munisa obrazlari orqali Faridaning naqadar taqdirga ko‘nuvchi, o‘z orzularidan kechsa-da g‘ururidan, xotira va sevgisidan kechmaydigan, eng ayanchli ishlarni qilsa ham, sabr-bardosh bilan bariga chidaydigan, ertangi kundan yorug‘ bir nur, pok bir umid, mo‘jiza kutadigan jasur qiz ekanligi o‘quvchiga anglatiladi.

Ammo daftarining so‘nggi sahifasiga yetganida sevgilisi Kamronga muhabbati uchun kurashmaganidan, g‘urur deb baxtini boy berganidan pushaymonligini aytadi.

Romanning bu qadar sevimli, bu qadar ko‘ngilga yaqin bo‘lishiga sabab uning hayotiyligi, his-tuyg‘ular va syujetlarning kutilmaganligi, rang-barangligi, yozuvchi mahorati va asarning sodda, so‘zlashuv uslubida yozilganligi deb o‘ylayman. Bu roman qahramonlari kitobxonlarning idealiga, yaqin dugonasiga, balki sevgilisiga, dushmaniga ham aylanib ulgurgan. Va albatta, so‘z sehri, adabiyot mo‘jizasi emasmi?!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug‘ov Abdulla. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

2. Hakimov B, Xoliqova N. Rashod Nuri Guntekin “Choliqushi” asari badiiy-falsafiy xususiyatlari. Central Asian academic journal. Volume 2.

3. Чолиқуши. Рашод Нури Гунтекин. "Янги аср авлоди". – Т., 2013.

4. https://daryo.uz/2019/09/24/muallimlikni-ochlikdan-olmaslik-uchun-qabul-qilgan-edim-hisobim-togri-chiqmadi-choliqushi-romani-haqida

5. https://ziyouz.uz

6. https://kh-davron.uz

Fotima XATAMOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
xatamovafotima3@gmail.com

O‘ZGA TILLI GURUHLARDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada til o‘rganishning eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lgan tinglab tushunish haqida fikr yuritiladi, bilamizki, tilni o‘rganganimizda ham ko‘rib, ham eshitish bu xotirada yaxshi saqlanib, tushunishning ham eng sodda va samarali yo‘lidir. Bunda turli xildagi audio segmentlar, radio dasturlar, har xil turdagi audio xabarlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *tinglab tushinish, o‘zbek tili, o‘qtuvchi, usul, audio xabar, interaktiv mashqlar, shaxslararo dialoglar, o‘quv ma’ruzalar, ko‘nikma.*

Annotation: this article discusses listening comprehension, which is one of the most effective ways to learn a language. We know that we learn a language,seeing and hearing is the easiest and most effective way to remember and understand. It is said that it is appropriate to use various audio segments, radio programs, and

various types of audio messages.

Аннотация: в этой статье обсуждается понимание на слух, которое является одним из наиболее эффективных способов изучания языка. Мы знаем, что и зрение, и слух хорошо сохраняются в памяти при изучении языка. Это также самый простой и эффективный способ понимания При этом выявлено, что фрагменты видео, радиопрограммы должны исрользават звуковые сообщения.

Ключевые слова: *аудирование, узбекский язык, преподаватель, метод, аудиосообщение, интерактивные упражнения, межлисностные диологи, лекции навыки.*

Bilamizki, xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkurining intellektual yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Davlat tili haqidagi qonunning 1989-yil,21-oktyabrda qabul qilinishi ham mamlakatimiz mustaqilligi tomon qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda Prezidentimizning qarorlari bilan 2020-yil, 1-iyundagi qarorlariga muvofiq, “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish kompensiyasi va davlat dasturi loyihalari yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirildi”. Bularning barchasi, albatta, tilimizga bo‘lgan e’tibordandir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har qanday tilni o‘rganishda o‘qish, yozish, gapirish va shuningdek, eshitish qobiliyati ham eng samarali va muhim usullardan biri sanaladi. Buning boisi shundaki, o‘quvchilarning ko‘p vaqti tinglashga sarf etiladi. Tilni o‘rganishda ham tinglash yetakchi o‘rinlarni egallay boshladi. Shu bilan bir qatorda tinglash bo‘yicha trening bugungi kunda juda dolzarb, chunki tinglamasdan turib nutq faoliyatiga chiqish mumkin emas. Tinglash tushunchasi tovushli nutqni idrok etish va tushunish jarayonini o‘z ichiga oladi. Tinglab tushunish ko‘nikmalarini o‘rganishning zamonaviy samarali usullari ko‘plab narsalarni o‘z ichiga oladi, masalan, interaktiv mashqlarni ham bunga misol qilib olishimiz mumkin. Tinglash qobiliyati eng yaxshi o‘rganishi mumkin bo‘lgan qobiliyatlardan biri sanaladi. Chunki bunda biz har xil qiziqarli metodlardan foydalansak bo‘ladi. Misol tariqasida bu metodga quyidagilarni kirgizishimiz mumkin.

1. Rol ijro etish.
2. Soxta intervyular.
3. Shaxslararo dialoglar.
4. Hikoya qilish va boshqalar.

Bunda biz o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib ishlaymiz, hamda ularga shu uslub doirasida savollar beramiz. Misol tariqasida hozirgi kundagi ta’lim to‘g‘risidagi eng qaynoq va qiziqarli bo‘lgan yangiliklar haqida intervyular olishini aytishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda bu usulda o‘quvchilarga savollar berilgani tufayli ularning fikrlashi, tezroq nutqqa chiqishiga ham erishilgan bo‘lamiz.

Audio segmentlar

Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarga audio segmentlar orqali tinglash ko‘nikmalarini o‘rgatishimiz mumkin.

1. Radio dasturlar.
2. O‘quv ma’ruzalari.
3. Har xil turdagi audioxabarlar.

Video segmentlar

Tinglash ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun boshqa eng foydali manba bu video segmentlardir. Ularga misol tariqasida:

1. Hujjatli filmlar.
2. Dramatik yoki komedik materiallar.
3. Yangiliklar dasturlari.
4. Intervyu segmentlarini misol qilib olsak bo‘ladi.

Hozirgi kunda til ko‘nikmalarini rivojlantirib, tinglash qobiliyatini o‘stirish uchun quyidagilarni qo‘llab ko‘rish maqsadga muvofiqdir:

1. Tinglash qobiliyati yuzma-yuz muloqat orqali rivojlanadi. Bunda o‘quvchilar o‘zlaring qobiliyatlarini ham sinab ko‘rishlari mumkin bo‘ladi. Yuzma-yuz muloqot ma’noli tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.
2. Tinglash ma’noga e’tibor berish va maqsadli tilda yangi va muhim tarkibini o‘rganishga harakat qilish orqali rivojlanadi.
3. Tinglash aniqlikka e’tibor berish va shaklni tahlil qilish orqali rivojlanadi. Tovushlar va so‘zlarni to‘g‘ri idrok etishni o‘rganib, ular mazmunli yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirsa, o‘quvchilarning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bu yerda tinglab tushunishni rivojlantirish uchun birqancha metodlar keltirildi. Vazifalar o‘quvchilar uchun nafaqat aniq, balki ularning imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tinglash – bu amaliyot orqali rivojlantirish kerak bo‘lgan murakkab mahoratdir. O‘quvchi matnni tinglayotganida tushunishi, ma’lumotni xotirada saqlay bilishi kerakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norqo‘ziyeva H. “Tinglab tushunishda qiyinchiliklar va ularning yechimlari”. 2022. 75-bet.
2. Musulmonova N. "Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari" o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022. 179-bet.
3. Yo‘ldoshev R. "O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi". Monografiya. 2019. 155-bet.
4. B.To‘xliyev. "O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi". 2018. 56-bet.

Shohruh KARIMOV,
Qarshi davlat universiteti
3-bosqich talabasi.

O‘ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK ISHIDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada, O‘zbekistonda kitobxonlikni yuksaltirish borasida jahon tajribalari asosida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish yo‘lidagi xalqaro hamkorlik munosabatlari, keng kitobxonlikni targ‘ib etish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot-kutubxona, Milliy kutubxona, xalqaro, ZiyoNET, mutolaa, zamonaviy, elektron, reklama, iqtibos, avtobus-kutubxona.*

Annotation: in this article, on the basis of world experiences in improving reading in Uzbekistan, the issues of cooperation in the development of the information-library sector and the promotion of wide reading are covered.

Keywords: *information library, National Library, international, ZiyoNET, reading, contemporary, electron, advertisement, quote, bus-library.*

Аннотация: в данной статье освещены вопросы сотрудничества в развитии информационно-библиотечного сектора на основе мирового опыта по улучшению чтения в Узбекистане, популяризации широкого чтения.

Ключевые слова: *информационная библиотека, Национальная библиотека, международная, ZiyoNET, чтение, современное, электронное, реклама, цитата, автобусная библиотека.*

Jamiyat va millatning ravnaqida, ularning taraqqiyoti va yuksalishida axborot-kutubxonalarning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Chunki, erishilgan ilm-fan sohasidagi barcha yutuqlar majmuasi kutubxonalarda mujassamlashtirilgan. Foydalanuvchilarning nazariy tajribalar almashinuvi, har bir sohaga oid zamonaviy bilimlarini mustahkamlash, o‘quv jarayonida zarur materiallar va qo‘llanmalardan unumli foydalanish va ta’limga oid bir qator tadbirlarni amalga oshirishning asosi ham shu yerda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 13-aprelda qabul qilingan “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining maqsadi, kutubxonalar faoliyatini tartibga solishdan iborat bo‘lib, sohada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma’lum tartibni belgilab beradi.

Inson kamolotida kitobning o‘rni beqiyos. Bugungi kunda barcha insonlar kitob o‘qimay turib yuksak taraqqiyotga erishib bo‘lmasligini angladilar va shuning uchun ham kutubxonalar salohiyatini yuksak darajaga ko‘tarish hamda xalqaro andozalarga moslashtirish zamon talabiga aylandi.

Bizga ma’lumki, Yer yuzidagi dastlabki kutubxonalar taxminan eramizdan 2600 yillar avval paydo bo‘lgan. Afsuski u davrda ma’lumotlarning barchasini saqlab qoluvchi arxivlar mavjud bo‘lmaganligi sababli bizgacha ular yetib kelmagan. Qadimgi davrdagi eng mashhur kutubxonalaridan biri Aleksandriya kutubxonasi hisoblanadi. O‘zbekiston hududida ham milloddan avvalgi 1-mingyillikning so‘nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar mavjud edi. Biroq o‘sha davrdagi istilochilik yurishlari, qabila va davlatlar o‘rtasidagi urushlar hamda tabiiy ofatlar tufayli ham kutubxonalar fondidagi ma’lumotlar aksariyati yo‘qolib ketgan. Hozirgi davrda kutubxonalar o‘zining qulayligi, shinamligi hamda estetik ko‘rinishi bilan diqqatimizni tortadi. Dunyoning shunday kutubxonalari borki, ular o‘zining dizayni, noodatiy ko‘rinishi bilan bir-biridan ajralib turadi:

“Book Mountain and Library Quarter” nomli kutubxona Gollandiya shaharlaridan birida joylashgan. Kub ko‘rinishida barpo etilgan bu binoning tomiga xuddi piramida joylashtirilgandek ko‘rinadi va bu noodatiyligi bilan shahardagi boshqa binolardan ajralib turadi. “Book Mountain” ya’ni “kitoblar tog‘i” iborasi aynan kutubxona nomi uchun bejiz tanlanmagan. Sababi, bu binoning ichiga kirishingiz bilan zalning o‘rtasida kitoblardan tog‘ni yodga soluvchi shakl yaratilganining guvohi bo‘lasiz. Kutubxonadagi kitoblar bir necha bo‘limlarga ajratilgan bo‘lib, bu qidirgan kitobingizni tezda topish imkonini beradi. Yana shunisi ahamiyatliki, kutubxona binosi yorug‘lik to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuvchi yerda barpo etilgan. Shu sabab kunduz kunlari kutubxona uchun hech qanday chiroqning keragi yo‘q.

Birmingemdagi yangi kutubxona Buyuk Britaniyaning eng katta kutubxonasi, Yevropaning esa eng katta ma’naviy markazlaridan biri sanaladi. Ushbu kutubxona dizayni gollandiyalik arxitektorlar tomonidan yaratilgan. Binoning old tarafdan ko‘rinishi noodatiy: oddiygina halqalar yordamida chiroyli ko‘rinishga ega naqshlar yaratilgan va bu naqshlar binoga o‘zgacha chiroy baxsh etgan. Kutubxona bir necha qavatdan iborat bo‘lib, bu yerda britaniyalik yozuvchilar kitoblari hamda jahon adabiyoti durdonalari bilan tanishish mumkin.

Sejon milliy kutubxonasi Koreyada joylashgan. Kutubxona joylashgan maydon 21000 kv. metrni tashkil qiladi. Bu bino 2013-yilda qurib bitkazilgan. Bir necha qavatdan iborat bu binoning birinchi va ikkinchi qavatlari dam olish hamda kitob o‘qish uchun mo‘ljallangan. Uchinchi qavatda turli konferensiya va seminarlar o‘tkazish rejalashtirilgan. To‘rtinchi qavatda restoran joylashgan. Bu qavat orqali tomga chiqish imkoni mavjud bo‘lib, bu yerda kichik bir bog‘ barpo etilgan.

Vennesl kutubxonasi Norvegiyaning madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Bu kutubxonani so‘zsiz eng zamonaviylaridan biri deya atash mumkin. Sababi bu yerda kutubxona bilan birgalikda kafe, bir qancha konferensiyalar zali va o‘quv markazi ham faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, bu yerda Norvegiyaning eng katta arxivi mavjud. Kutubxona doimo o‘z kitobxonlari uchun ochiq.

Nyu-Dehlidagi Amerika kutubxonasi Amerika Qo‘shma Shtatlari elchixonasi nazorati ostidagi kutubxona bo‘lib, Nyu-Dehli savdo markazida Amerika markazi ichida joylashgan. Kutubxonada Amerika jamiyati, Amerika siyosati, Amerika madaniyati va Amerika konstitutsiyasiga oid kitoblar mavjud bo‘lib, u keng jamoatchilik, talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar uchun xizmat qiladi. Yangi Dehlida joylashgan Kutubxona va kitoblar idorasi, hozirda Axborot resurslari idorasi Amerika kutubxonasi va kitob idorasi nazorati ostida bo‘lib, u umumiy kutubxona dasturi bo‘yicha rahbarlik qiladi. Kutubxona materiallarini tanlash bo‘yicha siyosat yo‘nalishini ta’minlamoqda. Barcha bosma nashrlar va bosma kutubxona materiallarini markazlashtirilgan xarid qilish va texnik qayta ishlashni ta’minlash, shu jumladan yangi materiallarni javonga tayyor holatda buyurtma qilish, qabul qilish, qayta ishlash va tarqatish; Butun Hindiston kutubxona fondlarining kompyuterlashtirilgan ittifoq katalogini yuritish va boshqalar.

Frankfurt-Mayndagi Germaniya Milliy kutubxonasi. 1947-yildan 1990-yilgacha u 1912-yilda tashkil etilgan Leyptsigdagi Deutsche Bücherei uchun G‘arbiy Germaniya hamkasbi bo‘lib, nemis hujjatlarini to‘plash va milliy bibliografiyani nashr etish vazifasini bajargan. 1990-yilda Germaniya qayta birlashtirilgandan so‘ng, Germaniya kutubxonasi va nemis kutubxonasi birlashtirilib, „Nemis kutubxonasi“ deb nomlangan qo‘shma muassasa tashkil etildi. 2006-yildan buyon uning nomi „Germaniya Milliy kutubxonasi“; Frankfurt ularning ikkitasi joylashgan joyidan biridir. Biroq, u hali ham Nemis kutubxonasi deb ataladi. 2006-yilda Germaniya Milliy kutubxonasidagi 22,2 million nusxadan 8,3 millionga yaqini Frankfurt-Maynda saqlangan. 2011-yil oxirida Frankfurtda jami 27 millionga yaqin ommaviy axborot vositalarining 10 million nusxasi arxivlangan.

Parij milliy kutubxonasi — jahondagi eng qadimiy va yirik kutubxonalardan biridir. Parij shahrida joylashgan. 1480-yilda Qirollik kutubxonasi sifatida asos solingan. 1795-yilda Konvent tomonidan milliy kutubxona deb e’lon qilingan. Parij milliy kutubxonasik.da 12 bo‘lim va 5 milliy markaz faoliyat ko‘rsatadi. Fondida ko‘p qismi noyob va nodir nashrlar bo‘lgan 300 mingdan ziyod qo‘lyozmalar saqlanadi, 6 mln. gravyura va estamplar, 500 ming nomdan ortiq davriy nashrlar, 800 ming kartinalar, 450 ming medal va tangalar va boshqa bor. Fransiya tarixi bilan bog‘liq ko‘p sonli adabiyotlar va hujjatlar, taniqli fransuz siyosiy arboblari, olim va yozuvchilari dastxatlarining nodir to‘plami, XIX asr fransuz ensiklopedistlarining boy to‘plamlari mashhur.

Jahonda axborot texnologiyalarining yuqori darajada rivojlanib borayotganligi, axborot-kutubxona muassasalarida ham yangicha qiyofa kasb etmoqda. Bugungi kunda axborot-kutubxona deganda nafaqat bosma nashrdagi mavjud kitoblar, qo‘llanmalar saqlanadigan joy, balki avtomatlashtirilgan ish o‘rinlariga ega muassasalar ham ko‘z o‘ngimizga keladi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan barcha axborot-kutubxona muassasalarining axborot resurslariga internet orqali lokal va global kirish, axborot bibliografik xizmat ko‘rsatish, elektron resurslardan masofaviy foydalanish va yetkazib berish, ma’lumot-axborot xizmat ko‘rsatish faoliyatlari yo‘lga qo‘yilishi natijasida bir qancha afzalliklar, aholiga xizmat ko‘rsatish, ma’lumotlarni tez almashish imkoni yuzaga kelmoqda.

O‘zbekistonda jamoat axborot ta’lim tarmog‘i ZiyoNET 2005-yil sentabr oyida tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda bu tarmoqdan keng foydalanish imkoniyati mavjud. Bu tarmoq dastlab maktab o‘quvchilari va murabbiylar uchun mo‘ljallangan edi. Maktab kutubxonalarida ZiyoNET bilan ishlash qulay bo‘lsada lekin ayrim maktablarda bu tarmoqdan foydalanmaydilar.

Jahon tajribalarini kuzatgan holda, yoshlar orasida kitobxonlikni yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasida bir qator ishlar olib borilayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. 2017-yil 14-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Prezident qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil mart oyidan boshlab besh tashabbusning ilgari surilishi ham kitobxon yoshlarni safini kengaytirish va aholiga kitobxonlikni targ‘ib qilish uchun yangi

imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu orqali bugungi kunda kitobxonlik tanlovlari muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. Zukko kitobxon tanlovida qatnashmoqchi bo‘lgan yoshlar safi tobora ortib bormoqda.

Odatda, kitobxonlikni targ‘ib etishda tanlovlar va targ‘ibot ishlaridan foydalanamiz. Bunda an’anaviylikni saqlagan holda yangi usullardan ham foydalanishimiz nazarda tutiladi. Aholi orasida kitobxonlikni targ‘ib etishda quyidagilardan samarali foydalanishimiz mumkin:

– reklamalar;
– iqtiboslar.

Reklamalar mahsulotni keng targ‘ib qilishning samarali vositalaridan biri bo‘lib, lotincha “qichqirmoq” ma’nosini anglatadi. Reklama orqali mahsulot haqida aholi tez ma’lumot olishi mumkin. Reklamaning asosiy vazifasi insonlarni mahsulotini sotib olishga ishontirishdir. Agar mahsulot tinmay reklama qilinsa uni xarid qilish haqida fikr shaxs ongiga singib boradi. Avtobus kutish bekatlarida ko‘pincha salqin ichimliklar reklamalariga ko‘zimiz tushadi. Shu reklamalar o‘rniga badiiy asarlardan suratlar, qiziq holatlar aks etgan kichik tasvirlar berish kerak. Bunga sevib o‘qiladigan asarlardan biri Tohir Malikning “Shaytanat” asarini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Iqtibos bu arabcha “Qisqartirish”, “Toraytirish” kabi ma’nolarni anglatib, bu biror muallif tomonidan aytilgan fikrdan yoki shu fikr aytilgan bayondan, biror asardan so‘zma-so‘z olingan parchadir. Avtobus bekatlarida iqtiboslar qo‘yish kerak. Chunki avtobus kutayotganda aholi keltirilgan iqtiboslarga ko‘zi tushadi. O‘zbek adiblarining asarlarida hayotni anglatuvchi iqtiboslar anchaginani tashkil etadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari yozilishidagi “Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlikdir” so‘zini ko‘zi bilan ko‘rgan shaxsda bu gapda nima yashiringanligiga qiziqish uyg‘onishi mumkin. Agar har bir bekatda adabiyotimizning yorqin siymolarining eng sara iqtiboslari qo‘yib chiqilsa va iqtibos keltirilgan so‘z qaysi kitobdan keltirilganligi, shu kitobni topish mumkin bo‘lgan yaqin kutubxona manzili tasvir etilsa bu, albatta, kitobxonlik targ‘ibotida samara beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, biz misol keltirgan rivojlangan mamlakatlar kutubxonalarning tajribasi asosida milliy mentalitetimizga mos holda kutubxona ishimizni tashkil etishimiz kerak. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat milliy kutubxonasi — O‘zbekistondagi eng yirik kutubxona bo‘lib, Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyasiga a’zo hisoblanadi. U kutubxonashunoslik va bibliografiya bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining ilmiy-uslubiy markazi sifatida u kutubxonalarda qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni belgilab beradi. Lekin imkon qadar bu bilan cheklanmasdan har bir kutubxona o‘z uslubida samarali rejalar tuzishi, oldindan qilinishi kerak bo‘lgan rejalarni prognoz qilishi va hududidagi aholining ma’naviyatiga qarab ish olib borishi lozim. Gar hududingizda aholi kutubxonaga geografik jihatdan kelishda muammolar paydo bo‘lsa, mahalla va kutubxona hamkorligida avtobus kutubxonalarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki har bir qilinayotgan harakatlar yangi O‘zbekistonda –ma’rifatli jamiyatni, madaniyat va san’atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlash, bundan tashqari respublikamizdagi axborot-kutubxona tizimini yanada takomillashtirish, sohani ilmiy tadqiq qilish, xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishdan iboratdir. Binobarin, dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000-yil.
2. Kristian Rau: "Bo‘lingan mamlakatdagi milliy kutubxona". Nemis kutubxonasi 1945-1990 . Wallstein Verlag, Goettingen 2018.
3. „The American Library“. US Embassy New Delhi. 2011-yil 28-iyunda asl nusxadan arxivlangan.
4. Teshaboyeva Umida. Rivojlangan kutubxonalar mamlakat taraqqiyotining belgisidir /U. Teshaboyeva// Infolib. 2021. №3. 7-b.
5. Qilichboyev Obodboy. Kitobxonlik rivoji yo'lidagi an'anaviy xalqaro konferensiya./ Obidov Q. // Kutubxona. UZ. 2021№ 2. 3-b.
6. Hilola Umarova. Kutubxonada ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. – Toshkent, 2022-yil. 3-b.
7. www.wikipedie.uz
8. www.academy.uz

Marjonabonu UMIRJONOVA,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti magistranti
umirjonovamarjon@gmail.com.

TA'LIM KLASTERLARINING SHAKLLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: mahalliy va xorijiy nashrlarni o'rganish asosida maqolada "ta'lim klasteri" tushunchasi talqinlarining qiyosiy tahlili berilgan va ta'lim klasterlarini shakllantirish modellarining afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan. Ta'lim klasterlarining asosiy farqlovchi xususiyatlari shakllantirilib, ularning predmet tarkibiga aniqlik kiritladi. Subyektlar o'rtasidagi klaster o'zaro ta'sirining yo'nalishlarini hisobga olgan holda tarmoq tipidagi ta'lim klasterining batafsil modeli ishlab chiqilmoqda.

Kalit so'zlar: *ta'lim klasteri, klaster modellari, ta'lim tizimi, innovatsiyalar, integratsiya, hamkorlik, klasterlarning o'zaro ta'siri.*

Аннотация: на основе изучения отечественных и зарубежных публикаций в статье проводится сравнительный анализ трактовок понятия «образовательный кластер» и выявляются преимущества и недостатки моделей формирования образовательных кластеров. Сформированы основные отличительные черты образовательных кластеров и уточнено их предметное содержание. Разрабатывается детальная модель образовательного кластера сетевого типа с учетом направлений кластерного взаимодействия между субъектами.

Ключевые слова: *образовательный кластер, кластерные модели, образовательная система, инновации, интеграция, кооперация, взаимодействие кластеров.*

Annotation: based on the study of local and foreign publications, the article provides a comparative analysis of the interpretations of the concept of "educational cluster" and identifies the advantages and disadvantages of models of formation of educational clusters. The main distinguishing features of educational clusters were formed and their subject content was clarified. A detailed model of a network-type educational cluster is being developed, taking into account the directions of cluster interaction between entities.

Key words: *educational cluster, cluster models, educational system, innovation, integration, cooperation, interaction of clusters.*

Hozirgi vaqtda klasterli yondashuv hududlarning raqobatbardoshligini oshirish va mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha bir qator muammolarni hal etish vositasi sifatida davlat boshqaruvi amaliyotiga faol joriy etilmoqda . Xalqaro tajribaga ko'ra, klasterlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni jadallashtirish, qo'shimcha investitsiyalar oqimini ta'minlash, korxonalarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, hududning eksport salohiyatini oshirishga qodir. Samarali klaster tuzilmalari jiddiy ijtimoiy komponentga ega bo'lgan muammolarni hal qilishi mumkin. Masalan, bugungi kunda ta'lim xizmatlari sifatining pasayishi ayniqsa keskin sezilmoqda, oliy va o'rta maxsus ma'lumotli aholining, ayniqsa, qishloq aholisining ulushi kamaymoqda, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab tarkibida nomutanosiblik kuchaymoqda, O'zbekistonning ko'plab hududlarida maktabgacha ta'lim chuqur inqirozni boshdan kechirmoqda. Shu munosabat bilan shakllantirish muammosi hududiy ta'lim klasterlarini tashkil etish, ularning faoliyati hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ushbu muammolarni jadal hal etishga qaratilgan. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda klasterlarning quyidagi asosiy talqinlari keng e'tirofga sazovor bo'ldi. M.Porterning fikricha, klaster – bu o'zaro bog'langan kompaniyalar, bog'lovchi qismlar, materiallar va xizmatlar yetkazib beruvchilar, shuningdek, ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar (masalan, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, savdo birlashmalari)ning geografik jihatdan jamlangan guruhidir, lekin ayni paytda qo'shma ishlarni olib borish. S.Rozenfeld klasterni ma'lum bir hududda yetarli darajada keng miqyosda mavjud bo'lmaganiga qaramay, yaqin geografik joylashuvi va o'zaro bog'liqligi tufayli yetarli samaraga erisha oladigan firmalarning konsentratsiyasi tushunchasi orqali belgilaydi. V.Elsner yondashuviga ko'ra, klaster – bu bozor bilan vertikal va gorizontal ravishda funksional bog'langan firmalar guruhidir. Berilgan ta'riflar klasterlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi: geografik lokalizatsiya, sanoatning ixtisoslashuvi, kombinatsiyasi. raqobat va hamkorlik institutlari klasterdagi firmalar kabi. Tarbiyaviy talqin haqida klasterda quyidagicha ma'lumotlar ham keltirilishi mumkin, modellar va unga yondashuvlar iqtisod fanida yetarlicha ma'lumotlar asosida aniq tushuntirilib berilgan. Jadvalda 1 ta tizimlashtirilgan ta'riflar "ta'lim klasteri" tushunchasini joriy etish, xorijiy va mahalliy mavjud adabiyot.

Birinchi tablitsada aniq obyektlarni talqin qilish o'rtasidagi umumiy farqlar ta'lim klasteri xorijiy va mahalliy nashrlarning tajribasiga tayangan holatda G'arb vakillari, ta'lim klasteri ixtisoslashgan tuzilmalariga binoan turli ta'limni birlashtirgan

sayohat muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilgan holatda korporativ tashkilotlar biznesni yaxshilash maqsadida ta'lim dasturlari, yangilarini yaratish mahsulotlar va texnologiyalar borasida ma'lumotlar keltirilgan. Xorijiy davlatlarning ta'lim klasterlari mamlakatning taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan xalqaro ta'lim bozorida xizmatlar, raqobatbardoshlikni oshirishda ta'lim muassasalarining mahalliy ta'lim nashrlarining o'rni alohida o'rin tutadi. Bu klaster tuzilmalar samaradorlikni oshirishga qaratilgan ta'lim faoliyati hamda ta'lim sohasida ilmiy tadqiqot jarayoni bilan birgalikda ijtimoiy va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishini ham ko'zda tutadi. Yondashuvlardagi farq shakllanish modellarida aks etadi va ta'lim klasterlarining dolzarbligini yanada oshiradi. Shunisi e'tiborga loyiqki, chet el asarlarida tasvir ta'lim modelining vizualizatsiyasi haqiqiy klaster amalda qay tariqa ishlashi va uning ta'lim sohasida qo'llanilayotganligi va erishilayotgan natijalarda ham ko'rish mumkin. Ta'lim va innovatsion klaster shaklda ko'rsatilgan bir nechta amaliy metodlar ham mavjud. Ta'lim va innovatsion modeli tarkibiga kiritilgan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

Innovatsion klaster:

• innovatsion maktablar va boshqalar ta'lim muassasalari, ularda shundan tegishli ishlab chiqarish uchun infratuzilma yangi bilimlar, g'oyalar, mahsulotlar;

• tadqiqot markazlari, fondni yuritish tajribasiga ega aqliy va amaliy tadqiqotlar;

• tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari, imiy faoliyati bo'lgan kompaniyalar yaratishga yordam berishni maqsad qilgan innovatsion kompaniyalar, tashkil etish bo'yicha;

• bilim almashish platformalari bilim almashish amaliyotini shakllantirish, klaster ishtirokchilari faoliyatining baholanishi;

Ta'lim klasterida keltirilgan samaradorlikni doimiy monitoring qilish va baholash, turli moliya institutlari (davlat, xususiy moliyalashtirish va h.k.) tomonidan klaster loyihalarini amalga oshirishda moddiy qo'llab-quvvatlash va manfaatdorlik ko'rsatkichlarini belgilab beradi, ya'ni klasterning samarali faoliyatining eng muhim elementlaridan biridir. O'zbekistonnig ilmiy nashrlarida sanoat va innovatsion klasterlarni shakllantirish muammolariga katta e'tibor beriladi. Ta'lim klasterlariga, qoida tariqasida, subklasterlar kiritilgan. Klaster ishtirokchilari hududiy ta'lim muassasalari hamda biznes tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borishadi. Bu holatda ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi – ta'lim tizimini kadrlar, moddiy-texnik va texnologik ta'minlash. Klasterning institutsional tuzilmasi ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat va mintaqaviy siyosat, shuningdek, zamonaviy ta'lim standartlaridan iborat. Ta'lim klasterlarining subyekt tarkibi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalari, innovatsiyalarni jamoaviy asosda joriy etishdan manfaatdor ish beruvchi korxonalar va biznes tuzilmalari, davlat organlari, turli resurslar va xizmatlar (moliyaviy, marketing, konsalting va boshqalar) yetkazib beruvchilaridan iborat bo'lishi kerak. Shu bilan birga, klasterning o'zagini ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, ma'lum bir sohada qo'shma klaster loyihalarini amalga oshirishdan manfaatdor innovatsion korxonalar tashkil etishi kerak. Ishlab chiqilgan model klaster ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmini ko'rsatadi, uning asosini ta'lim muassasalari, innovatsion firma va tashkilotlar, ish beruvchilar, nazorat qiluvchi organlar, tegishli mahsulotlarni yetkazib beruvchilarning ko'p funksiyali tarmog'i tashkil etadi. Shunday qilib, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, korxonalar, xalq ta'limi boshqaruvi organlari, moliyaviy, konsalting va boshqa tuzilmalar o'rtasida integratsiyani kuchaytirish orqali viloyatlarda ta'lim innovatsion tizimida bir qancha sezilarli darajada rivojlanish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Ta'lim klasterining asosiy ta'riflari: xorijiy va mahalliy yondashuvlar

Mualliflar,	Ta'lim klasterining talqini
R.Timan	Ta'lim klasteri – o'zaro bog'langan universitetlar, ixtisoslashtirilgan maktablar va tadqiqot tashkilotlari tizimi bo'lib, klaster ishtirokchilariga ta'lim xizmatlarini jahon bozorida ilgari surish maqsadida o'z faoliyati va resurslarini birlashtirish imkonini beradi.
R.Qulata	Ta'lim va innovatsion klaster - bu innovatsiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish, ularni mahalliy va jahon bozorlarida ilgari surishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan ta'lim, tadqiqot va biznes tuzilmalari guruhlaridan tashkil topgan bo'ladi.

N.A.Korchagina	Ta'lim klasteri - bu bir hududda mahalliylashtirilgan, yakuniy mahsulot sifatida ta'lim xizmatini tashkil etuvchi, bir-biri bilan raqobatlashuvchi va o'zaro aloqada bo'lgan hamda etkazib beruvchilar atrofida zarur ishlab chiqarish omillari, asbob-uskunalar, ixtisoslashtirilgan xizmatlar, infratuzilma, ilmiy-tadqiqot muassasalariga ega bo'lgan ta'lim muassasalari guruhidir ya'ni bir-birining raqobatdosh ustunliklarini oshirishdan iborat.
M.B.Juravleva	Ta'lim klasteri - bu sanoat bo'yicha birlashtirilgan va sanoat korxonalari bilan hamkorlikda bog'langan o'zaro kasb-hunar ta'limi muassasalari majmuidir.
A.G.Furin I.I.Axmatov	Ta'lim klasteri - bu ma'lum bir hududda (shahar, tuman) ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi va bir-birini to'ldiruvchi turli tashkiliy-huquqiy shakldagi (ta'lim muassasalari, davlat organlari, biznes, infratuzilma kompaniyalari) geografik jihatdan bir-biriga bog'langan ta'lim muassasalari va kompaniyalari tizimi. shu bilan birga jamiyatda ma'lum iqtisodiy va ijtimoiy samarani yaratish uchun shaxsning qiyofasi va "ma'lumotlilik" darajasini aniqlash.
N.I.Vaxrusheva	Ta'lim klasteri - sanoat korxonalari bilan hamkorlikda birlashtirilgan, o'zaro bog'langan oliy, o'rta va boshlang'ich kasb-hunar ta'limi muassasalari yig'indisidir. Ta'lim klasterining o'ziga xos xususiyatlari - turli darajadagi kasbiy ta'limga ega bo'lgan mutaxassislarni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi; yuqori malakali kasblar nufuzini oshirishni maqsad qilib qo'ygan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy makonini modernizatsiya qilishda klaster yondashuvidan foydalanish / ed. A.I. Tatarkina. Ekaterinburg: Iqtisodiyot instituti, Rossiya Fanlar akademiyasining Ural filiali, 2013. 559 p.
2. Petrov A.P. Mintaqaviy klaster tashabbuslarini shakllantirish naqshlari // Mintaqa iqtisodiyoti.
2013. No 1. 133–142-betlar.
3. Skuba R.V. Davlat va mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda klasterli yondashuv // Ko'p bosqichli ijtimoiy takror ishlab chiqarish: nazariya va amaliyot masalalari. 2013 yil. 5-son (21). 269–273-betlar.
4. Porter M. Joylashuv, raqobat va iqtisodiy rivojlanish: global iqtisodiyotda mahalliy klasterlar // Iqtisodiy rivojlanish choraklik. 14(1). 2000 yil fevral. 15–34-betlar.
5. Aleynikova I.S., Vorobyev P.V., Isakidis V.A., Kadochnikov S.M., Kojin D.E., Korobeinikova A.V., Lopatina T.A., Mixno M. .IN. Mintaqaviy sanoat klasterlarini tashkil etish modellari: xalqaro ko'rib chiqish. tajriba. Ekaterinburg: Ural mintaqaviy iqtisodiy tadqiqotlar markazi. davlat un-ta. jild. 2. 2008. 31-b.
6. Melnikov A.E. Ijtimoiy yo'naltirilgan klaster mintaqaning barqaror rivojlanishi omili sifatida: mavhum. ... diss. Ph.D. ekon. Sci. Perm: Perm. davlat milliy tadqiqot univ., 2011. 26 b.7. Porter M. Musobaqa. M.: Uilyams nashriyoti, 2005. 608-b.
8. Rosenfeld SA biznes klasterlarini iqtisodiy rivojlanishning asosiy oqimiga olib
kirish // Yevropa rejalashtirish tadqiqotlari. 1997. № 5(1). 3–23-betlar.
9. Elsner V. Sanoat siyosati kun tartibi 2000 va undan keyingi yillar // Tajriba, nazariya va siyosat. 2000. jild. 72. 411–486-betlar.
10. Tieman R. Ta'lim klasterlari: Universitetlar olib tashlash uchun islohotlardan foydalanadilar.

Taxmina QUZIYEVA,
Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi
E-mail: takhmina.student@mail.ru

GRAFIK QISQARTMALAR XUSUSIDA (O‘LCHOV SO‘ZLAR MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada grafik qisqartmalarga xos xususiyatlar izohlangan. Xalqaro birliklar sistemasida tasdiqlangan o‘lchov qisqartmalarining grafik shakli va ularning imlosi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Lotincha, inglizcha va ruscha grafik qisqartmalar o‘zaro taqqoslangan. Grafik qisqartmalar kundalik hayotda keng qo‘llanilishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *grafik belgi, o‘lchov birliklari, km, sm, mm, kv.m, Xalqaro birliklar sistemasi, talaffuz, yozma shakl, asosiy o‘lchov kattaligi*

Аннотация: в этой статье объясняются особенности графических сокращений. В международной системе единиц даны сведения о графической форме утвержденных сокращений размеров и их написании. Латинские, английские и русские графические сокращения сравнивались между собой. Подчеркивается широкое использование графических аббревиатур в быту.

Ключевые слова: *графическое обозначение, единицы измерения, км, см, мм, кв.м, Международная система единиц, произношение, письменная форма, основной размер шкалы*

Annotation: this article explains features specific to graphic abbreviations. The international system of units provides information on the graphic form of approved measurement abbreviations and their spelling. The Latin, English, and Russian graphic abbreviations have been compared. It is emphasized that graphic abbreviations are widely used in everyday life.

Keywords: *graphic symbol, units of measurement, km, sm, mm, kv.m, International system of units, pronunciation, written form, basic measurement size*

Kirish. Grafik qisqartmalar abbreviaturalarning alohida turi hisoblanadi. Ular, asosan, yozma nutqda uchraydigan qisqartmalar bo‘lib, miqdor jihatdan ancha ko‘p. Grafik qisqartmalarni ishlatishdan asosiy maqsad vaqtni tejash, tez-tez ishlatiladigan so‘zlarni yozib olishni soddalashtirishdir[4].

Bunday qisqartmalar o‘lchovlar, birliklar, miqdorlar, unvon, lavozim va boshqalarni bildirish uchun ishlatiladi. Grafik qisqartmalarda tushirilgan harf yoki bo‘g‘inlar grafik belgilar orqali ifodalanadi. Nuqta (.) – so‘zning oxirgi qismi, defis (-) – so‘zning o‘rta qismi, slash (/) – so‘z birikmalarining so‘nggi qismi tushirib qoldirilganda ishlatiladi.

So‘zlar qoida tariqasida, undoshdan keyin qisqartiriladi. Ammo ba’zan birinchi harf unlisidan keyin qisqartirilgan birliklar ham uchrab turadi. Qisqartirilayotgan so‘z asosida qo‘sh undosh ishtirok etgan bo‘lsa, nuqtadan oldin ikkala undosh ham grafik qisqartmada ishlatiladi. Masalan: ass. (assistent)[2], doll (dollar), ill. (illustratsiya). Agarda so‘z tarkibida qo‘sh undosh mavjud bo‘lsa-yu, ularning biri asos, ikkinchisi qo‘shimcha tarkibida kelgan bo‘lsa, qisqartmada faqat bir undosh yoziladi va nuqta qo‘yiladi. Grafik qisqartma faqatgina qo‘sh undoshlardangina iborat bo‘lsa, qisqartma so‘nggida bitta nuqta qo‘yiladi. Masalan: гг.- (годы). Grafik qisqartmalarda chiziqchalar ham qo‘llanilishi mumkin. Qisqartma so‘zning tushib qoldirilgan o‘rta qismi chiziqcha bilan ko‘rsatiladi. Masalan: b-n (bilan). Qo‘shma so‘zlar qisqartirilganda har bir so‘zning bosh harfidan keyin nuqta, ikkala so‘z orasiga esa chiziqcha qo‘yiladi. Masalan: ж.-д. (железнодорожный).

Asosiy qism. Qisqartmalarning ingliz tilidagi ahamiyati internet muhitida kengroq namoyon bo‘ladi [3]. Biroq, grafik qisqartmalarning paydo bo‘lishi internet rivojlanishidan ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. Ingliz tilidagi eng qadimgi grafik qisqartmalar guruhi lotin tiliga oiddir Ingliz tilida lotin tilidan o‘tgan quyidagi grafik qisqartmalar keng qo‘llaniladi:

a.m. – ante meridiem – in the morning – ertalab

p.m. – post meridiem- in the afternoon- tushlikdan so‘ng

e.g. – exempli gratia – for example- masalan

Rus tilida esa grafik qisqartmalar nisbatan kamroq qo‘llaniladi[1].Lotincha ba’zi grafik qisqartmalar bir xil shaklda yozilsa-da, ba’zan turli o‘rinlarda turli ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, p.m – post meridiem yoki post mortem kabi tushunchalarni anglatadi. Ular aynan qanday ma’noda qo‘llanilganligi kontekstda oydinlashadi.

Grafik qisqartmalarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) ular yozma shaklda qo‘llaniladi.

2) grafik qisqartmalar oddiy yoki murakkab shaklda bo‘lishi mumkin.

3) ko‘pincha bunday qisqartmalar boshqa

tillardan (lotin, ingliz, fransuz va boshq.) o‘zlashtiriladi.

4) Og‘zaki nutqda grafik qisqartma to‘liq so‘z shaklida talaffuz qilinadi.

Ingliz tilida grafik qisqartmalar bir necha guruhlarga bo‘linadi:

a) hafta kunlari – Mon- Monday.

b) oy nomlari- Apr – April,

c) Buyuk Britaniyadagi okruglar nomlari - Yorks - Yorkshire

d) AQSH dagi qo‘shma shtatlar nomlari – Alas- Alaska

e) murojaat so‘zlari: Mr., Mrs., Dr

f) harbiy unvonlar: sgt – sergeant, capt. - captain

g) ilmiy daraja: D.M. – Doctor of Medicine

h) o‘lchov so‘zlar (vaqt, uzunlik, vazn birliklari): ft- foot/feet, sec-second, mg- milligram

Endi esa grafik qisqartmalarning o‘lchov so‘zlar guruhini tahlil qilsak. O‘lchov birliklari doimiy tarzda Xalqaro birliklar sistemasida tasdiqlangan qisqartma shaklida qo‘llaniladi: mm (millimetr), sm (santimetr), m (metr), km (kilometr), t (tonna). Ammo kv.sm (kvadrat santimetr), kv.m (kvadrat metr) kabi qisqartmalarni yozishda nuqta ishlatiladi.

Asosiy o‘lchov kattaligi va birliklarining grafik qisqartmali ko‘rinishlari :

L (length) – uzunlik, birligining grafik qisqartmasi m (metr)

M (mass) – massa, birligining grafik qisqartmasi kg (kilogramm)

T (time) – vaqt, birligining grafik qisqartmasi s (soniya)

T (temperature) – terdonimik harorat, birligi K (Kelvin)

I (electric current), – tok kuchi, birligining grafik qisqartmasi A (amper)

N (quantity) – modda miqdori, birligining grafik qisqartmasi mol

J (brightness) – yorug‘lik kuchi, birligining grafik qisqartmasi kd/cd (kandela/candela)

Grafik qisqartmalar faqat yozma shaklda ishlatiladi. Og‘zaki nutqda esa to‘liq talaffuz qilinadi.

O‘lchov birliklarining qisqartirilgan nomlari nuqtasiz yoziladi: kg – (kilogramm), t (tonna), gr (gramm). Qisqartma birlik mln va mlrd shaklida ham ifodalanishi mumkin. Ko‘plikni ko‘rsatish uchun qisqartmaga qo‘shimcha qo‘shishning hojati yo‘q. Bu holat ba’zan reklamalarda uchrab turadi, lekin bu shart emas.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, grafik qisqartmalar kundalik hayotda eng ko‘p ishlatiladi. Oshxona misolida kuzatsak, hatto retseptlar ham pazandalikka oid o‘lchov qisqartmalariga boy ekanligini sezishimiz mumkin. Ushbu abbreviaturalarning ma’nosini to‘g‘ri anglay olish taomning rejadagidek tayyorlanishiga yordam beradi. Ba’zi retseptlarda o‘lchov qisqartmalarining ma’nosi keltirib o‘tiladi, biroq oshxona kitoblarida, asosan, grafik qisqartmalar aks etadi. Grafik qisqartmalarni farqlay olmaslik, chalkashliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, choy qoshiq (t) va osh qoshiq (T) so‘zlarining qisqartmalari bir-birga o‘xshash. Ularning farqsiz qo‘llanilishi, birining o‘rnida ikkinchisi tushunilishi ba’zi xatoliklarga sabab bo‘ladi Bu esa abbreviaturalar mavzusi qanchalik ahamiyatli va hayotiy vaziyatlarda kerakli ekanligini isbotlaydi. Jamiyatdagi barcha aholi qatlamlari (xoh uy bekasi, xoh biror kasb egasi) vakillariga qisqartmalar to‘g‘risida aniq va kerakli ko‘rsatmalarni berish tilshunos mutaxassislar zimmasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексеев Д. И. Сокращенные слова в русском языке / Д.И. Алексеев. – Саратов: СГУ, 1979. – 328 с.

2 . Курило Н.А. Сокращения в современном английском языке: функциональный аспект: Автореферат. – Минск, 2005. – С.8.

3. Quziyeva T. O‘zbek tiliga o‘zlashgan ingliz abbreviaturalari tahlili. //International Conference on Teaching, Education, and new learning technologies. — Toshkent, 2023/2. B- 136-140.

4. Quziyeva T. Ingliz va rus tillariga oid abbreviaturalar xususida.// Scholar nomli xalqaro ilmiy jurnal. 2023/1, B-142-151.
https://doi.org/10.5281/zenodo.7581756

5. https://www.oed.com/dictionary/graphic-abbreviation_n?tab=etymology

Dilbar BOYLIYEVA,
Student, Chirchik State Pedagogical University
dilbarxonboyliyeva@gmail.com

UNVEILING THE EFFICACY OF FLASHCARDS IN PRIMARY EDUCATION

Annotation: this article explores the effectiveness of flashcards in primary education, focusing on their benefits, best practices, and potential pitfalls. Flashcards offer visual stimulation, active engagement, and repetition, fostering deeper comprehension and retention of foundational concepts among young learners. Best practices include clear content, interactive activities, regular review sessions, feedback mechanisms, and curriculum integration. However, educators must be cautious of overreliance, monotony, and lack of differentiation when using flashcards. By adhering to best practices and avoiding pitfalls, flashcards can serve as valuable tools for enhancing learning outcomes and promoting student success in primary classes.

Keywords: flashcards, primary education, effectiveness, active engagement, repetition, retention, interactive activities, inclusive learning

Аннотация: в этой статье исследуется эффективность карточек в начальном образовании, уделяя особое внимание их преимуществам, передовому опыту и потенциальным ошибкам. Карточки предлагают визуальную стимуляцию, активное участие и повторение, способствуя более глубокому пониманию и запоминанию основополагающих понятий среди юных учащихся. Лучшие практики включают четкое содержание, интерактивные мероприятия, регулярные обзорные сессии, механизмы обратной связи и интеграцию учебных программ. Однако преподаватели должны быть осторожны с чрезмерной уверенностью, монотонностью и отсутствием дифференциации при использовании карточек. Придерживаясь передового опыта и избегая ошибок, карточки могут служить ценным инструментом для улучшения результатов обучения и содействия успеху учащихся в начальных классах.

Ключевые слова: карточки, начальное образование, эффективность, активное участие, повторение, запоминание, интерактивная деятельность, инклюзивное обучение.

Annotatsiya:ushbu maqola boshlang'ich ta'limda fleshkartalarning samaradorligini o'rganib, ularning afzalliklari, ilg'or tajribalari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga e'tibor qaratadi. Kartochkalar vizual rag'batlantirish, faol ishtirok etish va takrorlashni taklif qiladi, bu yosh o'quvchilarda asosiy tushunchalarni chuqurroq tushunish va saqlashga yordam beradi. Eng yaxshi amaliyotlar orasida aniq mazmun, interaktiv tadbirlar, muntazam ko'rib chiqish sessiyalari, fikr-mulohazalar mexanizmlari va o'quv dasturlari integratsiyasi kiradi. Biroq, o'qituvchilar fleshkartalardan foydalanishda haddan tashqari ishonchlilik, monotonlik va farqlashning yo'qligidan ehtiyot bo'lishlari kerak. Eng yaxshi tajribaga rioya qilish va xatolardan qochish orqali fleshkartalar o'quv natijalarini yaxshilash va boshlang'ich sinflarda o'quvchilar muvaffaqiyatini rag'batlantirish uchun qimmatli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *kartochkalar, boshlang‘ich ta’lim, samaradorlik, faol ishtirok, takrorlash, eslab qolish, interaktiv faoliyat, inklyuziv ta’lim*

INTRODUCTION

Flashcards have long been a staple tool in educational settings, lauded for their simplicity and effectiveness in aiding learning. In primary education, where foundational concepts are introduced and mastered, the use of flashcards holds significant promise. This article delves into the efficacy of flashcards in primary classes, exploring their benefits, best practices, and potential pitfalls.

LITERARY ANALYSIS AND METHODOLOGY

First of all, flashcards provide visual cues that enhance memory retention, especially for young learners who are still developing cognitive skills. Colorful images and concise text captivate attention and facilitate understanding.

Secondly, engaging with flashcards encourages active participation, prompting students to interact with the material rather than passively receive information. This hands-on approach fosters deeper comprehension and recall.

The third benefit of flashcards is considered repetition and reinforcement. The repetitive nature of flashcard drills reinforces learning through spaced repetition, a proven technique for long-term retention. By repeatedly exposing students to key concepts, flashcards help solidify knowledge.

Lack of vocabulary is found to be the main cause of learner’s inability in communication activities and learning English, and one effective way to help learners in communication is to increase their vocabulary knowledge

(Celce & Murcia, 1991). Considering this, flashcards can be tailored to accommodate various subjects and learning objectives, from vocabulary building to math facts. Their adaptability makes them a versatile tool for teachers across different disciplines.

Lastly, students can progress at their own pace when using flashcards, allowing for differentiation and personalized instruction. This individualized approach accommodates diverse learning styles and abilities within the classroom.

Best practices for using flashcards:

Clear and Concise Content: Ensure that flashcards convey information succinctly, avoiding clutter or excessive detail. Clear, well-defined concepts facilitate comprehension and reduce cognitive overload.

Interactive Activities: Incorporate interactive activities, such as games or quizzes, to make flashcard practice engaging and enjoyable. Encourage peer collaboration to promote a collaborative learning environment.

Regular Review Sessions: Schedule regular review sessions to revisit previously learned material and reinforce retention. Spaced repetition algorithms can guide the frequency of review sessions, optimizing long-term memory consolidation.

Feedback and Assessment: Provide timely feedback on students' progress with flashcards to identify areas for improvement and celebrate achievements. Use formative assessments to gauge comprehension and adjust instruction accordingly.

Integration with Curriculum: Integrate flashcards seamlessly into the curriculum, aligning them with learning objectives and instructional strategies. Incorporate them into lesson plans to enhance classroom instruction and support learning outcomes.

DISCUSSION AND RESULTS

Potential Pitfalls to Avoid:


Overreliance: While flashcards are a valuable tool, overreliance on them may lead to rote memorization without deep understanding. Supplement flashcard drills with interactive activities and real-world applications to promote critical thinking skills.


Monotonous Presentation: Avoid monotony by incorporating variety into flashcard activities, such as multimedia resources or hands-on manipulatives. Diverse instructional approaches cater to different learning preferences and maintain student engagement.


Lack of Differentiation: Ensure that flashcard activities accommodate the diverse needs of students, including those with learning disabilities or English language learners. Provide additional support or modifications as needed to promote inclusive learning environments.


Here is one example of some colorful flashcards that is able to use in the class:

Guess the names of seasons and write.









These types of flashcards as a medium to better master the vocabulary, in some studies, it has been found that children who use flash vocabulary cards, both for words and phrases, have a significantly higher understanding. Level of understanding with new words as well as reading. This shows that the concept of vocabulary training is a kind of effective tool for children who apply new words with vocabulary and communication. In broader educational settings, flashcards have proven to be an effective method for children learning information and new words (Kornell, 2009 & Nation, 2011).

CONCLUSION

In conclusion, the effectiveness of flashcards in primary education lies in their ability to engage students, reinforce learning, and accommodate individualized instruction. By harnessing the power of visual stimuli, repetition, and interactivity, flashcards serve as valuable tools for facilitating conceptual understanding and academic success in primary classes. However, it is essential to employ best practices and avoid potential pitfalls to maximize their educational impact and promote meaningful learning experiences.

References:

1 Celce-Murcia, M. (1991). Teaching English as a second or foreign language (2nd ed).Boston: Heinleand Heinle publishers.

2 Kornell, N. (2009). Optimising Learning Using Flashcards: Spacing is More Effective than Cramming. Applied Cognitive Psychology, Department of Psychology, Los Angeles: University of California.

3 Nation, I. S. P. (2010). Research into Practice: Vocabulary. Language Teaching, 44(4), 529-539. http://dx.doi.org/10.1017/S 0261444811000267Hound mills, UK: Palgrave Macmillan.

4 https://www.cipcourses.com/blog/why-your-students-should-be-using-flashcards/

Mahliyo XOLMIRZAYEVA
Toshkent davlat o‘zbek tili adabiyoti universiteti
